

7-DEKABR

2023



Toshkent davlat
transport universiteti



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google
scholar



Toshkent davlat transport
universiteti

www.tstu.uz

O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi

www.edu.uz

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

Xalqaro ommaviy huquq kafedrası

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga
bag‘ishlanadi

**«O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va
xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati»** mavzusida ilmiy maqolalar
to‘plami

(Toshkent, 2023 yil 7 dekabr)

Toshkent 2024

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyoti fakulteti O‘quv uslubiy
Kengashining 2023 yil ____ dekabrdagi ____ -sonli bayonnomasi qaroriga ko‘ra
nashrga tavsiya etildi.

Ma’sul muharir: yuridik fanlari doktori (DSc), professor A.A.Dadasheva
Tahrir hay’ati: yuridik fanlari nomzodi(PhD), dotsenti M.M.Inagamova
yuridik fanlari nomzodi(PhD), dotsenti A.A.Kasimova
yuridik fanlari nomzodi(PhD), dotsenti N.X.Egamberdieva
tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsenti N.Yu.Jo‘raev

Mazkur to‘plamda Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyoti fakulteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasidan 2023 yil 1-7 dekabr kunlari o‘tkazilgan Yangi tahrirdagi Konstitutsiya targ‘ibot kunlari hamda **“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati”** mavzusidagi ilmiy-nazariy hamda ustoz-shogird loyihani qo‘llab quvvatlash bo‘yicha ushbu to‘plam mujassamlashtirildi.

Ushbu to‘plamdagi maqolalarda Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning, muhimligi O‘zbekiston jamiyatining evolyusion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurati bo‘lib, bu ish mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadam sifatida fuqarolarimiz ongida shakllanishga asosiy turtki bo‘lishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda erishgan yutuqlarimizni, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z va e‘tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo‘shnilarimiz bilan oramizdagi “muzlar erigani” va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining konstitutsiyaviy himoyasini ta‘minlash zarur. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun, ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo‘yish talab etildi.

Mamlakatimiz har jihatdan katta davlatga aylanmoqda. Aholimiz 2040 yilga borib 50 millionga etadi, jamiyatning yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil qiladi. Ularga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozim.

Ushbu to‘plamdagi maqolalarda Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning tuzilishi, yangiliklari, yoshlar nigoxida, taxlil va qarashlari, fikr va mulohazalari bilan bog‘liq mutaxassislar va olimlar, tadqiqotchilar, magistrlar, iqtidorli talabalarning fikr-mulohazalari bayon etilgan.

To‘plam nazariyotchi olimlar, tarixshunoslar, huquqshunoslar, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar, iqtidorli talabalar va amaliyot hodimlariga mo‘ljallangan.

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARDA INSON QADRI VA HUQUQLARIGA USTUVORLIK

(*ma’ruza*)

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekiston jamiyatining evolyusion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat bo‘lib, bu ish mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadamdir.

So‘nggi yillarda erishgan yutuqlarimizni, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z va e‘tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo‘shnilarimiz bilan oramizdagi “muzlar erigani” va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining konstitutsiyaviy himoyasini ta‘minlash zarur. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun, ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo‘yish talab etildi.

Hammamiz guvohi bo‘layapmizki, dunyoda har kuni kutilmagan xavf-xatar va tahdidlar yuzaga chiqyapti. Bugungi ziddiyatli jarayonlar, iqtisodiy qarama-qarshiliklar qachon va nima bilan tugashini bashorat qilib bo‘lmaydi. Hatto, ayrim davlatlarning dunyo xaritasida qolish-qolmasligi savol ostida qolayotgani ham sir emas. Jahondagi qariyb 100 million odam o‘z hayotini saqlash uchun boshqa yurtlarda boshpana izlab yurgani, oziq-ovqat etishmasligi, energiya resurslari taqchilligi, pandemiya, ichimlik suv taxchiligi kabi global muammolar rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o‘ylantirmoqdaki, bularning bari bizga ham ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emas.

Qolaversa, mintaqamizdagi vaziyat ham bizni jiddiy tashvishga solmay qo‘ymaydi: yonginamizda qariyb 50 yillik notinchlik davom etyapti.

Hurmatli universitetimiz faollari.

E’tibor bersak, mamlakatimiz har jihatdan katta davlatga aylanmoqda. Aholimiz 2040 yilga borib 50 millionga etadi, jamiyatning yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil qiladi. Ularga munosib hayot sharoiti yaratish uchun esa barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozim.

Bular va boshqa ko‘pdan-ko‘p muammolar echimi mustahkam huquqiy poydevorni – O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini taqozo etadi.



Bir narsani alohida aytish kerakki, Konstitutsiyaning bu matni olim-u mutaxassislar tomonidan faqat kabinetlarda yaratilmadi. Balki, dastavval ikki bosqichda xalqimizning fikri, takliflari o‘rganildi, shundan so‘nggina Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Avvallari esa Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo‘yilardi.

- birinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasini shakllantirish uchun fuqarolarimiz 60 mingdan ziyod taklif berishdi. Ularning taxminan har to‘rttasidan bittasi loyihadan joy oldi;

- ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmoqlari orqali loyiha bilan 5 million aholi tanishib, 150 mingdan ortiq taklif va mulohazalar aytildi.

Shu bilan birga, mehnat jamoalari, oliygohlar, mahalla faollari va ziyolilar bilan bo‘lib o‘tgan muhokamalarda ham yana qariyb 10 mingta qo‘shimcha taklif kelib tushdi. Xalqaro-huquqiy hujjatlar va 190 dan ortiq davlatlar tajribasi o‘rganildi, loyiha 6 turdagi ekspertizadan o‘tkazildi.

Bularning hammasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini inobatga olingani, Yangi O‘zbekistonni qurish g‘oyasi atrofida butun jamiyat jipslashgani, Bosh Qomusimiz tom ma’noda xalq Konstitutsiyasi bo‘layotganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi.

Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi

Tariximizda ilk bora O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilanmoqda. Ya’ni, insonga e’tibor hamda g‘amxo‘rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlanayapti.

Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi.

Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Ma’lumot uchun: o‘tgan yili mamlakatimizda 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratib berilgan bo‘lsa,



bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda esa bu raqamni 200 mingga etkazish ustida ishlanmoqda.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta‘minlanishi kafolatlandi.

Aholi kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi ham kiritildi. Umuman, aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar ko‘paytirildi. Bu aholi sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza etish hamda onalar va bolalar o‘limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Ma‘lumot uchun: joriy yilda “Kafolatlangan xizmatlar paketi” qayta ko‘rib chiqilib, unda 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to‘liq qamrab olinadi.

Ko‘p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha birlamchi bo‘g‘indagi bepul analiz turlari – 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar – 10 tadan 20 tagacha, dorilar – 64 tadan 90 taga oshiriladi.

Ta‘lim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ladi

Ijtimoiy davlatga xos yondashuvlar ta‘lim sohasiga oid ko‘plab modda va normalarda ham o‘z ifodasini topdi. Ta‘lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi.

Jumladan, fuqarolarning oliy ta‘lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat‘iy belgilab qo‘yildi.

Ma‘lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017 yilgacha oliygohlarda o‘qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o‘zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga etdi. Magistratura uchun esa 5 baravar ko‘paydi.

Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi ham belgilandi.

Nogironligi bor bolajonlarimizga o‘z tengdoshlari bilan bir xil ta‘lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko‘zda tutildi. Shuning uchun, bunday imkoniyatlar inklyuziv ta‘lim sifatida Konstitutsiyaga kiritilindi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o'qituvchilarning professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etildi. Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jumladan, oxirgi yillarda ko'plab nodavlat oliy o'quv yurtlari ochildi, xorijiy universitetlar filiallari soni ortmoqda, 41 ta davlat oliy o'quv yurtiga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

Yana bir muhim yangilik – davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi konstitutsiyaviy mustahkamlandi. Ushbu normaning kiritilishi jamiyatimizda oila mustahkamligi va mo'tabarligini barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta'lim berish, barkamol voyaga etkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilanmoqda. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida belgilandi.

Konstitutsiyada har kimning mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi kafolatlandi. Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning ish haqlari miqdori shunchaki emas, aynan ularning munosib turmush kechirishini ta'minlashda, pirovard natijada aholi turmush darajasini yaxshilashda va mamlakatimizda ijtimoiy adolatni ustuvor qadriyatga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyamizda homiladorligi yoki bolasi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi belgilandi, bular davlatimizda gender tengligi prinsiplari to'laqonli amal qilishiga kelajakda olib kelishi tayin.

Bundan tashqari, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek,



kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi ham mustahkamlandi.

Qolaversa, davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag‘batlantirishi qayd qilindi. Bu yangi norma ish bilan ta‘minlanmagan fuqarolarni kambag‘allik holatiga tushib qolishining oldi olishga yoki kambag‘allik toifasiga kirib qolgan fuqarolarni undan chiqarish bo‘yicha davlat tomonidan tegishli choralar ko‘rilishiga konstitutsiyaviy kafolat sifatida xizmat qilishi qonuniy kafolatlandi.

Konstitutsiyada bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, ahloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilanmadi. Shukrki, bugungi O‘zbekistonda uzoq yillar yurtimizning xalqaro imidjiga salbiy ta‘sir qilib kelgan majburiy mehnatga to‘liq barham berildi.

Konstitutsiyada har kim ishsizlikda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga egaligi mustahkamlandi. Pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste‘mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilmoqda. (2025 yil 1 martdan fuqarolarga **yoshga doir pensiyalarni** «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan yoshga to‘lishi munosabati bilan **alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi** joriy etiladi)

Sanab o‘tadigan yutuqlarimiz juda ko‘p va sizga ushbu bosh qomusimizni xalqimizga targ‘ibot va tashviqot ishlaringizda etkazishda qisman o‘z hissangizni qo‘shangiz umidmanki, kelajakda oz bo‘lsa ham “inson qadri” muhim element ekanligini tushuntirishga hissa qo‘shgan bo‘lasiz.

A.A.Gulyamov

Toshkent davlat transport universiteti
o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori



YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANING YOSHLARGA VA KELAJAK AVLODGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA SODIQLIK RUHIDA TARBIYALASHGA KO‘MAKDOSH

M. N. Masharipov

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekani,
texnika fanlari doktori

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, ularni amaliyotga tatbiq etilish jarayonlarida qatnashib kelmoqdamiz. Bosh qomusimiz kuchga kirgandan so‘ng undagi normalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilinishi bu eng muhim jihatlaridan biridir. Yoshlar huquqi himoyalaniishi, yosh avlodga berilgan e‘tibor ham chetda qolmaganligi ahamiyatlidir.

Yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirish kafolatlandi.

Jumladan, davlat:

- yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirishni kafolatlandi;

- yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllanishiga g‘amxo‘rlik qilishi belgilandi.

Bundan tashqari, yoshlarning ta‘lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida kiritilindi. Davlat shu orqali o‘z zimmasiga muhim majburiyatlarni olmoqdaki, mazkur normalar, nafaqat yoshlar manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun muhimdir.

Raqobatbardosh milliy iqtisodiyot, xususiy tadbirkorlik va mulk huquqi kafolatlari mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta‘minlanishi qat‘iy belgilandi. Bu fuqarolar farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi, mulkdorlar qatlamini kengayishiga xizmat qiladi.

Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta‘minlanishi bo‘yicha qoida mustahkamlandi. Mazkur norma mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishga, investorlarning ishonchini mustahkamlashga, tadbirkorlar



huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadbirkorlarning qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanligi belgilandi. Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur qo'shimchalar erkin bozor iqtisodiyotining eng muhim talabini o'zida ifoda etib, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni asosiy mezonlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanishi mustahkamlandi. Bu hol tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishi va realizatsiya qilinishini noqonuniy cheklashni oldini olishga va mehnat resurslarining erkin harakatiga zamin yaratdi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinishi va cheklanishi mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ushbu normaning kiritilishi tovar va xizmatlar bozorining barcha ishtirokchilari uchun teng iqtisodiy-huquqiy imkoniyatlar yaratish orqali tadbirkorlar o'rtasida halol raqobatni rivojlantirishga hamda ishlab chiqarishga yangiliklarni tezkor joriy etish orqali samaradorlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyada ilk marotaba er xususiy mulk bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan. Ushbu norma yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi haqiqiy inqilobiy yangiliklardan biri sifatida mulkchilik munosabatlaridagi bo'shliqni to'ldirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqparvar davlat qurish maqsadida kuchli parlament, ixcham va mas'uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etishga e'tibor berildi.

Parlament palatalarining vakolatlari qayta ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaymoqda, ikki palata ishidagi takrorlanishlar bartaraf etilib, har birining mas'uliyat sohasi aniq belgilandi.

Xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa, 14 tadan 18 taga ko'paydi.

Hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish, Davlat byudjeti ijrosiga oid masalalar Qonunchilik palatasining vakolatiga, hududlar manfaati va ularni rivojlantirish, yangi vazirliklar tashkil qilish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash masalalari esa Senat vakolatlari doirasiga taalluqli ekanligi mustahkamlanishi shular jumlasidandir.



Senat oldiga qo‘yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish bo‘yicha normalar Konstitutsiyada ko‘zda tutildi. Xususan, senatorlar sonini hozirgi 100 nafardan 65 nafarga tushirish, bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirilishi belgilandi.

Parlamentning quyi palatasi tomonidan kiritilgan qonunlar Senatda 60 kun ichida ko‘rib chiqilishi, muddat o‘tib ketsa, ushbu qonun ma‘qullangan deb hisoblanishi va imzolash uchun Prezidentga yuborish bo‘yicha norma kiritildi.

Xulosa o‘rnida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning xalq irodasi va taklifi, tavsiyalari asnosida shakllanganligi va kelajakda ko‘p yillar davomida fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga va eng muhimi inson qadri ulug‘lanishiga, qonunustuvorligi ta‘minlanishiga o‘z kuchini ko‘rsatadi.



YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Aqida Abdujabbarovna Dadasheva

Toshkent davlat transport universiteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasini mudiri,
yu.f.d., professor
egamberdiyevanargiza975@gmail.com

R. O. Nosirov

Xalqaro ommaviy huquq kafedrasini professor v. b.

Qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash mahalliy hokimiyat organlari oldidagi eng asosiy vazifa hisoblanadi. Xalq tinchligi va farovonligi xukumatning eng yagona vazifasi sifatida e’tirof etilishi muhim. Qonunlarning ustuvorligi va inson huquq va erkinliklari hamisha muhofazada bo‘lishi islohotlar, o‘zgarishlar, yangilanishlar davrida qonunning mostligi, ustuvorligi eng muhim mezonlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini (yangi tahririda) Oltinchi bo‘lim. Konstitutsiyani o‘zgartirish tartibi bo‘limi 155-moddaning 6-moddasida aniq belgilangan vakolatlar, qoidalar, amalga kiritilgan. Konstitutsiyaviy Qonun tahriridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 120-moddasi uchinchi qismining viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi haqidagi qoidalari: viloyatlar hamda Toshkent shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan 2024 yilda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovlari yakunlari bo‘yicha; tuman hamda shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan esa 2026 yil 1 yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

Mahalliy ijro hokimiyati yuqorida sanab o‘tilgan faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga oid qonunlar va boshqa normativ huquqiy-hujjatlarning bevosita joylarda ijrosini ta’minlash bilan shug‘ullansa, shu hududdagi mahalliy vakillik organlari esa ijro hokimiyati faoliyatini nazorat qiladi, yo‘nalishlar ijrosini ta’minlashga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqadi” [1]. Lekin, davlat va jamiyat boshqaruvida, davlat organlarining kundalik faoliyatida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini kuchaytirish zarur.



Ya’ni rejada belgilangan ishlar Kengash muhokamasi, xisoboti berib borilishi kerak.

O‘zbekistonda nazorat faoliyatiga bog‘liq barcha jihatlarini ilmiy asoslanganini ko‘rishimiz mumkin, ammo nazorat faoliyatining qonunga zid jihatlarini aniq va roвшan belgilab olishimiz darkor.

Xalqaro hujjatlarda ham, ya’ni Parlamentlararo ittifoqning 98-Konferensiyasida qabul qilingan Demokratiya masalalari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasining (Qohira, 1997 yil 7-16 sentyabr) 11-bandida qayd etilganidek: “Demokratiya har bir shaxsning ommaviy ishlarni boshqarishdagi ishtirokiga asoslanadi. Shu sababli demokratiya barcha darajada vakillik organlarining tashkil etilishini talab etadi”[2]. Lekin ularning faoliyatini jonlantirish va o‘z vakolatlaridan to‘laonli foydalanish masalasi hali muammo. Ushbu muammoda echim shaffoflik, ochiq olib borilmaganligi. Kelajakda ushbu nazariya amaliyotda ishlab borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan yuqoridagi norma Kengash faoliyatida vakillik organlarning xukumat oldida nazoratchi sifatida maydonga chiqishi “inson-jamiat-davlat” tamoyili amalda qo‘llanilishi muhimdir.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari sud hokimiyati organlari, prokuratura, nazorat inspeksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro hamkorlikda ish olib bormoqda, nazoratchi va xisobdorlik sifatida.

Demak, mahalliy davlat boshqaruvi - davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar mexanizmining muhim “ichki” element bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va unga shakllantirishga asosiy omillaridan biri bo‘lib, aholining ijodiy faol, fuqarolik salohiyatini amalga oshirish uchun oqilona tuzilgan tizim orqali barcha zarur vositalar va jamiyat ustidan davlatning maqsadli ta’sirini va nazoratini ta’minlaydi, degan xulosaga kelishimiz o‘rinli.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlarini amalga oshirishda mazkur organlar bilan bir xil munosabatda faoliyat ko‘rsatadi hamda, asosan, ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi.

Hokimlar o‘z hududida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun tegishli xalq deputatlari Kengashiga kiritadi. Mahalliy hududni rivojlantirish borasidagi ishlarga hokim rahbarlik qiladi. Shu bilan birgalikda, mahalliy hokimiyat organlari o‘z hududida sanoat, qurilish, aloqa vositalari, qishloq xo‘jalik sohalari, ijtimoiy va madaniy sohalariga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi. Shu idoralarning rahbarlarini lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod



qilish, ularning faoliyatini nazorat qilish, tegishli rahbarlarning hisobotlarini eshitish kabi vakolatlarga ega.

Hokimlar tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirish borasida bir qancha takliflar keltirilmoqda. Masalan, ushbu ijtimoiy, iqtisodiy xizmatlarni har bir mintaqadagi vaziyatdan kelib chiqqan holda, muayyan yo‘naltirilgan holatda hamda ko‘pincha noto‘g‘ri, o‘z vaqtida qabul qilinmagan qororlarning sababi bo‘ladi, lekin ular uchun oxir oqibat hech kim mas‘ul bo‘lmaydi. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining bo‘linishi nuqtai nazaridan hozirgi vaqtda bir xillashtirilgan viloyat va tuman hokimiyatlarining tashkiliy tuzilmasi oqilona ko‘rinmaydi. “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari to‘g‘risida”gi Qonunda turli darajadagi hokimiyatlar o‘rtasidagi mas‘uliyat sohalarining bo‘linishi o‘z aksini topmadi, bu esa ijroiya hokimiyatining turli darajalarida “kim nima uchun javob beradi?” tushunchasining mavhumlashishiga olib keladi. Barcha darajadagi ijroiya hokimiyati organlari tomonidan davlat qororlarini ko‘rib chiqish va qabul qilish amallari borasida aniq me‘yoriy hujjatlar yo‘q. Bu qaror qabul qilishda byurokratlashuv uchun keng imkoniyat yaratadi. Natijada, noaniqlik (tabiatan yagona rahbarlikni talab etuvchi), bo‘linmalar o‘rtasidagi boshqaruv vazifalarining taqsimlanishi; rahbarning rahbarlik vazifalari bilan ortiqcha yuklanishi yoki deyarli yuklanmasligi, hokimiyat xodimlari zimmasiga unga xos bo‘lmagan vazifalarning yuklanishi, oqibatida xizmatchilar o‘zining bevosita vazifalarini tegishli ravishda bajarish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Bu asosda mahalliy davlat hokimiyat organlari ishida noaniqliklar, noma‘lumlik va ishlashda qaytalanishning sababiga aylanmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohani rivojlantirishga rahbarlik qilish bo‘yicha aniq vazifalari va vakolatlari joriy qonunlarda va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan. Fikrimizga xulosa yasasak, mahalliy hokimiyat organlari o‘zlarining butun faoliyatini davlat hamda fuqarolarning manfaatini ko‘zlab olib boradi va natijada, davlat manfaati bilan fuqarolarning manfaati o‘rtasidagi mushtaraklik vujudga keladi.

Ushbu harakatlarda jamoatchilik Kengashlari asosiy bog‘lovchi zanjir sifatida harakatga kirishi 2018 yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3]gi PQ-3837 Qarorini amaliyotda chiqargan xulosa va takliflari tavsiyaviy harakatga ega emasdan, asoslantirilgan, aniqlik kiritilgan holda va to‘liq xulosaviy qarorlarning berilishi muhimdir.



Vatanimizda islohot qilinayotgan siyosiy tizimda paydo bo‘layotgan yangilanishlar, taraqqiyot bilan bir qatorda, ko‘nikib qolingan ijtimoiy tuzilmalar ham bemalol amal qilmoqda. Ushbu ko‘nikib qolingan ijtimoiy tuzilmalarga barham berish uchun uni to‘ldiradigan, uning g‘oyasini to‘liq qamrab oladigan, o‘rnini bosadigan ta’limotlar yuzaga kelsa, o‘rganib qolingan ko‘nikmalarning ahamiyati sustlashadi va ular ijobiy baholamaydi, balki qiyoslash va tahlil qilish, ya’ni kamchiliklar hamda muammolarni aniqlashga unga javob izlashga fikrlay oladi.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar uchun inson huquqlari sohasida hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazorat muhim funksiya hisoblanadi. Bu funksiyaga axborotni yig‘ish, baholash, bu sohada inson huquqlariga rioya qilinishi to‘g‘risidagi axborotlarni tarqatish, hokimiyatga ta’sir etishning konstitutsiyaviy shakllarining amalga oshirilishi kabilar kiradi.

Huquqni himoya qiluvchi nohukumat tashkilotlar o‘zlarining asosiy belgilangan vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda hukumat faoliyatini monitoring qilish va davlatning inson huquqlari sohasidagi siyosatini ham milliy qonunchilikka, ham xalqaro shartnomalarda o‘z ifodasini topgan standartlarga muvofiq kelishiga harakat qiladilar[4]. Ular huquqni himoya qiluvchi nohukumat tashkilotlarni “namunaviy”, “eksklyuziv” (yagona va birinchilardan) va oddiy larga ajratadilar.

Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetini shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘inlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish vazifasi hududning iqtisodiy rivojlanishida, fuqarolarning turmush sharoitini yaxshilashda, davlat organlarini saqlab turishda zarur moddiy bazani vujudga keltirishga qaratilgan.

Mahalliy hokimiyat organlari o‘z hududida ijtimoiy xayotning barcha sohalariga tegishli masalalarni davlat va aholi manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mahalliy vakillik va ijro organlari vakolatlarini umumiy holda belgilab oladigan bo‘lsak, «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunda hokimlar va xalq deputatlari kengashlarining vakolatlari alohida bo‘limlarda belgilangan. Bular, birinchidan, hokimlar byudjet loyihalarini tayyorlash, byudjetning ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va ijroni tashkil qilish vazifalaridan iborat. Ikkinchidan, xalq deputatlarining byudjetini tasdiqlash, uning ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash vakolatlarini bajaradi”.

Mahalliy hokimiyatning vakillik va ijroiya organlari birgalikda amalga oshiradigan vakolatlari guruhi ham mavjud



bo‘lib, jumladan, byudjetning ijrosini nazorat qilish, mahalliy xo‘jalikka rahbarlik qilish va boshqalar shular jumlasidan.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, mahalliy soliqlar, yig‘imlar, boj miqdorini belgilash, to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar o‘rnatish-mahalliy vakillik organlarining vakolati bo‘lib, ular ba‘zi paytlarda shu vakolatlarning ayrimlarini, masalan, soliq va yig‘imlar bo‘yicha imtiyozlar belgilashni hokimlarga ham berishi mumkin. Mahalliy hokimiyat organlarining bu boradagi vakolatlari “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi, “Er kodeksi”da va boshqa huquqiy xujjatlarda belgilangan.

Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qiladi va aholining normal sharoitda yashashini ta‘minlaydi.

Ya.Ollamovning fikricha, “mahalliy vakillik va ijroiya organlari mahalliy hokimiyat tizimining tarkibiy qismi sifatida mahalliy hokimiyat organlarini aholining turli qatlamlari bilan bog‘lab turuvchi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadilar, fuqarolarga o‘zini o‘zi boshqarishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashadilar, ko‘plab ommaviy tashabbuskor tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib va yo‘naltirib turadilar”[5].

Tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ularning vazifalari hamda vakolatlarini belgilovchi normalarga ega qonunlar 80 dan oshdi. Qonun osti hujjatlarida hokimlarga tegishli vakolatlarning bajarilishi va ta‘minlanishi, vazifalarining mas‘ullarga biriktirilgani ushbu qarorlarning ko‘pligi, bir-birini to‘ldiruvchi, ba‘zi joylarda nomuvofiqligi yoki qarama-qarshilik holatlari qaytarilishini ko‘rishimiz mumkin.

Hududiy infratuzilmalarni rivojlantirishda yoki ularning ma‘muriy-hududiy tuzilmalarini muhofaza qilishda mahalliy ijro organlari va hokimlar faoliyatida er kadastr va geodeziya kartasining aniq xaritasi, chegaralar, er usti va er osti xududida joylashtirilgan qurilmalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning to‘liq bazasi ko‘rsatilmagani yoki davomiy ravishda aniq belgilangan mutaxassislar jalb qilinmagani eng katta muammolardan biridir. Yer kodesining 5-moddasida, Viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining er munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari. 6-modda. Tumanlar davlat hokimiyati organlarining er munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari 3 xat boshiga, O‘z hududidiga qarashli barcha erlar, er

kadastr, reesterlari, er uchastkalariga bo'lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishini tashkil etish, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining davlat er kadastrini yuritish sohasidagi barcha ma'lumotlarni elektron xukumatga joylashtirish (korrupsiyani oldini olishga katta ko'mak beradi) va uning shafoligi va ochiqligini ta'minlash zarur, ya'ni raqamli elektron dasturga kiritish lozim.

Ushbu masala, ya'ni ma'muriy-hududiy cheralarning aniqligi va doimiy muammolarga aniqlik kiritib borilishi, ushbu bazaga ko'p murojatlar qilinishi, talabga har doim javob berib borilishi muhimdir.

Ko'rinib turganidek, mahalliy hokimiyat organlarining faoliyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli izchil va tizimli islohotlarni joylarda ro'yobga chiqarish va saylovchilarning ushbu islohotlar mazmun-mohiyatidai, natijalaridan xabardor etish, mahalliy ahamiyatdagi masalalarni hal etish, aholining turmush darajasini yaxshilash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Shu tariqa mahalliy davlat hokimiyati har ikki tarmog'i faoliyatini yagona maqsad sari yo'naltiradi, ya'ni hududlarni rivojlantirishga doir ijtimoiy- iqtisodiy, sotsial-madaniy masalalarni hal etib, manfaatlar muvozanatini ta'minlaydi. Jamoatchilik faoliyatining faol ishtirokchisi sifatida qonunning amaliyotda ishlab ketishini ta'minlaydi.

Professor I.Hamedovning fikricha: "mahalliy ijro hokimiyati organlari zimmasiga tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish majburiyati yuklatilgan"[6], ushbu majburiyatini aynan ko'p qismi mas'uliyat va vatanparvarlik, vakolat va vazifalari asnosida kafolatlab qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Bu har xil tushuncha va turli xil yondashuv.

Birinchi toifaga, faqat inson huquqlari uchun kurashish maqsadida tuziladigan, ikkinchisiga, inson huquqlarini himoya qilish bilan birga, yana boshqa maqsadni ko'zlaydigan nohukumat tashkilotlar kiradi.

Tarix shundan guvohlik beradiki, inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlik tizimining shakllanishi va rivojlanishi nohukumat tashkilotlarning faol ishtirokida amalga oshmokda. 1945 yilda San - Fransisko shahrida BMTning tashkil etilishi masalasida ikki yuzta nohukumat tashkilotlar muzokaralarda ishtirok etdilar. Shuningdek, BMTning Ustaviga keng jamoatchilikning bosimi bilan yanada demokratik normalar kiritilgan edi. BMTning inson huquqlari bo'yicha komissiyasining bayonnomasida quyidagilar qayd qilingan: «BMT Ustavi qoidalari, xususan, uning 68-moddasi nohukumat tashkilotlari qat'iy talabining natijasi sifatida paydo bo'ldi»[7]. Bu moddada «Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash iqtisodiy va ijtimoiy sohalar



hamda inson huquqlarini rag‘batlantirish bo‘yicha komissiyalar tuzadi, shuningdek, o‘zining vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘ladigan boshqa komissiyalarni tuzadi»[8], - deb belgilangan. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasini yozishda 30 dan ortiq noxukumat tashkilotlari qatnashdi. Nohukumat tashkilotlarining ko‘pchiligi bevosita inson huquqlari bo‘yicha Komissiyasi bilan hamkorlik qiladi. Komissiya BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan inson huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Billni, xususan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalkaro paktlarni tayyorlash topshirilgan edi. Huquqni himoya qiluvchi hujjatlarning ishlab chiqilishi ko‘plab nohukumat tashkilotlari tashkil etilishiga sabab bo‘ldi.

Xalqaro normalarni ishlab chiqish jarayoni, an‘anaviy davlat vakolati sohasiga kirgan va unda nohukumat tashkilotlar ishtirokini inkor etgan qoidalar hozirgi davrga kelib qarama-qarshi tomonga o‘zgardi. Inson huquqlari himoyasi sohasida xalqaro vositalarni ishlab chiqishda (ham milliy, ham xalqaro miqyosida) nohukumat tashkilotlarning ishtiroki aynan uning dastlabki davrida allaqachon xalqaro-huquqiy jarayonning ajralmas qismiga aylandi. “BMT doirasida inson huquqlari bo‘yicha asosiy vosita-larni tayyorlashda nohukumat tashkilotlar hissasi hisobga olinishini anglamaslik mumkin emas”[9].

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari atrof muhitni muhofaza qilish funksiyasini bajaradi. Zero, mazkur masala davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biri, Jamoatchilik tomonidan hozirgi kunda OAV da faol muhokama qilinayotgan mavzudir.

Yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq, Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning bekor qilinishi, ushbu moddaning 1-4-bandida berilmagan, 4-band asnosida erga egalik qilish va undan foydalanishni bekor qilish yuzasidan jamoatchilik ekspertizasi, ya’ni normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o‘rganish hamda baholashdan iborat. Jamoatchilik ekspertizasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holda o‘tkazilishi mumkin.

Atrof muhitni muhofaza qilish faoliyati yuzasida mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari, vazifalari qo‘shimcha ravishda tegishli joriy qonunlar “Er kodeksi”, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, shu bilan bir qatorda, Konstitutsiyaviy normalarga asoslangan



holda o‘z hududida fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolati doirasida Konstitutsiyaga zid bo‘lmagan normativ-huquqiy hujjatlarni qaror va farmoyish shaklida qabul qiladi. Mahalliy Kengashlar o‘z qarorlarini kollegial asosda qabul qilsa, hokimlar yakkaboshchilik asosida qabul qiladi hamda ushbu qarorning shu hududda bajarilishi majburiydir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga binoan Mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyatining bo‘linishi mamlakatda butun davlat boshqaruvi tizimini chuqur isloh qilish uchun asos bo‘ladi. Shu asosda, mahalliy Kengash raisi bilan hokim lavozimini bir-biridan ajratish amalga oshiriladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Yer yuzida hayotning davom etishi, insonlar sog‘lom o‘sishi, sog‘lom avlodlar qoldirishi, ko‘p jihatdan atrof muhitga bog‘liq. Shuning uchun, atrof muhitni muhofaza qilish davlat funksiyalaridan hisoblanadi va shu funktsiyaning ma’lum qismi mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklangan. Mahalliy hokimiyat organlari atrof muhitni muhofaza qilish borasida tegishli huquqiy normalarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan choralar ko‘radi. Masalan, ular atrof muhitga zarar etkazayotgan mahalliy ahamiyatga ega ob’ektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to‘xtatish va qayta ixtisoslashtirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilishi mumkin. Buning uchun hokimiyatda ish yuritayotgan yurist yaxshi mutaxassis sifatida qonun osti hujjatlari qabul qilinishida ularning qonunga zid, nomuvofiq yoki qarama-qarshi emasligini tekshirishi darkor. Shu bilan birga, ijro etuvchi hokimiyat faoliyati bo‘yicha OAV ga matbuot xizmati hisobotida bayonot berilishi darkor.

Rivojlanishning tez ko‘rinishi sifatga qisman ta’sir etadi, bu masalalarda ma’lumotlarni ko‘rib chiqish, tahlil qilish, statistikaga e’tibor berib analiz qilish, ularni puxta o‘rganishga olib keladi. Zero, xukumat to‘g‘ri qaror qabul qilsa va uni amalga oshirsa fuqarolar bundan minnatdor.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xalqimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. 2023 yil 30 aprelda bo‘lib o‘tgan Referendum bunga misol, unda qatnashgan fuqarolarning faolligi bunga dalil. Bu o‘zgarishlar xalqimizning ijtimoiy turmushida, hayotda o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o‘sib bormoqda. O‘zbekiston 2030 strategiyasining maqsad va vazifalari ham bunga misol.

REFERENCES

1. Maxmudov.A «O‘zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish» yu.f.n (**PhD**) Avtoreferat. 2019.
2. Universal Declaration on Democracy // Results. 98 th Conference and related meetings of the Inter-Parliamentary Union (Cairo, 7-16 September 1997). Annex VII. <http://www.ipu.org>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3837 qarori. 2019 yil 4 iyun.
4. Ollamov Ya.Y.O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat tizimi (nazariy-huquqiy muammolar). Yurid.fan .nomz...dis. avtoreferati. T.: 2001. - B. 15.
5. Хамедов И.А. Организационно-правовые проблемы совершенствования системы государственного управления: диссертация...доктора юрид.наук. -Т., 2004. – С. 123.
6. Robinson J. Human Rights and Fundamental inthe Charter of the United Nations. New York. 1946. P. 17.
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotning Nizomi va Xalqaro Sud Statuti. -Т., 2002. -Б. 36.
8. Ermacora F. Non governmental organizations as promotes ofhuman rights. London. 1988. -P. 175.
9. Dadasheva A.A PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN - The American Journal of Interdisciplinary Innovations ..., 2022
10. Дадашева А.А - Взаимодействие органов представительной власти на местах и самоуправления граждан в осуществлении действенного общественного контроля. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 2021
11. Dadasheva A.A - Mahalliy ijro hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini natijadorligini oshirishning ilmiy-nazariy echimlari. Jurnal pravovyx issledovaniy, 2020
12. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
13. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
14. Dadasheva A.A. Pravo svobodno poluchat i rasprostranyat informatsiyu–vajnyy faktor neposredstvennogo obshchestvennogo



kontrol'ya nad deyatelnostyu organov gosudarstvennoy vlasti i upravleniya -
Academic research in educational sciences, 2022

15. Dadasheva A.A. Yangi O‘zbekistonda mahalliy ijro organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati. - Falsafa va huquq jurnali, 2022

16. Dadasheva A.A. Mahalliy ijroiya organlari faoliyati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. Yangi kitob . Toshkent 2020 й. 348 б.

17. Dadasheva A.A. Mahalliy davlat boshqaruv organlarining salohiyatini mustahkamlash. O‘zbekiston Respublikasi Prokuratura Axborotnomasi. Toshkent 2017. B-35-37.

18. Dadasheva A.A. O‘zbekistonda mahalliy ijro hokimiyati organlarining davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi o‘rni. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. №11. Toshkent. 2019. B-41-51

19. Dadasheva A.A. O‘zbekistonda mahalliy ijro hokimiyati faoliyati ustidan jamaotchilik nazoratini amalga oshirish masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi. Jamiyat va boshqaruvi. Toshkent. № 1 (87). 2020. B-52-58

20. Dadasheva.A.A Comparative and legal analysis of effective mechanisms of public oversight over the activities of hakims on the example of foreign experiences. European Journal of Business and Social Sciences. (EJBSS), Vol-07, Issue-10 July 2019 ISSN: 2235-767X. B-147-154.

21. Dadasheva A.A.The formation of the theory of social control in the Republic of Uzbekistan; state and legal aspects. International Journal for Social Studies. Vol-06, Issue-01 January 2020 ISSN: 2455-3220. Impact Factor 5.20. B-48-52.

22. Dadasheva A.A. Hokimiyat organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berishi jamoatchilik nazorati shakli sifatida. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. Toshkent. № 2(90). 2020 yil. B-69-71.

23. Dadasheva A.A. Fuqarolik jamiyatining shakllanishida davlatning o‘rni. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘ZMU Xabarlari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 20 yilligiga bag‘ishlanadi. 2012. B-17-20.

24. NX Egamberdieva, XE Egamberdieva.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASHiTIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.

25. Касимова А. А Рол женщины в современной науке. Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VORISLIK HUQUQI SUB'EKTLARI

Nargiza Xalimbaevna Egamberdieva

Toshkent davlat transport universiteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasida
dos v.b.

Soliev Dilshod

“Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasida katta o'qituvchisi
yoldoshev@inbox.ru

Merosxo'r bo'lish bu so'z qanchalik jozibador bo'lmasin, uni taqsimlashda va qabul qilishda o'ziga yarasha tartibi va talablari mavjud. Inson umri chegaralanganligi bois, umr mobaynida orttirgan mol-mulking taqdiri uning merosxo'rlarini befarq qoldirmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har kim mulkdor bo'lishligi va uning huquqiy kafolati belgilangan, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 182-moddasiga muvofiq, meros mulk huquqining vujudga kelish asoslaridan biri hisoblanishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining V bobi Vorislik huquqiga bag'ishlangan. Vorislik huquqi meros bilan bog'liq ekan, meros tarkibini, merosxo'rlar doirasini aniqlash, uni merosxo'rlar o'rtasida to'g'ri taqsimlash notarius, sudlar uchun alohida vakolatni beradi.

Mavzuning dolzarbligi, meros ishlari bo'yicha ko'p tushuntirishlar, izohlar berib borilishi ushbu masala doim e'tiborda ekanligini anglatadi. Meros munosabatlari yuqori darajadagi himoyani talab etadi. Zero, merosxo'rlarga nafaqat mulkiy, balki nomulkiy huquqlar ham o'tadi. Vorislik huquqi fuqarolik huquqining alohida o'ziga xos bo'limi sifatida vujudga kelayotgan vaziyat va belgilar sabab bo'lmoqda.

Avlodlar o'rtasidagi rishtalar, merosning avloddan-avlodga topshirilishi nafaqat huquqiy asoslarga, balki urf-odat va an'analarga, inson ruhiyatiga ham bog'liqdir. Shu sabab meros jarayonini aniq tartibga keltirish muhim hisoblanadi.

Huquqiy munosabatlarning sub'ektiv sostavi alohida o'rinni egallar ekan, ularning huquqiy maqomi ham aniq belgilanishi kerak. Merosda ishtirok etuvchilarning doirasini aniqlab olish, ularning ishtirokini ta'minlash meros huquqiy munosabatlarini to'g'ri talqin etilishida muhim o'rin tutadi. Birgina merosxo'rlar doirasini hamda maqomini belgilash doim muhokamalarga sabab bo'lib kelgan.

O‘zR FKsining 1118-moddasida meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar, shuningdek meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin. Meros ochilgan paytda tuzilib bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek davlat va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari **vasiyat** bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin.

Islom ensiklopediyasida meros (irs, virasa, virs, tarika, turas) – mol mulk, huquq va majburiyatlar egasi vafot etishi bilan ularning boshqa shaxs ixtiyoriga o‘tishligi belgilangan. Merosxo‘rlar o‘rtasida qolgan mulkning kamida uchdan ikki qismi taqsimlanadi, vasiyat bo‘yicha esa, ko‘pi bilan uchdan biridan mahrum etish mumkin. Marhumning meros olish huquqiga ega bo‘lgan qarindoshlari uch toifaga bo‘linadi: a) 1 darajadagi eng yaqin qarindoshlar: ota onasi, xotinlari, farzandlari; b) 2 darajadagi qarindoshlar: bobolar va buvilar, aka-uka va opa-singillar, nabiralar; v) 3 darajadagi qarindoshlar: amaki, tog‘a va amma xolalar, amnavacha, amakivachcha, xolavachchalar. Bunda qondosh va o‘gay qarindoshlar o‘zaro teng huquqqa ega, boqib olingan bolalar qondoshlar bilan teng deb belgilangan[1].

Meros qoldiruvchi bo‘lib vafot etgan har qanday fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilingan fuqarolar bo‘lishi mumkin. Oldinma ketin, ya‘ni bir sutka ichida merosxo‘rlardan biri vafot etsa, bir vaqtda vafot etgan deb topiladi. Meros ularning har biridan keyin ochiladi va ulardan har birining merosxo‘rlari vorislikka chaqiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1116 -moddasi)[2]. Yuridik shaxslar meros qoldiruvchi bo‘la olmaydi. Ular faqat qayta tashkil topganda, qo‘shib yuborilganda mol-mulki, huquq va majburiyatlari yangi tashkil topgan yuridik shaxsga o‘tadi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 50-moddasi). Biroq merosni oluvchi sifatida yuridik shaxslar fuqarolar qatorida turadilar. Merosxo‘rlar tarkibi quyidagicha:

fuqarolar - yuqorida keltirilganlar qatoriga meros qoldiruvchining hayot chog‘ida homila bo‘lgan va keyin tirik tug‘ilganlar. Rim huquqida ular “nassituruslar” (lot. nasciturus ona qornidagi homila) deb atalgan. Fuqarolarning muomala layoqatining doirasi merosni qabul qilishiga ta’sir etmaydi[3]. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 60-moddasida, ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o‘limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so‘ng uch yuz kun ichida tug‘ilgan bolasi nikohda tug‘ilgan bola hisoblanadi. Agar nikoh tugaganidan so‘ng 300 kun ichida bola tug‘ilsa va bu davrda ayol



yangi nikohga kirgan bo‘lsa, bola yangi nikohga kirgan bo‘lsa, bola yangi nikohda tug‘ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega. Vorislik huquqida tug‘ilmagan chaqaloqni merosxo‘r sifatida tan olinishi, bu vorislik huquqiy munosabatlarning alohida o‘ziga xos jihatidir. Chunki tug‘ilmasidan (keyin tirik tug‘ilsa, albatta) huquqiy himoyasi qonun bilan kafolatlanmoqda. Xulosa qilib aytganda, fuqaroning tirikligi ya‘ni moddiy mavjudligi muayyan huquqlarni vujudga kelishida yoxud davom etishida muhim o‘rinni tutmaydi. Huquq layoqatining mavjudligini shaxsning huquq va manfaatlarining qonuniy himoyasi bilan aralastirmaslik kerak. Qonuniy huquq va manfaatlarining himoyasi shaxsning moddiy jihatdan bor-yo‘qligi (vafot etganligi yoki hali tug‘ilmaganligi) ga qaramay taqdim etiladi. Shunga o‘xshash normalar Shvesiya, Belgiya, Vengriya, Niderlandiya, Ruminiya qonunchiligida qayd etilgan. Germaniya qonunchiligi bo‘yicha meros ochilguniga qadar tug‘ilmagan chaqaloq (homila bo‘lgan) meros ochilgan paytda tug‘ilgan deb e‘tirof etiladi (Germaniya Fuqarolik Tuzuklari 1923-modda). Mazkur fuqarolar tug‘ilgan va huquq layoqatiga ega fuqarolarga tenglashtiriladi deb hisoblanadi[4].

So‘nggi paytlarda YeKO (sun‘iy urug‘lantirish yordamida homilador bo‘lish) natijasida tug‘ilgan chaqaloqlarning (meros qoldiruvchining vafotidan so‘ng YeKO qilinganlar) merosxo‘r bo‘lish masalasi ham ayrim maqolalarda uchrab turibdi. Qonun bu masalada aniq bir to‘xtamga kelgan, ya‘ni meros qoldiruvchining tiriklik chog‘ida homila bo‘lib, vafot etgandan so‘ng tirik tug‘ilganlar merosxo‘r bo‘lishlari mumkin[5].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 28-moddasida, 16 yoshga to‘lgan biroq, voyaga etmagan shaxs mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan yoki ota-onasining, farzandlikka oluvchilarning roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u to‘la muomala layoqatiga ega bo‘ladi (emansipatsiya). Ular topgan daromadlari yuzasidan mustaqil tarzda foydalanishlari va tasarruf etishlari mumkin. Shunday ekan, o‘zlariga tegishli bo‘lgan mol-mulkni keyingi taqdirini belgilash huquqiga ega, ya‘ni vasiyatnoma rasmiylashtirishi mumkin. Muomala layoqatiga ega bo‘lib turgan paytda vasiyatnoma qoldirgan bo‘lsa, keyinchalik muomalaga layoqatsiz deb topilsa ham, vasiyatnoma o‘z kuchida qoladi[6].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 16-moddasida, uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, voyaga etmagan shaxsning to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga



ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin. Nikoh yoshi 18 deb belgilangan paytda, 17 yoshda ham uzrli sabablarga ko'ra nikohga kirishishlari mumkin. Demak, ular ham to'la muomala layoqatiga ega bo'ladilar.

E'tiborli jihatlardan yana biri umumiy birgalikdagi mulkni er-xotin birgalikda vasiyatnoma tuzishlari mumkinligini Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 1118-moddasida ko'rishimiz mumkin. Mazkur moddada er-xotin birgalikdagi mulkni vasiyat bo'yicha qoldirishlari mumkinligi, vasiyatnomani tuzish, unga o'zgartirish kiritish, bekor qilish tartiblari keltirib o'tilgan. Bizning O'zR FK si 1120-moddasida vasiyatnoma faqat bir kishi tomonidan tuzilishi mumkinligi belgilangan. Nazarimizda, buning afzallik tarafi er-xotin bir vaqtning o'zida vafot etsa (baxtsiz hodisa tufayli) qolgan merosning taqdiri hal oldindan hal etilgan bo'ladi. Agar ikkalasidan biri avval vafot etsa, ulushni ajratib olish va uni taqsimlash kabi huquqiy harakatlar sodir etilmaydi. Bunday normaning amaliyotda qanchalik darajada o'z samarasini berishligini albatta vaqt belgilaydi[7].

yuridik shaxslar – O'zR FKsining 1118-moddasiga muvofiq, meros ochilgan paytda tuzilib bo'lgan yuridik shaxslar vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin.

davlat va o'zini o'zi boshqarish organlari – 1118-moddasining davomida davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkinligi qayd etilgan. Shuningdek, mazkur kodeksning 1157-moddasida qonun bo'yicha ham vasiyatnoma bo'yicha ham merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo'lsa, meros mol mulk egasiz deb topiladi. Oqibatda meros ochilgan joydagi mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining arizasiga binoan meros ochilgan kundan e'tiboran uch yil o'tganidan so'ng sudning qarori asosida egasiz deb topiladi. Meros mol mulk, agar uni qo'riqlash va boshqarish bilan bog'liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketsa, ko'rsatilgan muddat o'tishidan oldin egasiz deb topiladi. Egasiz mol mulk u turgan joydagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga o'tadi, agar voz kechsa davlat ixtiyoriga o'tadi. Biroq, chet el davlat va yuridik shaxslari merosxo'r bo'lish yoxud bo'lmasliklari borasida qonunda aniq bir ko'rsatmalar mavjud emas. Xulosa o'rnida, merosxo'rlar merosni qoldirishda va olishda avvalam bor qonun va vasiyatnoma bo'yicha huquqlari nimadan iborat ekanligiga e'tibor qaratishlari lozim.

REFERENCES

1. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
2. Касимова А.А [Роль женщины в современной науке](#). Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234/
3. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
4. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
5. Дадашева А.А. Право свободно получают и распространяют информацию – важный фактор непосредственного общественного контроля над деятельностью органов государственной власти и управления - Academic research in educational sciences, 2022
6. Dadasheva A.A PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN - The American Journal of Interdisciplinary Innovations ..., 2022
7. Дадашева А.А - Взаимодействие органов представительной власти на местах и самоуправления граждан в осуществлении действенного общественного контроля. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 2021
8. Dadasheva A.A - Mahalliy ijro hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini natijadorligini oshirishning ilmiy-nazariy echimlari. Журнал правовых исследований, 2020
9. Egamberdieva N.X Voyaga etmagan shaxsning hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zararlarni qoplashning ayrim masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining AXBOROTNOMASI. 2014/
10. Inagamova. M.M. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
11. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZ KAFOLATI

Baxtiyor Ergashevich Yuldashev

“Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Konstitutsiya mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi barqaror taraqqiyoti, xalqimiz farovon hayotining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolatidir. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Xususan, Konstitutsiyaning 19-modda 1-bandida “O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi” hamda 54-moddaning 2-bandida “Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi” deb belgilab qo’yilgan. Bular insonning sha’ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun etarli bo‘lishi kerakligi, inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishida o‘z aksini topdi.

Shuningdek, insonning shaxsi huquqlari va erkinliklari kafolatli eng ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi. Jumladan, Konstitutsiyamizda “Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqa tarzda cheklanishi mumkin emas”ligi, “Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi, Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas”ligi qat’iy belgilandi. Bundan tashqari, 27-moddaning 4-bandida “Shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart”ligi Konstitutsiya doirasida mustahkamlandi. Bu kabi normalar shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shartligini bildirib, tergov va surishtiruv organlari tomonidan



insonlarni noqonuniy hibsga va asossiz qamoqqa olish yoki qamoqda saqlashga yo‘l qo‘yilmaslikka qaratilgandir[1].

Konstitutsiyaning 28-moddasida “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin” deb belgilab qo‘yilgan. Demak sukut saqlash huquqi xalqaro e‘tirof etilgan “Miranda qoidasi” fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usuli sifatida Asosiy Qonunimizda o‘z ifodasini topdi[2].

28-modda 2-bandida “Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak”ligi qayd etilgan. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta‘minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoyalaydi. Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi mustahkamlanib, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi (28-modda 2 va 3-bandlar). Bu qoidalar jinoyiy ta‘qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishining oldini oladi[3].

Yana bir muhim norma “Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor, deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas”ligi Asosiy qonunimizda kafolatlanadi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishining oldini olishga, ayni paytda jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi[4].

Ma‘lumki, insonning ajralmas huquqlaridan biri, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqidir. Bu huquq umume‘tirof etilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Shu norma Konstitutsiyamizning 55-moddasida ham belgilanib, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi e‘tirof etildi. Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqaro o‘z buzilgan huquq va erkinliklarini, o‘zgalar huquqlarini buzmaganda holda mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Bunda fuqaro tomonidan o‘zini himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar yoki choralar qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo‘lishi lozim. Shuningdek, fuqaro “...O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro



shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalardan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli” deb 55-moddaning 4-bandida belgilangan. Bu – fuqarolarning huquq va erkinliklari nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanihini ta’minlashning huquqiy kafolatidir. Bu esa shaxsga davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lganidan so‘ng xalqaro organlarga murojaat etish huquqining berilayotganligi O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi[5].

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan qoidalar inson huquqlari ustuvorligini ta’minlaydi, davlat idoralarining o‘z vazifalarini inson huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirishga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
2. Shavkat Mirziyoev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalishg sari. 4-jild, T., “O‘zbekiston”, 2020.
3. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
6. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
7. Kasimova A.A. Rol jеnщины v совremenной науке. Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
8. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022/
9. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022/



10. Dadasheva A.A. Pravo svobodno poluchat i rasprostranyat informatsiyu–vajnyy faktor neposredstvennogo obshchestvennogo kontrolya nad deyatelnostyu organov gosudarstvennoy vlasti i upravleniya - Academic research in educational sciences, 2022/
11. Dadasheva A.A. PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN - The American Journal of Interdisciplinary Innovations ..., 2022



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI «INSON QADRI UCHUN» TAMOYILINI TA’MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATI

Mafura Muxtarxonovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilishni ta’minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan keng ko‘lamli demokratik islohotlarning bosh mezonidir. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, «Inson qadri uchun» degan tamoyil barcha islohotlarimizning asosini tashkil etmoqda. «Inson – jamiyat – davlat» degan yangi tizim asosida O‘zbekiston oldinga qarab intilmoqda.

Jumladan, inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash borasida maqsadli choralar amalga oshirilmoqda.

Bu borada amalga oshirilgan islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo‘llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari, shu jumladan BMTning 7 ta asosiy shartnomalari va 4 fakultativ protokollari qoidalari milliy qonunchilikda o‘z aksini topmoqda. [1]

Inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnomalarga qo‘shilish inson huquqlarini himoya qilishning samarali milliy tizimini yaratishga xizmat qildi. Xususan, inson huquqlarini himoya qilish sohasini tartibga solishga qaratilgan 12 ta Konstitutsion qonunlar, 18 ta kodekslar va 700 dan ortiq qonunlar qabul qilindi.

2023 yilning 30 aprel kuni umumxalq referendumida tasdiqlangan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekiston «huquqiy davlat» degan tamoyil ham qat’iy qilib belgilanib, inson huquq va erkinliklari borasidagi normalar 3 baravarga ko‘paytirildi. Unga ko‘ra inson sha’ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi nazarda tutilgan. Xususan, unda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash – davlatning oliy majburiyati etib belgilandi. Inson va davlat organlari o‘rtasidagi yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi,



huquqiy ta’sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun etarli va mutanosib bo‘lishi kerakligi belgilandi.

Ushbu qoidalar inson huquqlari ustuvorligini ta’minlaydi, davlat idoralarining o‘z vazifalarini inson huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirishda mas’uliyatini oshiradi hamda insonga me’yoridan ortiq huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishining oldini oladi.

Shuningdek, Konstitutsiyada insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi. Jumladan, shaxsni sudning hukmisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi, odamlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq barcha harakatlarga faqat sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning “sukut saqlash” huquqi mustahkamlandi. “Inson qadri uchun” tamoyili Konstitutsiyada, qonunlarimizda va davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo‘lishi shartligi belgilab qo‘yildi.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda islohotlar samarasi o‘laroq, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Ularni xalqimiz va xalqaro hamjamiyat vakillari o‘zlarining ijobiy baholarini berib borishmoqda. Xalq bilan muloqot tizimining yo‘lga qo‘yilganligi, mantiqsiz «propiska» tizimining tubdan isloh qilinishi, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda eksterritoriallik prinsipining joriy etilganligi, mansabdorlarning doimiy hisobot berib borishi, ular faoliyatining ochiqligini ta’minlashga qaratilgan talablarning belgilanganligi, majburiy mehnatga barham berilib, inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan hurmatning yangi bosqichga ko‘tarilganligi, aholining qanchadan-qancha mushkuli osonlashgani kabi bir qator misollar shular jumlasidandir.

Yana bir muhim masala, o‘tgan yillarda aholi murojaatlari bilan ishlash jarayoniga yangi mexanizmlarning tatbiq etilishi orqali qonun ustuvorligini ta’minlash, aholini qiynab kelgan muammolarni hal etish, qiynoqlarning oldini olish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, so‘z erkinligini mustahkamlash kabi qator yo‘nalishlarda salmoqli natijalarga erishildi. Bundan tashqari, jinoyat sodir etib, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan fuqarolarning avf etilishi va ularning jamiyatga moslashishiga ko‘maklashish, «Mehr» operatsiyalari doirasida urush o‘choqlaridan ayollar va bolalarni qaytarish, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish borasidagi O‘zbekiston tajribasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ko‘p bora e’tirof etildi.

Jumladan, sud hokimiyati va adolat tamoyillarining isboti sifatida 2017-2022 yillarda sudlar tomonidan oqlangan shaxslarning jami soni 4712 nafarni tashkil etdi.





O'tgan yillar mobaynida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) instituti faoliyatida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, Ombudsman faoliyatining qonunchilik bazasi mustahkamlanib, uning huquq va vakolatlari kengaydi, qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizm joriy etildi. Tabiiyki, bu chora-tadbirlar tufayli Ombudsmanning xalqaro maydondagi pozitsiyasi ham mustahkamlandi.

Ma'lumki, o'tgan yili Prezidentimiz tashabbusi bilan Parlamentimiz tomonidan «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya»ni [2] ratifikatsiya qilingan edi. Mazkur Konvensiya nogironligi bo'lgan shaxslarning tenglik asosida barcha huquqlarini to'liq amalga oshirishni rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli. Endilikda nogironligi bo'lgan shaxslarga etarli shart-sharoitlarni yaratish borasidagi xalqaro majburiyatlarning bajarilishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunda imkoniyati cheklangan shaxslarning mavjud sharoitlardan foydalanishi, shaxsiy harakatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, abilitatsiya va rehabilitatsiya, tenglik va kamsitmaslik kabi qator muhim masalalar qamrab olinishi lozim.

Mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'rvonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek nogironligi bo'lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari,

erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi [3] 2023 yil 11 aprel kunidagi O'RQ-829-son Qonuni ayollar huquqlari himoyasining chinakam poydevori bo'ldi. Mazkur qonunga muvofiq, xotinini urgan, so'kkan, tag'qirlagan, qo'rqitgan erkaklar buning uchun javobgarlikka tortiladi. Endilikda shaxs o'z turmush o'rtog'ini qadr-qimmatini tag'qirlasa, jarima tortiladi, g'arazli niyatlar bilan kaltaklab, badaniga og'ir tan jarohati etkazsa ikki yilga ozodlikdan mahrum qilinadi.

Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishga ko'ra bu shaxsni uning qaddi-qomatini shahvoniy mazmunda tag'qirlash, shu mazmundagi so'zlar bilan chaqirish, izohlash, qiyoslash yohud unga nisbatan shahvoniy maylni ko'rsatuvchi harakatlar deya baholanadi. Shaxsning irodasiga qarshi unga tinmay qo'ng'iroq qilish, uni qidirish, ish, o'qish va yashash joyiga borib orqasidan yurish esa jabrlanuvchi uchun o'ta noqulaylik keltirib chiqaradi.

Agar aksincha bo'lsa, qizlar yigitlarning ortidan mana shunday bezori harakatlarni sodir etsa ham yigitlar bemalol qizlarning ustidan shikoyat qilishi mumkin. Beozor ko'ringan bunday qilmishning bezorilikka aylanishi o'rtasida bir bahiya bo'lib u jabrlanuvchining o'z hayoti va sog'lig'i uchun asosli havfsirashiga asos bo'ladi. Zero Yevropa Ittifoqi hududida o'tkazilgan so'rovlarda ishtirok etgan jinsiy zo'ravonlikka uchragan ayollarning 18 foizi ayblanuvchi ularni oldindan beozor ko'rinishda ta'qib etib kelganini bildirishgan.


Qolaversa foto suratlarni tarqatish bilan tahdid qilish ham Kanada, Germaniya, Angliya, Shotlandiya, Yaponiya, Avstraliya, AQShdagi kabi jinoiy taqib belgilanishiga va uch yilgicha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanishiga sabab bo'lishi mumkin. [4]

Bugungi kunda qonunchiligimizla himoya orderlarining berilishi ham ayollar huquqlarining kamsitilishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, 2022 yilda ilgari himoya orderi berilgan xotin-qizlarning 12 nafari takroran zo'ravonlikka uchragan. Amalda zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxsga himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan 30 kun muddaga berilar edi. Yangi qonunga muvofiq esa bunday orderning muddati sud tomonidan 1 yil muddatgacha uzaytirilishi belgilandi.

Yuqoridagi qonun bilan yana bir muhim masala, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik uchun belgilangan jazolar esa undanda kuchaytirilmoqda. Jazolarning kuchaytirilayotganligi sababi, O'zbekistonda bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini



sodir etish yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Masalan, 2019 yilda 16 yoshga to‘lmagan bola bilan jinsiy aloqa qilishda aybli deb topilganlar soni 99 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020 yilda 153 nafarni, 2021 yilda 216 nafarni, 2022 yilda 238 nafarni tashkil etgan. 14 yoshga to‘lmagan bola bilan zo‘rluk ishlatib jinsiy aloqaga kirishish jinoyatini sodir etganlar soni esa 2019 yilda 52 nafar, 2020 yilda 35 nafar, 2021 yilda 57 nafar, 2022 yilda 73 nafarni tashkil etgan. [5]



Bundan tashqari internetda bolalar pornografiyasini targ‘ib qiluvchi saydlar 2013 yildan 2017 yilga qadar 7 barobar oshgan bo‘lib, 18,4 milliontani tashkil etgan. Bunday nohush holatlar takrorlanishining oldini olish maqsadida, aholi o‘rtasida profilaktika ishlarini kuchaytirish, huquqbuzarlik sodir etganlarning esa qilmishiga yarasha jazolash maqsadida, xalqaro standartlar o‘z ichiga qamrab olgan biz yuqorida tilga olgan qonun qabul qilindi.

Unga ko‘ra, 14, 16 yoki 18 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan, jinsiy zo‘ravonlikni sodir etgan shaxsning qilmishi, u jabrlanuvchining yoshidan xabardor yoki xabardor emasligidan qat‘iy nazar, jabrlanuvchining haqiqiy yoshidan kelib chiqib, baholanishi va mutanosib og‘ir jazo ya‘ni, 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanishi nazarda tutildi.

Vaholanki, avvalgi tahrirdagi qonunga ko‘ra, ayblanuvchi jabrlanuvchining haqiqiy yoshini bilmasligi, unga nisbatan engilrok jazo berilishiga sabab bo‘lar edi.

Amaldagi qonunga 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan garchi uning roziligi olingan taqdirda ham jinsiy aloqaga kirishgan ayblanuvchi, jabrlanuvchining yoshini bilmaganligini bahona



qilib, javobgarlikdan ozod bo‘lib qolish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Yangi qonunda bunday shaxslarning javobgarligining muqarrarligi ta‘minlanib, ayblanuvchi, jabrlanuvchining yoshini bilgan, bilmaganligidan qat‘iy nazar 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortiladi.

Bu turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfsizlik darajasi bir pog‘onaga ortirilib, ilgari ijtimoiy havfi katta bo‘lmagan jinoyatlar turkumiga kiruvchi qilmishlar, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar esa og‘ir turdagi jinoyatlar turkumiga kiritildi. O‘z yaqinlari, yoshi kichik yoki nogironlarga nisbatan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning sodir etilishi, ularning tajavvuzkordan himoyalanih imkoniyati cheklanganligi sababli alohida xavflilik darajasiga ega. Ammo qonunchilik bunday qilmishlarni alohida og‘irroq jazoni nazarda tutuvchi modda bilan malakalash uchun etarli imkoniyatlarga ega emas edi. Yangi qonun bilan shaxs nafaqat amaldagi turmush o‘rtog‘i yoki yaqin qarindoshiga balki sobiq turmush o‘rtog‘iga, bir ro‘zg‘or asosida birga yashayotgan yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nogironga yoxud o‘ziga o‘qitish yoki tarbiyalash uchun topshirilgan shaxsga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik qiladigan bo‘lsa, unga og‘irqon jazo ya‘ni ilgaridagidek 3 yildan 7 yilgacha emas, balki 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi belgilandi. [6]

Bolalarning jinsiy erkinligiga qarshi sodir etilgan jinoyatlar, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga tenglashtirilib, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan, muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni engilrog‘i bilan almashtirish tariqasidagi insonparvarlik aktlari qo‘llanilmasligi belgilab qo‘yildi. Bolalarning hayoti, sog‘lig‘i yoki ahloqi uchun havfli bo‘lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning yagona reestiri tuziladi va ushbu reestruga kirgan shaxslarning ta‘lim, tarbiya, bolalar sog‘lomlashtirish, sport va ijodiy tashkilotlarda ishlashi hamda bolalar bilan bevosita ishlashni nazarda tutuvchi faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi taqiqlandi.

O‘zbekistonda inson qadri uchun tamoyilini amalga oshirishdagi muhim qadamlardan biri biri yangi tahrirdagi Mehnat kodeksini ishlab chiqish va ijroga qaratishdan iborat bo‘ldi. Bu jarayonida 10 dan ortiq Xalqaro tashkilotlar 94 ta Xalqaro mehnat tashkiloti Konvensiyalari, 63 ta Yevropa, Osiyo va MDH davlatlari tajribasi o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini muhokama qilish portalida (regulation.gov.uz) 3 marta jamoatchilik muhokamasi o‘tkazildi. Fuqarolar tomonidan 93 ta ya‘ni ishga qabul qilish va bo‘shatish, mehnatga haq to‘lash, mehnat ta‘tili, dam olish va ish vaqti masalalari yuzasidan takliflar berilgan. Kodeksning asosiy



vazifalari: xodimlar mehnat huquqlari va erkinliklarining, shu jumladan mehnat qilishga, erkin ish tanlashga, adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlariga hamda ishsizlikdan himoyalanihga bo‘lgan huquqining davlat kafolatlarini belgilash; ish beruvchilarning kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va samarali mehnat jarayonini tashkil etish sohasidagi huquqlari amalga oshirilishini ta‘minlash; mehnat sohasida ijtimoiy sheriklikni rag‘batlantirish va rivojlantirish; xodimlar va ish beruvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlash; mehnat bozorining samarali faoliyat ko‘rsatishiga ko‘maklashish etib belgilangan.

Bundan tashqari Mehnat kodeksda birinchi bor ayrim toifadagi xodimlarning mehnati huquqiy jihatdan tartibga solinmoqda. Xususan, ayrim toifadagi hodimlar tarkibiga birinchidan ayollar, oilaviy vazifalarni bajaruvchi shaxslar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, voyaga etmaganlar; ikkinchidan, o‘rindoshlar, kasanachilar, masofaviy, vaxta usulida ishlovchilar; uchinchidan, mavsumiy (6 oy) va vaqtinchalik xodimlar (2 oy), pedagoglar, tibbiyot va transport xodimlari, sportchilar); to‘rtinchidan, mehnat sharoitlari og‘ir va zarar, tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan shaxslar; beshinchidan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar kiritilib, kafolatlar nafaqat onaga balki otaga va vasiyga berilishi belgilandi.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash mumkinki, O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligi, yurtimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o‘zgartirmoqda. Inson qadri ulug‘lanib, «Davlat – inson uchun» degan ezgu g‘oya hayotga joriy etilmoqda.

REFERENCES

1. M.M.Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2021 й., 03/21/695/0536-son
3. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-son
4. M.M.Inagamova. O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637



5. M.M.Inagamova, G.Tastanbekova. Yangi O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoyasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim jihatlari. /Jamiyat va innovatsiyalar –Общество и инноватсии –Society and innovations. № 2 (2023). Б.136-141.
6. M.M. Inagamova, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.



DINIY BAG‘RIKENGLIKNING HUQUQIY ASOSLARI

N. Y. Jo‘raboev

TDTrU dotsenti

I.B. Mirzaev

TDTrU o‘qituvchisi

O‘zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e‘tiqodini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an‘analarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratayotgan mamlakatdir.

Diniy bag‘rikenglik borasida fikr yuritar ekanmiz, albatta bu kalimalarning lug‘aviy va istilohiy ma‘nolarini tushinib olishimiz kerak bo‘ladi. «Bag‘rikenglik» („tolerantlik“) so‘zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to‘ldiruvchi - bag‘rikenglik, chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik kabi ma‘nolarga ega deyish mumkin.

Ma‘lumki, har yili 16 noyabr kuni jahonda xalqaro bag‘rikenglik (tolerantlik) kuni sifatida nishonlanadi. Shu kuni 1995 yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT)ning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi ixtisoslashgan muassasasi – YuNESKOga a‘zo davlatlar “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”ni qabul qildi. Ushbu hujjatga ko‘ra, bag‘rikenglik siyosiy-huquqiy ehtiyoj bo‘lib, u inson huquqlari, plyuralizm, demokratiya va qonun ustuvorligi ta‘minlanishiga xizmat qiladi. Mazkur Deklaratsiyada e‘tiqod va vijdon erkinligiga ham e‘tibor qaratilgan bo‘lib, uning 1-moddasida, bag‘rikenglik o‘zimiz yashab turgan dunyo madaniyatining boy va xilma-xilligi, inson individualligining namoyon bo‘lish shakllari va usullarini hurmat qilish, uni qabul qilish va to‘g‘ri tushunish hamda vijdon va e‘tiqod erkinligi sifatida izohlangan. Glaballashuv kuchayib borayotgan hozirgi davrda dinlar, ayniqsa, islom dinidagi bag‘rikenglik tamoyillarini yoritish va yoshlar ongiga singdirish muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da ta‘kidlanganidek: “Bag‘rikenglik bo‘lmasa, tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi”[1]. Shu ma‘noda aytganda, diniy bag‘rikenglik g‘oyasi — xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor



hamda hamjihat bo‘lib yashashini, tolerantlik esa chidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlilik, kelishuvchanlik, qayishqoqlik, ochiq ko‘ngillik, kengfe‘llik, shu bilan birga “birlik — xilma-xillikda” prinsipining keng miqyosda amalga oshishini anglatadi.

Ma‘lumki, Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekistonga urush uchoqlaridan ota onasidan yetim qolgan minglab bolalar olib kelindi. Aslida O‘zbekistondagi ahvol ham urush sabab juda og‘ir bo‘lishiga qaramay, bolajon o‘zbek xalqi bu bolalarni quchoq ochib kutib oldi va eng oxirgi burda nonini birga baham ko‘rdi. Ular o‘zbek oilalarida tarbiyalanib ulg‘aydi va o‘qib, jamiyatda turli kasb hunar egalariga aylandi.

O‘zbekistonga urush yillarida olib kelingan yetim bolalar ichida turli xil millat va xatto nemis bolalari ham bor edi. Bag‘rikeng o‘zbek xalqi bu bolalarga o‘zini bolasidek mehr ko‘rsatdi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, bu bolalar o‘zbek xalqiga va O‘zbekistonga sadoqat bilan xizmat qilishdi.

Hozir ham yurtimizda 130 dan ortiq turli millat va elat vakillari va 16 xil diniy kanfessiyaga mansub xalqlar tinch va osoyishta hayot kechirmoqda. O‘zbek xalqining bunday bag‘rikengligi va shu kabi insoniy fazilatlari muqaddas dinimizning ma‘naviy buloqlaridan sug‘orilgan bo‘lsa, huquqiy poydevori esa qonunlarimiz bilan kafolatlangandir. Buni isboti o‘laroq respublikamiz Prezidenti topshirig‘i bilan besh marta “Mehr”- insonparvarlik missiyasi o‘tkazildi. Uning doirasida 530 nafardan ziyod fuqarolar, avvalo, ayollar va bolalar Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi qurolli nizolar hududlaridan yurtimizga qaytarildi. O‘zbekiston birinchi marta diniy masalalar bo‘yicha «alohida xavotir uyg‘otuvchi» davlatlar ro‘yxatidan chiqarildi.

Bosh qomusimizda mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillari millati, tili, e‘tiqodi, ijtimoiy holatidan qat‘iy nazar O‘zbekiston halqini tashkil qilishi va ularning huquq va manfaatlari, shuningdek, e‘tiqod erkinligi mustahkamlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko‘ra: “O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e‘tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart”[2], - deb qayd etilgan. Asosiy qonunimizda ushbu



huquqning aks ettirilishi mamlakatimizda insonlarning vijdon va e’tiqod erkinligi ta’minlanishining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu qoida Asosiy Qomusimizning 75-moddasida:”Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi. Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi”[3], - deb aniq-ravshan ifoda etilgan.

Shubhasiz, istiqloq yillarida erishgan eng katta boyligimiz - xalqimizning tinch va osuda hayotidir. Mamlakatimizda iste’qomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o‘z ona tilida o‘qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o‘quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va maktablarda barcha millat vakillari uchun teng shart-sharoitlar yaratilgani, ko‘plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani bu boradagi faoliyatning yaqqol dalilidir. Mustaqillik yillarida respublikamizda yuzlab masjidlar, cherkovlar, sinagoga va ibodat uylari qurildi va qayta ta’mirdan chiqarildi. Ular qatorida Toshkentdagi “Hazrati Imom” majmui, viloyat markazlaridagi jome’ masjidlar, Toshkentdagi Rus pravoslav cherkovlari, shuningdek, buddaviylik ibodatxonasi, Samarqanddagi Arman Apostol cherkovi, Koraqalpog‘iston Respublikasidagi “Sultan Uvaysbobo” va “Muhammad Norimjoniy” ziyoratgohlari, “Panteylemon” cherkovi va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bularning barchasi dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning ko‘rinishidir.

O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega bo‘lib, dunyoviy davlat va din orasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida:”Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”[4], - deb belgilangan. Ushbu moddani amalga oshirish mexanizmi 1998 yil 1 mayda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunida keng yoritib berilgan. Uning 3-moddasiga ko‘ra, Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir. 1998 yil 1 mayda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunida keng yoritib berilgan. Uning 3-moddasiga ko‘ra, Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir[5]. Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida: “Har bir inson fikr, vijdon va



din erkinligi huquqiga ega, bu huquq o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini va ta’limotda, toat ibodat qilishda va diniy rasm-rusum hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o‘z dini yoki e’tiqodiga yakka tartibda, shuningdek boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o‘z ichiga oladi”[6], - deb belgilangan. BMT tomonidan dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasini butun dunyoga targ‘ib etish maqsadida 2011 yilning 1-7 fevral kunlarini butun jahonda “Dinlararo munosabatlar uyg‘unligi butunjahon haftaligi” deb e’lon qilingan.

Xalqimiz bir necha asrdan buyon e’tiqod qilib kelayotgan va milliyligimizning bir bo‘lagiga aylangan islom dinida bag‘rikenglik masalalari vahiy boshlanishining ilk davridayoq bag‘rikenglik dini sifatida namoyon bo‘ldi. Jahon dinlarining ichida faqat islom dinida e’tiqod erkinligi ochiq-oydin e’lon qilingan. Qur’oni karimda “Baqara” surasining 256-oyatida: “Dinda zo‘rlash yo‘q”[7], – deyilgan. Shu bilan birga, Qur’oni karimda boshqa payg‘ambarlarga nisbatan bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan holda muomalada bo‘lish ochiq-ravshan bayon etilgan.

So‘nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko‘zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi haqida gapirar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT minbaridan turib (2023 yil, 19-sentyabr, 78-sessiya) jahon miqyosida dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekistonda YuNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etish, shuningdek, 2024 yil O‘zbekistonda “Islom – tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusini ilgari surdi [8].

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g‘oya va tashabbuslarning paydo bo‘layotganligi do‘stlik va hamjihatlik qo‘rg‘onining yanada mustahkam bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e’lon qilingan. - <https://constitution.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Yangi tahriri). – T., 2023 y.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Yangi tahriri). – T., 2023 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Yangi tahriri). – T., 2023 y.



5. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni...
6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e‘lon qilingan. - <https://constitution.uz/>
7. Qur’oni karim (ma’nolarining tarjimasi). – T., 2001 y.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. – <https://sputniknews.uz/>
9. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
10. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
11. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115
12. Nosirov Rashod Adilovich¹, Yunusova Nasiba Sharifovna², Akbarova Laylo Upashevna³, Temirova Svetlana Vladimirovna⁴, Nazarova Nilufar Juraevna⁵. THE PHENOMENON OF FRIENDSHIP IN THE SOCIAL VIEWS OF EASTERN THINKERS. *JOURNAL of CRITICAL REVIEWS*. - 4695-4698, 2020-yil.
13. Yunusova Nasiba Sharifovna. (2021). Mass Culture and Informational-Psychological Security in The Modern Process. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 9, 68–72.



O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARNING O'RNI

Nasiba Sharifovna Yunusova

“Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasida dotsenti, Tarix fanlari nomzodi

Salohiddin Azizbek o'g'li Azimov

Iqtisod fakulteti ssh2 - guruh talabasi

Partiya siyosat jamiyatning ajralmas qismidir. Zamonaviy jamiyatda deyarli har kim o'zining siyosiy qarashlariga ega. Fuqarolarning siyosiy qarashlarini uyushgan shaklda namoyish etish siyosiy partiya deb ataladi. Shuning uchun siyosiy partiyalar demokratik boshqaruv tizimi uchun muhimdir. Saylov jarayonida bir nechta siyosiy partiyalar qatnashadi va ko'pchilik saylovchilar ovozini olgan partiya hukumat tuzish imkoniyatini qo'lga kiritadi[1].

Keyinchalik, ushbu hukumat millat uchun muhim siyosiy o'zgarishlarni amalga oshiradi. Siyosiy partiya qo'shilish orqali har qanday fuqaro millat siyosatiga hissa qo'shishi mumkin. Keling, siyosiy partiyaning qanday ishlashini va u bilan bog'liq bo'lgan afzalliklari va kamchiliklarini bilib olaylik.

Siyosiy partiyalar fuqarolarga ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Barcha siyosiy partiyalar fuqarolarni siyosatda qatnashishga undaydi. Har bir inson har qanday siyosiy partiya qo'shilishi va o'z nuqtai nazarini erkin ifoda etishi mumkin. Ushbu partiyalar, shuningdek, hukumatning muvozanat va muvozanatini ta'minlaydilar. Siyosiy partiyalar kronik kapitalizmning oldini oladi va ayrim shaxslar va kompaniyalarning hukmronligini oldini oladi. Shuningdek, ular hukumatni konstitutsiyani himoya qilishga da'vat etadilar. Aksariyat siyosiy partiyalar hukumatni ko'proq do'stona siyosatni qonuniylashtirish uchun olib boradilar. Shuningdek, ular kelajakdagi qonunchilik va uning jamiyat hayotiga ta'siri to'g'risida ma'lumot almashadilar[2].

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lganidan so'ng siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi. Mamlakatimizda hozirgi paytda 5 ta siyosiy partiya (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston, Adolat" sotsial demokratik partiyasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi) mavjud. Bu siyosiy partiyalar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8 dekabr), O'zbekiston

Respublikasining „Siyosiy partiyalar to'g'risida“gi qonuni (1996-yil 26-dekabr), boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, o'z ustavi asosida amalga oshiradi. Siyosiy partiyalar tashkil etish huquqi O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda Konstitutsiyaning 34-moddasida mustahkamlangan edi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalk ovoz berish orkali qabul qilindi. Konstitutsiyaning inson va fuqoroning asosiy xukuklari, erkinliklari va burchlari nomli ikkinchi bulim, Siyosiy xukuklari 8 bobining 39 moddasida yanada mustahkamlandi. Qonunga ko'ra siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, o'z xohish-irodalarini erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi. Lekin, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi; O'zbekiston Respublikasisuverenitetiga, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi; urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi; xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi; milliy va diniy ruhdagi partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni bo'yicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qiluvchi shaxslar (sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari); ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar. Siyosiy partiyalarga a'zolik faqat yakka tartibda qayd etiladi. Bir partiyaning a'zosi ayni vaqtda ikkinchi partiyaga a'zolikka qabul qilinmaydi. Siyosiy partiyalarni tuzish uchun kamida 8 ta hududiy sub'yektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida 20 ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi. Siyosiy partiyalar saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda, qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etadi. O'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida Siyosiy partiyalarning fraksiyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlari tuziladi. „Siyosiy partiyalar to'g'risida“gi qonunda Siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish, ro'yxatga olish, partiyalar mulki, ular faoliyatini to'xtatish tartibi



va boshqa masalalar to'liq ko'rsatib berilgan[3]. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga (qisqacha nomlanishi - O'zbekiston XDP) 1991-yil 1-noyabrda partiyaning Ta'sis qurultoyida asos solindi. O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda partiyaning birinchi Ta'sis Qurultoyida tashkil topgan[3].

Partiyalar tashkil topishi tarixiga nazar solsak, tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003- yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan Ta'sis S'yezdida tashkil topgan. 2008-yil 20-iyun kuni O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashish Qurultoyi bo'lib o'tib, ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tashkil topdi. 2019 yil 24 yanvarda Adliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Ekologik partiyasi davlat ro'yxatidan o'tkazildi[4].

Siyosiy partiyalarning asosiy maqsadi davlat lavozimlariga nomzodlar ko'rsatish va ularning imkon qadar ko'proq saylanishiga erishishdir[5].

Demak, siyosiy partiyalar jamoatchilik oldida turgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy masalalarni yoritishi mumkin. Ular bu kabi masalalardan jamoatchilikni xabardor qilishlari va bunday muammolarni hal qilish uchun va'da berishlari mumkin. Ular buni mitinglar va erdagi shovqinlar orqali amalga oshiradilar. Har bir partiyaning faollari va ko'ngillilari bor[6].

Xulosa qiladigan bolsak, mamlakatni turli xil mafkura va fikrlar asosida demokratik rivojlantirishni ta'minlashda siyosiy partiyalar muhim rol o'ynaydi. Mazkur nodavlat va notijorat tashkilotlar fuqarolarning siyosiy hayotda, davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib, fuqarolarning uyushish, fikrlash, yig'ilish erkinliklariga asoslanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish» 2023y.-112 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464-bet.
3. Musayev F.A. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. T., 2007
4. Xabermas Y. Budusheye chelovecheskoy prirodi. M., 2002.
5. Xeffe O. Politika. Pravo. Spravedlivost. Osnovopolojeniya kriticheskoy filosofii prava i gosudarstva. M., 1994.
6. Sh.A. SAYDULLAYEV. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. - 248



bet. <https://www.yumpu.com/xx/document/view/46479755/-www.philosophy.ru>.

7. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.

8. Kasimova A.A [Rol jentshiny v sovremennoy nauke](#). Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234

9. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022

10. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022

11. Dadasheva A.A. Pravo svobodno poluchat i rasprostranyat informatsiyu–vajnyy faktor neposredstvennogo obshchestvennogo kontrolya nad deyatelnostyu organov gosudarstvennoy vlasti i upravleniya - Academic research in educational sciences, 2022

12. Dadasheva A.A. PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN - The American Journal of Interdisciplinary Innovations ..., 2022

13. Inagamova M.M, Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.

14. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.



MAMLAKATIMIZDA BOLALAR VA YOSHLARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

Gulbahor Sulgiyevna Sharipova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini
ta’minlash kafedrasida dotsenti

“Yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib, hayotdan munosib o‘rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz” – deya ta’kidlaydi prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev.[1]

Hammamizning oldimizda turgan muhim masala bu yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish. Chunki, yoshlar bizning kelajagimiz. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston yoshlar o‘rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi umumsiyosiy munozaralarida ham yoshlar mavzusiga alohida to‘xtalishi masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo‘lgan joyda baraka va rivojlanish bo‘ladi. O‘zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi maqsadlari aniq va ravshan bayon etildi.

Mamlakatimizda voyaga etmaganlar huquq-erkinliklarini ta’minlash, ularning qonuniy manfaatlarini muhofaza etish, eng asosiysi, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Voyaga etmaganlar manfaatlarini himoya qilish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgani samarali ijtimoiy himoya tizimini joriy etish hamda yoshlarni moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz aholisining 40 foizini voyaga etmaganlar tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichning o‘ziyoq masala nechog‘li dolzarb ahamiyatga ega ekanidan darak beradi. Bu jarayonda ota-ona, mahalla-ko‘y, ta‘lim muassasalari, umuman, keng jamoatchilik zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklanadi.

Parlamentning yoshlar bilan ishlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi tuzildi va o‘zining faoliyatini boshladi. Yoshlarning, ayniqsa uyushmagan, ish bilan band bo‘lmagan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan yoshlarning kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratishga, bandligini ta‘minlashga, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishga ko‘maklashish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish ushbu komissiyaning asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi.

Shu bilan birga, yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni turli mafkuraviy tahdidlar va yot g‘oyalar ta‘siridan asrash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, yoshlar bandligini ta‘minlashga oid masalalar qamrab olingan. Masalan, internet klublar faoliyatini tartibga solish, ularning kechki soat 22.00 dan keyingi faoliyatini cheklash zarurati kabi masalalar shular jumlasidandir. Shu bois bu ishga mas‘ul bo‘lgan davlat idoralari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, voyaga etmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar faoliyati samaradorligi hamda mas‘uliyatini yanada oshirish lozim.

Prezidentimiz tashabbusi bilan har haftaning payshanba kuni mamlakatimizda Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish profilaktika kuni sifatida belgilangani bolalarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, o‘smirlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini mustahkamlash, ota-onalar hamda vasiylik organlarining mas‘uliyatini oshirish borasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim yo‘nalish bo‘ldi.[2]

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, oila, ta‘lim muassasalari va keng jamoatchilik zimmasiga voyaga etmaganlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligining oldini olish, hududlarda voyaga etmaganlarning ma‘naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ko‘maklashish, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan voyaga etmaganlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga yordam berish vazifalari yuklatildi.



Xulosa qilib aytganda, joylarda yoshlarni sog‘lom va komil inson qilib o‘stirish va tarbiyalash, ularning sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi uchun barcha sharoitni yaratib berish, bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishi uchun kutubxonalar tashkil etish borasida turli jamoat va davlat tashkilotlari vakillari, mahallalar faollari bilan hamkorlikda samarali ish olib borsak, har tomonlama bilimli, yuksak mana‘viyatli yoshlarimiz yaqin va uzoq istiqbolda mamlakat va xalqimiz hayotining rivojlanishi uchun bor kuch-g‘ayrat va salohiyatini ayamaydi.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Aytish joizki, bu borada mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o‘smirlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning muammolarini hal etish, voyaga etmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib 2007 yilda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi. Ushbu huquqiy hujjatda bola, bolaning qonuniy vakili, vasiylik va homiylik, etim, jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bola, nogiron bola, uning o‘rnini bosuvchi shaxs kabi tushunchalar belgilangan. ota-onalar, ota-ona qo‘llab-quvvatlashidan mahrum bo‘lgan bola. Hokimliklar va boshqaruv organlarining bolalar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha vakolatlari, bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining vazifalari va bunda fuqarolik jamiyatining ishtiroki - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari. ham ko‘rsatilgan.[3]

Qonunda bolalarning himoyalani, vijdon erkinligi, yashash joyidagi xususiy mulkka egalik qilish, mehnat qilish, dam olish, bo‘sh vaqtlari, sog‘lig‘ini muhofaza qilish, bilim olish huquqlarini o‘z ichiga olgan huquqiy kafolatlar belgilab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari, nogironligi bo‘lgan va jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari belgilandi.

Mamlakatimizda bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bu boradagi qonunchilik bazasini takomillashtirish borasida ulkan va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Voyaga etmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlar bandligi va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni ta‘minlash, ularni sportga keng jalb etish, sog‘lom turmush tarziga daxldorlikni shakllantirish, shuningdek yosh avlodni giyohvandlik va alkogolizmning zararli ta‘siridan, diniy

ekstremistik oqimlar ta’siridan, tayanch ommaviy madaniyatdan asrash.

2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan “Voyaga etmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish to’g’risida”gi qonun davlatimizning yangi avlod tarbiyasiga so’zda emas, har tomonlama, balki amalda ko’rsatilayotganining yorqin dalili bo’ldi.[4]

Darhaqiqat, mamlakatimizda voyaga etmaganlarga e’tibor, ularga bo’lgan g’amxo’rlikni xukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlardan xam bilsak bo’ladi, mustaqillik yillarida ushbu yo’nalishda bir qator islohotlar olib borilmoqda, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash bilan bog’liq islohotlar natijasi halqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib baholanmoqda. Farzandlarimiz qanday inson bo’lib kamolga etishi sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi bilan bog’liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi umumsiyosiy munozaralarida ham yoshlar mavzusiga alohida to’xtalishi masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 57-moddasida voyaga etmaganlar davlat himoyasida ekanligi ko’rsatilgan bo’lsa, “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida Bola (bolalar)- o’n sakkiz yoshga to’lgunga (voyaga etgunga) qadar bo’lgan shaxs (shaxslar) hisoblanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 22 aprel kuni “Shaxs huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 4296-sonli qarori qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo’yicha vakili (ombudsman) o’rinbosari — Shaxs huquqlari bo’yicha vakil lavozimi joriy etildi va Kotibiyat tuzilmasida shaxs huquqlarini ta’minlash faoliyatiga ko’maklashuvchi yangi sektor tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833 Qarori bilan “Voyaga etmaganlar ishlari bo’yicha idoralararo komissiyalar to’g’risida”gi Nizom tasdiqlanib, ushbu Nizomga asosan komissiyalar tumanlar (shaharlar), viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida olib boriladi.[5]

Davlatimiz rahbarining 2021 yil 4 oktyabrdagi “Bolalarni qo’llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorida ham og’ir vaziyatga tushgan,



ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash va ularga manzilli ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatish tadbirlarini tashkil etish va moliyalashtirish belgilanganligini ko‘rsatib o‘tishimiz lozim.

Ushbu sohada qonunchilikni isloh qilishda, muvofiqlashtirilgan, tizimli, insonparvarlik, odillik tamoyillariga amal qilgan xolda aniq tushuncha va izchil xatti-harakatni talab qiladi. Bunday faoliyat ko‘p jihatdan jinoyat siyosatining tub yo‘nalishlarini nazariy tushunishga va ularning qonunchilikda etarli darajada aks etishiga bog‘liq. Voyaga etmaganlarning jinoiy javobgarligini tabaqalashtirish haqli ravishda jinoyat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, bu qonun chiqaruvchi tomonidan malakali huquqbuzarliklarning shakllanishida namoyon bo‘ladi.[6]

Jinoyat tarkibining belgilari, jinoyat huquqida javobgarlikni farqlashning muhim vositasidir. “Jinoyat tarkibi deganda, aniq ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo‘lgan ob‘ektiv va sub‘ektiv elementlar yig‘indisi tushuniladi. Bu elementlar jinoyat qonunida mustahkamlanganligi bois, u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb baholanmog‘i uchun zarur xisoblandi” .Bu belgilarning mohiyati, tegishli holatlar bilan sodir etilgan harakatning jamoat xavfi darajasining sezilarli darajada o‘zgarganligini, uning belgilarini aks ettiradi. Ularning funktsional maqsadi jinoyatning oddiy turi uchun standart jazodan farq qiladigan jazoning yangi chegaralarini belgilash, jinoyat qonunchiligidagi javobgarlikni bosqichma-bosqich o‘zgartirishdir.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida voyaga etmaganlarning jinoiy javobgarligi jinoiy huquq fani bo‘yicha holatlarni o‘rganishga e‘tibor qaratish zarurati muhim masalalardan biridir. Biz qonunni buzgan, mamlakatimizda yashayotgan voyaga etmagan fuqarolarimiz haqida to‘xtalayapmiz, davlat maqsadlarga erishish, Kodeksda belgilangan vazifalarga rioya qilish va amalga oshirishga yordam beradigan bunday choralarni qo‘llashdan manfaatdor, chunki bu shaxslarni jamiyatga, qarindoshlari, do‘stlari xamda jamoatchilik bilan aloqalar sohasiga ijobiy tarzda kirishishga yo‘naltirilgan holda qaytishi demakdir.

Jinoyat huquqida voyaga etmaganlarning javobgarligining maxsus normalariga bo‘lgan ehtiyoj to‘g‘ridan-to‘g‘ri adolat va insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, voyaga etmagan shaxsning o‘ziga xos jismoniy va ruhiy etukligi, ularning alohida himoya va g‘amxo‘rlikka, shu jumladan tegishli huquqiy himoyaga muhtojligi bo‘lib, jamiyat unga etuk yoshdagi fuqarolar bilan teng talablar qo‘ya olmaydi, boshqa tomondan, voyaga etmaganlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari bizga



maxsus, unchalik qattiq bo'lmagan jazolarni qo'llash orqali jinoiy jazo maqsadlarini yaxshiroq amalga oshirishga imkon beradi. Jinoyat qonunchiligida voyaga etmagan shaxsga jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik belgilashda qonun chiqaruvchi tomonidan voyaga etmagan shaxsning yoshi, o'ziga xos fiziologik va intellektual rivojlanishi, shaxsning o'z xatti-harakatlarining mohiyatini anglash qobiliyati, uning jamiyatda tutgan o'rni, shug'ullanishi mumkin bo'lgan kasbi hamda boshqa omillar hisobga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida jismoiy shaxslarning javobgarligi ko'rsatib o'tilgan. Jinoyat qonunchiligida o'n olti yoshdan boshlab jinoiy javobgarlik belgilangan. Jinoiy-huquqiy munosabatlarning alohida ishtirokchisi sifatida voyaga etmaganlar jinoyat sodir etgunga qadar o'n tor yoshga to'lganda jinoiy javobgarlikni og'irlashtiridigan holatlarda qasddan odam o'ldirganliklari (97 moddaning 2 qismi) uchungina javobgarlikka tortilishi belgilangan. Shuningdek, jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar Kodeksda qayd etilgan ayrim jinoyatlar uchungina javobgarlikka tortilishi ko'rsatib o'tilgan.

Voyaga etmaganlar javobgarligi —18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarning javobgarligi, jinoyat qonunchiligiga binoan tayinlanadigan, qat'iy cheklangan jazo turlaridir. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida voyaga etmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa holatlari e'tiborga olinib, alohida javobgarlik belgilangan:

- a) jarima;
- b) majburiy jamoat ishlari
- v) axloq tuzatish ishlari;
- g) ozodlikdan cheklash
- e) ozodlikdan maxrum qilish.

Ular jinoyatning turi va xarakteriga qarab tayinlanadi va voyaga etmaganlarga nisbatan jazoning boshqa turlari, qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas (O'zbekiston Respublikasi JK, 81-modda).[7]

Voyaga etmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazo miqdori va muddatlari ancha qisqartirilgan. Majburiy jamoat ishlarini belgilanishida faqat mehnatga layoqatli voyaga etmaganlarga olmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha muddat tayinlanishi, o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi, mahkumga bog'liq



bo‘lmagan holatlar yuzaga kelganda taqdirda, bir yilgacha bo‘lgan muhlatda ikki soatdan oshmasligi ko‘rsatilgan. Axloq tuzatish ishlari bir oydan bir yilgacha muddat doirasida belgilanadi va bu jazoni o‘tash uchun mahkumni o‘zi yashayotgan joydan boshqa joylarga jo‘natish mumkin emas. Ozodlikdan cheklash voyaga etmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish muddati ham voyaga etmaganlar yoshi va jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab belgilanadi. Ushbu jazo olti oydan o‘n yilgacha muddatga belgilanadi. O‘n uch yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslar og‘ir jinoyatlar uchun – olti yilgacha, o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun o‘n yilgacha tayinlanadi. O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga —og‘ir jinoyat uchun etti yilgacha, o‘ta og‘ir jinoyat uchun — o‘n yilgacha muddat doirasida tayinlanadi va har qanday holda bu muddatlardan chetga chiqilishi mumkin emas. Sud tomonidan ozodlikdan mahkum etishga hukm qilingan voyaga etmaganlar jazoni tarbiya koloniyalarida o‘taydi. Voyaga etmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning alohida qoidalari tadbiiq qilinadi. (O‘zbekiston Respublikasi JK 85 – va 86-moddalari). O‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga muvofiq javobgarlikka tortilsalar-da, ularga jazo belgilashda voyaga etmaganlar javobgarligining xususiyatlari hisobga olinadi.

Jazo chorasi sifatida belgilangan qamoq jazosini olib tashlanishi (O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 29-martdagi 421-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni) xam muxim insonparvarlik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘ldi.[8]

Voyaga etmaganlarning huquqlarini yanada kengroq himoya qilish, ularning yoshi, o‘ziga xos fiziologik va intellektual rivojlanishi, ularga nisbatan insonparvarlik printsipini kengroq qo‘llash, qo‘llaniladigan jazolarning samaradorligini oshirish, o‘z xatti-harakatlarining mohiyatini anglash qobiliyati, uning jamiyatda tutgan o‘rnini inobatga olgan holda jinoyat sodir etgan yoshlarni qayta tarbiyalash, voyaga etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlik va jazodan ozod qilish muddatlarini qisqartirish masalasini ko‘rib chiqish, mazkur yo‘nalishda chet el tajribasi, jumladan, MDH davlatlari jinoyat qonunchiligini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning ayrim davlatlari bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, masalan Avstraliya, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya jinoyat kodeksida 13 yoshdan, Gollandiya va Portugaliyada- 12 yoshdan, Angliya qonunchiligida - 10 yoshdan, Irlandiya qonunchiligida - 7 yoshdan jinoiy javobgarlikning paydo bo‘lishini nazarda tutadi.

Voyaga etmaganlarning harakat (harakatsizligi)larining huquqiy mohiyati va ijtimoiy xavfini to‘liq anglay olmasligi yoki ularni nazorat qila olmasligidan kelib chiqadi. Aqliy zaiflik tufayli o‘z harakatlari (harakatsizligi) ning tabiati va ijtimoiy xavfini to‘liq anglay olmagan yoki ularni nazorat qila olmagan jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lgan voyaga etmagan shaxs ham javobgarlikka tortilmaydi. Agar voyaga etmagan shaxs o‘z harakatlarining mohiyati va xavfini to‘liq anglay olmasa, ruhiy kasallik tufayli nazorat qila olmasa, u jinoyat qoidalarini hisobga olgan holda jinoiy javobgarlikka tortiladi. Agar ijtimoiy xavfli qilmishni jinoiy javobgarlik yoshiga etmagan yoki shu yoshga etgan shaxs aqli zaifligi tufayli o‘zi qilmishning mohiyati va xavfini tushuna olmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat predmetining belgisi yo‘q bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi.

Voyaga etmaganlarning jinoiy javobgarligi to‘g‘risidagi normalar orasida quyidagilarni ajratish kerak:

-jinoyat sodir etilgan vaqtda balog‘atga etmagan shaxslarga nisbatan amaldagi normalar.

-me‘yor qo‘llanilgan vaqtda voyaga etmagan shaxslarga nisbatan amaldagi normalar.

Birinchi guruh me‘yorlari (shu jumladan jazo turlari, jazo, muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish, da‘vo muddati va hukm) to‘g‘risidagi qoidalar - jinoyat sodir etuvchining yoshiga mos bo‘lmagan adolat tamoyilining amalga oshirilishi, jinoiy oqibatlarining yumshatilishi. Ikkinchi guruh me‘yorlari (koloniyalar turini aniqlash, tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishning majburiy choralari) jinoyatchining shaxsiyatining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzatishni maqsadli tashkil etish zarurati bilan bog‘liq.

Voyaga etmaganlarning jinoiy javobgarligi to‘g‘risidagi normalarni to‘g‘ri qo‘llash uchun shaxsning yoshini to‘g‘ri belgilash zarur.[9]

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyeyov. Sh.M “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”. Toshkent-2021 yil
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni - Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma‘qullangan
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni - O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabr kuni “Yoshlarga oid



davlat siyosati to‘g‘risida”gi. O‘zRQ №406 “Xalq so‘zi” gazetasining 15.09.2016 yil 182 (6617)-soni

5. 2021 yil 4 oktyabrdagi “Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent-2021 yil

7. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 29-martdagi 421-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni

8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent-2023 yil

9. Inagamova M.M, Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.

10. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022

11. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.

12. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022

13. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.

14. Kasimova A.A, [Рол женщины в современной науке](#). Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234.

ПРАВА И ЗАКОННЫЕ ИНТЕРЕСЫ ЖЕНЩИНЫ

Асал Аруслановна Касимова

канд.юрид.наук, доцент кафедры «Международное публичное право»
Ташкентского транспортного университета,

За годы независимого развития Узбекистан добился больших успехов в защите прав и законных интересов женщин, не менее значительны достижения и в сфере обеспечения их активного участия в общественно-политической и социально-экономической жизни республики. Конституция Республики Узбекистан также высоко ценит человеческое достоинство и уделяет особое внимание вопросу гендерного равенства.

В частности, **статья 58** Конституции [1] Республики Узбекистан гласит, что «женщины и мужчины имеют равные права». Следует отметить, что правовые основы гендерного равенства отражены в международном и национальном законодательстве. В частности, равенство мужчин и женщин также признано во Всеобщей декларации прав человека, принятой Генеральной Ассамблеей ООН в 1948 году.

Жизненный опыт показывает, что в экономически стабильном обществе равенство мужчин и женщин обеспечивается на высоком уровне. Профессиональное становление человека имеет определенные фазы в своем развитии, на любом уровне профессионального развития, при любой сложности реального поведения личности существует комплексная взаимосвязь и взаимозависимость между социальными параметрами (требованиями) и преобразованиями внутреннего мира самой личности. Хотя границы между «женскими» и «мужскими» профессиями в современном мире стерты, и к тем, и к другим есть негласные требования. Сочетать несочетаемое должны уметь женщины, трудящиеся в правоохранительных органах. Быть с твердым и одновременно мягким характером. Во многом это касается женщин, работающих в отделе по делам несовершеннолетних. Им успех и помощь детям избавиться от проблем, и о собственной семье не забыть.

Проблема службы женщин в органах внутренних дел является весьма актуальной. Существует достаточно большое количество исследований зарубежных ученых, в которых они активно ведут поиск путей в разрешении проблемы возможного сочетания служебных, семейных и иных социальных обязанностей



женщинами - полицейскими. Сотрудницы правопорядка лучше гражданских ориентируются в социальных ситуациях, они более проницательны в отношении поступков и мотивов других людей. Подобные личностные качества сотрудниц милиции могут быть следствием профессиональных навыков и весьма характерны для взаимодействия с задержанными в ситуациях, в которых подозреваемые пытаются ввести в заблуждение сотрудников правопорядка и когда необходимо установить истинные мотивы их поведения (например, при оказании сопротивления, неадекватном поведении и т.п.) и другие.

В системе МВД создано 360 должностей инспекторов-женщин по работе с женщинами, которые нуждаются в правовой и социальной помощи. С целью оперативного и качественного оказания поддержки женщинам, пострадавшим от притеснения и насилия, разработаны и внедрены стандартные операционные процедуры по совместному реагированию на гендерное насилие для правоохранительных органов, работников здравоохранения и социально-психологической сферы.

В результате последовательных и всеобъемлющих реформ обеспечивается экономическая стабильность. В селях организации систематической работы по последовательной реализации Селей в области устойчивого развития ООН наша страна приняла «Национальные сели и задачи Узбекистана в области устойчивого развития до 2030 года» [2]. Пятая сел в этом документе — «Обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин». Это, в свою очередь, включает экономические, социальные, правовые и другие меры. Все государственные органы и организации, учреждения, а также общественные организации государственного значения несут ответственность за выполнение этих задач. Как нам известно, что 20 марта 2019 г. Президент Республики Узбекистан выдвинул 5 важных инициатив по организации работы в социальной, духовной и образовательной сферах. Пятая инициатива направлена на решение проблемы занятости женщин, создание полноценных условий жизни для женщин путем предоставления им рабочих мест.

Комитет женщин Узбекистана с помощью государственной поддержки организует курсы по переподготовке и обучению новым специальностям на бесплатной основе. Открываются центры, где учатся представительницы прекрасного пола из сельской местности художественным ремеслам и промыслам, таким как ковроткачество, крашение пряжи и другим направлениям, предоставляющим им возможность дополнительного заработка. Говоря о доле женщин в



структуре занятости, которая на сегодняшний день возросла до 44%, было подчеркнуто о существенном увеличении их участия в малом бизнесе. Сегодня 35% субъектов предпринимательства созданы и возглавляются ими.

Делегаты от государств-членов ООН и правозащитных структур были также проинформированы о том, что в структуре общей занятости в Узбекистане женщины преобладают в таких сферах, как здравоохранение и спорт (82%), образование, культура, искусство и наука (72%), торговля и общепит (54%).

Необходимо отметить, что в Республике также подготовлен проект Национального плана действий, что было отмечено на открытии «круглого стола» Председателем Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан Танзилой Нарбаевой. «Активное продвижение участия женщин в политической, экономической и социальной жизни Узбекистана является ключевой задачей правительства республики», - сказала Т.Нарбаева. Подтверждением этому является принятие за последнее время руководством Узбекистана решений, направленных на существенное увеличение роли женщин в процессах принятия жизненно важных решений дальнейшего развития страны.

В Узбекистане принимаются меры по реализации Селей устойчивого развития по повышению участия женщин в общественном и государственном строительстве, обеспечению гендерного равенства и недопущению дискриминации женщин. Это было отмечено Первым заместителем Спикера Законодательной палаты парламента страны, директор Национального Центра по правам человека Акмалом Саидовым, он подчеркнул, что проект Национального плана действий по вопросам женщин, мира и безопасности определяет приоритетные области, в которых можно изменить ситуацию, внедрит более эффективную гендерную политику и стремится к достижению результатов.

Проект Национального плана Узбекистана по вопросам женщин, мира и безопасности включает в себя:

- поощрение участия женщин в процессах поддержания мира и безопасности; широкое распространение знаний на тему: «Женщины, мир и безопасность», в том числе среди лиц, ответственных за принятие решений;
- системы защиты и учета особых нужд и потребностей женщин и девочек в условиях чрезвычайных ситуаций;



- участию гражданского общества в выполнение резолюции 1325 Совета Безопасности ООН о женщинах, мире и безопасности.[3]

В основе Резолюции 1325 лежит признание факта, что прочный мир не может быть достигнут без значительного участия женщин в предотвращении, урегулировании конфликтов и миростроительстве. Документ призывает к полному и равному участию женщин во всех инициативах в области мира и безопасности наряду с актуализацией гендерных вопросов. Речь идёт о более активном привлечении женщин к большему участию в мирных переговорах по урегулированию конфликтов, а также об увеличении числа женщин на руководящих постах как на международном, так и на национальном уровнях.

Отдельное внимание было уделено информированию международного сообщества об успехах обеспечения трудовой занятости женщин в республике. Отмечено, что в рамках проводимой работы заметные результаты приносят целенаправленные меры государства по трудоустройству выпускников средних специальных профессиональных учебных заведений. Ежегодно разрабатываются и реализуются программы, направленные на улучшение условий труда и учебы женщин, особенно, в сельской местности, вовлечение их в предпринимательскую деятельность.

За последние годы для развития женского предпринимательства более 327 тысячам женщин выделены льготные кредиты на 7,4 триллиона сумов.

В 2021 году запланировано выделение женщинам-предпринимателям около 1,4 триллиона сумов из Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан.

В результате за последние четыре года трудоустроены более 620200 женщин, 106 тысячам оказано содействие в налаживании частного предпринимательства. Например - в 2020 году только в рамках программы «Каждая семья — предприниматель» около 126 тысячам предоставлены льготные кредиты. Почти 215 тысячам семей выделены кредиты на развитие семейного предпринимательства в общей сложности на более шест триллионов сумов. В рамках реализации Пяти важных инициатив в отдалённых районах организованы швейные цеха, обеспечена занятость десяти тысяч женщин.

Такие результаты были достигнуты благодаря комплексному подходу, согласно которому был создан не только прочный правовой фундамент, но и эффективная институциональная база. В качестве примера можно привести учреждение общественной организации - Комитета женщин Узбекистана, который стал продуктивным



механизмом поддержки этой части населения, защиты их прав и законных интересов.

REFERENCES

1. Konstitutsiyasi Respubliki Uzbekistan. T.2023.
2. Sh.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi.-Toshkent.2021
3. Rezolyusii 1325 OON ot 31 oktyabrya 2020 g.
4. Frayzer X. “Uzbekistan delaet vaznye shagi dlya obespecheniya gendernogo ravenstva.” Sentr “Strategiya razvitiya”, 08.01.2020. (<https://strategy.uz/index.php?news=745&lang=ru>)
5. Kasimova A.A, Rol jennitsiny v sovremennoy nauke. Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YERLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
7. Dadasheva A.A, Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
8. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
9. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
10. Dadasheva A.A O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI Uzbek Scholar Journal 15, 10-12



ИСТОРИЧЕСКАЯ АНАЛИЗ ПЕРИОДИЗАЦИИ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

С. В. Темирова

Старший преподаватель кафедры, «Международное публичное права»
Ташкентского транспортного университета

Конституция — это основной закон государства. Она определяет основы конституционного строя, государственное устройство, регулирует порядок образования законодательных и исполнительных органов, органов судебной власти, определяет избирательную систему, закрепляет права и свободы граждан, символы государства и порядок изменения Конституции.

Конституция в переводе с латинского языка означает «созидания», «устройство», «установлене»[1].

Конституция Республики Узбекистан принята 8 декабря 1992 года на одиннадцатой сессии Верховного Совета Республики Узбекистан двенадцатого созыва, ден 8 декабря объявлен национальным праздником.

Изучение Конституции Республики Узбекистан — это систематизированная, последовательно построенная учебная дисциплина по изучению основ и практике применения Конституции в жизни общества и государства[2].

4 января 2001 года издано распоряжения Президента Республики Узбекистан «Об организации изучения Конституции Республики Узбекистан». В целях изучения роли и значения Конституции в жизни общества необходимо изучать её в дошкольных учреждениях, школах, образовательных учреждениях среднего специального профессионального и высшего образования[3].

Конституция изучается в целях развития правового сознания, мышления и культуры молодого поколения, а также пропаганды и агитации, знания её значения и содержания. Являясь основным законом, Конституция отражает факт существования на политической карте мира демократического государства Узбекистан. В ней закреплены основы государственного и общественного строя, права, свободы гражданина и человека в Узбекистане, экономические основы общества[4].

Изучение Конституции формирует прочное мировоззрение о демократии, об экономических,



политических и личных правах граждан, о принципе разделения властей в Узбекистане. В результате Изучения Конституции мы приобретаем навыки использования полученных знаний на практике. Будем знать, и уметь использовать основные принципы конституционной системы Республики Узбекистан, основы гражданского общества, систему конституционных прав, свобод и обязанностей граждан, конституционные основы обороны и безопасности Узбекистана[5].

Конституционные нормы являются действующим правом. В системе нормативных актов Конституция занимает главное место, являясь юридической основой действующей правовой системы.

Функции Конституции: выполняет политическую функцию, т.к. регулирует социальную структуру общества; выполняет организационную функцию, т.к. регламентирует организацию и деятельность государственных структур; выполняет формирующую функцию, т.к. воздействует на духовную сферу людей; является юридической базой действующей правовой системы.

2. В прошлом на территории Узбекистана действовало пять конституций:

- Конституция Туркестанской АССР 1918 и 1920 годов (Бухарской и Хорезмской республик);
- Конституция Хорезмской и Бухарской советских республик 1920-1921 годов;
- Конституция Узбекской ССР 1927 года;
- Конституция Узбекской ССР 1937 года;
- Конституция Узбекской ССР 1978 года.

Все эти конституции не были конституциями суверенного государства. 31 августа 1991 года Узбекистан провозгласил о государственной независимости. 1 сентября объявлен днём независимости Республики Узбекистан. С обретением независимости (суверенитета) возникла необходимость конституционного закрепления этого состояния[6].

Первым фактором принятия новой Конституции стало провозглашение Узбекистаном 31 августа 1991 года государственной независимости. Вторым фактором является курс общества на рыночные отношения, т.е. на вхождение Узбекистана в мировое сообщество. Переход к рынку не мог быть осуществлён без изменения отношения к различным формам собственности, без демократизации экономических и политических отношений, без пересмотра Конституции и всего законодательства. Обновление юридических норм, способствовало развитию



творческой инициативы людей, развитию предпринимательства.

Конституция независимого Узбекистана официально закрепила смену экономического строя, признала право человека на частную собственность, экономическую свободу, вобрала в себя достижения научной мысли в области права и политики[7].

Конституция состоит из Преамбулы (вводной части), шести разделов, двадцати шести глав и ста двадцати восьми статей. Конституция Республики Узбекистан вобрала в себя почти все положения Всеобщей декларации прав человека (1948).

Основные цели и задачи Конституции Республики Узбекистан закреплены в Преамбуле. В Преамбуле указаны политические и правовые основы, на которые должен опираться народ по пути к обновлению и прогрессу, направленному на становление, развитие и укрепление рыночной экономики, построение демократического правового государства, гражданского общества.

Все нормы Конституции должны соответствовать провозглашенным в Преамбуле принципам и толковаться в соответствии с ними.

Это:

1. приверженность признанным развитыми странами мира идеям прав человека и принципам государственного суверенитета;
2. осознание высокой ответственности перед нынешним и будущим поколениями;
3. опора на исторический опыт развития узбекской государственности;
4. приверженность идеалам демократии и социальной справедливости;
5. признание приоритета общепризнанных норм международного права;
6. обеспечение достойной жизни гражданам Республики Узбекистан;
7. создание гуманного демократического государства;
8. обеспечение гражданского мира и национального согласия;

Конституция детально определила основные принципы путей развития Узбекистана.

Это:

- государственный суверенитет;
- народовластие;
- верховенство Конституции и закона;
- внешняя политика;

А права и обязанности рассматриваются в единстве.

Детально регламентируются общественные и экономические



структуры. Самостоятельная глава посвящена финансовой системе, обороне и безопасности государства. Определено административно-территориальное и государственное устройство Узбекистана. Регламентирована организация государственной, исполнительной и судебной власти. Завершается Конституция положением о внесении дополнений и изменений, что свидетельствует о её стабильности[8].

3. Конституция суверенного Узбекистана является продуктом многовековой собственной истории и культуры, отражает самобытность нашей национальной государственности.

Конституция привержена общечеловеческим ценностям и нормам международного права. В ней нет противопоставления классов, диктата партий. В конституции заложена идея прочного духовного и правового пространства в нашей многонациональной стране[9].

Конституция Республики Узбекистан обладает признаками. Это:

- основной закон нашего государства, нашей жизни;
- основной источник права, база текущего законодательства.

Конституция носит учредительный, основополагающий характер, обладает высшей юридической силой (верховенство Конституции), носит стабильный характер.

Отличительные черты Конституции:

- объявлен суверенитет республики, т.е. независимость государства во внутренних и внешних делах;
- она официально закрепила право частной собственности, экономическую свободу. Все формы собственности находятся под защитой государства;
- признаётся верховенство Конституции и закона;
- устанавливается народовластие, т. е. народ является источником государственной власти;
- провозглашается демократия: прямая и представительная;
- закреплён принцип разделения властей на законодательную, исполнительную и судебную;
- закреплено отсутствие единой идеологии в качестве государственной. Закреплено идеологическое многообразие, политический плюрализм политических институтов государства;
- человек, его жизнь свобода являются высшей ценностью;



- государство выражают волю народа, служит его интересам.

Государственные органы и должностные лица ответственны перед обществом и гражданами[10].

Субъектами конституционных отношений являются: государство, народ, государственные органы, должностные лица, общество.

Изменения вносятся в Конституцию, законом, принятым большинством, не менее чем двумя третями от общего числа соответственно депутатов законодательной палаты и членов Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан или референдумом Республики Узбекистан. Олий Мажлис может принять закон об изменениях и поправках к Конституции в течение шести месяцев после внесения соответствующего предложения с учетом его широкого обсуждения, если Олий Мажлис отклонил предложения об изменениях Конституции, оно может быть возобновлено не ранее чем через год[11].

REFERENCES

1. Konstitutsiyasi Respubliki Uzbekistan. T.2023.
2. Kasimova A. A. Rol jennitini v sovremennoy nauke. Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
3. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
4. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
5. M.M. Inagamova, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
6. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
7. Dadasheva A.A O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI Uzbek Scholar Journal 15, 10-12
8. Dadasheva A.A Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan (theory and practice) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...T.: Publishing house of the National university of Uzbekistan, 13



9. Dadasheva A.A, MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM. Academic research in educational sciences, 117-122
10. Inagamova M.M, O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637
11. Inagamova M.M, G.Tastanbekova. Yangi O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoyasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim jihatlari. /Jamiyat va innovatsiyalar –Obşestvo i innovatsii –Society and innovations. № 2 (2023). B.136-141



KONSTITUTSIYADA TA’LIM QONUNCHILIGI

B. E. Yuldashev

Ilmiy rahbar dotsent, tarix fanlari nomzodi

Matsapaev D. Sh., T. I. Muzaffarov

Iqtisodiyot fakulteti BHT-6 guruh talabalari

diyorbekmatsapayev@gmail.com

muzaffarovtemurbek1303@gmail.com

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamolati va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. "Ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur...Ilsiz inson mevasiz daraxt kabidur. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, yor-do'stiga, din va millatga foyda etkurmak bir tarafda tursun, o'z ustiga lozim bo'lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qila olmas...Shuning uchun o'qimay, bilmay zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmog'imiz lozumdir" - deydi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud ahloq" asarida[1].

Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi Asosiy qonunimizning 50 – moddasida "Har kim ta'lim olish huquqiga ega[2].

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishi ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir[3].

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi,”[4] - deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistonda barcha jinsi, tili, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, Respublika hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlandi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida uzluksiz ta’limning barqaror tizimini, ya’ni, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’limni yaratdi va shaxsning ta’lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmini mustahkamlab qo‘ydi. Ta’lim shakli va bosqichlarining ko‘p xilliligi shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim olish huquqini iloji boricha to‘laroq amalga oshirishga imkon beradi[5].

Ta’lim olish huquqining mazmuni shundan iboratki, u O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi uchun ta’lim-tarbiyaning barcha shakllaridan teng foydalanish imkoniyatini beradi. Yurtimizda ta’lim olish huquqi quyidagicha ta’minlanadi, ya’ni, ta’lim olish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish, davlat va nodavlat ta’lim berish muassasalarining tarmog‘ini yaratish, davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning barcha uchun imkoniyati borligi, davlat ta’lim muassasalaridagi ta’limning bepulligi, tayanch (to‘qqizinchi sinf) ma’lumoti olishning majburiyiligi, ta’limning turli shakllarini qo‘llash, ta’lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarga qaram emasligi[6].

Davlat faqat ta’lim olish huquqini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratibgina qolmay, mamlakatdagi maktab ishlarini nazorat ham qilib turadi. Ta’lim sohasida davlat standarti tasdiqlangan, maktablar va boshqa o‘quv yurtlarini bitiruvchilarning bilim darajasiga mos keladigan muayyan o‘lchovlar o‘rnatilgan[7]. Davlat keyingi paytda ancha keng tarmoqqa ega bo‘lgan nodavlat o‘quv yurtlaridagi ta’lim jarayonini ham nazorat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida diniy muassasalar maktab ishlaridan ajratilgan.

Ta’lim huquqini ta’minlash mexanizmida iqtidorli o‘quvchilar va talabalarni qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, ularning ijodiy ta’lim faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan davlat choralari muhim o‘rin tutadi. Buning uchun turli jang‘armalar, bolalar ijod uylari va stipendiyalar ta’sis qilindi, iqtidorli o‘quvchilar va ularning o‘qituvchilarini rag‘batlantirishning mutlaqo yangi shakllari (faxriy yorliq berish bilan cheklanmasdan katta miqdorda pul mukofotlari to‘lash) joriy etildi[8].



Ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirilib, Konstitutsiyada nogironligni bor bolalarga o‘z tengdoshlari bilan bir xil ta’lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish belgilab qo‘yildi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir[9].

Pedagog hodimlarning haq-huquqlari, burch va mas’uliyatlari ilk bor Asosiy Qomusimizda o‘z aksini topdi[10]. Xususan, O‘zbekiston Respublikeasi Konstitutsiyaning 52-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosiy sifatida e’tirof etiladi[11].

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amg‘o‘rlik qiladi”[12], deb belgilandi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ta’lim sohasiga oid 52-moddasiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uning kasb egalari ijtimoiy himoyasini kafolatlash, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashishga yo‘l qo‘yilmasligini mustahkamlash – bularning barchasi mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish jarayoniga to‘siq bo‘layotgan holatlarning oldini oladi[13].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar kelajakda mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi. Zero, eng katta samara beruvchi sarmoya – ta’limga kiritilgan sarmoya hisoblanadi.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
5. Kasimova A. A Rol jennіны v sovremennoy nauke. Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH



ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.

7. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022

8. Inagamova M.M, Joraboev N Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.

9. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022

10. Dadasheva A.A O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI. Uzbek Scholar Journal 15, 10-12

11. Dadasheva A.A Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan (theory and practice) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan,

12. Dadasheva A. A. MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM. Academic research in educational sciences, 117-122

13..Inagamova. M.M O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637

15. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2020 yil 19 may.

16. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud ahloq”. T., “O‘qituvchi”, 1992.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И РЕЗУЛЬТАТ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМ В ЗАКОНОДАТЕЛСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

А.А.Дадашева

д.ю.н., профессор

Салимова Оксана Вахидовна

Студентка 1 курса Направления юриспруденция

Актуальность вопросов, требующих решения на национальном и международных уровнях, определяет вектор развития государств и приоритетов их внутренней и внешней политики. Одним из таких вопросов является гендерное равенство.

Несмотря на давнюю историю развития гендерного равенства, по сей день мировым сообществом прилагаются усилия по его достижению путем реализации положений международных документов и их имплементации в национальное законодательство государств, являющихся его членами. По словам Антониу Гуттериша, Генерального секретаря Организации Объединенных Наций (ООН), *достижение гендерного равенства и расширение прав и возможностей женщин и девочек являются незавершенной задачей нашего времени и величайшей проблемой в области прав человека в современном мире.*

Концепция «гендерное равенство» охватывает равные права и возможности женщин и мужчин в различных областях деятельности общества и государства, в частности, политической, научной и экономической составляющей, правовую защиту прав и интересов, создание равных условий для реализации потенциала и прав на рынке труда.

Гендерное равенство имеет как индивидуальную, так и общественную составляющую, и охватывает множество импликаций, а именно:

- равенство прав – законодательное наделение равными правами лиц мужского и женского пола во всех сферах жизни;
- равенство возможностей – обеспечение (гарантии) на практике равных условий для равного распределения, использования политических, экономических, социальных и культурных ценностей, исключая дискриминацию и ограничение любого пола,

которые негативно влияют на жизнедеятельность и самовыражение;

- обеспечение равных условий для реализации прав и возможностей;
- гендерную симметрию – состояние, при котором принцип равных прав и возможностей для женщин и мужчин реализован на практике [1].

Принципы гендерного равенства отражает статья 2 Всеобщей декларации прав человека, принятой ООН 10 декабря 1948 года: *«Каждый человек должен обладать всеми правами и всеми свободами, провозглашенными данной Декларацией, без какого бы то ни было различия, как-то в отношении расы, цвета кожи, пола, языка, религии, политических или иных убеждений, национального или социального происхождения, имущественного, сословного или иного положения»* [2].

Присоединение Узбекистана ко Всеобщей Декларации прав человека, Международному Пакту о гражданских и политических правах, Международному Пакту об экономических, социальных и культурных правах, Конвенции о борьбе с торговлей людьми и эксплуатацией проституции третьими лицами, Конвенции о политических правах женщин, Конвенции о гражданстве замужней женщины, Пекинской декларации и Платформе действий, Конвенции ООН о борьбе с дискриминацией в области образования, Конвенции ООН о правах ребенка, Конвенциям Международной организации труда (МОТ) №100 «О равном вознаграждении мужчин и женщин за труд равной ценности», №103 «Об охране материнства», №105 «Об упразднении принудительного труда», №111 «О дискриминации в области труда и занятий», №122 «О политике в области занятости», №138 «О минимальном возрасте для приема на работу» послужило необходимой международно-правовой базой для разработки на национальном уровне конкретных мер по имплементации международных стандартов защиты прав женщин в законодательство и практику государственных органов.

Следует отметить, что гендерное равенство в Узбекистане закреплено на конституционном уровне в редакции Конституции от 1992 года, и в новой редакции Конституции от 2023 года в следующих статьях:

19: *«В Республике Узбекистан признаются и гарантируются права и свободы человека согласно общепризнанным нормам международного права и в соответствии с настоящей Конституцией. Права и свободы человека принадлежат каждому от рождения.»*

В Республике Узбекистан все граждане имеют одинаковые права и свободы, равны перед законом независимо от пола, расы, национальности, языка, религии, убеждений, социального происхождения, общественного положения»;

42: «Каждый имеет право на достойный труд, на свободный выбор профессии и рода деятельности, благоприятные условия труда, отвечающие требованиям безопасности и гигиены, на справедливое вознаграждение за труд без какой бы то ни было дискриминации и не ниже установленного минимального размера оплаты труда, а также на защиту от безработицы в порядке, установленном законом.

Запрещается отказывать женщинам в приеме на работу, увольнять с работы и снижать им заработную плату по мотивам, связанным с беременностью или наличием ребенка».

Вместе с тем, в республике разработан и принят нормативно-правовой акт по достижению гендерного равенства - Закон Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» от 02.09.2019 года №ЗРУ-562, который включает в себя такие вопросы как проведение гендерно-правовой экспертизы, формирование гендерной статистики, определяет основные задачи гендерного аудита и основные направления государственной политики в сфере обеспечения равных прав и возможностей для женщин и мужчин, закрепляет полномочия государственных органов в сфере достижения равноправия женщин и мужчин. Также, Постановлением Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 28.05.2021 года №ПС-297-ИВ принята Стратегия достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года.

Наряду с этим, принцип равенства трудовых прав, запрещения дискриминации в сфере труда и занятий, установление неполного рабочего времени для некоторых категорий лиц на определенный срок закреплены в новой редакции Трудового Кодекса Республики Узбекистан от 2022 года в следующих статьях:

4: «Каждый имеет равные возможности в реализации и защите трудовых прав.

Дискриминируются в сфере труда и занятий запрещается. Дискриминацией является установление каких-либо прямых или косвенных ограничений, а равным образом предоставление каких-либо прямых или



косвенных преимуществ в области труда и занятий в зависимости от пола, возраста, расы, национальности, языка, социального происхождения, имущественного и должностного положения, места жительства, отношения к религии, убеждений, принадлежности к общественным объединениям, а также других обстоятельств, не связанных с деловыми качествами работников и результатами их труда...»;

119: «Незаконным является отказ в приеме на работу по причинам, связанным с беременностью или наличием детей...»;

129: «Предварительное испытание не устанавливается при приеме на работу беременной женщины, женщины, имеющей ребенка в возрасте до трех лет либо отца (опекуна), в одиночку воспитывающего ребенка в возрасте до трех лет...»;

142: «Просба работника о временном переводе на другую работу подлежит удовлетворению работодателем:

при наличии медицинского заключения, в соответствии с которым беременная женщина нуждается во временном переводе на более легкую или исключаящую воздействие неблагоприятных производственных факторов работу;

невозможности выполнения прежней работы одним из родителей (опекуном), осуществляющим уход за ребенком в возрасте до двух лет...»;

186 закрепляет понятие «неполное рабочее время», определяя его как сменную работу или неполную неделю с допущением разделения рабочего дня в следующей формулировке: «По соглашению сторон трудового договора работнику при приеме на работу и впоследствии может устанавливаться неполное рабочее время (неполный рабочий день (смена) и (или) неполная рабочая неделя, в том числе с разделением рабочего дня на части).

Работодатель обязан устанавливать неполное рабочее время:

по просьбе беременной женщины, одного из родителей (лицца, заменяющего родителей) ребенка в возрасте до четырнадцати лет (ребенка с инвалидностью в возрасте до шестнадцати лет), а также лица, осуществляющего уход за больным членом семьи в соответствии с медицинским заключением;

по просьбе лица с инвалидностью, если установление рабочего времени для него предусмотрено в рекомендациях медико-социальной экспертной комиссии;



в других случаях, предусмотренных Кодексом или иными правовыми актами о труде.

Неполное рабочее время для перечисленных лиц, устанавливается на удобный для работника срок, но не более чем на период наличия обстоятельств, явившихся основанием для обязательного установления неполного рабочего времени, а режим рабочего времени и времени отдыха, включая продолжительность ежедневной работы (смены), время начала и окончания работы, время перерывов в работе устанавливается в соответствии с пожеланиями работника с учетом условий производства (работы) у данного работодателя. При этом продолжительность неполного рабочего времени и режим работы лиц с инвалидностью должны устанавливаться в соответствии с рекомендациями медико-социальной экспертной комиссии.

При работе на условиях неполного рабочего времени оплата труда работника производится пропорционально отработанному им времени или в зависимости от выполненного им объема работ.

Работа на условиях неполного рабочего времени не влечет для работников каких-либо ограничений продолжительности ежегодного основного трудового отпуска, исчисления трудового стажа и других трудовых прав».

В результате проделанной работы Республика Узбекистан продемонстрировала достижение определенных результатов путем закрепления своей позиции в международных рейтингах. Так, в соответствии с отчетом организации Опен Дата Ватч за 2022 год Узбекистан вошел в топ-20 лучших стран мира набрав 69,7 балла в «Индексе открытых гендерных данных» [3]. В рейтинге СДГ Индекс за 2023 год Узбекистан занял 69 место среди 166 стран, поднявшись на 8 позиций в сравнении с 2022 годом в результате улучшения 10 показателей целей устойчивого развития, включая достижение гендерного равенства [4].

Актуальность данного направления предопределяет принятие мер по улучшению достигнутого по сей день. По статистическим данным за 2022 год, женщины составляют 41,3 % экономически занятого населения, что на 17,4 % меньше экономически занятого мужского населения. Протцент женщин в числе безработных составляет 65,4% [5]. Исходя из статистических данных видно, что женская половина населения составляет большую часть безработных и меньшую



часть экономически активного населения. Причиной, в основном служит невозможность совмещения семейных обязанностей с работой.

Как известно, недоиспользование трудового потенциала женщин затормаживает экономический рост, снижает эффективность функционирования рынка труда и экономики страны в целом.

В селях задействования экономически неактивной части населения страны, в большинстве своем состоящую из женщин, предлагается в качестве возможного варианта рассмотреть имплементацию международных норм по неполному рабочему времени в национальное законодательство республики.

Несмотря на то, что статья 186 Трудового кодекса Республики Узбекистан закрепляет обязательность установления работодателем неполного рабочего времени для определенных категорий и на ограниченный срок, данный вид рабочего времени используется не в полной мере. Установление вида рабочего времени как доступное условие труда на выбор работника и обязательное для выполнения работодателем для всех категорий трудоспособного населения создаст условия применения гибкого рабочего графика прежде всего приемлемого для женщин в Узбекистане, но при этом и не ограничит в правах мужскую половину населения.

Гибкий рабочий график позволит совмещать работу с семейными обязанностями, заняться получением образования в форме очного и заочного обучения, соответственно повысит процент образованного населения, создаст условия для развития предпринимательства, рационального использования кредитных средств для бизнеса.

О положительном эффекте, достигнутом с помощью неполного рабочего времени, может служить примером опыт Республики Ирландия, где программа общественных работ, направленная на длительно безработных и на тех, кто долго не участвовал на рынке труда, предоставляет возможность временной занятости, а также работы на неполный рабочий день. Эксперты говорят о позитивном влиянии данной программы на женскую занятость, так как временная или неполная занятость удобны для женщин, не имеющих возможности работать полный рабочий день [6].

Относительно влияния на смежные сферы с трудовым законодательством при применении условий неполного рабочего времени, задействование экономически неактивной



части населения обеспечит поступление в бюджет республики путем налогообложения, обеспечит трудовой стаж для пенсионного обеспечения в будущем и отчисления в пенсионный фонд, что в свою очередь сократит выплаты пособий безработным.

При этом, следует отметить, что данный шаг позволит не только закрепить законодательно на международном и национальном уровне неполное рабочее время, но и создаст условия для функционирования систем социального обеспечения для трудящихся, занятых неполное время на равных условиях с трудящимися на полное время, приняты меры, облегчающие доступ к производительной и свободно избранной на условиях неполного рабочего времени, отвечающей интересам как работодателей, так и трудящихся [7].

С учетом вышеизложенного, в целях поддержки экономически незадействованного населения республики и создания условий гибкого рабочего графика ратифицированы Узбекистаном Конвенции МОТ №175 «О работе на условиях неполного рабочего времени» с учетом Рекомендации №182 к данной Конвенции послужит основой для принятия дальнейших мер по достижению гендерного равенства в республике и имплементации международных норм в национальное законодательство в сфере трудового законодательства, налогообложения, социального и пенсионного обеспечения.

REFERENCES

1. Крочук М.И. Гендерное равенство как сущность права: статья. – Приволжский научный вестник, 2013 – с. 115.
2. Всеобщая декларация прав человека от 10 декабря 1948 года.
3. См. статью на Портале открытых данных Республики Узбекистан от 22.09.2023 года: [хттпс://дата.егов.уз/рус/неуис/узбекистон-очик-гендер-малуотлар-индексида-697-6](http://data.egov.uz/ru/news/uzbekiston-ochiq-gender-malumotlar-indek-sida-697-6)
4. См. статью Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан от 07.08.2023 года: [хттпс://стат.уз/ру/пресс-тсентр/новости-госкомстата/42618-о-збекистон-барқарор-ривожланиш-мақсадлари-халқаро-рейтингида-8-пог-она-ко-тарилди-2](http://stat.uz/ru/press-tsentr/news-goskomstata/42618-o-uzbekiston-barqaror-rivojlanish-maksadlari-xalqaro-reytingida-8-pog-ona-ko-tarildi-2)
5. См. Гендерную статистику за 2022 год: [хттпс://гендер.стат.уз](http://gender.stat.uz)



6. Гендер маинстреаминг оф эмплоймент полисиес – А сомпаративе ревиюв оф 30 Эуропаан соунтриес. Лухембоург: Оффисе фор Оффисиал Публисатионс оф тхе Эуропаан Соммунитиес, 2008 – п.44.
7. См. статья 9 Конвенции МОТ №175 «О работе на условиях неполного рабочего времени».
8. Закон Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» от 02.09.2019 года №ЗРУ-562.
9. Конституция Республики Узбекистан 2023 года.
10. Международный Пакт о гражданских и политических правах.
11. Постановление Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 28.05.2021 года №ПС-297-ИВ.
12. Рекомендация №182 к Конвенции МОТ №175 «О работе на условиях неполного рабочего времени».
13. Трудовой кодекс Республики Узбекистан от 2022 года.
14. Касимова А.А Рол женщины в современной науке. *Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234*
15. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. *Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.*
16. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - *Academic research in educational sciences, 2022*
17. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.*
18. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - *Academic research in educational sciences, 2022*
19. Dadasheva A.A O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI *Uzbek Scholar Journal 15, 10-12*



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYADA IJTIMOIIY MASALALARNING HUQUQIIY JIHATDAN KAFOLATLANISHI

B. E. Yuldashev

Ilmiy rahbar dotsent, tarix fanlari nomzodi
Iqtisodiyot fakulteti BHT-6 guruh talabalari:
Satibaldieva M. D., G‘aybullaeva S. A

1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillikning mahsuli bo‘ldi, unda suveren mamlakat sifatida mavjudligimiz e‘lon qilib, respublikaning jamiyat va davlat qurilishi, uning iqtisodiy va siyosiy tizimining asosiy tartib-qoidalari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, burch va majburiyatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishi, davlatning ichki va tashqi siyosati kabi masalalar qamrab olindi[1].

Keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Prezident lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis qo‘shma majlisidagi nutqida hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligi munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida Asosiy Qonunimizni jamiyatda bugungi real voqelikka moslashtirish, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish muhim vazifaga aylanganligini ko‘rsatib o‘tilgan edi. Shuni nazarda tutga holda 2022 yil 20 may kuni Oliy Majlis Senati Kengashi va Qonunchilik palatasi Kengashining qo‘shma majlisida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi[2]. Mazkur komissiyaga Konstitutsiyani o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni qabul qilish, jamlash va tahlil qilish, Parlament tomonidan ishlab chiqilgan yangilangan Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasida ko‘rib chiqish, umumxalq muhokamasi natijasida maromiga etkazilgan Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qonun loyihasini referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilish vazifasi yuklatildi[3].

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining birinchi moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat,”[4] – deb e‘lon qilindi. Ijtimoiy davlatda siyosat ijtimoiy adolat



tamoyillariga muvofiq yuritilishi, har bir fuqaroning munosib turmush sifati ta’minlanishi, eng muhimi, ehtiyojmandlarga davlat yordam qo‘lini cho‘zishi e’tirof etiladi[5]. Boshqacha aytganda, ijtimoiy davlatda davlat idoralari bilan jamiyat a’zolarining maqsad va manfaatlari bir-biriga nihoyatda yaqin, mushtarak bo‘ladi. Jaydari aytganda, ijtimoiy davlat fuqarolar haqida g‘amxo‘rlik qilishni o‘zining bosh vazifasi deb biladi[6].

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyada ijtimoiy davlat g‘oyasi shunchaki deklarativ tarzda bayon etilmagan, balki bu g‘oyaning ishlash mexanizmi va kafolatlari aks ettirilgan[7]. Xususan, Konstitutsiyaning 42-48 moddalarida har bir shaxsning mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalalanish, homildadorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirishni taqiqlash, davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnatni taqiqlash, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda ijtimoiy ta’minot olish, davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish kabi mexanizmlar o‘z aksini topgan[8]. Konstitutsiyada inson va fuqarolarning ijtimoiy huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatlari o‘z echimini topgan. Mazkur kafolatlar o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi, birinchidan, inson va fuqarolarning qonun bilan mustahkamlangan huquq va erkinliklarini to‘liq amalga oshirilishini ta’minlash, bu borada davlat idoralari ma’suliyatini qonuniylashtirish. Bu borada Konstitutsiyaning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi,”[9] deb belgilangan. Ikkinchidan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarining amalga oshirilishini mustahkamlashga qaratilgan va qabul qilingan normativ hujjatlarning bajarilishi majburiy ahamiyatga ega bo‘lgan, tegishli idoralari va jamoat birlashmalari, muassasalar va mansabdor shaxslarning qonun yo‘li bilan mustahkamlangan huquqiy faoliyati. Konstitutsiyaning 55-moddasida bu borada “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining



qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi, ”[10] deb ta’kidlangan. Uchinchidan, shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlanishini ta’minlovchi mexanizmni takomillashtirish va maxsus huquqiy ma’yorlar tizimini mustahkamlash. Masalan, Konstitutsiyaning 57-moddasida “Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘radi[11]. Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob’ektlari va xizmatlaridan to‘laonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi”[12], 58-moddasida esa “...Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”[13].

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tahlil qilingan kafolatlarning asosiy vazifasi bir tomondan shaxs huquqlariga to‘sqinlik qiluvchi omillarning oldini olish bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularni amalga oshirish uchun sharoitni yaratishdan iborat.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
5. Kasimova A.A Пол женщины в современной науке. Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH



ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.

7. Dadasheva A.A Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022

8. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.

9. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022

10. Dadasheva A.A O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI. Uzbek Scholar Journal 15, 10-12

11. Dadasheva A.A Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan (theory and practice) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan, 13

12. Dadasheva A.A MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM. Academic research in educational sciences, 117-122

13. Inagamova M.M. O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637



O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARI HIMOYASINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Aqida Abdujabbarovna Dadasheva

Yuridik fanlar doktori, professori

Sunnat Jalil o'g'li Eshpo'latov

Toshkent davlat transport universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, «Xalqaro ommaviy
huquq» kafedrasida 3-bosqich, talabasi

Konstitutsiyaviy institutlaridan biri sifatida e'tirof etilayotgan xotin-qizlarning huquq va majburiyatlari himoya qilinishi va qonun bilan tartibga solinishiga qaratilgan. Xotin-qizlarning huquqiy himoyasi, turmush qurish huquqi, ota-onalar va bolalar huquqlari, ayollar va bolalarni zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligida muhokama qilishga sabab bo'layotgan, shuningdek e'tibor ko'paygan masalalardir. Konstitutsiya va qonunlar yordamida bu muammolar hal etilishiga qaratilgan qator normalar bo'lsa ham, bu sohada yana ko'plab vazifalar va ishlar amalga oshirish uchun qo'llaniladigan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish foydadan holi bo'lmas edi. Zero, ushbu sohada muammolar dolzarblashib bormoqda[1].

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yhatida 2019 yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019 yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yhatidagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNEP) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ta ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yhati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham ushbu ko'rsatkichi bilan o'rtasida qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari orasida Qozog'iston 44, Qirg'iziston 82, Tojikiston 70 o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yhatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan. Endi davlat tashkilotlarida genderni oid audit o'tkaziladi. Bunda ayollar va erkaklar soni nisbatan o'rganiladi, tenglikni ta'minlash bo'yicha holat baholanadi.[2] Shuningdek, qonunchilikka amal qilingan holda yangi takliflar ishlab chiqilgan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. 2019 yil 15 dekabr kuni prezident



mazkur O'RQ-809-sonli hujjatga imzo chekdi. Mazkur qonunda genderga oid audit tushuncha kiritildi. Bunda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi, shuningdek genderga doir kompleks yondashuv o'rganiladi hamda baholanadi[3].

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining IX bobi 42-moddasida, "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega[4].

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi."[5]

Ma'lumki "Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida" konvensiya (1979 yil 18 dekabr, Nyu-York)ga O'zbekiston Respublikasi 1995 yil 18 avgustda a'zo bo'lgan, ushbu Konsvensiyaning 11-moddasida ayollarning mehnat qilishi keltirilib o'tilgan:

1. Xotin-qizlarning ish bilan band bo'lish sohasidagi huquqlari kamsitilishini bartaraf etish, ayni vaqtda erkaklar bilan ayollarning teng huquqlarini ta'minlash maqsadida ishtirokchi-davlatlar barcha tegishli choralarni, jumladan, quyidagi huquqlarni ta'minlash choralari ko'radilar:

- a) barcha insonlarning ajralmas huquqi sifatida mehnat qilish huquqi;
- b) ishga yollashda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish, shu bilan birga ishga yollashda bir xil tanlash mezonlarini qo'llash huquqi;
- c) kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va ish bilan band etish kafolatiga ega bo'lish, shuningdek, shogirdlik, yuqori darajadagi kasb bo'yicha tayyorgarlik va muntazam suratda malaka oshirishni o'z ichiga olgan holda mehnat qilishning barcha imtiyozlari va shart-sharoitlaridan to'liq foydalanish, kasb bo'yicha tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqi;
- d) imtiyozlar olishni ham hisobga olgan holda teng mukofotlanish, bir xil qimmatga ega bo'lgan mehnatga nisbatan

teng sharoitlarga, shuningdek, ish sifatini baholashga teng yondashish huquqi;

e) jumladan, nafaqaga chiqish, ishsiz qolish, kasallik, nogironlik, qarilik va mehnat qobiliyatini yo'qotishdan iborat boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot huquqi shuningdek, haq to'lanadigan ta'til huquqi;

f) sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek, naslni davom ettirish vazifasini saqlab qolish huquqi[6].

2. Ayollarning turmushga chiqmaganligi yoki onaligi sababli kamsitilishining oldini olish va ularga mehnat qilishning samarali huquqlarini kafolatlash maqsadida, ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni amalga oshirish uchun tegishli choralarni ko'radilar:

a) homiladorlik sababli ishdan bo'shatishni yoki homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'tilga chiqarishni yoxud oilaviy ahvol tufayli kamsitishni sanksiyalar qo'llanish tahdidi ostida man qilish;

b) oxirgi ish joyini, lavozimini yoki ijtimoiy nafaqalarini yo'qotmagan holda homiladorlik va tug'ruq bo'yicha haqi to'lanadigan ta'tillar yoki taqqoslama ijtimoiy nafaqalar, to'lanadigan ta'tillar joriy etish;

c) ota-onalar oilaviy burchlarining bajarilishini mehnat faoliyati va jamoat hayotdagi ishtiroki bilan birga qo'shib olib borish imkonini yaratish uchun, jumladan, bolalarni tarbiya qilish muassasalari tarmog'ini kengaytirish yo'li bilan qo'shimcha zarur ijtimoiy xizmat ko'rsatishni rag'batlantirish;

d) ayollar homiladorligi davrida ularning salomatligi uchun zararli deb isbotlangan mehnat turlarida alohida himoyalashni ta'minlash[7].

3. Mazkur moddada o'z aksini topgan huquqlarni himoya qilishga taalluqli qonunchilik ilmiy-texnikaviy bilimlar asosida vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi, shuningdek, zaruratga qarab qaytadan ko'riladi, bekor qilinadi yoki kengaytiriladi.

Mehnat qonunchiligida ayrim ish jarayonlariga ayollarni ishlash mumkin emasligini keltirilib o'tilgan, bu cheklovlar ularning sog'ligi va jismoniy holatiga ta'sir qilishi mumkin[8].

Ayollarning alohida toifalari (homilador, ikki yoshga to'lmagan farzandi bor ayollar va farzandi I-II guruh nogironligi bo'gan ayollar) uchun ish vaqti va jarayonlari uchun ayrim imtoyozlar mavjuddir. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 452-moddasiga asosan, vaqtincha masofadan turib ishlashga o'tish yoki o'tkazish uchun ustuvor huquq beriladigan xodimlar quyidagilar:

- homilador ayollar;

- o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalarning ota-onalari, vasiylari;
- nogironligi bo‘lgan shaxslar;
- yoshga doir pensionerlar;
- nogironligi bo‘lgan shaxslarni yoki oilaning o‘zgarar parvarishiga muhtoj bo‘lgan bemor a‘zolarini parvarishlayotgan xodimlar[9].

Kamsitish deb hisoblanmaydigan holatlar - mehnat va mashg‘ulotlar sohasida xodimlarning huquqlarini mehnatning muayyan turiga xos bo‘lgan talablar yoki yuqoriroq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar (oilaviy vazifalarni bajarish bilan band bo‘lgan shaxslar, voyaga etmaganlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, homilador ayollar va boshqalar) to‘g‘risidagi alohida g‘amxo‘rlik bilan bog‘liq holda asoslangan tarzda farqlash, istisno etish, ularga afzallik berish, shuningdek ularni cheklash[10].

Hozirgi kunda mana shu holatlar bo‘yicha turli sohalarda mehnat qonunchiliklari buzilayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin: Masalan, Maktabgacha ta‘lim muassasasida ishlab dekretga chiqib ketayotgan ayolni ish joyi saqlangan holda unga homiladorlik va tug‘ish nafaqasi beriladi, bunda hodim vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo‘lgan vaqtida ish beruvchi uning o‘rniga boshqa hodim olishga majbur bo‘ladi, shu vaqtda ish beruvchi yangi hodimni ogohlantirishi kerak ya‘ni “*sen kirayotgan joyingni egasi bor lekin u hozir homiladorligi sabab sen bilan mehnat shartnomasini muddatli tuzishga majburman*”[11] deb ogohlantirishi kerak, lekin afsuski ko‘p ish beruvchilar hodimlarni ogohlantirmasdan ishga qabul qilib olib keyin avvalgi hodim (dekretga ketgan) qaytib kelgandan so‘ng, norozilik yuzaga kelmoqda. Shu holatlar bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga juda ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda. Bu masalada huquqlarini tiklab olganlar juda kam, chunki hamma ham o‘z haq-huquqlarini bilmaganligi sababli ishdan bo‘shashga ham tayyorlar ko‘pchilikni tashkil etadi[12].

Bugungi kunda muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz Xotin-qizlari uchun juda katta imkoniyatlar yaratib bermoqda, jumladan oliy ta‘lim sohasida xotin-qizlarga alohida foizsiz talaba kreditlari, magistraturaga topshirganlar uchun kontrakt pulini davlat tomonidan to‘liq qoplab berilishi bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda, chunki buyuk allomalarimizdan biri Mirzo Ulug‘bek bobomiz tomonidan Buxorodagi madrasaning peshtoqiga hadisdan olingan lavhani: “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir” deb yozdirib qo‘ygan.

Prezidentimiz 2023 yil 24-noyabr kuni Ozarbayjonning Baku shahrida bo‘lib o‘tgan BMT ning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi sammitida: “Hurmatli delegatsiya ishtirokchilar, deb boshlangan nutqining 7-qismida, SPEKA doirasida ishbilarmon xotin-qizlarning faol tashabbuslarini va aniq rejalarini doimiy va tizimli rag‘batlantirish maqsadida SPEKA Tadbirkor ayollari kengashini tuzish bo‘yicha taklifimizni ko‘rib chiqishingizni so‘rayman[13].

Shuningdek, Kengash doirasida mamlakatlarimiz ravnaqi va iqtisodiy taraqqiyotiga, umumiy hamkorligimizga beqiyos hissa qo‘shib kelayotgan ayollarni “SPEKA e’tirofi” xalqaro mukofoti bilan taqdirlashni taklif etaman.”[14]

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo‘lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo‘shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Bu, o‘z navbatida, hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy etibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo‘lib kelayotganining yorqin dalolatidir. Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘lik ilgarilab ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma‘naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 y.
2. Aliyeva K.R “O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta‘minlashning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari” ilmiy ishi, Toshkent. 2019 y.
3. Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida 1995-yil 18-avgust
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.2023 y.
5. Kasimova A.A [Rol jeniçını v sovremennoy nauke](#). Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
7. Dadasheva A.A Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga



- oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
8. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
9. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
10. Dadasheva A.A [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI](#). Uzbek Scholar Journal 15, 10-12
11. Dadasheva A.A [Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan \(theory and practice\) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...](#)T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan, 13
12. Dadasheva A.A [MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM](#). Academic research in educational sciences, 117-122
13. Inagamova M.M. O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezon. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637.
14. Inagamova M.M. Ayol huquqlarini himoya qilishda ichki ishlar organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi // Falsafa va huquq ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy-huquqiy jurnal. №1. –T.: 2020. –B. 64-68.



KONSTITUTSIYADA BELGILANGAN XAVFSIZLIK VA MUDOFAA TIZIMLARI

Aqida Abdujabbarovna Dadasheva

Yuridik fanlar doktori, professori

Suhrob Komilo‘g‘li Allanazarov

Toshkent Davlat Transport Universiteti,

Iqtisodiyot fakulteti, «Xalqaro ommaviy huquq» kafedrası

3-bosqich, YU-2 guruh talabasi

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan xavfsizlik va mudofaa tizimlari” mavzusi zamonaviy sharoitda dolzarbdir. Globallashuv va terrorizm, ekstremizm va uyushgan jinoyatchilik kabi zamonaviy tahdidlar sharoitida milliy xavfsizlikni ta‘minlash har bir davlat uchun ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Shuni ham ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizning asosiy huquqiy hujjati bo‘lib, davlat xavfsizlik va mudofaa tizimi faoliyat ko‘rsatish tamoyillari va normalarini belgilab beradi. Ushbu mavzuni o‘rganish O‘zbekistonning davlat xavfsizlik va mudofaa sohasidagi huquqiy va institutsional asoslarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. O‘zbekistondagi davlat xavfsizlik va mudofaa tizimlarini o‘rganish davlat o‘z fuqarolarini qanday himoya qilishini, tahdidlarning oldini olish uchun qanday choralar ko‘rilayotganini, bu jarayonda qanday muassasa va tashkilotlar ishtirok etayotganini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, ushbu mavzuning dolzarbligi davlat va uning fuqarolari barqarorligi va farovonligini ta‘minlash uchun davlat xavfsizlik va himoya muhimligini tushunishdan iborat[1].

Xavfsizlik kuchlaridan foydalanish: huquqni muhofaza qilish va xavfsizlik organlari davlat xavfsizlikni ta‘minlash va fuqarolarni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.[2] Qonunchilik chora-tadbirlari: Konstitutsiya va boshqa huquqiy hujjatlar milliy xavfsizlik va mudofaa tizimi faoliyatining tamoyillari va normalarini belgilaydi. Turli tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi hamkorlik: jamoat tashkilotlari, biznes sektori va davlat idoralari milliy xavfsizlik va mudofaa sohasida umumiy maqsadlarga erishish uchun hamkorlik qiladi. Ilg‘or texnologiya va innovatsiyalar: dronlar va video kuzatuv kabi texnologiyalarning yuksalishi xavfsizlik va xavfsizlik amaliyotlarini yaxshilashga yordam beradi. Xodimlarni o‘qitish va tayyorlash: Davlat xavfsizlik va mudofaa bo‘yicha mutaxassislar doimiy ravishda o‘zlarini



o'qitishlari va yangi muammolar va tahdidlarni hal qilishga tayyor bo'lishlari kerak. Profilaktik chora-tadbirlar: huquqbuzarliklarning oldini olish va korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirish xavfsizlik xavfini kamaytirishga va jinoyatchilarni o'z faoliyatining dastlabki bosqichida ushlab turishga yordam beradi. Bu usullar O'zbekistonda davlat xavfsizlik va mudofaani ta'minlashda birgalikda qo'llaniladi[3].

Tadqiqot natijalari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning xavfsizlik va muhofaza tizimlari belgilangan va ularni o'rganishga ta'lim berish tizimlari amalga oshirilgan. Bu tizimlar qonunlar va qoidalar tizimi, xavfsizlik kuchlari tizimi, muhofaza tizimi, xavfsizlik tizimini yuritish organlari va xalqaro hamkorlik tizimidan iborat. Bu tizimlar davlatning xavfsizlik va muhofaza sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi organlarni, ularning vazifalarini va tashkil etilishini, ularning faoliyatini nazorat qilish organlarini belgilaydi. Ayniqsa, xalqaro hamkorlik tizimida xavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikning tashkil etilishi va uning asosiy maqsadlari haqida ma'lumotlar beriladi[4].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu mustahkamlab qo'yilgan ushbu normalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 27 bob Mudofaa va xavfsizlik deb nomlangan bo'lib unda 152 va 153-moddalar keltirilgan bo'lib, 152-moddada "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi." deb qayd etilgan. 153-moddada esa "O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun etarli darajada Qurolli Kuchlariga ega." [5]

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizligi to'g'risidagi qonunda ushbu organning asosiy vazifalari ham keltirib o'tilgan, ya'ni O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat[6].

Davlat xavfsizligi bu — O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro'yobga chiqarilishini ta'minlashdir[7].



Davlat xavfsizlik xizmati huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga bo'lgan tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

- Davlat xavfsizlik xizmati organlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi:

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati Davlat xavfsizlik xizmati organlari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonidir[8].

Davlat xavfsizligi xizmatining qanday majburiyatlari mavjud?

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini va boshqa davlat manfaatlarini tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishi;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida ham keltirib o'tilgan. Doktrina:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquqning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining prinsiplari va normalariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi;

O'zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati haqida:

O'zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

mustaqillikni, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish;

Qurolli Kuchlar, ularning asosiy vazifalari va ularni qo'llash asoslari:

Qurolli Kuchlarni qo'llash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondonining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi[9].

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilikda belgilangan doirada mudofaa vazifalarini hal qilishda ishtirok etadi[10].

Mudofaa to'g'risidagi qonunning 8-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mudofaa sohasidagi vakolatlari berilgan bo'lib:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda: O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qiladi, hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi[11].

O'zbekiston Respublikasini, uning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir.

Xavfsizlik va mudofaa haqida gap ketar ekan IIV va Milliy Gvardiyaning o'rnini ta'kidlab o'tish zarur, chunki bu tuzilmalar ham O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy birligini saqlash, uni muhofaza qilish va eng muhimi konstitutsiyaviy tuzumni har qanday yot kuchlardan himoya qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu to'g'risida IIV va Milliy Gvardiya to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida keltirib o'tilgan va ularning vazifalari belgilab qo'yilgan[12].

Ichki Ishlar organlari to'g'risidagi qonunining 2 va 27-moddalarida aynan Konstitutsiyaviy tuzum va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish to'g'risida keltirib o'tilgan:

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat[13].

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga birinchi marta qabul qilingan fuqarolar quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

“Men, (famiyasi, ismi, otasining ismi), ichki ishlar organlaridagi xizmatga kirar ekanman, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, mamlakat tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligini mustahkamlash borasidagi burchimni va zimzamga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan, sidqidildan bajarishga va'da beraman[14].

Vatanimga va O'zbekiston xalqiga sodiq bo'lishga qasamyod qilaman”.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risidagi qonunning 20-moddasida ham konstitutsiya talablarini bajarish haqida keltirib o'tilgan:

Milliy gvardiyaga harbiy xizmatga (xizmatga) kirayotganda harbiy xizmatchilar (xodimlar) quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

“Men (famiyasi, ismi, otasining ismi) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga harbiy xizmatga (xizmatga) kirar ekanman, O'zbekiston xalqi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga sadoqatli bo'lishga, Vatanga qasamyodga, Jangovar Bayroqqa sodiq qolishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablarini, o'z xizmat burchimni so'zsiz hamda vijdonan bajarishga, har qanday sharoitda xiyonat va sotqinlik qilmaslikka, o'zimning jangovar shayligim uchun shaxsan javobgar bo'lishga, mardlik va fidokorlik bilan, o'z hayotimni ayamadan xalq va davlat manfaatlarini himoya qilishga qasamyod qilaman”[15].

Umumiy xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tizimlar mamlakatimiz tinchligi va barqarorligi uchun juda zarur. Chunki, davlatning konstitutsiyaviy tuzumi va aholining konstitutsiyaviy huquqlarini har qanday ichki va tashqi dushmanlardan muhofaza qilish, davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligini ta'minlash hamda aholining osoyishta hayot tarzini ta'minlashda alohida o'rin tutadi[16].

Konstitutsiyaviy tuzumni muhofaza etishni ham 2 turga bo'lish mumkin: ichki va tashqi xavfsizlik. Ichki xavfsizlikni saqlashda ikki asosiy kuch, Ichki Ishlar organlari va Milliy Gvardiya tuzilmalarni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Bu ikki tuzilma mamlakatimiz ichkarisida tinchlik, tartibni saqlash va aholining xavfsizligini saqlashga ma'suldir. Tashqi xavfsizlikka misol sifatida quyidagi ikki tizimni ko'rsatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlarining chegarada va davlat tashqarisidan bo'luvchi xavf xatar va ta'sirlarni bartaraf etish ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu kuch ishlar tuzilmalarning yana bitta umumlashtirib turuvchi jihati shundaki, davlatimizning har qanday rangli inqiloblar, fuqarolik urushlari, davlat to'ntarishi, terrorizm, diniy ekstremizm, ko'p millatli va turli xil diniy konfessiyalar o'zaro tolerantlikda yashovchi xalqimizning o'rtasiga nizo keltirib chiqaruvchi yoxud shunga sabab bo'luvchi omillarni oldini olish va ularga qarshi kurashishdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik to'g'risida 15.03.2018



3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonun 12.08.2016
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to‘g‘risidagi qonun 18.11.2020 O‘RQ-647-son
5. O‘zbekiston Respublikasining qonuni mudofaa doktrinasi to‘g‘risida 19.01.2018 O‘RQ-458-son
6. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Mudofaa to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 11.05.2001, 211-II-son
7. Kasimova A. A. [Rol jennitiny v sovremennoy nauke](#). Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
8. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
9. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
10. . Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
11. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
12. Dadasheva A.A [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI](#) Uzbek Scholar Journal 15, 10-12
13. Dadasheva A.A [Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan \(theory and practice\) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...T.](#): Publishing house of the National university of Uzbekistan, 13
14. Dadasheva A.A, [MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM](#). Academic research in educational sciences, 117-122
15. Inagamova M.M, O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637
16. Inagamova M.M, G.Tastanbekova. Yangi O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoyasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim jihatlari. /Jamiyat va innovatsiyalar –Obщestvo i innovatsii –Society and innovations. № 2 (2023). B.136-141
17. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115.



YANGI O'ZBEKISTONNING MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SALOHIYATI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Foziljon Sirojiddin o'g'li Xodjayev

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Har bir mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash asosiy masala bo'lib, bunda davlat asosiy rol o'ynaydi.

“Mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini turli tahdidlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash barcha yutuqlarimizning bosh garovidir” - deb ta'kidlaydi Prezident. Shuning uchun, dastlabki yillardan boshlab milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish, uning asosini yaratuvchi qonunlarni yaratish ishlari amalga oshirildi. Milliy xavfsizlik masalasida yagona davlat siyosati bo'lishiga, barcha siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, harbiy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarning uyg'unlashgan tizimini yaratishga erishish yo'lidan borildi.[1]

Milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo'ljallangan strategiyasi tamoyillari 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning sessiyasida aniq bayon qilib berilgan. 1996-yil 24-apreldagi Oliy Majlis sessiyasida — Milliy xavfsizlik to'g'risidagi Qonun muhokamaga qo'yildi. 1997-yilning avgust oyida bo'lib o'tgan Oliy Majlis sessiyasida esa Respublikaning milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilindi. [2] Milliy xavfsizlik endi faqat davlat xavfsizligini ko'zda tutmay, shaxs huquq va erkinliklarini; jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini; davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini saqlashni ham ko'zda tutadi. Demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ma'naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishining asosiy sharti va garovi - mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va ko'z qorachig'iday asrashdir, - degan so'zlar mamlakatimiz xavfsizligining ahamiyatini yanada to'laroq ko'rsatadi.[3]

Xavfsizlik va uni ta'minlash usullaridan bo'lgan mudofaa ahamiyati yuqoriligi e'tiborga olinib, shu masalalarning asoslari Konstitutsiyaviy tartibda mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyamizning XXVII bobi mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan.



Konstitutsiyaning 152-moddasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi shaklidagi konstitutsiyaviy normada o'z ifodasini topgan. [4]

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda mamlakat Prezidenti huzurida tuzilgan maslahat organi - Xavfsizlik kengashi katta rol o'ynaydi. U milliy xavfsizlik bilan bog'liq barcha masalalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, shunga mas'uldir.

Mudofaa, mamlakat xavfsizligi doimiy e'tibordagi masala. Keyingi vaqtlarda jahondagi bo'layotgan voqealar ham buning dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Shu o'rinda yana bir masala — mamlakatimiz mudofaa tizimining tashkiliy tuzilmasi, uning harbiy-jangovar holati, askar va ofitserlarning ma'naviy va ruhiy tayyorgarlik darajasi bugungi tez o'zgarayotgan davr talablaridan ortda qolayotganini qayd etish lozimdir" - deb qilinadigan ishlarni belgilab berdi.

2018-yil 9-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasini to'g'risida»gi Qonun mamlakat mudofaasini hozirgi kun talablariga javob berishini ta'minlashga qaratilganidir. Unda qayd qilinishicha, O'zbekiston Respublikasi Doktrinasini mudofaa xususiyatiga ega. Mamlakatimiz hech bir mamlakatni o'zining dushmani deb hisoblamaydi. Shunday mamlakatlar borki, o'z doktrinalarida aniq bir davlatlarni o'zining dushmani deb ko'rsatib qo'ygan. O'zbekiston bunday yo'l bilan bormadi va barcha mamlakatlar bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda, o'zaro naf ko'rish, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo'li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning tan olish asosida qurishni belgilab oldi. [5]

2018-yildan boshlab «Milliy xavfsizlik xizmati» tubdan islohot qilishga 2018-yil 14-martdagi Prezident Farmoni bilan Milliy xavfsizlik xizmati "Davlat xavfsizlik xizmati" ga aylantirildi.

Joriy yilning 11-aprelida "Mudofaa Vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, so'nggi yillarda milliy armiyamizning davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorligi yo'lga qo'yildi, xalqimizning armiyaga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlandi. [6]



O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini, jangovar va milliy ruhini hamda jamiyatda harbiy xizmat nufuzini oshirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Jumladan, Jamoatchilik kengashi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga shaffoflik va oshkorlikni ta’minlash, “Xalq va armiya — bir tanu bir jon” degan ezgu g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarish borasida yaqindan ko‘maklashib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini to‘g‘risida jamoatchilik hamda xalqaro hamjamiyatni tizimli ravishda xabardor qilib kelmoqda. [7]

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining ijobiy tajribasini e’tiborga olgan holda uning faoliyati samaradorligini oshirish harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari, shuningdek, harbiy pensionerlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor berildi. [8]

Shunisi quvonarliki, O‘zbekiston qurolli kuchlari bo‘yicha 2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida beshinchi va dunyoning 145 mamlakati orasida 62-o‘rinni egalladi.

Reytingga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlari orasida O‘zbekiston armiyasi harbiy salohiyat bo‘yicha birinchi o‘rinni egallagan. Chegaradosh mamlakatlar: Qozog‘iston 63-o‘rin, Turkmaniston 82-o‘rin, Qirg‘iziston 107-o‘rin, Afg‘oniston 114-o‘rin, Tojikiston esa 120-o‘rinda qayd etilgan. O‘zbekistonning mudofaa budjeti 692,5 mln dollarga baholangan.

Xulosa o‘rnida, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning maqsadi - mamlakat tinchligi va osoyishtaligini saqlashga va ishonchli himoya qilishga qodir, tezkor, har jihatdan yaxshi ta’minlangan Qurolli Kuchlarni shakllantirish hisoblanadi. Shu maqsadda mamlakat hududida harbiy-ma’muriy birliklar – harbiy okruglar tuzildi. Soni va tuzilishi, professional tarkibi jihatidan eng maqbul armiya tuzish vazifasi belgilandi va u amalga oshirib kelinmoqda. [9]

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug_ xalqning ishi ham ulug_, hayoti yorug_ va kelajagi farovon bo‘ladi. (kirill alifbosida). T. —O‘zbekiston. 2019. 3-tom, 49-bet.



2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005, 5-6-son, 151-modda.
3. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta'minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (tahliliy-statistik ma'lumotlar asosida). *Multidisciplinary Scientific Journal*.
4. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risidagi 2018-yil 9-yanvardagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
5. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligiga va bukilmas irodasiga bog'liq. - T.: —O'zbekiston, 2004.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz
7. Inagamova M.M KONSTITUTSIYA VIY ISLOHOTLARDA INSON–JAMIYA T–DAVLAT MASALALARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2)*, 59-64
8. Dadasheva A.A.. O'zbekiston Respublikasi–Konstitutsiyaviy Islohotlar Davr Talabi (2022) *Academic research in educational sciences 3 (10)*, 288-291
- Egamberdieva N.X..Voyaga etmagan shaxsning hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zararlarni qoplashning ayrim masalalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining AXBOROTNOMASI
9. Kasimova A.A Dopros podozrevaemogo i obvinyaemogo: nekotorye protsessualnye aspekty Ekonomika, upravlenie i pravo: innovatsionnoe reshenie problem, 93-95
10. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115.



FUQAROLIK PROTSESSIDA SUD BUYRUG‘INI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR

Nargiza Xalimbayevna Egamberdiyeva

Yu.f.n. dotsent

Beknazarov Izzat

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Yurisprudensiya talabasi

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon mamlakatimizda qonun ustuvorligi hamda sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish barobarida fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko‘rishni nazarda tutadi. [1]

Sud faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash hamda fuqarolarning odil sudlovga to‘sqinliksiz erishishini ta‘minlashda sudda ish yuritishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2016 yil 21 oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4850-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Sud huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchlihimoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar Dasturi”ning 28-bandida jinoyat protsessiga ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sudda ish yuritishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash nazarda tutilgan edi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, sudda ish yuritishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish nafaqat jinoyat protsessi uchun, balki fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish uchun ham birdek muhim hisoblanadi. Ayniqsa yildan-yilga ko‘rib hal qiluv qarori chiqarilayotgan ishlar soni ortib borayotgan fuqarolik ishlari uchun sudda ish yuritishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. [2] Ma’lumotlarga qaraganda, so‘nggi besh yil ichida faqatgina fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan



ishlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari 3,4 barobar ko‘paydi va 2012 yilda 2 milliondan ziyod hujjatni tashkil etdi. Shuningdek, tuman sudlari tuzilmasida, hududiy joylashuvda, sudyalar sonidagi mavjud jiddiy nomutanosibliklar ishlarni ko‘rib chiqish sifatiga salbiy ta‘sirini o‘tkazmoqda. Sudyalar ish yuklamalarining yildan-yilga ortib borishi esa sudda ko‘rilayotgan fuqarolik ishlarini hal etilishini kechikishiga, sud qarorlarining sifatini tushib ketishiga, qonunga zid, asossiz sud qarorlarining chiqarishi kabi holatlarga sabab bo‘lmoqda. [3]

O‘z navbatida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari tomonidan odil sudlovni sifatli amalga oshirilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilinishini ta‘minlash maqsadida soddalashtirilgan tartibda ish yuritishning mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligida hozircha yagona bo‘lib turgan buyruq tartibida ish yuritish institutini yanada takomillashtirish, bu borada xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasini chuqur tahlil qilgan holda asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu ma‘noda, O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 22 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksini tasdiqlash haqida”gi O‘RQ-460-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi tasdiqlandi va 2018 yilning 1 apreldan kuchga kirishi belgilandi. [4]

Mazkur Kodeksda ham Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida nazarda tutilgan huquqlar o‘z ifodasini topadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasida sud orqali himoyalani huquqi, 4-moddada esa sudga murojaat qilish shakllari belgilandi. Ayniqsa, sudga murojaat qilishning zamonaviy shakllari, ya‘ni elektron shaklda murojaat qilish shakli va tartibining belgilanishi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan sud orqali himoyaning samarali amalga oshirilishini ta‘minlashga xizmat qiladi. [5]

Yangi Fuqarolik protsessual kodeksiining 171-moddasida sud buyrug‘i chiqarishning quyidagi talablari o‘z ifodasini topgan:

- 1) talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo‘lsa;
- 2) talab yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olingan bo‘lsa;
- 3) kommunal xizmatlar yoki aloqa xizmatlari to‘lovi bo‘yicha qarzdorlikni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
- 4) voyaga etmagan bolalar uchun alimentlar undirish to‘g‘risidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog‘liq bo‘lmagan talab arz qilingan bo‘lsa;



5) hisoblangan, lekin xodimga to‘lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni undirish haqida talab arz qilingan bo‘lsa;

6) fuqarolardan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;

7) ijara shartnomasida belgilangan ijara to‘lovlari muddatida to‘lanmaganligi sababli ushbu to‘lovlarni undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;

8) xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari a‘zolaridan majburiy badallar va to‘lovlarni undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;

9) yo‘zma bitim mavjud bo‘lgan taqdirda, undiruvni qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta‘minoti bo‘lgan ko‘char mol-mulkka qaratish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa.

Ta‘kidlash kerakki, notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan talab yuzasidan sud buyrug‘ini chiqarish Rossiya, Belarus, Ozarbayjon va Qozog‘iston FPKda ham o‘z ifodasini topgan. Biroq Belarus FPKning 394-moddasida bundan pul mablag‘larini to‘lash majburiyatini keltirib chiqarishga asos bo‘ladigan notarial tasdiqlangan bitimlar mustasno ekanligi belgilangan. [5]

Qonun hujjatlarimizdagi sud buyrug‘ini chiqarishga asos bo‘ladigan “agar voyaga etmagan bolalar uchun alimentlar undirish haqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog‘liq bo‘lmagan talab arz qilingan”ligi to‘g‘risidagi normadan farqli ravishda Belarus FPKning 394-moddasi birinchi qismi 2-bandida “otalikni belgilash” tushunchasi bilan birga “onalikni belgilash” tushunchasi ham qo‘llanilgan. Rossiya va Ozarbayjon FPKda otalik (onalik) borasida nizolashilayotgan yoki boshqa manfaatdor shaxslarni jalb qilish zarurati bilan bog‘liq bo‘lmagan talab bo‘yicha sud buyrug‘ining chiqarilishini istisno etadi. Bu borada Qozog‘iston FPK bilan O‘zbekiston FPKda normalar bir-biriga o‘xshash, ya‘ni ushbu normalarda agar voyaga etmagan bolalar uchun alimentlar undirish haqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog‘liq bo‘lmagan talab bilan arz qilingan bo‘lsa, sud buyrug‘i chiqarish nazarda tutiladi. [6]

Rossiya FPKda esa aksincha, hisoblangan, lekin xodimga to‘lanmagan ish haqi bilan birga xodimga hisoblangan, lekin to‘lanmagan ta‘til uchun to‘lanadigan summani, ishdan bo‘shagan vaqtdagi va (yoki) boshqa to‘lovlarni undirish haqidagi talablar bilan arz qilinganda ham sud buyrug‘ini chiqarish mumkin.

Shu o‘rinda sud buyrug‘ini chiqarishga asos bo‘ladigan yuqoridagilarga o‘xshash normalar Belarus FPKda mavjud emasligini ta‘kidlash mumkin. [7]



Yuqoridagilardan kelib chiqib, yangi tahrirdagi FPKning 171-moddasiga quyidagi o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish taklif qilinadi:

1) ichki ishlar organlari, davlat ijro bo‘linmalari qarzdorni yoki uning mulkini qidirish bo‘yicha xarajatlarning o‘rnini qarzdor tomonidan qoplash to‘g‘risidagi talab arz qilingan bo‘lsa;

2) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi (sug‘urta tashkiloti) tomonidan qarzni undirish to‘g‘risidagi talab arz qilingan bo‘lsa;

3) aloqa xizmati bo‘yicha qarzlarni undirish to‘g‘risidagi talab arz qilingan bo‘lsa;

4) yagona jamg‘arib boriladigan pensiya fondiga majburiy pensiya to‘lovlarini undirish haqidagi talab arz qilingan bo‘lsa.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: 2023.
2. Sh.M. Mirziyoev. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. –T.: 2022
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda PF-269-sonli «Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmon;
4. Inagamova M.M KONSTITUTSIYA VIY ISLOHOTLARDA INSON–JAMIYA T–DAVLAT MASALALARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 59-64
5. Dadasheva A.A.. O‘zbekiston Respublikasi–Konstitutsiyaviy Islohotlar Davr Talabi (2022) Academic research in educational sciences 3 (10), 288-291
6. Egamberdieva N.X..Voyaga etmagan shaxsning hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zararlarni qoplashning ayrim masalalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining AXBOROTNOMASI
7. Kasimova A.A Dopros podozrevaemogo i obvinyaemogo: nekotorye protsessualnye aspekty Ekonomika, upravlenie i pravo: innovatsionnoe reshenie problem, 93-95

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA SUD HOKIMIOYATI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD, dotsent

Mamayusud Abduxoliq o‘g‘li Qudratov

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Bugungi kunda yurtimizda mustaqillikka erishganimizdan buyon butunlay yangicha va o‘ziga xos islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik va qonuniylikni ta‘minlashga qaratilgan islohotlardir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIII bobi sudlar faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, 2023 yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendumga ko‘ra, Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo‘lmaydi. Avvalgi tartibga ko‘ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, Oliy sud raisi va o‘rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o‘rinbosari, nisbatan ham tatbiq etiladigan bo‘ldi.

Shu asnoda, Prezidentimizning 2022-yil 22-dekabrdagi Murojaatnomasida yurtimizda qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor berilgan.

Prezidentimiz ta‘kidlagandek, oxirgi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh qilish borasida 40 dan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan, davlat hokimiyatining muhim tarmog‘i bo‘lgan sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Mustaqil, ochiq va shaffof sud tizimini shakllantirish hamda xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda institutsional islohotlarni hayotga tatbiq etish bugungi kunda davlatimiz siyosatida ustuvorlik kasb etmoqda. Ayniqsa, odil sudlovda ochiqlik, jamoatchilik mexanizmi qo‘llanilishi, sud hukmi qabul qilinishida insonparvarlik tamoyili namoyon bo‘lishi aholi haq-huquqlari, manfaatlarini qonuniy kafolatidir. [1]

Albatta, buni sud-huquq sohasiga katta e‘tibor qaratilayotgani natijasi, deyish mumkin. Binobarin, tizimda



so‘nggi yillarda tatbiq etilayotgan muayyan chora-tadbirlarga ko‘ra, avvalo, sudlarning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi. Sudlarni moliyalashtirish tizimi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Prezidentimizning 2021 - yil 13 - yanvardagi “Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [2] Farmoniga muvofiq, sudya va sud organlari xodimlarining ish haqlari hamda qo‘shimcha to‘lovlari to‘liqligicha Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Shuningdek, sudyalarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilgani ham e‘tiborga molik. Bular, albatta, sudning mustaqilligini ta‘minlovchi muhim kafolat bo‘lib xizmat qilmoqda. Yana bir muhim jihat, mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham tizimdagi islohotlar huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Zero, Bosh qomusimizda sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashga oid alohida modda kiritilgani sudlar mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. [3]

Sudyalik lavozimida faoliyat yuritish har jihatdan mas‘ullik, fidoyilikni talab etishi hammamizga yaxshi ma‘lum. Shu bois, qonunchilikka ko‘ra, ushbu vazifalarga nomzodlarni saralash va tayinlashning yangi tartib-taomillari joriy etildi. Xususan, sudya lavozimida bo‘lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o‘n yillik muddati, so‘ng muddatsiz davri belgilandi. [4] Sudya lavozimida bo‘lishning ushbu tartibi sudyadan zimmasiga yuklatilgan vazifani namunali va vijdonan bajarishni talab etishi bilan bir qatorda, lavozimiga keyingi muddatga qayta saylanishi yoki tayinlanishi, o‘z vazifalarini namunali ado etgach, keyinchalik o‘n yilga va hatto muddatsiz davrga saylanishi yoki tayinlanishi uchun rag‘batlantiruvchi qoida ham bo‘lib xizmat qilmoqda.

Albatta, salohiyatli, har tomonlama malakali sud kadrlarining shakllanishi, odil sudlov sifatini oshirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan muhim tadbirlardan biri amalga oshirilgani diqqatga sazovor. Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlashda ochiq, oshkora va muqobil tanlov tizimini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadigan Sudyalar oliy kengashi tashkil etilgani bunga yaqqol misoldir. [5] Kengash tarkibining kamida yarmini sudyalar hisobidan shakllantirish, uning tarkibiga fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarini kiritish tartibi belgilanib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar uning tarkibidan chiqarildi. O‘z-o‘zidan anglashiladiki, bu kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida yurtimizda olib



borilayotgan islohotlarga hamohang ekani bilan yanada ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish mexanizmi takomillashtirildi. Ya’ni, uning asoslari aniqlashtirilib, sud raislarining sudyalarga nisbatan intizomiy ish qo‘zg‘atishga oid vakolati tugatildi. Bu ham sudyalarning samarali faoliyat olib borishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sohadagi islohotlarning izchil davomi sifatida yana bir muhim tashabbus ro‘yobga chiqarildi. Ya’ni, mamlakatda yagona sud amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Shu maqsadda Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi. Ushbu islohot, pirovardida, sud tizimini boshqarishdagi bir-birini takrorlovchi funksiyalarni bartaraf etishga hamda yagona sud amaliyotini shakllantirishga olib keldi. [6]

Bundan tashqari, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar birlashtirildi. Viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo‘yicha, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat’iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda viloyat darajasidagi umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi. [7] Albatta, bularning barchasi sud himoyasini ta’minlashdagi ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, shu bilan birga, sud organlarining amaldagi tuzilishini zamon talablari va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda katta rol o‘ynadi. [8]

Sud tergovi jarayonida inson huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanligi tamoyilini amalda ro‘yobga chiqarish maqsadida jinoyat sudlarida dastlabki eshituv bosqichi joriy etildi. Mazkur institut AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya shu jumladan MDH mamlakatlarida ham joriy etilgan.

Aytib o‘tish joizki, 2021 yil 15 oktabr kuni Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishida Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi ishtirokchi-davlatlarining Oliy (yuqori) sudlari raislari kengashini tashkil etish to‘g‘risida bitimni tasdiqlandi. Ushbu bitimda O‘zbekiston Oliy sudini mazkur xalqaro shartnomaning amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilandi. [9]

Kengash faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qilib, odil sudlovni amalga oshirish, MDHga ishtirokchi-davlatlar hududida yashovchi (joylashgan) shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi sud organlari hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari va shakllarini aniqlash va MDH doirasida qabul qilingan huquqiy hamkorlik sohasidagi xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlarni amalga oshirishda ko‘maklashish va MDH doirasida davlatlararo munosabatlarni huquqiy tartibga solishni



takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan.
[10]

Xulosa qilib aytiladigan bo‘lsak, sud hokimiyatida olib borilgan institutsional o‘zgarishlar mamlakatimizda sudlarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish hamda odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

REFERENCES

1. Sud va huquqni muhofa qiluvchi organlar darslik. Toshkent 2020
2. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 06/21/6134/0021-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.01.2023-y., 06/23/12/0034-son)
3. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.07.2018-y., 06/18/5482/1506-son; 13.01.2021-y., 06/21/6134/0021-son; 21.01.2021-y., 06/21/6143/0052-son; 11.03.2021-y., 06/21/6186/0200-son, 20.05.2021-y., 06/21/6230/0473-son)
4. Sud va huquqni muhofa qiluvchi organlar darslik. Toshkent 2020
5. Inagamova M.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta‘minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (tahliliy-statistik ma‘lumotlar asosida). Multidisciplinary Scientific Journal.
6. Inagamova M.M. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
7. Inagamova M.M KONSTITUTSIYA VIY ISLOHOTLARDA INSON–JAMIYA T–DAVLAT MASALALARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 59-64
8. Dadasheva A.A.. O‘zbekiston Respublikasi–Konstitutsiyaviy Islohotlar Davr Talabi (2022) Academic research in educational sciences 3 (10), 288-291
9. Egamberdieva N.X.Voyaga etmagan shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga etkazilgan zararlarni qoplashning ayrim masalalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining AXBOROTNOMASI
10. Касимова А.А Допрос подозреваемого и обвиняемого: некоторые протессуальные аспекты Экономика, управление и право: инновационное решение проблем, 93-95



YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Abdurahmon Rustam o‘gli Fayziyev

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–5843-son Farmoni bilan davlat xizmatida tub islohotlarga zamin hozirlandi. O‘zbekiston tarixida ilk bora qonunchilik hujjatida davlat fuqarolik xizmati va davlat maxsus xizmati alohida, bir biridan ajralgan holda tilga olindi. Farmonning 1-bandi 4-xatboshisi bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat davlatning maxsus xizmati hisoblanishi va alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi belgilandi. [1] Farmon talablaridan kelib chiqqan holda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaning 4-moddasida davlat fuqarolik xizmatiga “davlat organlari va tashkilotlarida ommaviy manfaatlar yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining haq to‘lanadigan kasbiy faoliyati” deya ta‘rif berilgan. [2] Lekin davlat maxsus xizmati, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat deyilganda nima tushunilishi va mazkur organlar tizimiga qaysi organlar kirishi bo‘yicha haligacha biron-bir normativ-huquqiy ta‘rif yoki bu bo‘yicha loyiha keltirilmagan edi. [3]

Tarixshunos olimlar M.H.Rustambayev, U.A.To‘xtashevalarning fikricha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar – qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilish, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat bo‘lgan asosiy vazifani bajaradigan maxsus vakolatli organlardir. [4]

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi quyidagi davlat organlaridan iborat:

1) **Prokuratura organlari.** Garchi 2001-yil 29-avgustda yangi tahriri tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-son Qonunida mazkur maqom aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsada, prokuraturaning faoliyat yo‘nalishlari huquqni muhofaza qilishga



yo‘naltirilganligi bilan huquqni muhofaza qilish funksiyalarini o‘zida mujassam etgan;

2) **Adliya organlari.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida Nizomning 2-bandi 3-xatboshisiga muvofiq Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, hududiy adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi; [5]

3) **Ichki ishlar organlari.** 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga ko‘ra ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardir va O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri rahbarlik qiladigan yagona tizimni tashkil etadi;

4) **Davlat bojxona xizmati organlari.** 2018-yil 18-oktyabrda yangi tahriri tasdiqlangan “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga ko‘ra bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardir;

5) **Davlat xavfsizlik xizmati organlari.** 2018-yil 5-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-471-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasiga ko‘ra Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta‘minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat. Mazkur vazifalar huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir;

6) **Milliy gvardiya.** 2021-yil 20-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (bundan buyon matnda Milliy gvardiya deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turidir;

7) **Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5446-son Farmoniga ko‘ra Departament O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida iqtisodiy va korrupsiyaviy

jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish holatlari bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni, shuningdek, mazkur jinoyatlar sodir etilishi oqibatida etkaziladigan iqtisodiy zararining qoplanishini amalga oshiruvchi mustaqil ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi; [6]

8) **Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ–3016-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida”gi Nizomning 2-bandiga binoan Byuro O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi.

Xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasida (RF) huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga quyidagi organlar kiradi:

- 1) prokuratura organlari;
- 2) ichki ishlar organlari;
- 3) federal xavfsizlik xizmati;
- 4) bojxona organlari;
- 5) Tergov qo‘mitasi;
- 6) adliya organlari

Rossiya Federatsiyasida prokuratura organlari tergov faoliyati bilan shug‘ullanmaydi. Dastlabki tergovni faqat RF Tergov qo‘mitasi, IIV Tergov qo‘mitasi va FXX tergovchilari olib borishi mumkin. Prokuratura ular faoliyatida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. [7]

RF adliya organlarining mamlakatimiz adliya organlaridan farqi shundaki, uning tarkibiga sud pristavlari (ijrochilari) federal xizmati kiradi va adliya vaziri bir vaqtning o‘zida RF Bosh sud pristavi hisoblanadi. [8] 1997-yil 21-iyulda qabul qilingan “Sud pristavlari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra sud pristavlari xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Jazoni ijro etish federal xizmati (jinoiy jazolarning ijrosi bilan shug‘ullanadi) ham bevosita Adliya vazirligi tarkibiga kiradi. Bundan oldin mazkur tuzilma Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi bosh boshqarma bo‘lgan. [9]

REFERENCES

1. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U.A. 1-jild. Toshkent: «Ilm ziyo» nashriyot uyi, 2011 – 304 bet.
2. Raximov F.X., G‘oipov M.B. O‘zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi

- faoliyatini muvofiqlashtirishning huquqiy asoslari. Yuridik fan va huquqni qo‘llash amaliyotining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I jild / Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov. –T.: “Lesson press”. 2020 – 450 bet
3. Лукичев Ю.А. Проблемы дисциплины «Правоохранительные органы» Журнал «Право и образование». 2017. № 4.
4. Подолук. М.Л. О правоохранительной деятельности как разновидности государственной деятельности в Российской Федерации. Закон и право, 11/2018, стр. 83-85
5. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlaridan iqtiboslar Qonunchilik hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz saytidan olingan.
6. Инагамова М.М КОНСТИТУЦИЙВИЙ ИСЛОҲОТЛАРДА ИНСОН–ЖАМИЯТ–ДАВЛАТ МАСАЛАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 59-64
7. Dadasheva A.A.. O‘zbekiston Respublikasi–Konstitutsiyaviy Islohotlar Davr Talabi (2022) Academic research in educational sciences 3 (10), 288-291
8. Эгамбердиева Н.Х..Voyaga etmagan shaxsning hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zararlarni qoplashning auzim masalalari Ўзбекистон Республикаси Олий Судининг АХБОРОТНОМАСИ
9. Касимова А.А Допрос подозреваемого и обвиняемого: некоторые процессуальные аспекты Экономика, управление и право: инновационное решение проблем, 93-95
10. Эгамбердиева Н.Х.Voyaga etmagan shaxsning hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zararlarni qoplashning auzim masalalari Ўзбекистон Республикаси Олий Судининг АХБОРОТНОМАСИ/
11. Юнусова Н. Ш. (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341



YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA MUDOFAA VA XAVFSIZLIK: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

N. X. Egamberdieva

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent davlat transport universiteti

Rahmatullayev Ramazon Ikrom o‘g‘li

Toshkent Davlat Transport universiteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrası YU-2a
talabasi

[E-mail: ramazonrahmatullayev806@gmail.com](mailto:ramazonrahmatullayev806@gmail.com)

Yangi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 152-moddasida:
“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat
suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya
qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.”
deb keltirilgan.

Ushbu normada Qurolli Kuchlar davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini,
aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish maqsadida tuzilishi kerak ekan.
Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularning tashkil etilishi “O‘zbekiston
Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi *Qonuni* “ bilan belgilanishi ta‘kidlangan.
Ya‘ni ushbu qonunga ko‘ra “Qurolli Kuchlar o‘z faoliyatini qonun ustunligi,
markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik borasida doimiy
shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida quradi va amalga oshiradi.

Harbiy obyektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog‘, harbiy texnikaning
barcha turlari, boshqa harbiy mol-mulklar davlat mulki hisoblanadi va Qurolli
Kuchlar tasarrufida bo‘ladi.

Mudofaaga va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo‘mondoni amalga oshiradi.

Urush davrida O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri bir paytning o‘zida
Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo‘mondoni o‘rinbosari hisoblanadi.” [1]

Yana bir muhim hujjat bu 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-458son qonun bilan
tasdiqlangan Mudofaa Doktrinasi hisoblanib, unda quyidagi
jumlar keltirilgan

“O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Doktrinasi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquqning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining prinsiplari va normalariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi;

mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatidan kelib chiqadi;

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining va mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarning asosiy qoidalarini inobatga oladi;

harbiy mojarolarning oldini olish, hayotiy muhim milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha davlat, jamiyat va fuqarolar faoliyatini tashkil etish yo'nalishlari va usullarini ochib beradi;

davlatning kelajakda mudofaa sohasidagi siyosati ustuvorliklarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) tayyorlash, qurish va qo'llashning asosiy prinsiplari va yo'nalishlarini belgilaydi." [2]

Shuningdek, Konstitutsiyaning 153-moddasiga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega."

Ushbu normada O'zbekiston Respublikasi o'zini himoya qilish uchun har tomonlama yetarli resurslarga ega ekanligi, hamda u hech qaysi davlatning yordamiga muhtoj emasligi, Qurolli Kuchlarining salohiyati mukammal ekanligi aks etgan.

Mudofaa va xavfsizlik sohasini qonun talablari asosida boshqarish samarasini oshirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, harbiy sohada mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlashga doir prinsip va yondashuvlarni o'z ichiga qamrab olgan O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Xususan, unda mamlakatimizning prinsipial pozitsiyasi – hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, o'z hududida chet el harbiy bazalari va obyektlarining joylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy xizmatchilarimizning xorijdagi tinchlik o'rnatish bilan bog'liq operatsiyalarda ishtirok etmasligi o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu hujjatda Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalari, mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash asoslari belgilangan

Ma'lumki, jamiyatni tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish maqsadida kuch ishlatishga doir huquq borasida faqat davlat mutlaq monopoliyaga ega va bu huquq davlat kuch tuzilmalariga topshirilgan. Shu bilan birga, ikkita vazifani hal qilishda muvozanatga erishish muhim ahamiyat kasb etadi: bir tomondan xavfsizlikni ta'minlash va boshqa tomondan insonning konstitutsiyaviy huquqlariga rioya qilish. Shu o'rinda huquqni muhofaza qilish organlari va maxsus xizmatlar faoliyatini tartibga soluvchi, so'nggi yillarda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida»gi va boshqa qonunlarning dolzarbligi va ahamiyatini qayd etish lozim. Ushbu qonunlarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan tuzilmalarning maqsad va vazifalari, ularning huquq va majburiyatlari, harbiy xizmatchilar va xodimlar tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurol ishlatish shartlari aniq belgilangan. Mazkur hujjatlarda harbiy xizmatchilar va xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi uchun javobgarlik hamda ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash ham nazarda tutilgan. [3]

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida» gi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ishlab chiqildi, hamda parlament tomonidan qabul qilindi. Qonun bilan davlat organlarining ushbu sohadagi vakolatlari belgilandi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, yuridik shaxslarning hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishdagi ishtirok etishi tartibga solindi. Davlat chegarasini shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o'tish tartibi, shaxslarning, transport vositalarining va tovarlarning Davlat chegarasi orqali o'tkazilishini vaqtincha cheklash yoki to'xtatib turish uchun asoslarning to'liq ro'yxati belgilandi. Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish sohasida maxsus vositalarni, qurol-yarog' va harbiy texnikani qo'llash masalalari aniq tartibga solindi.

Davlat organlarining davlatni tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, jamoat tartibini saqlash bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunlar, jumladan, «Favqulodda holat to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun, «Qurol to'g'risida»gi, «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

So'nggi olti yilda qo'shinlarni boshqaruv tizimi, harbiy okruglarning, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlarining va Harbiy havo kuchlarining tarkibiy tuzilishi hamda vazifalari



tubdan qayta ko'rib chiqildi. Jumladan, Mudofaa vazirligi Bosh shtabi negizida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi tashkil etildi. Mudofaa vazirligi Markaziy apparatini muqobillashtirish natijasida zamonaviy talablarga javob beradigan yangi tarkibiy bo'linmalar tashkil etildi.

Boshqaruv organlari, harbiy qismlar va muassasalar o'rtasida tezkor ma'lumot almashish va vazifalarni belgilash imkoniyatini ta'minlab beruvchi himoyalangan aloqa tizimi yo'lga qo'yildi. Harbiy okruglar va Qurolli Kuchlar Akademiyasida situatsion markazlar tashkil etildi, barcha harbiy okrug va brigadalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan mobil qo'mondonlik punktlari bilan ta'minlandi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, bir qator yangi harbiy poligonlar tashkil etildi, shuningdek mavjudlari to'liq modernizatsiya qilindi. Hozirgi kunda barcha harbiy poligonlar zamonaviy o'quv-moddiy baza bilan jihozlangan. Shundan 12 tasi xalqaro talablarga muvofiq jihozlangan bo'lib, ulardan harbiy ishning turli yo'nalishlari bo'yicha xalqaro harbiy musobaqalarni o'tkazishda foydalanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, «Farg'ona», «Forish», «Chirchiq», «Kattaqo'rg'on», «Termiz» va «Nukus» poligonlariga «Dala tayyorgarligi yagona Markazlari» maqomi berilgan va hozirda ulardan barcha kuch tuzilmalarining shaxsiy tarkibi bilan jangovar tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uchun foydalanib kelinmoqda.

Yaratilgan sharoitlar har yili mamlakat harbiy poligonlari salohiyatidan foydalanib, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligiga doir 300 dan ortiq turli tadbirlarni, shuningdek xalqaro harbiy musobaqalarni hamda hamkorlikdagi mashqlarni o'tkazish imkonini beradi.

O'quv dasturlarida jangovar tayyorgarlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning ulushi sezilarli darajada oshdi, ya'ni parashyutda amaliy sakrashlar soni 2,2 barobar, o'q otish, piyoda yurish va harbiy texnikada harakatlanish mashg'ulotlari soni 3 barobar oshdi.

So'nggi bir necha yil ichida faqat Mudofaa vazirligi tizimining o'zida qo'shinlarni doimiy jangovar tayyorgarlikda saqlab turish maqsadida jangovar vaziyatlarga yaqin sharoitlarda 1100 dan ortiq to'satdan tekshiruvlar o'tkazildi.

2017 yildan boshlab mahalliy harbiy-sanoat kompleksini bosqichma-bosqich yaratish ishlari boshlandi. Xususan, davlat harbiy buyurtmalarini shakllantirish va mudofaa ahamiyatiga



molik ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul vakolatli davlat organi tashkil topdi. Tarmoqning bir qator korxonalarida modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash ishlari amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 yanvardagi tegishli Farmoni qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnika bilan qurollantirish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha muhim tashkiliy-huquqiy asos bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qurollantirish bo‘yicha davlat komissiyasi, shuningdek Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi «O‘ztextreyd» Davlat unitar korxonasi tashkil etildi, ushbu tuzilmalarning ustuvor vazifalari hamda ularni moliyalashtirish manbalari belgilandi. Hozirgi kunda mamlakatimiz harbiy-sanoat kompleksi tarkibiga «MS REM TEX», «MS Barer textile», «Innovatsiya texnologiyalari markazi», «Vostok», «Chirchiq aviatsiya ta’mirash zavodi» kabi yetakchi korxonalar hamda boshqalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2019 yilda Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiyasi tarkibida «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseylari tashkil etilib, ularning faoliyati shu jumladan, mamlakatning oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni maqsadli tayyorlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti, Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti va boshqa muassasalar faoliyati qayta tashkil etilib, yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Milliy universitetida Harbiy tayyorgarlik o‘quv Markazi qayta tashkil etilib, unda har yili 700 nafar zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratildi. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida harbiy xizmatchilarni va ularning oila a’zolarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishni har tomonlama mustahkamlashga alohida e’tibor berilmoqda. [4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi Farmoni ijrosi doirasida hukumat harbiy xizmatchilarning farzandlarini respublika oliy ta’lim muassasalariga kvota asosida o‘qishga qabul qilish uchun tavsiyanomalar berish tartibini tasdiqladi. Xususan, bugungi kunga qadar Mudofaa vazirligi mamlakatning mudofaa



qobiliyatini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shgan, shuningdek harbiy xizmat vazifalarini bajarayotganda vafot yetgan yoki nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar farzandlari uchun 3765 ta tavsiyanoma berdi.

Xalqaro hamkorlik va tajriba

Xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish, mintaqadagi davlatlar o‘rtasida ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash O‘zbekiston Respublikasi mudofaa sohasidagi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017–2023 yillar mobaynida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risidagi 8 ta ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalar imzolandi hamda parlament tomonidan ratifikatsiya qilindi. Xususan, «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni [5] talablariga muvofiq Turkiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi va boshqa davlatlar bilan imzolangan ikki tomonlama shartnomalar parlament tomonidan ratifikatsiya qilindi. Bir qator xorijiy davlatlar, jumladan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Hindiston kabi davlatlar bilan harbiy hamkorlik bo‘yicha alohida rejalar tasdiqlanib, amalga oshirilmogda. So‘nggi vaqt ichida Mudofaa vazirligining 300 dan ortiq harbiy xizmatchisi xorijiy oliy harbiy ta‘lim muassasalarida ta‘lim oldi. O‘z navbatida, erishilgan kelishuvlar doirasida ayni paytda bir qator xorijiy davlatlarning harbiy xizmatchilari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta‘lim muassasalarida tahsil olmogda. Shu bilan birga, so‘nggi ikki yil davomida O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari «Kembriya patruli» (Buyuk Britaniya), «Jamoaviy ruh» (Pokiston), «Eng yaxshi snayper jamoasi» (Turkiya), «Eng yaxshi jangchi» (AQSH) kabi xalqaro bellashuv va o‘yinlarda ishtirok etib, faxriy I va II o‘rinlarni egalladi. «ArMI–22» Xalqaro armiya o‘yinlarida ishtirok etish yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari musobaqada 7 ta oltin, 10 ta kumush va 5 ta bronza medallarini qo‘lga kiritib, jamoaviy hisobda faxrli II o‘rinni egalladilar. Umuman olganda, so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan harbiy qurilish sohasidagi islohotlarning samaradorligini baholab, O‘zbekistonda respublikamiz mustaqilligi va xavfsizligining kafolati bo‘lgan, xalqimizning tinch hayotini ta‘minlashga qodir milliy Qurolli Kuchlar shakllanganligini ta‘kidlash mumkin. Shu bilan birga, bugungi voqelik har bir rahbarga mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarning salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida hal etish uchun har qachongidan ham ko‘proq shaxsiy javobgarlik yuklashini aniq anglash kerak. [6]



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir davlat o‘zining mudofaa va xavfsizlik jihatlariga e‘tibor berar ekan, avvalo o‘zining suverinetini mustahkamligi, xalqining va aholisining xavfsizligini o‘ylagan holda tashkil etiladi, uning boshqaruv tizimi, undagi kadrlar tayyorlash masalasi, shuningdek ularning ijtimoiy himoyasi masalalariga alohida e‘tibor berish lozim. Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitobida ham askarlar bilan qanday ishlash ularni qay yo‘sinda chiniqtirish mudofaa tizimini takomillashitirish jihatllari o‘sha davr uchun mukkamal yoritib berilgan. [7] Bugungi davrda askarlar ham jismonan ham ma‘naviy jihatdan etuk bo‘lishlari juda ham zarur va shart hisoblanadi. Yurtimiz harbiylarining Xalqaro harbiy musobaqalarda yuqori o‘rinlarni egallashi, bu mudofaa salohiyatining qanchalik rivojlanib borayotganini hamda Prezidentimizning amalga oshirayotgan islohotlarining samarasini yaqqol ko‘rsatadi deb o‘ylayman.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: 01.05.2023 y
2. “Mudofaa to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 11.05.2001 y
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmon
4. Dadasheva A.A. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2 (17), 87-90
5. Касимова А.А Рол женщины в современной науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X. Delikt majburiyatlarning huquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
7. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish Scienceweb academic papers collection.



OTALIKNI BELGILASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSUYATLARI

Nargiza Xalimbayevna Egamberdiyeva

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent

O'ktamov Asadbek Ulug'bek o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Yurisprudensiya talabasi

Oilaviy-huquqiy munosabatlarga oid normalar ichida otalikni belgilash to'g'risidagi masalalar oila huquqining markaziy institutlaridan biri hisoblanadi. Odatda, otalik tushunchasi negizida biologik va yuridik asoslar mavjud bo'lib, ular birgalikda otalikni belgilash munosabatlarini vujudga keltiradi. Amaldagi Oila kodeksi normalariga binoan, otalikni belgilash deb o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolaga nisbatan qonunda belgilangan tartibda FHDY yoki sud organlarida nasl-nasabning belgilanishiga aytiladi. [1]

Ota-onalar va bolalarning bir-birlariga nisbatan huquq majburiyatlari bolalarning qonunda belgilangan tartibda guvohlantirilgan nasabiga asoslangan holda ularning huquq va majburiyatlari bolaning tug'ilish vaqtida vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 78-moddasiga ko'ra:

Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Odatda, bola va ona o'rtasidagi huquq majburiyatlar uning onasi nikohda bo'lishidan qat'iy nazar, ularning tug'ishganlik fakti tibbiy ma'lumotnomaga asosan vujudga keladi.

1968 yil 27 iyunda qabul qilingan SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to'g'risidagi qonun asoslarini tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga ko'ra, sud tartibida otalikni belgilashga mazkur asoslar kuchga kiritilganidan, ya'ni 1968 yil 1 oktabrdan keyin tug'ilgan bolalarga nisbatan joriy etilishi belgilangan. Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan holatlarda uning

otalik faktini belgilashga qonunda ko'rsatilgan tartibda yo'l qo'yiladi.

Oila kodeksining *61-moddasiga* ko'ra, o'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan bola tug'ilganda, otalik onaning va o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning birgalikdagi arizasiga muvofiq (bolaning onasi vafot etgan, u sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, uning yashash joyini aniqlash imkoni bo'lmagan yoki u onalik huquqidan mahrum etilgan hollarda o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsning arizasiga muvofiq) fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan belgilanadi. [2]

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan otalikni belgilash rad etilganda, o'z otaligini tan olgan shaxs tomonidan ma'muriy sudga shikoyat berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan bola tug'ilgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki bola otasining arizasi bo'lmasa, Oila kodeksining 61-moddasida ko'rsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanadi.

Otalikni belgilash to'g'risidagi talab qaysi organga, ya'ni FHDY organi yoki sudga yoxud sudning qaysi ish yuritish turiga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, otalikni belgilash to'g'risida ish qo'zg'atish uchun yagona asos, bu - bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida FHDY organida qayd etilgan nikohning bo'lmasligidir. Boshqa holatlar esa, otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni da'vo yoki alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishiga turlicha ta'sir qiladi. Masalan, bolaning 1968-yil 1-oktabrgacha yoki undan keyin tug'ilganlik vaqti da'vo tartibida ish yuritishga imkon bersa, alohida tartibda ish yuritishda esa ushbu sana otalikni tan olish va otalik faktlarini belgilashga sabab bo'ladi.

Otalikni belgilash to'g'risidagi talabning FHDY organiga taalluqli bo'lishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi kerak; [3]

- Bolaning onasi bilan o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxs o'rtasida FHDY organida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi; bolaning onasi bilan o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning birgalikdagi arizasining mavjudligi;

- Ona vafot etganda, ona muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, ona onalik huquqidan mahrum qilinganda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining mavjudligi;

- Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganida ota homiysining vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining mavjudligi.

Quyidagi asoslar mavjud bo'lgan taqdirda otalikni belgilash huquqi FHDY organlari tomonidan belgilashga yo'l qo'yiladi. [4]

Otalikni sud yo'li bilan belgilashda sudya ish qo'zg'atish jarayonida dastlab talabning oila qonunchiligining tegishli normalariga mos kelish-kelmasligini, talabning sudga taalluqli ekanligini, talabning qaysi turkumdagi ish yuritish tartibida ko'rilishini hal qilishi lozim. Agar suhbat davomida javobgar bolaning otasi ekanligini tan olsa, sud taraflarga otalikni OK 61-moddasining birinchi qismiga muvofiq fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga birgalikda ariza berish orqali ixtiyoriy rasmiylashtirish imkoniyatini tushuntirishi va shu maqsadlarda taraflarga muayyan muddat berishi lozim. Barcha fuqarolik ishlari kabi otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarga ham taalluqlilikning umumiy qoidalari tatbiq qilinadi va shu asosda mazmunan ko'rib hal qilinadi. [5]

Da'voli ishlarni sudga taalluqligining umumiy qoidalariga asoslangan holda otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning sudga taalluqli ekanligini quyidagi shartlarda ko'rish mumkin:

- Bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida FHDY organida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;
- Bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o'rtasida FHDY organiga birgalikda topshirilgan arizaning bo'lmasligi;
- Otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning otalikni tan olganlik haqidagi vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining bo'lmasligi;
- Bolaning asoslar amalga kiritilgandan keyin, ya'ni 1968 yil 1 oktabrdan keyin tug'ilgan bo'lishi;
- Otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning hayot ekanligi.

Qonunda mazkur toifa ishlar bo'yicha da'vo muddati nazarda tutilmagan bo'lib, otalik bola tug'ilganidan so'ng istalgan vaqtda belgilanishi mumkin. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, Oila kodeksi 62-moddasining ikkinchi qismi mazmuniga ko'ra, o'n sakkiz yoshga to'lgan bolaga nisbatan otalik faqat uning roziligi bilan, agar u muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, uning vasiysi yoki vasiylik va homiylik organining roziligi bilan belgilanilishiga yo'l qo'yiladi. [6]

Javobgar tomonidan otalik sud majlisida tan olinganda, sud FPK ning 44, 226-moddalariga muvofiq da'vo tan olinganligini qabul qilish masalasini muhokama qilishi va u qabul qilinganda, ish holatlarini mazmunan tekshirmasdan, otalikni belgilash to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi lozim. [7]

Zarur hollarda bolaning kelib chiqishini (masalan, homila paydo bo'lish vaqtini, urug'lantirish qobiliyati bor-yo'qligini va h.k.) aniqlash maqsadida sud, OK 62-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan shartlar mavjud bo'lganda, o'z tashabbusi yoki taraflarning iltimosnomasi bo'yicha ish yuzasidan sud-tibbiy ekspertizasi, odam dnksi sud-biologik ekspertizasi tayinlashi mumkin.

Javobgar tomonidan otalik sud majlisida tan olinganda, sud FPK ning 44, 226-moddalariga muvofiq da'vo tan olinganligini qabul qilish masalasini muhokama qilishi va u qabul qilinganda, ish holatlarini mazmunan tekshirmasdan, otalikni belgilash to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi lozim.

O'n olti yoshga to'lgan voyaga etmagan to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinganda (emansipatsiya), bunday voyaga etmaganga nisbatan ham faqat uning roziligi bilan otalik belgilanilishiga yo'l qo'yiladi. [8]

Ko'pgina hollarda otalikni belgilash to'g'risidagi da'volarda bir vaqtning o'zida bolaga nisbatan aliment undirish to'g'risidagi talab ham keltirilishi mumkin. Bunday hollarda muqobil sudlovlik qoidalariga rioya qilinishi kerak. Shunga asosan, bunday da'volar O'zbekiston Respublikasi FPK ga ko'ra, javobgarning turar joyi yoki da'vogarning turar joyidagi sudga berilishi mumkin. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarning alohida ish yuritish tartibida ham ko'rib chiqilishini inobatga olsak, bunday turkumdagi arizalar arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 296-moddasi).

Otalikni faktini belgilash to'g'risidagi fuqarolik ishini alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladi. Chunki amaldagi Oila kodeksining 62-moddasida, bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkinligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 293-moddasiga ko'ra, otalikni faktini belgilash yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar turkumiga kiritilgan bo'lib quyidagi shartlar asosida sud tomonidan qabul qilinishi mumkin:

- Arizachiga bu faktni belgilash tegishli huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarsa;
- Arizachi bu faktni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha (sudsiz) yo'l bilan olish yoki tiklash imkoniyatiga ega bo'lmasala;
- Bu faktni belgilash fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlarini bevosita keltirib chiqarsa, o'zgartirsa yoki tugatsa.

Shuni nazarda tutish lozimki, qonunda (OK 62-moddasi uchinchi qismi) otalikni belgilash to'g'risidagi nizolarni

hal etish chog‘ida sud e‘tiborga olishi zarur bo‘lgan muayyan shartlar belgilangan. Bu shartlar quyidagilardir:

- Bolaning onasi va javobgarining bola tug‘ilishiga qadar birgalikda yashaganliklari va umumiy ro‘zg‘or yuritganliklari;
- Bolaning onasi va javobgar bolani birgalikda tarbiya qilganliklari yoki ta‘minlab turganliklari;
- Javobgar otalikni tan olganligini ishonchli tasdiqlovchi boshqa dalillar mavjudligi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi talablarni qanoatlantirish uchun ko‘rsatib o‘tilgan shartlardan bittasi ish bo‘yicha aniqlanishi etarli hisoblanadi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko‘rilgan otalikni belgilash bilan bog‘liq ishlar yuzasidan statistik malumotlarga ko‘ra 2023 yilning 9 oyi davomida hududlar bo‘yicha 2591 ta ishlar ko‘rib tamomlangan, shundan 2117 ta ish qanoatlantirilgan; 35 ta ish rad etilgan, 37 ta ish yuritish tugatilgan 372 ta ish ko‘rmasdan qoldirilgan. Hududlar kesmida eng ko‘p ko‘rilgan ishlar Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keladi 441 ta ishlar ko‘rib chiqilgan, eng kam ko‘rilgan ishlar Navoiy viloyatida 74 ta ish ko‘rib chiqilgan. [9]

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 25.11.2011 yildagi 8-son Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko‘rishda qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 22.01.2018
4. "O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi " , 30.04.1998
5. M.M. Mamasiddiqov, Z.N. Esanova, D.Y. Xabibullayev. Fuqarolik protsessual huquqi. Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. -T.: TDYU, 2021.-284 b.
6. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
7. Kasimova A.A Rol jennicy v sovremennoy nauke Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
8. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI



9. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish Scienceweb academic papers collection

10. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115.



MULK HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

N. X. Egamberdiyeva

Toshkent davlat transport universiteti, yu.f.n. dotsent

Muhammadyusuf Eldorbek o‘g‘li Fahriddinov

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs Yu-2 guruh
talabasi

fahriddinovmuhammadyusuf44@gmail.com

Har qanday inson uchun eng muhim mulk, avvalo bu uning uy-joyidir. Fuqarolarning uy-joyga bo‘lgan huquqlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada, shuningdek, boshqa xalqaro hujjatlarda ham begilangan bo‘lib, ushbu xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o‘z aksini topgan. [1]

Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida: “Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega”ligi belgilangan.

So‘nggi besh yil davomida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirish borasida mulkiy huquqlarni noqonuniy tajovuzlardan ta‘minlash va himoya qilish muammosi, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu davrda mulkdorlar huquqini ta‘minlashga qaratilgan Prezident va hukumatning 300 dan ortiq hujjatlari qabul qilindi. [2]

Mamlakatimizda xususiy mulkni himoya qilishning huquqiy asoslari mavjud. Xususan:

- “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (24.09.2012y.);
- “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (27.07.2018y., PF-5490);

- “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (01.08.2018y., PF-5495);

- “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining mulk huquqi kafolatlanishini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi (03.08.2019y., PF-5491);

- “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (05.04.2019y.) va yana bir qator boshqa normativ huquqiy hujjatlar mavjud.

Mamlakatni yanada barqaror rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi. Unda mulk huquqiga oid bir qancha o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin: [3]

Tadbirkorlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga, o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga, tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad olishga haqli ekani Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yildi. Davlat xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhit hamda sharoitlarni ta‘minlashi, erkin va halol raqobatning himoya qilinishi, iqtisodiy faoliyatda monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi ham kafolatlandi. Shu bilan birga, asosiy qonunimizda er xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi aniq belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Taraqqiyotning ko‘p asrlik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xususiy mulksiz, uning ishonchli kafolatisiz kuchli ijtimoiy davlatni qurib bo‘lmaydi. Shu bois, Bosh qomusimizda xususiy mulk himoyasini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan konstitutsiyaviy kafolatlarni kuchaytirishimiz lozim. Toki, katta-kichikligidan qat‘iy nazar, har bir tadbirkor doimo davlat, Konstitutsiya, qonunlar hamda Prezident himoyasida ekanini amalda his qilsin. Rivojlangan davlatlardagi kabi, shunday tartib o‘rnatilishi lozimki, mulkdor sud qarorisiz, o‘zining roziligisiz, adolatli tovon pulisiz, mulkidan mahrum etilmasin. Shu bilan birga, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalari qayta ko‘rib chiqmaslik hamda bekor qilmaslik masalasini ham Konstitutsiyaviy qoida sifatida belgilashning vaqti-soati keldi, deb o‘ylayman. [4] Iqtisodiyotimizni harakatga keltiruvchi



asosiy kuch bo‘lgan tadbirkorlikning rivojlanishi yo‘lidagi barcha to‘siq va g‘ovlarni olib tashlashimiz zarur".

2022 yilning 24 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan erga bo‘lgan huquqning vujudga kelishiga asos bo‘lgan hujjatlarni bekor qilish orqali erga bo‘lgan huquqni tugatish, mazkur hujjatlar faqat sud tomonidan bekor qilinishi, erdan ixtiyoriy voz kechishni hukumat yoki hokimlik qarorlari bilan rasmiylashtirish, yuridik shaxs tugatilishi bilan uning eriga bo‘lgan huquqlarini bekor qilish kabi qator talab va cheklovlar bekor qilindi. Shuningdek, turar joyga bo‘lgan mulkiy huquqlarni amalga oshirishda turar joyga nisbatan mulkiy huquqlarga yoki turar joy mulkdori bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo‘lmaganlarni doimiy ro‘yxatdan chiqarish uchun ularning roziligini olish, sud tomonidan turar joyga nisbatan insofli egallovchi deb topilgan jismoniy shaxsdan ushbu turar joyni unga nisbatan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab 3 yil o‘tgach natura shaklida talab qilib olish bekor qilindi. [5]

Ammo Konstitutsiyaviy islohotlarga qaramay, qonunlardagi yuridik kolliziyalar, korrupsiyagen omillar haligacha bartaraf etilmagani yoki aniqlik kiritilmaganligi sababli shuningdek, davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan qonunni noto‘g‘ri talqin etilishi sababli haligacha tadbirkorlar huquqlari va mulk daxlsizligi buzilish holatlari kuzatilmoqda.

Masalan, fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi hal qiluv qarori bilan da‘vogar “PERSPECTIVE-BUILDING” MCHJning fuqaro D.X.ga nisbatan turar joy bergan holda uy joydan ko‘chirish va foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish haqidagi da‘vo talablari qanoatlantirilgan. Sud hal qiluv qarorini chiqarishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun er uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan fuqarolarga va yuridik shaxslarga etkazilgan zararlarni qoplash tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 97-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizomni asos qilib olgan. Vaholanki, mazkur qaror o‘z kuchini yo‘qotgan (01.01.2020y.).

Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Uy-joy nizolari bo‘yicha sud amaliyoti haqida” Qarorining 24-bandida er uchastkalari davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi munosabati bilan uylar (kvartiralar) buzilgan taqdirda, shu uy-joylarda yashovchi fuqarolarga, ularning oila a‘zolariga, shuningdek, ushbu uylarda



(kvartiralarda) doimiy yashayotgan fuqarolarga ularning xohishiga binoan va taraflar kelishuviga ko'ra barcha qulayliklarga ega bo'lgan uy-joy maydonining ijtimoiy normasiga rioya etgan holda shu aholi yashaydigan punktdan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan hamda shu aholi punkti joylashgan hududdan turar-joy berilishi lozimligiga sudlarning e'tibori qaratilishi belgilangan. [6]

Mamlakatimizda xususiy mulkni himoya qilish bilan bog'liq normativ huquqiy hujjatlar so'ngi yillarda jiddiy takomillashdi. Shu bilan birga mazkur huquqlarni amalda himoya qilish borasida ba'zi muammolar ham mavjud. [7]

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq qonun hujjatlari hamda amaliyotini yana-da takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

- davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilayotgan (sababi ko'rsatilgan holda) er uchastkalari joylashgan hudud haqidagi barcha ma'lumotlar mahalliy hokimiyatning rasmiy veb saytida e'lon qilinishi lozim;

- hududlarda davlat va jamoat ehtiyojlari uchun er uchastkalarini olib qo'yilishi munosabati bilan taklif qilinadigan barcha uy joy va binolar manzillari aniq ko'rsatilgan elektron baza shakllantirilishi va fuqaro uni borib ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ushbu holat shaffoflikni ta'minlaydi va korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, hokimiyat va fuqaro o'rtasida yuzaga keladigan turli nizolarni oldini oladi;

- davlat va jamoat ehtiyojlari uchun buzilgan xususiy mulk o'rniga ajratiladigan mulk, uy-joy yoki bino obyektining fuqarolarga berilish muddati aniq qilib belgilab qo'yilishi, bunda har bir kechiktirilgan muddat uchun fuqaroga penya to'lash zarur;

- sudlar tomonidan uy joydan ko'chirish haqidagi hal qiluv qarori qabul qilinayotganda aynan shu aholi punkti joylashgan hududdan turar-joy berilishi lozimligiga, taklif etilayotgan uy joy barcha qulayliklarga egaligiga, fuqarolarning ish yoki o'qish maskaniga yaqinligiga alohida e'tibor qaratilishi shart.

REFERENCE

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023-yil
2. PF-198-son 24.08.2022 «MulK huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-



- tadbirlari to‘g‘risida» Avazbek Xolbekov, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi eksperti
3. Jasur Islamov Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) Kotibiyatining Murojaatlar bilan ishlash sektori mudiri/ Xususiy mulkka bo‘lgan huquqning kafolati mavzusidagi maqolasidan.
4. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
5. Kasimova A.A Rol jeniщины v sovremennoy nauke Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
7. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection)



YANGI O'ZBEKISTONDA TURDOSH HUQUQLAR HIMOYASINING AYRIM MUAMMOLARI

N. X. Egamberdiyeva
TDTrU Yu.f.n, dotsent v.b.

Jaxongir Tavakkaljon o'g'li Kamoljonov

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs Yu-1 guruh
talabasi

kamoljonovjahongir76@gmail.com

Intellectual mulk sohasida turdosh huquqlar tushunchasi katta ahamiyatga ega bo'lib turdosh huquqlar tushunchasi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida» gi Qonunning 43-moddasida mustahkamlangan. Unga muvofiq, turdosh huquqlar deyilganda: birinchidan — agar ijro fonogrammaga yozilgan bo'lsa, quyidagi shartlardan biriga rioya etilgan taqdirda: fonogramma tayyorlovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki O'zbekiston Respublikasi hududida manzilga ega yuridik shaxs bo'lsa; tayyorlovchining fuqaroligi yoki manzilidan qat'i nazar, fonogramma birinchi marta O'zbekiston Respublikasi hududida e'lon qilingan bo'lsa. Ikkinchidan, — fonogrammaga yozilmagan ijro efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuv yoki eshittirishiga kiritilgan bo'lsa, agar tashkilot O'zbekiston Respublikasi hududida manzilga ega bo'lib, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirishni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uzatuvchi apparatlar yordamida amalga oshirayotgan bo'lsa, ijrochining, dasturlar tayyorlovchining efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning mulkiy huquqlari va ijrochining shaxsiy nomulkiy huquqlari tushuniladi. [1] Turdosh huquqlar ob'ektlari — ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari intellektual ijodiy faoliyat natijalari jumlasiga kiradi. Bunda ijrochi deyilganida aktyor, xonanda, sozanda, raqqos yoki rol o'ynaydigan, kuylaydigan, o'qiydigan, ifodali o'qiydigan, raqsga tushadigan, talqin etadigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud adabiyot yoki san'at asarini (shu jumladan estrada, sirk yoki qo'g'irchoqlar bilan amalga oshiriladigan chiqishlarni) yoxud xalq ijodiyoti asarini o'zgacha tarzda ijro etadigan boshqa jismoniy shaxs, shuningdek rejissyor tushuniladi. Turdosh



huquqlarning boshqa sub'ekti fonogrammani tayyorlovchi ijroning yoki boshqa ovozlarning birinchi ovozli yozuvi uchun tashabbus va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Fonogrammani tayyorlovchi bo'lmaganida fonogrammada va (yoki) fonogrammaning g'ilofida nomi ko'rsatilgan shaxs fonogrammani tayyorlovchi deb e'tirof etiladi. Ushbu ta'riflar artist-ijrochilarning, fonogrammalarni tayyorlovchilar va ko'rsatuvlar hamda eshittirishlar tayyorlovchi tashkilotlarning huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi Rim Konvensiyasida ko'rsatilgan o'xshash ta'riflarga asoslangan. Xususan, «artist ijrochilar» deyilganida aktyorlar, xonandalar, sozandalar, raqqoslar va rol o'ynaydigan, kuylaydigan, o'qiydigan, ifodali o'qiydigan, adabiy yoki badiiy asarlarni ijro etadigan yoki ana shu asarlarning ijrosida boshqa bir tarzda ishtirok etadigan shaxslar tushuniladi misol uchun Rim Konvensiyasida, «Fonogramma tayyorlovchi» deyilganida, ijroning yoki boshqa ovozlarning birinchi ovozli yozuvini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tushuniladi. [2] Turdosh huquqlarning hosilaligi va mualliflik huquqlariga tobelligi ularning o'ziga xos xususiyatlaridir deyilgan. Turdosh huquqlar mualliflik huquqlariga tutash, yaqin va bog'liqdir. Turdosh huquqlar ish qonun bilan muhofaza qilinmaydigan asarlarga yoki ijodiy faoliyat natijasi bo'lmagan ob'ektga borib taqalgan taqdirdagina, mustaqil tusga ega bo'ladi. Fonogrammaga va bunday fonogrammaga yozilgan ijroga bo'lgan mutlaq huquq egalari o'z huquqlaridan xabardor qilish uchun turdosh huquqlarning muhofaza belgisidan foydalanishlari mumkin. Bunday belgi fonogrammaning har bir nusxasida va u saqlanadigan har bir g'ilofda aks ettiriladi. Mazkur belgi Rim Konvensiyasining 11-moddasida quyidagi ta'rif bilan belgilangan: «Ahdlashuvchi davlat o'zining ichki qonun hujjatlaridan kelib chiqqan holda fonogramma tayyorlovchilarning yoki ijrochi-artistlarning yoxud ular har ikkovining huquqlariga muhofaza berish sharti sifatida rasmiyatchiliklarga rioya etishni talab qilgan hollarda e'lon qilingan fonogrammalarning sotuvda mavjud bo'lgan barcha nusxalarida yoki ularning o'rovida ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

U dastlab e'lon qilingan yilni;

Fonogramma muhofaza qilinayotganligini aniq-ravshan ko'rsatadigan tarzda joylashtirilgan «R» belgisidan iborat yozuvga ega bo'lsa, rasmiyatchiliklarga rioya qilingan hisoblanadi. Agar fonogrammalarning nusxalarida yoki o'rovlarida fonogrammani tayyorlovchi yoki bunday faoliyat uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan (o'z familiyasi, savdo markasi yoki boshqa tegishli belgisini ko'rsatish orqali) berilgan litsenziya egasi ko'rsatilmagan bo'lsa, yozuv fonogrammani tayyorlovchi



huquqlari egasining familiyasini ham o‘z ichiga olishi kerak; boz ustiga, agar fonogrammalarning nusxalarida yoki o‘rovlarida asosiy artist-ijrochilar ko‘rsatilmasa, yozuv amalga oshirilgan mamlakatda bunday artist-ijrochilarning huquqlariga ega shaxsning familiyasi ham ko‘rsatilishi kerak». Ijrochilik huquqlarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomalarda bo‘lgani kabi ushbu shartnomalarda ham fonogrammani tayyorlovchiga quyidagilarga ruxsat berish shartnoma predmeti hisoblanadi: fonogrammani takrorlash (takrorlash huquqi); fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish yo‘li bilan tarqatish (tarqatish huquqi); fonogrammani barchaning e‘tiboriga etkazish (barchaning e‘tiboriga etkazish huquqi); fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxalarini, hatto ular fonogrammani tayyorlovchi tomonidan yoki uning roziligi bilan tarqatilganidan keyin hamda uning asl nusxasi yoki nusxalariga bo‘lgan mulk huquqidan qat’i nazar, prokatga berish (prokatga berish huquqi); fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxalarini, shu jumladan fonogrammaga bo‘lgan mutlaq huquqlar egasining roziligi bilan tayyorlangan nusxalarini tarqatish maqsadida import qilish (import qilish huquqi); fonogrammani efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish (efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish huquqi); fonogrammaga tuzatishlar kiritish yoki uni boshqacha usulda qayta ishlash (qayta ishlash huquqi). Fonogramma nusxalarini prokatga berish orqali ularni tarqatish huquqini foydalanuvchiga o‘tkazish faqatgina uning fonogrammani tayyorlovchi bilan tuzgan shartnomasiga binoan mumkin bo‘ladi, bu o‘rinda ana shu nusxalarga egalik huquqi kimga tegishli ekanligi ahamiyatsizdir. [3]

Mutlaq huquqlarga ega bo‘lgan efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot quyidagi huquqlarga ega: ko‘rsatuv yoki eshittirish yozuvini takrorlash (takrorlash huquqi); ko‘rsatuv yoki eshittirish yozuvining asl nusxasi yoxud nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish yo‘li bilan tarqatish (tarqatish huquqi); ko‘rsatuv yoki eshittirish yozuvini barchaning e‘tiboriga etkazish (barchaning e‘tiboriga etkazish huquqi); ko‘rsatuv yoki eshittirishni yozib olish (yozib olish huquqi); kirish pulli joylarda ko‘rsatuv yoki eshittirishni barchaning e‘tibori uchun yuborish (kirish pulli joylarda barchaning e‘tibori uchun yuborish huquqi); ko‘rsatuv yoki eshittirishni retranslyatsiya qilish (retranslyatsiya huquqi); ko‘rsatuv yoki eshittirishni kabel orqali barchaning e‘tibori uchun yuborish yoxud ko‘rsatuv yoki eshittirishni efirga uzatish (ko‘rsatuv yoki eshittirishni kabel orqali yuborish yoki efirga uzatish huquqi) mavjud. Efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning huquqlari, agar tashkilot O‘zbekiston



Respublikasi hududida joylashgan eriga ega bo'lsa hamda efirga uzatish yoki kabel orqali yuborishni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uzatgichlar yordamida amalga oshirayotgan bo'lsa, ushbu Qonunga muvofiq mazkur tashkilotga tegishli deb e'tirof etiladi. [4] Ijrochining huquqlari birinchi yozuv yoki ijro (sahnalashtirish) paytidan e'tiboran 70 yil davomida amal qiladi. Ijrodan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat ijrochining ruxsati bilan yoki boshqa huquq egasi bilan tuzilgan shartnoma asosida uning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqiy kafolatlanishi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi belgilab qo'yildi. Bu borada ham so'nggi yillarda qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2022 yildagi PQ-221-son «Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi PQ-221-son qaroriga 1-ilova 2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish STRATEGIYA SI va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi PQ-307-son «2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» gi ko'plab qarorlar qabul qilishi hamda halqaro umume'tirof etilgan qonunlarni ratifikatsiya qilinishi yangi O'zbekistonning intellektual mulk sohasiga naqadar katta e'tibor berayotganligiga yaqqol dalil bo'lishi mumkin misol uchun: «Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi» (Jeneva, O'zbekiston Respublikasi ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 fevraldagi O'RQ-519-sonli «Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi» ga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida» gi qonuniga asosan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 2019 yil 17 iyuldan kuchga kirgan); Inson tomonidan yaratiladigan ijodiy aqliy faoliyat mahsuli hisoblangan intellektual mulk aslida iqtisodiyot rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk rivojiga katta e'tibor qaratilgani sababli ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, intellektual mulkning ichki yalpi mahsulotdagi ulushi keskin ortgan. O'zbekistonda ham intellektual mulkka nisbatan qiymat sifatida qarash shakllanishi zarur. [5] Hozir O'zbekistonda intellektual mulk mamlakat iqtisodiyotida qancha foizni tashkil etishi, mualliflar qancha daromad olayotgani haqida statistik ma'lumotlar yuritilmaydi. Intellektual mulk sohasini



yanada takomillashtirish, shu jumladan, tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan zarur shart-sharoitlarni yaratish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta’minlash mamlakatning xalqaro maydondagi imidjini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu huquqni konstitutsiyaviy darajada e’tirof etmasdan turib esa samarali iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash qiyin. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida muallif hamda boshqa huquq egalarining manfaatlari “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” gi Qonunga muvofiq himoya qilinadi. Ushbu Qonun xalqaro normalarga asoslangan bo‘lib, butun dunyoda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar ob’ektlarining himoyasi shu tartibda amalga oshiriladi. Ushbu Qonunga ko‘ra muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega. Yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin. Ya’ni, siz biron-bir asardan foydalanishingiz uchun uning muallifi yoki boshqa huquq egalaridan rozilik olishingiz shart. Ushbu normaning asosiy maqsadi – ijodkorlarning huquqlarini himoya qilish, ularning sermahsul ijodiy faoliyatini davom ettirishiga ko‘maklashish hisoblanadi. Chet el yuridik va jismoniy shaxslarining O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan turdosh huquqlari ham ushbu Qonunga binoan e’tirof etiladi. [6] Shuni nazarda tutish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza qilish va himoya qilish sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi bo‘lib, Intellektual mulk agentligining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi. [7]

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk sohasida bir qator xalqaro qonun hujjatlar hamda konvensiyalarga qo‘shilgan bo‘lib bu hujjatlar orqali inson intellekti natijasida erishilgan moddiy va nomoddiy mulklar himoyasini ta’minlashga qaratilgan. Shu bilan birga jahon tajribasi va O‘zbekiston qonunlari o‘rganilganda kamchiliklar ham yo‘q emas. Misol uchun, kontrabanda mahsulotlari noqonuniy davlat chegaralaridan o‘tkazish uchun bojxona to‘g‘risidagi qonunlarda jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi ko‘plab hujjatlar mavjud davlat ushbu protsessni tartibga soladi. Bizning fikrimizcha, hozirgi kunda chet davlatlar ijrolari va musiçalardan ko‘chirib olingan intellektual mulk ob’ektlariga ham davlat nazoratini ta’minlash lozim, hozirgi qonunchiligimizda yuridik yoki jismoniy shaxs qachonki ariza bilan murojaat qilgandagina o‘zining intellektual mulk



ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Ushbu qonun hujjatlariga qo‘shimcha sifatida davlat o‘z tashabbusi bilan chet eldan kirib kelayotgan noqonuniy intellektual mulk ob’ektlarini himoya qilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi va intellektual mulk sohasini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lar edi deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T. 2023
2. Sh.M.Mirziyoev. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.-T. 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda PF-269-sonli «Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni
4. Dadasheva A.A. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
5. Kasimova A.A Роль женщины в современной науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
7. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish Scienceweb academic papers collection
8. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115.
9. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022



XUSUSIY MULK HUQUQINING KAFOLATLARI

N. X. Egamberdiyeva

Yu.f.n, dotsent v.b.

Farangiz Sayfiddin qizi Yo'ldosheva

TDTTrU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs Yu-5 guruh talabasi

yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Xususiy mulk - ayrim fuqarolar yoki yuridik shaxlar ixtiyorida mulk bo'lib bozor iqtisodiyotidagi xilma-xil mulklar orasidagi etakchi mulk shakli hisoblanadi. Xususiy mulkning obyekti moddiy va moliyaviy boyliklar, er, suv, er osti boyliklari, korxonalar, xo'jaliklar, aksiya va obligatsiyalar, pul mablag'lari, transport vositalari, turar joy, iste'mol tovarlari, ishbilarmonlik qobiliyati, ilmiy kashfiyotlar, texnikaviy ixtirolar, san'at va adabiyot asarlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Xususiy mulk subyekti unga egalik qiluvchi fuqarolar, yuridik shaxlar.

Xususiy mulk mulkchilikning eng ko'hna shakli, bundan bir necha yuz yillar oldin qabila, urug'- aymoqlarning jamoa mulkidan o'sib chiqqan jamoa mulki ayrim kishilar qo'liga o'tib, xususiy mulkka aylangan. [1] Xususiy mulk an'anaviy va bozor tizimida asosiy mulk hisoblangan. Rejali iqtisodiy tizim xususiy mulkni yo'qotib davlat mulkini o'rnatgan, iste'molga xizmat qiluvchi mulkni, jumladan uy-ro'zg'or buyumlari va tomorqa xo'jaligini shaxsiy mulk deb e'lon qilgan. Rejali tizimdan bozor iqtisodiyotiga qaytilgach, xususiy mulk qaytadan tiklanadi. Bunga quyidagi yo'l bilan erishiladi: 1) davlat mulki xususiy mulkka aylantiriladi; 2) o'z mablag'i hisobidan xususiy mulkni yaratishga ruxsat beriladi; 3) jamoa (kolxoz) mulkidan xususiy mulk ajralib chiqadi; 4) shaxsiy mulk hisoblangan tomorqa va xonadon mol-mulkiga xususiy mulk maqomi beriladi; 5) xususiy mulk chet eldan kirib keladi, mavjud mulkchilik tizimiga qo'shiladi.

Bozor iqtisodiyotiga xos mulkiy poliformizmni xususiy mulk transformatsiyasi yuzaga keltiradi. Xususiy mulk o'z sohiblari ixtiyori bilan birlashganda jamoa mulki hosil bo'ladi. Xususiy mulk milliylashtirilganda u davlat mulkiga aylanadi.

Xususiy mulk va boshqa mulk shakllari daxlsizdir va davlat himoyasidadir. Mulkdor undan faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda mahrum etilishi mumkin. Halol mehnat bilan orttirilgan mulk egasi o'z mulkining haqiqiy egasi bo'lishi kerak. Bu inson huquq va manfaatlarini himoya qilishning ajralmas qismidir. Solishtiradigan bo'lsak



O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasining 36-moddasida:” Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.

Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi” deb belgilab qo‘yilgandi. Ammo bugungi kunga kelib bu moddaga ayrim qo‘shimchalar qo‘shildi. Bu yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendumdan so‘ng bu modda yangi Konstitutsiyaga ko‘ra 41-moddaga aylanib: “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi” deb belgilab qo‘yildi. Bunda: bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi normalari yangi kiritilgan.

Konstitutsiyaning yangi tahririda mulk huquqi 65-moddada quyidagicha bayon etilgan: “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste‘molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta‘minlanadi. [2]

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.”

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga erkinlik berish, ular faoliyatiga aralashishni kamaytirish davlat organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga tegishli bino va inshootlar joylashgan er uchastkalarini olib qo‘yishi munosabati bilan mulkdorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlarini yanada mustahkamlash, etkazilgan zararining o‘rnini qoplash borasidagi kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, er uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar belgilandi. [3]

Mulkdor O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o‘ziga tegishli mulkiy huquqni amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalanish to‘g‘risida ular bilan shartnoma tuzishga haqlidir.

Fuqaroning mehnatidan foydalanishga asos bo'lgan mulkning qay shaklda ekanligidan qat'iy nazar, fuqaro O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va kafolatlar bilan ta'minlanadi.

Mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar etkazmasligi, jismoniy, yuridik shaxslarning va davlatning huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga putur etkazmasligi kerak. Bu normalarning barchasi mulk huquqining kafolatlarini mustahkamlamoqda. [4]

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, ayrim davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarining xususiy mulkning daxlsizligi buzilishi (xususiy mulkka qasddan shikast etkazish, talon-taroj qilish, o'zlashtirish, buzib yuborish va boshqa), xususiy mulkni erkin tasarruf etish (foydalanish) huquqi cheklanishi va mulk huquqidan qonunga zid ravishda mahrum etilishi (noqonuniy egasiz deb topish, mulkka ta'qiq qo'yish, musodara qilish va boshqa), shuningdek, er uchastkalari noqonuniy ravishda olib qo'yilishi yoki ularga etkazilgan zararlar o'z vaqtida va to'liq to'lab berilmaslik holatlari uchramoqda. [5]

Mazkur holatlar adliya organlari tomonidan zudlik bilan choralar ko'rish va xususiy mulkni himoya qilinishini ta'minlash yuzasidan joriy yilning 15-iyul – 15-avgust kunlari aholi va tadbirkorlik subyektlarining ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlariga rioya etish, xususiylashtirilgan noturar ko'chmas mulk obyektlari noqonuniy qaytarib olish, shuningdek, turar va noturar bino-inshootlarni egasiz deb topish amaliyotini o'rganish va tahlil qilishga hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan "Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir" aksiyasi o'tkazilayotganligi to'g'risida ma'lumot berildi. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" gi PF-5780-son farmon (2019-yil).

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va BMT taraqqiyot dasturining «O'zbekistonda qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik» qo'shma loyihasi doirasida «Ko'chmas mulk va ashyoviy huquq» amaliy qo'llanmasi chiqarilgan bo'lib, u respublika fuqarolik sudlarida mavjud bo'lgan ayrim materiallar va tegishli ma'lumotlar asosida tayyorlandi. Bunda millat



manfaati uchun xizmat qiladigan mulk huquqi bilan bog'liq keng tushunchalar keltirilgan. [6]

Mulk huquqi daxlsizligini ta'minlamasdan iqtisodiy rivojlanishga erishish qiyin. Bu asosiy qonunimizda ham alohida belgilangan bo'lib, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu me'yor mamlakatimizning boshqa bir qator qonunlarida ham aks etgan. Xususan, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (24.09.2012) qonunda olib qo'yilayotgan er uchastkasidagi uyni, boshqa imoratlarni, inshootlarni buzib tashlashga zararning o'zni bozor qiymati bo'yicha oldindan va to'la qoplanmagunga qadar yo'l qo'yilmasligi nazarda tutilgan. Shuningdek, mulkdor xususiy mulk huquqining bekor qilinishiga olib keladigan qarorga rozi bo'lmagan taqdirda, bu qaror sud tomonidan nizo hal etilguniga qadar amalga oshirilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Shak-shubhasiz, O'zbekiston aholisi qonunchilikda belgilangan me'yorlarga amal qilishlari shart. Biroq ba'zi hududlarda qabul qilinayotgan qonunlarga rioya etmaslik holatlari, afsuski, uchrab turibdi. Shu sababli aholi va tadbirkorlarning xususiy mulk daxlsizligi huquqi bilan bog'liq masalalarni o'rganish maqsadida partiya faollari va deputatlardan iborat ishchi guruhi tuzilib, ular joylarda konstitutsiyaviy norma va amaldagi qonun talablari doirasida snos masalalarini atroflicha o'rganmoqda. Mavjud masalalar xalq deputatlari viloyat Kengashlari bilan hamkorlikda tahlil etilayotgani joylarda noqonuniy buzilishlar va aholining bu boradagi mulkiy huquqlari poymol etilishining oldini olishga xizmat qilyapti.

Har bir tadbirkor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shuning uchun ham tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Demak, tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, xususiy mulk daxlsizligini amalda ta'minlash har doim ham eng ustuvor vazifa bo'lib qolishi kerak. [7]

Shu nuqtayi nazardan aytganda, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, xususiy mulkning qonuniy hamda amaliy jihatdan ustuvor rolini ta'minlash, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada qabul qilingan qator qonunlar va qonunosti hujjatlari bilan davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralarining tadbirkorlik



faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish yo‘lida qat’iy tartib o‘rnatildi.

Ahamiyatlisi, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari bilan o‘zaro munosabatlarda tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi tamoyili amal qilmoqda. Qonun hujjatlarida ushbu faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektning foydasiga hal etilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilish davlat siyosatiga to‘sqinlik qilish sifatida qaralmoqda.

O‘z navbatida, yana bir muhim hujjat — “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun xususiy mulk huquqiga g‘ayriqonuniy tajovuzlarni, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklashga qaratilgan huquqiy asos bo‘ldi. Shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan qator o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Albatta, bularning barchasi mulk huquqini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi roli va ahamiyatini yana-da oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa Xususiy mulk konstitutsiyaviy qonuni rivojlanishining qisqacha tarixiy sxemasi ushbu institutning ijtimoiy-iqtisodiy omillar va siyosiy-falsafiy qarashlar ta‘siri ostida doimiy dinamikada ekanligidan dalolat beradi. Vaqt o‘tishi bilan xususiy mulkning alohida roli va ahamiyati tan olindi. Mulk munosabatlarini huquqiy tartibga solish bugungi kunda nafaqat tarmoq, balki konstitutsiyaviy va huquqiy darajada ham amalga oshirilmoqda. Xususiy mulk egalarining jamiyat oldidagi alohida javobgarligi to‘g‘risida ta‘limot taqsimlanib, mulkning ijtimoiy, keyinchalik ekologik funksiyasiga asoslanadi. Xususiy mulk huquqi obyektlari ro‘yxati doimiy ravishda takomillashib boradi, ba‘zilari chiqarib tashlanadi. Doimiy evolyusiyaga xususiy mulkning subyektiv huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri ekanligi, shu sababli uning mazmuni va kafolatlarini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.



2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017 Jasur Islamov Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) Kotibiyatining Murojaatlar bilan ishlash sektori mudiri Xususiy mulkka bo‘lgan huquqning kafolati mavzusidagi maqolasidan.
4. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
5. Kasimova A.A Роль женщины в современной науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
6. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
7. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection)
8. Dadasheva A. A [THE ROLE OF MASS MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN NEW UZBEKISTANE](#) ducational Research in Universal Sciences 2 (4), 203-207
9. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.



YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYADA YORITILGAN OILA MASALALARI VA UNING HUQUQIY MAQOMI

Dadasheva A.A
Yu.f.d, professor

Feruza Oy Kenja qizi Abdinazarova
TDTTrU Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs Yu-1 guruh talabasi
feruzaabdinazarova704@gmail.com

Oilalar doirasidagi huquqiy himoya, turmush qurish huquqi, ota-onalar va bolalar huquqlari, ayollar va bolalarni zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligida muhokama qilishga sabab bo'layotgan, shuningdek e'tibor ko'paygan masalalardir. Ya'ni, nikohdan ajralishlar ko'payganligi, bolalar himoyasi, meros masalalari, oilalardagi zo'ravonliklarning ko'payishi natijasida huquqiy bazalarni oshirishga ehtiyoj mavjud. Konstitutsiya va qonunlar yordamida bu muammolar hal etilishiga qaratilgan qator normalar bo'lsa ham, bu sohada yana ko'plab vazifalar va ishlar amalga oshirish uchun qo'llaniladigan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish foydadan holi bo'lmas edi. Zero, ushbu sohadagi muammolar dolzarblashib bormoqda. [1]

Dastlabki vaqtlarda jamoa bir kishiga bo'ysungan va jamoa a'zolari bir-birlari orasidagi burchlarini bajarishgan. Ilk davrlardan boshlab nikoh munosabatlari qisman bo'lsa ham mavjud bo'lgan va bu davrda "guruh nikoh" deb atalgan. Keyinchalik inson ongining o'sib borishi nafaqat mehnat munosabatlari, balki oila va nikoh masalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Dastlab ona – matriarxat atrofida yig'ilgan urug'chilik jamiyati, keyinchalik patriarxat – ota urug'i atrofida yig'ila boshladi. "Guruh nikoh" o'rnini monogamiya – yakka nikoh egallay boshladi. Va bu davr olimlar tomonidan ulkan o'zgarishlar davrining boshlanishi sifatida e'tirof etiladi. O'sha vaqtda ham oila va oilaviy munosabatlarning asosiy maqsadi bir-biriga yordam berish, g'amxorlik qilish orqali jamiyatdagi, urug'dagi a'zolarni bir-biriga yaqinlashtirish, urug'dagi tinchlikni saqlagan holda urug' barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. [2]

Umuman olganda, oila jamiyatning tayanchi, muhim bo'g'ini hioblanadi. Oilalardan jamiyat tashkil topadi. Oilalarning tinchligi bu jamiyatning tinchligi va gullab yashnashi hisoblanadi.



Shunindek, insonni shakllantirishda oila dastlabki boshqich, tayanch hisoblanadi. Ya'ni, kishi oilada rivojlanadi, kamol topadi. Va bunda oilaning tinchligi, nikohdagilar o'rtasidagi ahillik katta ahamiyatga ega.

Oila bu ota-ona, er-xotin, farzandlar va qarindosh-urug'lardan tuzilgan uyushma bo'lib, oila a'zolari o'rtasida mulkiy va shaxsiy huquq, majburiyatlarni vujudga keltiradi. Oila davlat himoyasidadir. [3]

2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston tarixida muhim voqea bo'ldi. Referendum o'tqazilib, umumxalq ovozi orqali yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi Konstitutsiyasiga inson huquqlari va asosiy erkinliklari, shuningdek, oila masalalari bilan bog'liq bo'lgan huquq va erkinliklarni himoya qilishni kuchaytiruvchi qoidalar kiritilgan. Unda tenglik, oilalarda ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish tamoyillariga urg'u berilgan. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida oila masalalari muhim hisoblanadi va oilaviy farovonlikni ta'minlashga qaratiladi. Bunda Konstitutsiya orqali O'zbekiston inklyuziv, adolatli jamiyatga yo'l ochish va oilaviy munosabatlarni kuchaytirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, yangi Konstitutsiyada gender tengsizlikni bartaraf etish va ayollar va erkaklar o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlashga ham katta e'tibor beriladi. Bu, ayollar va erkaklar o'rtasidagi huquqiy tenglikni himoya qilish, tinchlik va himoya muhitini yaratish, ayollarning siyosiy, iqtisodiy, va ijtimoiy faoliyatda qatnashishini rag'batlantirishga qaratilgan. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida ahamiyati ochiq-oydin e'tirof etilgan. Bu oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishni kafolatlaydi. Konstitutsiya erkaklar va ayollarning oila sohasida teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlaydi, gender tengligini ta'minlaydi, jinsi, yoshi va boshqa omillarga ko'ra kamsitishlarni taqiqlaydi. Shuningdek, u zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan oila tuzilmalarining xilma-xilligini tan oladi. [4]

Oilaviy masalalarda o'zbek mentalitetida kattalarga hurmat, mustahkam oila rishtalari, mehmondo'stlik kabi an'ana va qadriyatlar chuqur ildiz otgan. Oila o'zbek jamiyatining tamal toshi sanaladi va u kishilar hayotida markaziy o'rin tutadi. Oila tuzilishi nuqtai nazaridan o'zbek oilalari ko'pincha katta va keng bo'lib, bir tom ostida bir necha avlodlar birga yashaydi. Bu oilada birdamlik va o'zaro yordam hissini kuchaytiradi. Keksalarni e'zozlash eng muhimi, ularning hikmati, yo'l-yo'riqlari yuksak qadrlanadi. [5] Boy o'zbek mentaliteti oiladagi mustahkam rishtalarga, yaqin munosabatlar va o'zaro yordamga urg'u beradi. Shuningdek, nikoh ham o'zbek madaniyatida yuksak qadrlanadi va u inson hayotidagi muhim bosqich sifatida ko'riladi. Umuman



olganda, oilaviy masalalarda o‘zbek mentaliteti an’ana, hurmat va hamjihatlikda chuqur ildiz otgan bo‘lib, u O‘zbekistonning ijtimoiy tuzilishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Va aynan o‘sha an’ana va urf-odatlarida chuqur ildiz otgan bu mentalitet oilaga oid qonunchilikning rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yangi Konstitutsiya an’anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish, an’ana va taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan. [6]

O‘zbekistonning ushbu sohani yanada rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlariga o‘xshash madaniy kelib chiqishi va oilaviy huquq bo‘yicha tajribaga ega bo‘lgan bir qancha xorijiy davlatlar hissa qo‘shishi mumkin. Tajriba almashish uchun potentsial sheriklar sifatida Turkiya davlatini ko‘rish mumkin. Bu davlat bilan kuchli madaniy va do‘stlik aloqalariga egamiz. Va ushbu davlatda ham oilaning birligi, faravonligiga asosiy e’tibor qaratiladi. Turkiyaning boy tajribasidan ushbu sohadagi duch kelayotgan kamchiliklarimizda mentalitetimiz, urf-odatlarimizga moslashtirgan holda foydalansak, foydadan holi bo‘lmas edi.

Shuningdek, Malayziya davlatida ham bu sohada o‘z tajribasiga ega. “Oila instituti” kontseptsiyasini targ‘ib qilish bilan mashhur bo‘lgan Malayziyaning oilaviy qonunchilik asoslari oilalarda vositachilik va nizolarni hal etishga urg‘u berib, ijtimoiy totuvlikni rag‘batlantiradi.

Biz bilan qator sohalarda yaxshi munosabatlarni amalga oshirayotgan Germaniya davlati bilan oila huquqi sohasida ham tarjiba almashsak bo‘ladi. O‘zining ilg‘or oila qonunchiligi bilan mashhur bo‘lgan Germaniya oila a‘zolarining huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi mustahkam huquqiy bazani taklif etadi, shu bilan birga ijtimoiy farovonlik va himoyaga muhtoj shaxslarning himoyasini ta‘minlaydi. [7]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbek madaniyatida oilaning o‘rni beqiyos va oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasida oilaviy masalalarda o‘zbek mentalitetining chuqur ildiz otgan qadriyat va an’analari o‘z ifodasini topgan. Yangi Konstitutsiya O‘zbekistonda oila masalalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, bu qoidalarning samarali hayotga tatbiq etilishi, mamlakatda gender va oilaga bo‘lgan madaniy munosabat uning qonunchilik bazasiga mos kelishi uchun hali ko‘p ishlar qilinishi kerak. Misol uchun, Konstitutsiyamizda ham, qonunchiligimizda ham otalik huquqiga kam e’tibor qaratilyapti deb hisoblayman. Ya’ni farzand tarbiyasida ona bilan bir qatorda otaning ham roli katta. Shuni hisobga olgan holda, onalik huquqi bilan bir qatorda otalik huquqining ham himoya



qilinishi, shuningdek, otaning farzand tarbiyasidagi o‘rnini hisobga olgan holda otalik huquqini ham keng targ‘ib qilish kerak.

Shuningdek, ajrimlar ko‘payganligini hisobga olgan holda, mediatsiya va nizolarni muqobil hal etishni rag‘batlantirish kerak. Mediatsiya va nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan foydalanishni rag‘batlantirish oilalar ichidagi qarama-qarshilik jarayonlarini minimallashtirishga yordam beradi, sud jarayonining oilaviy munosabatlarga salbiy ta‘sirini yumshatadi.

Hozirgi davrda oila masalalarida ko‘paygan muammolarni hal etishning eng yaxshi yo‘li bu - huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Aholini ularning huquqlari, himoyasi va oila bilan bog‘liq muammolarni hal etishning mavjud huquqiy mexanizmlari to‘g‘risida ma‘lumot berish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlari, seminarlar o‘tkazish shaxslarning o‘z huquqlarini himoya qilish va oilaviy totuvlikni saqlash imkoniyatini beradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
2. Karimova O. Huquqshunoslik: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: “Sharq”, 2010
3. Dadasheva A.A. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
4. Kasimova A.A. Рол женщины в современной науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
5. Egamberdieva N.X. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
6. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection)
7. Otaxo‘jayev Fozil MaqsudoYich, yuridik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizm at ko'rsatgan yurist, Yo‘ldosheva Shoira Rahmatovna, yuridik fanlari nomzodi. Oila huquqi: Darslik; Mirzayusuf Hakimovich Rustamboevning umumiy tahriri ostida. -T.: 2007



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – FUQAROLIK JAMIYATI VA XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISHNING HUQUQIY KAFOLATI

A. A. Kasimova

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Jasurjon Bahodirjon o`g`li Xamdaliyev

Yurisprudensiya yo`nalishi 1-bosqich talabasi

jasurhamdamov88@gmail.com

Konstitutsiya – davlatning oliy yuridik kuchga ega bo`lgan qonuni. Konstitutsiyani asosiy qonun deb ham atashimiz mumkin, chunki Konstitutsiya – davlatchilikning, qonuniylik va huquqiy-tartibotning, qonunchilikning asosi. Shunday qilib Konstitutsiya deganda, davlatning oliy yuridik kuchga ega bo`lgan asosiy qonuni tushuniladi va ushbu qonun davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, hokimiyat organlari tizimi, tarkibi, tashkil etilish tartibi, vakolatlari, o`zaro munosabatlari, davlatning jamoat birlashmalari bilan munosabatlari asoslarini belgilovchi normalar yig`indisidan iborat bo`ladi. [1]

O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining: “Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro`-e`tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan

Qomusnomadir”,- degan so`zlari faqatgina O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga emas, balki barcha Konstitutsiyalarga berilgan ta`rifdir.

Bugun yurtimizda demokratik, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning mustahkam poydevori qurilmoqda. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o`tkazilgan yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish referendumida ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi, unda xalqimizning Yangi O`zbekistonni barpo etish bo`yicha orzu-umidlari va intilishlari o`z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Referendum ko`p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat`iy qaratilganligining ishonchli ifodasi bo`ldi.

Yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatini qurishda keng ko`lamli huquqlarni o`zida aks ettirgan. Ya`ni Konstitutsiyaga kiritilgan



o'zgarishlarning asosiy maqsadi sifatida fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etish deb hisoblashimiz mumkin. [2]

Xuddi shunday biz barpo etayotgan fuqarolik jamiyatida adolat, haqiqat va insonparvarlik g'oyalari ustuvorlik qilishi lozim. Adolat bor joyda, albatta, inson haq-huquqlari va erkinliklari to'la ta'minlanishiga umid bog'lash mumkin. Fuqarolik jamiyatining bir nechta o'ziga xos begilari mavjud, ulardan biri inson huquq va erkinliklarining so'zsiz ta'minlanishidir. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida uning "ijtimoiy davlat" ekanligi keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, adolatli mehnat qonunchiligi, zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyotning kafolatlanishi, ijtimoiy himoya dasturlarining ishlashi va shu kabilarni anglatadi. Bundan tashqari, huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi. [3]

Fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari, jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining mavjudligi fuqarolik jamiyatining yana bir o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli", - ekanligi belgilab qo'yildi. Davlatda o'zini o'zi boshqarish organlariga katta e'tibor qaratish, uning faoliyatini shaffof tarzda, adolatli amalga oshirilishini ta'minlash – inson huquq va erkinliklarining hurmat qilinishi va fuqarolik jamiyatining qurilishiga katta ahamiyat qaratilganligidan dalolat beradi. Fuqarolik jamiyatida huquq va qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini o'zi kamol toptirishiga yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquqlari va erkinliklari to'liq ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, bu barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart ekanligini ham bildiradi. Bu borada yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 56-moddasida shunday mustahkamlab qo'yildi: "Inson huquqlari



bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi". Fuqarolik jamiyatining asoslari Konstitutsiyamizning 69-moddasida aniq qilib belgilandi: "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi". [4] Ushbu moddada keltirilgan barcha fuqarolik jamiyatining asoslari O'zbekiston Respublikasida mustaqil tarzda o'z yo'nalishlari bo'yicha faoliyat olib borishlariga keng ko'lamda imkoniyatlar yaratildi, sababi bularning barchasi O'zbekistonni har jabhadan, fuqarolik jamiyatini yaratish, demokratik huquqiy davlat va xalqparvar davlat yaratilishiga beqiyos darajada o'z hissasini qo'shib boradigan omil sifatida qabul qilishimiz mumkindir. Misol tariqasida, Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashganlik uchun Konstitutsiyasida qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi mumkinligi belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. [5]

O'zbekiston Respublikasi demokratik davlat ekanligini xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati sifatida belgilab olishimiz mumkin. Demokratiya so'zi bugungi ijtimoiy hayotda ko'p va keng ishlatiladigan tushuncha sifatida qabul qilishimiz mumkin, chunki demokratik davlatda jamiyat a'zolarining, ya'ni xalqning huquq va erkinliklari birdek himoya qilinadi. Konstitutsiyamizning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi", - deb ta'kidlangan. Ushbu norma orqali O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi asoslari belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Respublikada demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgorigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rin egallaydi, deb ishonamiz.

"Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari", - degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz.[6]



Konstitutsiyamizga kiritilgan muhim o'zgartirish va qo'shimchalardan biri – bu o'qituvchining maqomini oshirish bo'ldi. Mamlakatimizda ilgari ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish doirasida o'qituvchilar muhim ahamiyatga ega ekanliklari belgilanmagan bo'lsada, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 52-moddasida o'qituvchi maqomi yuksak darajada belgilandi. Unga ko'ra: “O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi”, - deb ta'kidlanganini ko'rishimiz mumkin. Bu sohaning yuksaklashtirilishi nafaqat ijtimoiy sohani, balki qolgan barcha sohalarning rivojiga katta hissa qo'shadi, shubhasiz. Chunki kelajak avlodni bilimli, saviyali qilib etishtirish, kelajakda yurt ravnaqi uchun muhim shaxs, inson sifatida yuksalishi, aynan, o'qituvchi va murabbiylarimizga bog'liq. Bejizga O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti o'z asarida: **“Xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi, farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”, - deb mulohaza keltirmagan.** Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalarga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida: “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”, - deb ta'kidlandi. Ya'ni ushbu norma O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi va demokratiyaning to'laqonli ta'minlanish asosi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchilarning barchasi o'z huquq va erkinliklarini Konstitutsiya asosida kafolatlanganligini bilgan holda, unga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilishi mumkinligini anglashimiz mumkin. [7]

Konstitutsiyamizda aks ettirilgan “Miranda huquqi” tushunchasi inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanishi kafolatidir deb aytishimiz mumkin. “Miranda huquqi” – fuqaroni birinchi marta davlat organlari tomonidan biror bir ishga gumonlanuvchi tarzida jalb qilayotganda, unga o'zining haq-huquqlarini tushuntirilishi hisoblanadi. Ushbu huquq AQShdagi muhim yuridik talabdir. [8] “Miranda huquqi”ni O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 27 va 29-moddalarida belgilanganligini uchratishimiz mumkin. 27-moddaga ko'ra: “Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi



asoslari tushuntirilishi shart”,- degan norma belgilangan va 29-moddada esahar kim malakali yuridik yordam olishi va qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordamni davlat hisobidan ko`rsatilishi mumkinligi belgilangan. Inson va davlat organlarining o`zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal etilishini ko`rishimiz mumkin. Bundan ko`rinib turibdiki, inson va fuqarlarning huquq va erkinliklari yil sayin Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo`yilmoqda. Bu ularga Respublika hududida erkin va farovon, tinch va osuda yashashlari uchun katta imkoniyat yaratadi. [9]

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, O`zbekiston Respublikasining 2023-yil 31-aprel sanasida referendum asosida qabul qilingan va 2023-yilning 1-may sanasida kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning butun Respublika hududida amal qilishi, ushbu hududda istiqomat qiluvchi barcha shaxs, fuqarolarning huquq va erkinliklari ta`minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir fuqaroning jamiyat va davlat miqyosidagi masalalarni hal etishdagi ishtiroki jamiyatning fuqarolik jamiyati tomon yuksalishiga turtki bo`ladi. Chunki har bir harakatdagi shaxs jamiyatning rivoji uchun qanchadir miqdorda o`z hissasini qo`shadi, albatta, ijobiy tomonlama rivojlanadi. Konstitutsiyaning qabul qilinishiga, asosan, ma`lum hududda yashovchi fuqarolarning fikr va mulohazalari inobatga olinadi, shu munosabat bilan referendum, xalq muhokamasi tashkil etilgan. Bunda har bir fuqaroning o`z ehtiyojlari, ijtimoiy hayot uchun zarur bo`luvchi huquq va erkinliklar qabul qilinib, muhokama qilinadi. Konstitutsiyaning ko`plab moddalari orqali, davlatni xalqparvar ekanligini, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarining o`z o`rnida ta`minlanishidan anglab olishimiz mumkin.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent:”O`zbekiston”. 2023. 80b
2. O.T Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. Toshkent-2022. “Yuridik adabiyotlar publish”, - 400 bet
3. Karimov I.A. Vatan ozodligi – oliy saodat: Birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasidagi ma`ruza. – T.: “O`zbekiston”, 1999. – 61 b
4. Sh.A. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. Toshkent: TDYU, 2021. – 248 bet
5. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – “O`zbekiston” – 2016. 53 b



6. Dadasheva A.A Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
7. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
8. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
9. Dadasheva A.A [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI](#). Uzbek Scholar Journal 15, 10-12
10. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
11. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.



KONSTITUTSIYA ISLOHOTLARI INSON QADRI UCHUN

B. E. Yuldashev

dotsent, tarix fanlari nomzodi

A. A. Abduqodirov, B. B. Yusupov

“Iqtisodiyot” fakulteti MN-3 guruh talabalari:

yusupovb781@gmail.com

abduqodirovabdurahmon.1402@gmail.com

Bugungi kunda inson huquqlari, erkinliklari, ularning kafolatlari har bir mamlakat uchun o‘ta muhim masalalardan biridir. Zero, inson huquqlarini quvvatlangan yurt doim yuksak darajalarga erishganini tarix isbotlagan. Ma’lumki, davlat va jamiyat haetida ba’zi narsalar borki, u vatanimiz kabi yagonadir, ya’ni, bayrog‘imiz, gerbimiz, madhiyamiz bitta va shu qatori konstitutsiyamiz ham yagonadir. Har bir timsol ona vatanimiz va xalqimizning ezgu maqsadlarini o‘zida aks ettiradi. Shu ma’noda Bosh qomusimizning muqaddimasida inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilgan holda, fuqarolarining munosib haet kechirishlarini ta’minlashga intilish, insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilinganligi qayd etilgan. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u “Xalq Konstitutsiyasi”dir. Konstitutsiyamiz loyahasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol va munosib ishtirok etdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakkam muallifi xalqimiz bo‘ldi, deb aytishga barcha asosimiz bor. [2] Konstitutsiyani o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni qabul qilish, jamlash va tahlil qilishning birinchi bosqichida fuqarolardan 60 mingdan ziyod taklif kelib tushdi. Muhimi – bu takliflarning taxminan har to‘rttasidan bittasi loyihadan joy oldi. Ikkinchi bosqichda takliflar asosida ishlab chiqilgan Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Muhokama davomida loyiha bilan 5 million aholi tanishdi va 150 mingdan ziyod takliflar komissiyaga kelib tushdi. Bundan tashqari, mehnat jamoalari, oliygothlar, mahalla faollari va ziyoliylar bilan bo‘lib o‘tgan muhokamalarda yana 10 mingga yaqin takliflar berildi. [3] Yuqoridaga raqamlar Konstitutsiya



loyihasining tom ma’nodagi muallifi xalq ekanini dalillaydi. Tan olish kerakki, Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish – shunchaki oddiy va oson ish emas. Xalq fikrini o‘rganishdan tashqari bu jarayon har bir masalani aql chig‘irig‘idan o‘tkazishni, yangi moddalarning O‘zbekiston amaliyotida qanday qo‘llashni chamalab ko‘rishni, rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasini sinchiklab o‘rganishni talab qildi. Shu nuqtai nazardan, loyihamni tayyorlash davomida 190 dan ortiq davlat tajribasi o‘rganildi, hujjat 6 turdagi ekspertizadan o‘tkazilib, puxtalandi. Ko‘rinib turibdiki, Konstitutsiya loyihasi ko‘plab muhokamalar, baxslar mahsuli sifatida dunyoga keldi. [4]

Asosiy qonunimizning butun mazmun va mohiyati insonga xizmat qilishga yo‘g‘rilgan. Konstitutsiyamizning biror bir joyida, davlatning huquqi e‘ki fuqarolar davlat xohish va irodasini bajarishi shart qabilidagi qoidalar uchramaydi. [5] Aksincha, asosiy qonunimizda, “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.”, “Davlat inson hamda fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi” kabi davlatning majburiyatlarini uchratamiz. Konstitutsiyamiz o‘zining insonparvarligi bilan ajralib turadi. Unga ko‘ra “Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarning huquqlari davlat himoyasidadir.”, “Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘radi”, “Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob’ektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi”. [6]

Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati va huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish asoslari, fuqarolarning huquq va burchlari sharhlab berilgan. Xususan, Konstitutsiyamizning 42-moddasida “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga ega” deb belgilab qo‘yilgan. [7] Ushbu huquq O‘zbekiston Respublikasi



Mehnat Kodeksi, “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi hamda “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlarda ham o‘z ifodasini topgan. Mazkur qonunlarga ko‘ra, barcha fuqarolar mehnat qilish huquqiga ega bo‘lishi va ulardan foydalanishda keng imkoniyatlarga egadirlar. Har bir xodim, o‘z mehnati uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda haq olish, har haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek, haq to‘lanadigan yillik ta’tillar berish orqali ta’minlanadigan dam olish, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish, ish bilan bog‘liq holda sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga etkazilgan zararning o‘rnini qoplash, kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga birlashish, qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish, o‘zining mehnat huquqlarini himoya qilish huquqiga egadir. [8]

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligini namoèn qildi. Ushbu umuminsoniy qadriyatlarning diqqat markazida inson, uning haèti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlarini ta’minlash davlatimiz oldidagi oliy ma’suliyat ekanligi Konstitutsiyamizning asosiy g‘oyasi sifatida tanlab olindi. Konstitutsiyamizning barcha tamoyillari, avvalo, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, davlatning majburiyati ushbu huquq va erkinliklarini ta’minlashda aks etadi.

REFERENCE

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
5. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHА XALQARO INSTITUTLAR (2023) Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2 (17), 87-90
6. Касимова А.А Рол женщины в современной науке 8 (08/2023), 226-234



7. Эгамбердиева Н.Х. Деликт мажбуриятларнинг ҳуқуқий табиати Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Олий ўқув курслари АХБОРАТНОМАСИ
8. Инагамова М.М Аёл ҳуқуқларини ҳимоя илишда ички ишлар органлари иштирокининг ҳуқуқий механизларини такомиллаштириш (Scienceweb academic papers collection)
9. Юнусова Н. Ш (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
10. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUVERENITETINING HUQUQIY ASOSI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Firdavs Akramjon o‘g‘li Zayniddinov

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Ma‘lumki, suverenitet *fransuzcha* so‘zdan olingan bo‘lib, «oliy hokimiyat» degan ma‘noni anglatadi. Suverenitetning “oliy hokimiyat, mustaqillik” degan tushunchasini fransiyalik J. Boden tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, [1] u hozirgacha shu ma‘noda barcha xalqlar davlatchiligida ishlatilib kelinadi. Ozodlik, mustaqillik uchun kurashlar “suverenitet” uchun kurash bilan mustahkamlanib, xalqaro ahamiyat kasb etgan. Suverenitet so‘zi hurmatlash – xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsipi deb ta‘kidlab o‘tishgan [2]. Fikrimizcha, suverenitet so‘zi mamlakat ichkarisida hokimiyatning to‘liq ustunligi hamda tashqi siyosatda mustaqilligidir.

Mustaqillik — davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo‘lmay faoliyat ko‘rsatishi hisoblashi bilan birga, mustaqil tamoyillariga rioya etish davlatlararo o‘zaro munosabatlarda etakchi, hukmron qoida sanaladi. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o‘zaro tinch-totuv yashashning prinsiplaridan biridir. Ushbu qoida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustav va xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalart mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, unga rioya qilish hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy vazifasidir.

Davlatning suvereniteti uning boshqa davlatlar bilan munosabatlaridagi mustakilligini ham bildiradi. Mustaqil davlatning faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy mustaqilligini ham anglatadi.

Mustaqillik insoniyatning azaldan orzu-umidi bo‘lib kelgan. Ana shu g‘oya asosida AQSH, Fransiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida inqiloblar yuz berdi. XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o‘rnida bir necha mustaqil respublika, Chexoslavakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo‘linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya



Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan hududda sotsialistik tuzum barham topdi. Ayni chog‘da, sobiq Sovet Sotsialistik Respublikasi parchalanib uning o‘rnida mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan o‘n besh mamlakat tashkil topdi.

Boshqacha qilib aytganda, bu davrga kelib Mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayonga aylandi. O‘zbekistonning Mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi.

Mustaqillik imkoniyatlarini oldindan payqagan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishini to‘g‘ri kuzatib, to‘g‘ri baholay bilgan O‘zbekiston ittifokdoshlari orasida birinchilardan bo‘lib, o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. 1991-yil 31 avgust kuni qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi» Bayonot O‘zbekiston hukumatining siyosiy yo‘lini to‘la qonunlashtirib berdi. Shu kuni "O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida"gi qonun [3] qabul qilindi. Mazkur qonun bilan *birinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining bundan keyin O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi «*O‘zbekiston Respublikasi*» deb nomlash; *ikkinchidan*, 1-sentabr kunini «Mustakillik kuni» bayrami deb e‘lon qilish; *uchinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi ishlab chiqish; *to‘rtinchidan*, ittifoqning va uning tarkibiga kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularni respublikaning davlat mustaqilligi e‘lon qilingan hujjatni tan olishga da‘vat etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu o‘z suverenitetiga ega O‘zbekistonning dastlabki huquqiy poydevori edi.

Shu o‘rinda "O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida"gi qonunning mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. U 17 moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi. Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat deb e‘lon qilindi. O‘zbek xalqi o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘ldi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqilligi respublikada adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurish uchun yo‘l ochib berdi, o‘z milliy davlatchiligini barpo qilishga imkoniyat yaratdi. [4]

Mustaqillik tufayli O‘zbekiston xalqaro miqyosda o‘zini tanitish, ayni chog‘da xalqaro huquq me‘yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Jahon xaritasida



O‘zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Iqtisodiyotda tub o‘zgarishlar qilish uchun imkoniyat yaratildi. Ya’ni jahon amaliyoti isbotlagan bozor iqtisodiyotiga o‘tish uchun sharoit barpo etildi. Mulkka munosabat tubdan o‘zgarib, jamiyatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun imkon ochildi.

Mustaqillik xalqning ma’naviy uyg‘onishi uchun to‘la imkoniyat yaratdi. Yurt tarixi, qadimiy madaniyat tiklana boshladi. Xalqining azaliy urf-odatlarini, ma’naviy qadriyatlarini unga qaytarib berildi. [5]

Dinga munosabat mutlaqo ijobiy tomonga o‘zgardi. Shunday qilib, qo‘lga kiritilgan Mustaqillik o‘zbek xalqi tarixida tamoman yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi. Xalq kelajakka ishonch bilan qaray boshladi. O‘z yurtining to‘la xo‘jayini ekanligini, o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyatini qo‘lga kiritganligini his qila boshladi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, biz har qanday vaziyatda ham O‘zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashimiz shart. Bu — bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir». [6]

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik to‘g‘risida Qonuni O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik, shaxsning davlat bilan o‘zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig‘indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e’tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining butun hududi uchun yagona fuqarolik o‘rnatilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni bir vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, u qanday asoslarda olinganligidan qat’i nazar, hamma uchun tengdir.(4-modda) [7]

Shu o‘rinda, fuqarolik va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolar kimlar bo‘lishi mumkin degan savolga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Fuqarolik kodeksida fuqarolar jismoniy va yuridik shaxslarga bo‘linadi.

Fuqarolar deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.

Bundan tashqari “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida” qonun ham mavjud bo‘lib, uning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini belgilash, o‘zgartirish,

qo'riqlash va himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi (bundan buyon matnda Davlat chegarasi deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikni, suvni, er qa'rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat.(3-modda) [8]

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlat chegarasini kesib o'tish quyidagicha amalga oshiriladi:

– quruqlikda, chegara daryolarida, ko'llarda va boshqa suv havzalarida – xalqaro temir yo'llarning, avtomobil yo'llarning, daryo qatnovi va boshqa qatnov yo'llarining Davlat chegarasini kesib o'tish uchun belgilangan joylarda;

– samoviy hududda – xalqaro trassalarning Davlat chegarasini kesib o'tish joylarida yoki ushbu maqsadlar uchun ajratilgan havo yo'laklarida;

Shaharlar va transport vositalari Davlat chegarasidan to avtomobil yo'li va temir yo'l o'tkazish punktlarigacha yoki qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotganda:

– Belgilangan yo'nalishni o'zgartirish;

– Transport vositalariga shaxslarni chiqarish, tovarlarni yuklashni hamda tranpost vositalaridan shaxslarni, tovarlarni tushirishni amalga oshirish;

– Har qanday uchuvchi apparatlarni va uchuvchisiz uchuvchi apparatlarni havoga ko'tarishni, qo'ndirishni yoki qabul qilishni amalga oshirish taqiqlanadi;

Chegara mintaqasida quyidagilarga nisbatan qo'shimcha rejim choralari va taqiqlari joriy etilishi mumkin:

– Chegara mintaqasida begona shaxslarning kirishiga;

– Xo'jalik faoliyati hamda boshqa faoliyat amalga oshiriladigan hududlarga kirishi;

– Suzish vositalarining chegara daryolariga, ko'llarga va boshqa suv havzalariga kirishiga ruxsatnomalar Chegara qo'shinlari yoki Transport vazirligi tasarrufidagi tegishli tashkilot tomonidan beriladi. [9]

Xulosa qilib aytganda Konstitutsiyaviy qoidalar zamirida mustaqilligimizni asrab-avaylash va yanada mustahkamlash, kelajak avlodlarga ozod va erkin Vatan qoldirish, xalq manfaatlari ko'zlangan islohotlar yo'lidan ortga qaytmaslik, qonun va adolat ustuvorligi, insonga e'tibor va g'amxo'rlik kabi muhim qadriyatlar mujassam bo'lib, ular davlatchilikning tamal toshlari sifatida mustahkamlanmoqda.

REFERENCES

1. Azizxo‘jaev A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. — Toshkent: TDYU, 2008. — 19-bet.
2. G.M.Tansikbayeva, V.A. Kostestskiy. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. – Toshkent: “Sharq” Nashriyot Manbaa AJ kompaniyasi Bosh tahririyati, - 2019. – 19-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 11-son, 246-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
4. Inagamova M.M. M.E.Fahriddinov. Konstitutsiya – inson qadri va adolat ustuni / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1 <https://tstu.uz/>. Tashkent State Transport University The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life. Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. 324-329-b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralari to‘g‘risida. 13.09.2023 yildagi O‘RQ 868-son. <https://lex.uz/uz/docs/>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Fuqaroligi to‘g‘risida. 13.03.2020 yildagi O‘RQ 610-son. <https://lex.uz/docs/>.
7. Inagamova M.M. Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga oid ayrim mulohazalar(ahloq va huquq normalarining o‘zaro hos xususiyatlari) / O‘zbekiston milliy Universiteti xabarlari, 2022, [1/12/1] –B. 80-82.
8. Dadasheva A.A. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2 (17), 87-90
9. Касимова А.А Рол женщины в современной науке 8 (08/2023), 226-234
10. Egamberdieva N.X. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
11. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection)
12. Yunusova N. Sh (2022). YoSh MUTAXASCISLARNI TARBIYALASHDA QADRIYATLARNING O‘RNI. Academic research in educational sciences, 3 (TCTY Conference 1), 339-341.
13. Malikov, B. Q. (2021). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYO‘SIY QARASHLARI. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.



YANGI O'ZBEKISTONNING ZAMONAVIY TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Inagamova Mafura Muxtarxanovna

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Botirov Nurbek Nodirbek o'g'li

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Sun'iy intellekt- informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. [1] “Sun'iy intellekt” atamasi 1956 yilga kelib paydo bo'ldi. Shu yilning yozida AQSHning Dartmut universitetida sun'iy tafakkur masalalari bo'yicha anjuman bo'lib o'tdi. Unda **Klod Shennon** (Bell Laboratories), **Nataniel Rochester** (IBM), **Gerbert Saymon** (Karnegi universiteti, Trenchard Mur (Prinston universiteti), Jon Makkarti (Dartmut universiteti), **Marvin Minski** (Garvard universiteti) kabi olimlar ishtirok etgan. Ushbu anjumanda ma'ruza qilgan amerikalik informatika sohasidagi olim **Jon Makkarti** (1927–2011) “Artificial Intelligence” (“Sun'iy tafakkur”) atamasi muallifi sifatida tarixga nom qoldirdi. Sun'iy ongning kelajagi “super ong bo'lishi aytib o'tilgan. Super ong, giperong yoki super-inson ongi — bu eng iqtidorli insonnikidan ancha yuqori idrokka ega bo'lgan gipotetik agentdir. XX asrning 80-yillari sun'iy intellekt – kashfiyot deya e'tirof etila boshladi. Olimlar ushbu yo'nalishda darsliklar ishlab chiqa boshladilar. Shuningdek, 1997 yilda shaxmat bo'yicha Jahon chempioni **Garri Kasparovni** mag'lubiyatga uchratgan mashhur shaxmat dasturi – “**Deep Blue**” yaratildi. Shu yillarda Yaponiyada neyron tarmoqlari asosida 6-avlod kompyuter loyihasi ishlab chiqilayotgan edi. [2] Endi sun'iy intellektning O'zbekistondagi o'rniga to'xtalib o'tsak. Bugungi kunga qadar jahon mamlakatlari tomonidan sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha yettita xalqaro, ellikdan ortiq milliy strategiya qabul qilingan. Bu yo'nalishda O'zbekistonda ham katta qadam tashlandi va sun'iy intellekt sohasida qonunchilikdagi bo'shliq to'ldirildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi tashabbusi bilan O'zbekiston innovatsion rivojlanish strategiyasi va Ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida mamlakatda sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. [3] Xususan, 2021 yil 26 avgustdagi PQ 5234-sonli Prezident qarori “Sun'iy intellekt texnologiyalarini



qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora tadbirlari to‘g‘risida” [4] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 noyabrdagi “Sun‘iy intellekt g‘oyalarini qo‘llab quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida” 717-sonli qarori [5] yaqqol misol bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 31 iyuldagi 475-sonli “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qaroriga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutida “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt ixtisosligi” bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim instituti ochildi. Institut ilmiy tashkilot sifatida davlat buyurtmalari va dasturlarini amalga oshirishda hamda fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borishda ishtirok etadi. [6]

Bundan tashqari oliy va o‘rta maxsus ta‘limida sun‘iy intellektga alohida o‘rin ajratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qaroriga asosan quyidagi oliy ta‘lim muassasalarida davlat grantlari asosida 2021-2022 ,2022-2023 va 2023-2024-oquv yilidan boshlab o‘qish jarayonlarini tashkil etish yo‘lga qo‘yildi. [7] Bular: *birinchi*, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti; *ikkinchi*, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti; *uchinchi*, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, *to‘rtinchi*, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, *beshinchi*, Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida jami bakalavr ta‘limi uchun 100 ta va 2021-2022 va 2022-2023-o‘quv yillari uchun jami 40 ta o‘rin ajratildi. Bundan tashqari sun‘iy intellekt sohasida tayanch doktorantura va tadqiqotchi-stajorlikka o‘qitish uchun har yili 5 nafardan maqsadli kvota ajratilishi belgilab o‘tilgan. [8]

Sun‘iy intellekt va uni qo‘llash texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish asosan quyidagilarda namoyon bo‘ladi: *birinchidan*, sun‘iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish; *ikkinchidan*, Hukumatning sun‘iy intellektga tayyorlik indeksida (Government Artificial Intelligence Readiness Index) respublika pozitsiyasini yaxshilash choralarini ko‘rish; *uchinchidan*, sun‘iy intellekt sohasida milliy va xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari faolligini oshirish, *to‘rtinchidan*, Sun‘iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini



olib borayotgan yosh olimlarni qisqa muddatli xorijiy ilmiy stajirovkalarga yuborish; *beshinchidan*, sun’iy intellekt sohasida xususiy sektorni keng jalb qilgan holda muntazam tarzda xalqaro ilmiy konferensiyalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish; *oltinchidan*, sun’iy intellekt sohasidagi yetakchi ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish hamda ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. [9]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tobora rivojlanib borayotgan davlatlarning kundalik hayotiy tizimiga aylanib qolgan sun’iy intellekt davlat va jamiyat hayotida katta rol o‘ynab bormoqda. Sun’iy intellekt davlatning iqtisodi, ijtimoiy hayoti bilan birgalikda ta’lim sohasida ham hozirgi kun talabiga aylanib qolmoqda. Xususan, Yaponiya davlatini oladigan bo‘lsak, o‘sib borayotgan har bir yosh avlod davlat va jamiyat hayotida muhim bo‘lgan biror bir ixtiro qilib beradi[10]. O‘ylaymanki shuning hisobiga tabiiy resurslarga ega bo‘lmagan Yaponiya rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Yoqorida ta’kidlab o‘tilgan sun’iy intellektni rivojlantirishga hissa qo‘shuvchi oliy va o‘rta maxsus ta’limlarini kopaytirish bilan birgalikda “ Axborot texnologiyalari va innovatsiya maktab”[11]larini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

REFERENCES

1. https://www.researchgate.net/publication/348817864_SUN'IY_INTELEKT_VA_E_KSPERT_TIZIMLAR
2. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi tarixi <https://vidabytes.com/uz/sun%27iy-intellekt-tarixi>
3. Inagamova M.M. Toshmurodova M. A. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari. Journal of New Century Innovations. Volume–36_Issue-2_September_2023.B.-76-81.
4. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.08.2021-y., 07/21/5234/0826-son; 23.08.2022-y., 06/22/194/0766-son
5. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.11.2021-y., 09/21/717/1107-son; 22.07.2023-y., 09/23/304/0510-son
6. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2021-y., 09/21/475/0737-son
7. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 07/21/4996/0127-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
8. Qonunchilik hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 9.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son; 15.04.2022-y., 07/22/208/0311-son,



- 31.08.2022-y., 06/22/214/0791-son; 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son
9. Инагамова М.М., Рўзиева Н.Н. Янги Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг ҳуқуқий асослари, Journal of New Century Innovations. Volume–36_Issue-1_September_2023.B.-182-186.
10. Kasimova A.A [Рол женщины в современной науке](#). Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
11. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
12. Dadasheva A.A Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
13. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
14. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
15. Dadasheva A.A [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI](#). Uzbek Scholar Journal 15, 10-12
16. Dadasheva A.A [Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan \(theory and practice\) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...](#)T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan
17. Dadasheva A.A [MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM](#). Academic research in educational sciences, 117-122
18. Inagamova M.M. O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: AYBSIZLIK PREZUMPSIAYSINING AYRIM JIHATLARI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Jasurbek Lutfullo o'g'li G'aybullayev

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Aybsizlik prezumpiyasi (lotincha: Praesumptio – taxmin, gumon soʻzidan olingan) – shaxs huquqlari himoyasini taʼminlab beruvchi, asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining umumiy demokratik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Unga koʻra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Mazkur prinsipning yana bir muhim xususiyati shundaki, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi oʻzining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.[1]

Aybsizlik prezumpsiyasi jinoyat huquqining muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Aybsizlik prezumpsiyasi xalqaro huquq normalarida hamda milliy qonunchiligimizda oʻz aksini topgan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasida uning har bir shaxsga berilgan daxlsiz huquq ekanligi qatʼiy belgilab qoʻyilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga koʻra, «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora koʻrib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga oʻzini himoya qilish uchun barcha sharoitlar taʼminlab beriladi». [2]

Aybsizlik prezumpsiyasining ahamiyati va qoʻllanilishi haqida koʻplab huquqshunolar yakdil fikrda boʻlsalar-da, lekin uni talqin etish borasida bahsli masalalar ham uchrab turadi. Keling, avvalo, mazkur prinsipning kelib chiqish tarixi haqida toʻxtalib oʻtsak.

Olimlar aybsizlik prezumpsiyasining ilk belgilari qadimgi yahudiy qonunlarida boʻlganini aytishadi. Shuningdek, ayrimlar uni Qadimgi Rim huquqi bilan bogʻlab, XII-asr Italiya huquqida aybsizlik prezumpsiyasi rasman amal qilganini taʼkidlashadi. XV-asrga kelib, Italiyaning oʻzida



aybsizlik prezumpsiyasining barcha uchun teng umumiy prinsip ekanligi e'tirof etila boshlangan.

Aybsizlik prezumpsiyasi qonuniy prinsip sifatida ilk marotaba 1789-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Fransiya deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi. XVIII-asrning 2-yarmida aybsizlik prezumpsiyasi har bir insonga kafolatlangan asosiy konstitutsiyaviy huquq sifatida to'la e'tirof etildi.

Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili Amerika Qo'shma Shtatlari qonunchiligiga 1894-yili AQSH Oliy sudi tomonidan ko'rilgan **The US vs. Coffins** ishi orqali kirib keldi. O'shanda quyi instansiya sudining prisyajniylar hay'atiga ayb isbotlanmaguncha ayblanuvchilar begunoh bo'lishi kerakligi haqidagi ko'rsatmani bermagani aniqlangan edi. Mazkur ish yuzasidan chiqarilgan AQSH Oliy sudi qarorida aybsizlik prezumpsiyasi o'z ifodasini topadi:

Ma'lumki, aybsizlik prezumpsiyasi insonga yetkazilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy nohaqliklarning oldini olishga qaratilgan. Ayrim huquqshunoslar da'vo qilganidek, og'ir jinoyatlarga nisbatan ayblilik prezumpsiyasini qo'llash, ba'zan o'zini oqlasa ham, begunoh insonlarni nohaq jazolab qo'yish xavfining mavjudligi bois keng talqin qilinmaydi. To'g'ri, aybsizlik prezumpsiyasi qo'llanganda ayrim aybdorlar jazosiz qolishlari mumkin. Lekin ayblilik prezumpsiyasida begunohlarning jazoga tutilib qolish xavfi bo'ladi. Davlat barcha aybdorlarni jazolashga erishish uchun aybsizlar hayotini xavfga qo'ymasligi kerak. Aksincha, uning bosh maqsadi aybdorlar ichiga kirib qolishi mumkin bo'lgan aybsizlarni topib, ularni himoya qilish bo'lmog'i lozim. Shu bois ham aybsizlik prezumpsiyasi har bir shaxsning daxlsiz huquqi hisoblanadi. [3]

Statistik ma'lumotlarga qaraganda so'nggi yillarda yurtimizda jinoyat sodir etishda ayblanotgan shaxslarni, jumladan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlash, asossiz va noqonuniy ayblovlarga chek qo'yish borasida bir qator ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2016 – 2022-yillar mobaynida 4 740 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarilganligi ham buning yaqqol isbotidir. [4]

Bundan tashqari, Xorijiy davlatlarda xususan rossiyalik olimlar A.Magomedov, A.Sergeev, V.Shvetsovning o'z xulosalari bilan asoslab berishgan. Ularning ta'kidlashicha, aybsizlik prezumpsiyasi OAV tarqatadigan axborotlarga ham taalluqlidir, ya'ni «...shaxsning aybdorligi to'g'risidagi har kimning, har qanday fikrlari va xulosalari qonuniy chiqarilgan hukm kuchga kiringungacha yuridik ahamiyatga ega emas; bunga huquq pozitsiyasidan ham, axloq qoidalaridan kelib chiqib ham yo'l



qo'yish mumkin emas. Gap og'zaki va yozma xabarlar, intervyular, OAV nashrlari haqida bormoqda. Ular aybsizlik prezumtsiyasi printsipiga zid bo'lib, qonunlarni buzish hisoblanadi, zero, jamoatchilik fikrini chalg'itadi, ayblanuvchini muddatidan oldin, gohida bekordan-bekorga obro'sizlantiradi, sudlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi» . [5]

Ba'zi tadqiqotchilar bu fikrga qarshi o'laroq, aybsizlik prezumtsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega» deb qayd etilgan normaga zid ekanligini e'tirof etadi. Ammo ular ushbu moddaning 2-qismidagi qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno ekanligini va ushbu cheklashlar qatorida aybsizlik prezumtsiyasi tamoyili ham mavjudligiga e'tibor berishmaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinib, qonunchiligiga implementatsiya qilingan ana shunday xalqaro hujjatlardan eng muhimi bu – “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” dir. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 14-moddasida hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida bayon qilingani kabi, jinoiy ishlarda har qanday ayblanuvchi uning aybi qonunda ko'zda tutilgan tartibda isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.

Shunday qilib, Konstitutsiya aybsizlik prezumtsiyasini mustahkamlash bilan kishining asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilmasligini kafolatlaydi, ayblanuvchining himoyasi uchun qulay sharoit yaratadi va sudni haqiqatni aniqlashga da'vat etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qator qarorlarida ham aybsizlik prezumtsiyasiga urg'u berib o'tilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan, sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilmogda. [6]

Xulosa shuki, aybsizlik prezumtsiyasi insonga yetkazilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy nohaqliklarni oldin olishga qaratilgan. To'g'ri, aybsizlik prezumtsiyasi qo'llanganda ayrim aybdorlar jazosiz qolishlari mumkin. Lekin ayblilik prezumtsiyasida beunohlarning jazoga tutilib qolish xavfi bo'ladi. Davlat barcha aybdorlarni jazolashga erishish uchun



aybsizlar hayotini xavfga qo‘ymasligi kerak. Aksincha, uning bosh maqsadi aybdorlar ichiga kirib qolishi mumkin bo‘lgan aybsizlarni topib, ularni himoya qilish bo‘lmog‘i lozim. Shu bois ham aybsizlik prezumpsiyasi har bir shaxsning daxlsiz huquqi hisoblanadi. Aybsizlik prezumpsiyasiga qat’iy amal qilinishiga erishish esa ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Yunon faylasufi Sofokl aytganidek:”[7] Olamda ajoyib narsalar juda ko‘p, lekin eng ajoyibi insonning o‘zidir” Zero, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan mamlakatimizda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta`minlash ustuvor hisoblanadi.

REFERENCES

1. M.M. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
4. Dadasheva A.A [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYA VIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI](#). Uzbek Scholar Journal 15, 10-12
5. Dadasheva A.A [Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan \(theory and practice\) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...](#)T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan
6. Dadasheva A.A [MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM](#). Academic research in educational sciences, 117-122
7. Inagamova M.M. O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI

B. E. Yuldashev

dotsent, tarix fanlari nomzodi

J. A. Boynazarov, B. Q. Qahhorov

Iqtisodiyot fakulteti MI – 2 guruh talabalari:

boynazarovjasur796@gmail.com

qahhorovboburjon03@gmail.com

1991 yil 31 avgustda o‘z ishini boshlagan O‘zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi 17 moddadan iborat bo‘lgan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Bunday Qonunning qabul qilinishi mustaqillik davrida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizning natijasi hisoblanadi. Ushbu qonun mamlakatimizning ichki va tashqi munosabatlarida mustaqil siyosat yuritishni belgilab beruvchi eng muhim, aytish mumkin bo‘lsa, mustaqil davlatchilik asoslarini barpo etgan huquqiy hujjat hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu Qonunga O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991 yil 30 sentyabrda bo‘lib o‘tgan VII sessiyasida qabul qilingan qarori bilan Konstitutsiyaviy qonun maqomi berildi va shu qonunda belgilab qo‘yilgan barcha tamoyil va g‘oyalar “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”da o‘z aksini topdi. [1]

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi 1-qismida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir” degan konstitutsiyaviy qoida O‘zbekiston Respublikasining hozirgi dunyodagi o‘rnini bildiribgina qolmay, mamlakatimizni haqiqatdan ham xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi. [2] Bu quyidagilarni anglatadi, xususan, birinchidan, O‘zbekiston suveren davlat sifatida zamonaviy xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari va o‘zi qo‘shilgan xalqaro shartnomalar bilan bog‘liq bo‘lib, davlatimizning roziligisiz boshqa majburiyatlar zimmmamizga yuklatilishi mumkin emas, ikkinchidan, O‘zbekiston hududida davlat hokimiyati chenaralanmaydi va xalqaro huquqning hech qaysi bir sub’ekti bunga aralashish huquqiga ega emas, o‘zining hududidan tashqarida u o‘z hokimiyatini faqat boshqa manfaatdor davlat roziligi bo‘lgandagina amalga oshirish mumkin, uchinchidan, O‘zbekiston xalqaro huquqning boshqa sub’ektlari bilan diplomatik aloqalarni



amalga oshirib, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalarni tuzib, davlatlararo munosabatlarda bevosita qatnashadi. [3]

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlari “...davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi”. [4] Ushbu prinsip va normalarning Konstitutsiyada mustahkamlanganligi ularning O‘zbekiston hududida ichki qonun sifatida qabul qilinishi hamda ichki qonunchilikni to‘liq xalqaro qonunchilikka moslashtirilishini, ularning davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan to‘liq hurmat qilinishini bildiradi. Konstitutsiyada mustahkamlangan suveren tenglik prinsipi boshqa davlatlarning o‘ziga xosligini, ularning mustaqilligini, huquq va erkinliklarini hurmat qilishni, o‘zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlashni, o‘zining qonunlari va ma‘muriy qoidalarini mustaqil ravishda o‘rnatishni tan olishni bildiradi. [5] Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslik konstitutsiyaviy prinsipi boshqa davlatga nisbatan bevosita va bilvosita kuch ishlatishga qaratilgan turli harakatlardan o‘zlarini tiyishlarini bildiradi. Chegaralarning daxlsizligi prinsipi barcha davlatlarning hududiy ustunligi va hududiy yaxlitligini hurmat qilishni bildiradi. Bu prinsipga muvofiq, umumiy chegaralarni, shuningdek boshqa davlatlarning chegaralarini daxlsiz deb qabul qilinishidir. Ular har qanday davlatning butun hududi yoki hududining bir qismini bosib olish yoxud zo‘rlilik bilan egallashga qaratilgan har qanday talablar va harakatlardan o‘zlarini tiyib turish majburiyatini oladilar. [6] Chegaralarga oid masalalar muzokaralar va xalqaro huquqqa mos keladigan boshqa vositalar orqali hal qilinishi kerak. O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi, barcha nizoli masalalar faqat tinch yo‘l bilan va xalqaro huquqqa mos ravishda, ya‘ni – xalqlarning qonuniy manfaatlari, tinchligi va xavfsizligini xavf ostida qoldirmasdan hal qilinishi kerakligini nazarda tutadi. O‘zbekiston tashqi siyosatining boshqa davlatlar va xalqlarning ichki ishlariga aralashmaslik to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy prinsipi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsipiga asoslanadi. Mazkur prinsip BMT Nizomida davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va ularning mustaqilligi hamda suverenitetini himoya qilish to‘g‘risidagi Deklaratsiyada qayd etilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan va qisqacha ta‘rif berilgan beshta qoida – prinsip mustaqil O‘zbekistonning xalqaro maydondagi tashqi siyosati mohiyatini belgilaydi. Bu qoida – prinsiplar xalqaro huquqning barcha mamlakatlar e’tirof etgan



qoidalar va o‘lchovlarga mosdir, xususan, inson huquqlarini, hududiy yaxlitlik, xalqlar va millatlarning o‘z taqdirini o‘zlari belgilash huquqini har tomonlama hurmat qilish, hamkorlik, xalqaro majburiyatlarni sidqidildan bajarish. [7]

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasining 1-qismida o‘zining qonuniy asosini topgan. Mazkur moddada “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har tarafлама rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi”, deb ko‘rsatilgan. O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatini mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar teng huquqlilik, o‘zga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, kuch bilan do‘q-po‘psa qilmaslik va tinchliksevarlik tamoyili asosida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama keng tashqi aloqalar olib borish tarafdoridir. [8]

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan “O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, xamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin,” deb belnilab qo‘yilgan. O‘zbekistonning ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stlik yoki a‘zo bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa shakldagi davlatlararo tuzilmalar (jumladan, MDH turidagi) tuzishga, bu davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligiga zid kelmagandagina yo‘l qo‘yiladi. Bunda inson huquqlari va erkinliklari, O‘zbekistonning yaxlitligi va suvereniteti, hududning yaxlitligi va daxlsizligi hamda hokimiyatning qonuniy saylangan davlat organlari tomonidan amalga oshirilishining ustuvorligini ta’kidlab o‘tish lozim. Hozirgi kunda O‘zbekiston jahonning ko‘plab nufuzli tashkilotlariga a‘zo hisoblanadi. O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining eng muhim vazifasi BMT, YeXHT va boshqa xalqaro tashkilotlarning ishida faol qatnashish, Yevropa, Osiyo va jahon xavfsizlik tuzilmalariga qo‘shilishdir. [9]

Xulosa qilib aytganda xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekistonning bugungi kunda tinchlik, totuvlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol-yarog‘lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarni yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi tashqi siyosatining asosiy qoidalari xalqaro huquqning e’tirof etilgan qoida va normalariga asoslanadi.

REFERENCES



1. Shavkat Mirziyoev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalishg sari. 4-jild, T., “O‘zbekiston”, 2020.
2. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
6. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2 (17), 87-90
7. Касимова А.А Рол женщины в современной науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
8. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning huquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
9. Инагамова М.М Аёл ҳуқуқларини химоя илишда ички ишлар органлари иштирокининг ҳуқуқий механизларини такомиллаштириш (Scienceweb academic papers collection).



YANGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ERKINLIGI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Farangiz Sayfiddin qizi Yo'ldosheva

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Axborotlashgan jamiyatda bugungi kunda dunyo shiddat bilan rivojlanmoqda. Insonlar axborot olishining asosiy manbai bu internet bo'lib qolmoqda. Mafkura olamining eng kuchli quroliga aylangan axborot tizimi dolzarb muammolarni muhokama qilishning eng ta'sirchan tizimiga aylanib ulgurdi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniya, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda 2 milliarddan ortiqroq kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to'g'riligini tasdiqlaydi. [1]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining aynan ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari (81-82-moddalar) belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Shuningdek, davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaganligi hamda ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgar ekanligi belgilab qo'yilgan. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4151-son qaroriga asosan 2019-yil 1-oktabrdan e'tiboran shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq bolalar adabiyotlari, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan mahsulotlar chop etishga ixtisoslashgan nashriyotlar noshirlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'lashdan ozod qilinadi kabi imkoniyatlar belgilab qo'yilgan. [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 27-iyun matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunida "So'z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta'minlash masalasini inson qadrini



ulug'lash, demokratik jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilgan taraqqiyot strategiyasining muhim va ajralmas qismi” deb bilishini ta'kidladi. Birinchi marta o'tgan yil yakunlariga ko'ra davlat organlari va tashkilotlarida amalga oshirilgan ishlarni baholash bo'yicha ochiqlik indeksi natijalari e'lon qilingani so'z erkinligi yo'lidagi “muhim qadam” deb ataldi. [3]

Ma'lum qilinishicha, hozirgi kunda O'zbekistonda 2140 ta yoki 2016-yilga nisbatan 626 taga ko'p ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda, ularning 65 foizi nodavlat media vositalaridir. An'anaviy nashrlar bilan birga internet nashrlar ham jadal rivojlanib, ularning soni 745 taga yetdi. So'nggi yillarda respublika nashriyotlari tomonidan 132 million nusxa badiiy kitob va boshqa adabiyotlar chop etildi. [4]

“Hozirgi vaqtda yer yuzining turli burchaklarida yuz berayotgan, barchamizni tashvish va xavotirga solayotgan voqealarni hisobga oladigan bo'lsak, global dunyoda axborotlashuv jarayonlarining tahdidli jihatlari ham borligi va ular tobora kuchayib borayotganidan ko'z yumolmaymiz.

Dunyoning ayrim mintaq va hududlarida ommaviy axborot vositalari muayyan siyosiy kuchlar qo'lida informatsion urushni avj oldirishga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga, oqni – qora, qorani – oq deb ko'rsatishga xizmat qilayotganini afsus bilan qayd etishga to'g'ri keladi.

Axborot makonidagi ustunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi murakkab vaziyatda xalqimiz siz, azizlarni demokratik matbuotning asosiy sharti va talabi bo'lgan xolislik, haqqoniylik, milliy manfaatlarimizga sodiqlik kabi prinsiplarga amal qilib, o'z bilim va salohiyati, o'tkir qalami va haroratli so'zi bilan jamoatchilikka ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglab yetishga ko'maklashadigan, ularni buzg'unchi axborot xurujlaridan himoya qiladigan fidoyi insonlar deb biladi.

Biz jamiyat hayotida uchrayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, byurokratiya va korrupsiya kabi illatlarga qarshi kurashishda, avvalo, siz hurmatli jurnalist va blogerlar, ayniqsa, milliy media makonimizga yangi g'oya va tashabbuslar bilan kirib kelayotgan iste'dodli yoshlarimizga tayanamiz”, [5] — dedi Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida.

O'zbekistonda jamoatchilik bilan aloqalar, xalq bilan muloqot muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Jamoatchilik fikri- fuqarolik jamiyatini o'zida aks ettiradigan bamisli bir ko'zgu ekanligi hayotda o'z isbotini topmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hayot ko'zgusi hisoblanmish matbuot “to'rtinchi hokimiyat” darajasiga ko'tarilmog'i lozimligi ko'p bor ta'kidlangan. Bu borada hali



oldimizda turgan vazifalar juda ko‘p. Shunday ekan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari beqiyos o‘ringa ega.

Ma'lumki, fuqarolarimizning axborot sohasidagi huquq va manfaatlarini ta'minlash, davlat va jamoatchilik o'rtasida ochiq va samarali muloqot olib borish bo'yicha ommaviy axborot vositalarining roli va ta'sirini oshirish maqsadida 2014 yil 5 mayda «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonun qabul qilingan.

Mazkur Qonun ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining yanada shaffof, ochiq bo'lishini, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan, respublikamizda va undan tashqarida yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda amalga oshirilayotgan davlatning ichki va tashqi siyosatidan aholining to'liq xabardorligini ta'minlash yo'lida muhim huquqiy asos vazifasini bajarmoqda.

REFERECES

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan
2. M.M.Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
3. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2019-y., 07/19/4151/2569-son; 28.06.2019-y., 07/19/4366/3343-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son; 26.04.2022-y., 07/22/221/0357-son)
4. M.M. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1
5. M.Nurmetova.O‘zDJTU magistri. Ommaviy Axborot Vositalari-jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim elementi sifatida.
6. Dadasheva A.A.. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro institutlar (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90



7. Kasimova A.A Роль женщины в современной науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
8. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
9. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection)
10. Dadasheva A. A [THE ROLE OF MASS MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN NEW UZBEKISTANE](#) ducational Research in Universal Sciences 2 (4), 203-207
11. Malikov, B. Q. (2021). ShARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYOSIY QARASHLARI. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.



BOSH QOMUSIMIZDA SOLIQLAR VA YIG`IMLARNING HUQUQIY ASOSLARI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Yorqinoy Qurvanali qizi Ma'murova

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Bilamizki, butun dunyoda, ya`ni barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda soliqlar mavjud. «Dunyoda hech narsa soliq va o`lim kabi muqarrar emas» degan edi, Benjamin Franklin. Insoniyat doimiy tartibda to`lashga o`rganib qolgan soliqlarning ham ko`p yillik tarixi bor. Dunyoda ilk sivilizatsiya davrlaridayoq soliq munosabatlari shakllana boshlagan. Ilk soliq yig`imi joriy etilishi tarixi miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda Qadimgi Misrda shakllangan.

Bibliyaning 47-bo`limida aytilishicha, Misr Fir`avnlari aholini yetishtirgan hosilining beshdan bir qismini soliq sifatida to`lashga majbur qilgan. Keyinchalik soliq amaliyoti yunon sivilizatsiyasida ham rivoj topdi. 1799-yilda tarixiy Aleksandriya shahrining sharqiy hududidan topilgan «Rozetta yodgorligi» buning isbotidir. Unda miloddan avvalgi 196-yillarda Ptolomeylar sulolasida soliq munosabatlari amalda bo`lgani tasvirlanadi. O`rta asrlarda esa Yevropada meros, egalik va xarid uchun yangi soliq turlari kiritila boshlanadi.

Markaziy Osiyoda esa soliq munosabatlari ko`chmanchilik sharoitida miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida o`lpon tarzida vujudga keladi. Lekin fors hukmdori Doro davriga kelib ilk bor doimiy tartibdagi soliqlar joriy qilinadi. Buyuk bobomiz Amir Temur ham o`zining «Temur tuzuklari» kitobida soliq siyosatining asosiy yo`nalishlarini ifoda etgan. Shuningdek, Amir Temur birinchi marotaba soliq undiruvchilarga maosh tayinlagan.

Hozirgi zamonaviy daromad solig`ining vatani esa Angliya ya`ni hozirgi Buyuk Britaniya hisoblanadi. Insonlar avvaliga bu soliqni to`lashdan bosh torishadi ammo 1842-yildan boshlab Buyuk Britaniyada doimiy ravishda to`lanadigan daromad solig`i joriy etiladi. [1]

Bugungi kunga kelib dunyoda soliqlarning turlari juda ko`p bo`lib, ularning ichida eng qiziqarlari haqida gaplashamiz. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar solig`i, bu soliq 2018-yilda Ugandadagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining har biri kuniga 0.05



dollar, blog uchun esa 1.2 dollar to‘lashi uchun joriy qilinadi. Mamlakatni tark etish solig‘i Yaponiyada o‘rnatilgan bo‘lib, u xoh mahalliy aholi bo‘lsin, xoh sayyoh agar u Yaponiyadan chiqib ketayotgan bo‘lsa ushbu soliqni to‘laydi. Mayorka, Ivisa va Menorka kurortlarida oftobda toblanmoqchi bo‘lgan sayyohlar kuniga 1 yevro quyosh solig‘i to‘lashi kerak. Venetsiyada esa qadimdan soya solig‘i mavjud. Shvetsiyada farzandiga g‘ayrioddiy ism qo‘ymoqchi bo‘lgan ota-onalar 880-890-AQSH dollari miqdorida o‘zgacha ismlar solig‘ini to‘laydi. Armanistonda esa aholi shahar ko‘chalari, hovlilar va boshqa jamoat joylaridagi yo‘l changlarini tozalash uchun “Chang” solig‘i to‘laydi. [2]

O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari yangi konstitutsiyamizda keltirilib o‘tilgan. «O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga tegishlidir» (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 149-moddada). Shuningdek, uni to‘lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan hamda 2020-yil 1-yanvardan yanvardan yangi tahrirda chiqqan Soliq Kodeksi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida joriy etilgan umumdavlat solig‘i: yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) soligi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi; qo‘shilgan qiymat solig‘i; aksiz solig‘i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig‘i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. O‘zbekistonda soliq nazariyasi va amaliyotiga oid materiallar, shu sohaga doir boshqa masalalar „Soliq to‘lovchining jurnali“da (1995-yildan o‘zbek va rus tillarida chiqadi) yoritiladi. Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

Birinchi, davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);

Ikkinchi, ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);

Uchinchi, iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi.

Naflilik tamoyili — turli shaxslardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

To‘lovga layoqatlilik tamoyili — soliq miqdori soliq to‘lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur.

Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur.[3]

Adolatlilik tamoyili — daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur. Shu o'rinda, soliq tizmidagi imtiyozlar ham katta ahamiyatga ega ekanligini eslatib o'tamiz. Soliq imtiyoziga asosan mulkchilik shakli turlicha bo'lgan soliq to'lovchilar – davlat korxonalari, xususiy tadbirkorlik subyektlari, qo'shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari hamda xorijiy kompaniyalar ega bo'lishlari mumkin. Jumladan :

Ijtimoiy soliq bo'yicha eng ko'p imtiyoz olgan top -10 korxonalar:

1. "Lukoil Uzbekistan operating company" MChJ -7,7 mlrd so'm
2. "Yagona umumrespublika protsessing markazi" MChJ - 3,5 mlrd so'm
3. "Epsam systems" MChJ- 2,8 mlrd so'm
4. "Surhan gas chemical operating company" MChJ- 2,5 mlrd so'm
5. "O'zbekgeofizika" AJ - 2,3 mlrd so'm
6. Jalaqudua tuman hokimligi - 2,3 mlrd so'm
7. Metodik ta'minlash bo'limi - 1,8 mlrd so'm
8. "DM IT group" MChJ - 1,7 mlrd so'm
9. Hyundai engineering co. LTD - 1,2 mlrd so'm
10. "Fido-biznes" MChJ - 1,2 mlrd so'm

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'I bo'yicha eng ko'p imtiyoz olgan top-10 korxonalar:

1. "Hamkorbank" ATB - 4,6 mlrd so'm
2. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ - 3,3 mlrd so'm
3. "Ipoteka-bank" ATIB - 3,2 mlrd so'm
4. AT "Xalq banki" - 2,7 mlrd so'm
5. So'z tumani Xalq ta'limi bo'limi - 2,6 mlrd so'm
6. "Naxshab-texno metal" MChJ - 2,3 mlrd so'm
7. "Agro city" MChJ - 2,2 mlrd so'm
8. "Navobod naslli parranda" FX - 1,8 mlrd so'm
9. "Kapitalbank" ATB - 1,7 mlrd so'm
10. "Uzbekistan airways" AJ - 1,6 mlrd so'm

Xalqaro huquqning to'laqonli sub'ekti sifatida O'zbekiston dunyoning boshqa mamlakatlari bilan soliq sohasida hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha izchil siyosat olib bormoqda. 1993 yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq



qo'mitasi yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan soliqqa tortish sohasida xalqaro shartnomalar tizimini shakllantirish ustida ish olib bormoqda.[4]

Soliq gonunchiligiga rioya qilish, soliq sohasida ma'lumot almashish bo'yicha o'zaro yordam va hamkorlik shartnomalari:

Bugungi kunda ushbu turdagi 14 ta shartnoma mavjud. Shu bilan birga, MDHning gator mamlakatlari, shuningdek, Latviya, Ummon va Koreya bilan hamkorlik va tajriba almashish to'g'risida idoralararo bitimlar tuzildi. Davlat soliq qo'mitasi ushbu shartnomalarni amalga oshirishda vakolatli organ hisoblanadi. Boshqa davlatlarning soliq organlari bilan o'zaro yordam va hamkorlik shartnomalari quyidagi imtiyozlarni beradi:

- teng huquqli asosda, soliqni buzish holatlarini aniqlash va oldini olishda soliq nazorati sohasida shartnoma tuzayotgan davlatlarning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish;

- soliq ma'muriyatchiligi sohasidagi xorijiy davlatlar soliq Organlarining ijobiy tajribasini o'rganish va foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati xodimlarining kasbiy o'sishi uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish.

Xulosa. Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda soliq tizimini rivojlantirilib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda davlatimiz soliqchiligida turli xildagi samarali islohotlar qilinmoqda. Tadbirkorlar uchun ham keng sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan.

REFERENCES

1. <https://kun.uz/uz/news/2020/06/23/insoniyat-qachondan-beri-va-nima-uchun-soliq-tolashini-bilasizmi-soliq-majburiyati-tarixi-haqida>
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. Инагамова М.М., Ашрабов С.Ф. Жамоатчилик экология назоратчиси– экологияга қарши ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва унга қарши курашнинг ҳуқуқий асослари/ Multidisciplinary Scientific Journals. Volume 4. Issue 9. September, 2023. P.-132-141
4. Inagamova M.M. Toshmurodova M. A. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari. Journal of



New Century Innovations. Volume–36_Issue-2_September_2023.B.-76-81.

5. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.

6. Kasimova A.A, [Роль женщины в современной науке](#). Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234

7. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022

8. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.

9. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022



O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Sherzod Shuxratovich Normurodov

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Bugungi kun rivojlanayotgan dunyo hamjamiyatida advokatura asosiy va tayanch institutlaridan biri bo‘lib, uning zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq konstitutsiyaviy vazifa yuklatilgan. Shu bois ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab sud-huquq tizimining ajralmas bo‘g‘ini, ya‘ni advokatura institutini isloh qilish, uni inson, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchi sohaga aylantirish, mustaqil tizimni barpo etishga alohida va doimiy ahamiyat berib kelindi. Buni muhtaram Prezidentimizning quyidagi so‘zlaridan ham anglasak bo‘ladi: “Odil sudlov, inson qadr-qimmatini va huquqlari oliy qadriyat sifatida sud-huquq sohasidagi islohotlarimizning asosiy mazmuni bo‘ladi”. [1]

Yurtimiz siyosiy hayotida ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar advokatura tizimini ham zamon bilan hamnafas rivojlantirish, qonunchilik huquqiy bazasini takomillashtirib borishni talab etmoqda. Bundan tashqari dunyo miqyosida ro‘y berayotgan modernizatsiyalashuv jarayoni mamlakatimiz aholisini ham qamrab olayotganligi, oxirgi 4-5 yil davomida jadal olib borilayotgan demokratik islohotlar tufayli fuqarolar ongining o‘sib borishi va huquqiy madaniyatining yuksalishi oqibatida ular tomonidan siyosiy-huquqiy faollikning kuchayib borishi hamda o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qilish va advokat yordamidan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojning o‘sib borishi singari holatlar advokaturani zamon talablariga javob beradigan asosda rivojlantirish masalasini keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, advokatura institutining paydo bo‘lishi va uning rivojlanishi uzoq tarixga borib tarqaladi. [2]

O‘zbekistonda ham advokatura institutining paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari bir necha yuz yillik tarixga ega bo‘lsa ham uning rasman institut sifatidagi sud-huquq sohasidagi o‘rni O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan



to shu kungacha jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo‘lgani kabi sud-huquq tizimining ajralmas qismi bo‘lgan advokatura tizimi ham to‘xtovsiz ravishda rivojlanib bordi. Shu sababli O‘zbekistonda advokatura institutining rivojlantirishi shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin desak mubolag‘a bo‘lmaydi. [3]

I bosqich: 1990-1996 yillar

II bosqich: 1997-2007 yillar

III bosqich: 2008- 2016 yillar

IV bosqich: 2017 yildan hozirgacha bo‘lgan davr. [4]

2022 yil 28 yanvarda qabul qiling "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" ning qabul qilinishini aytish joiz bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining ikkinchi yo‘nalishi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga asoslangan va bu orqali nafaqat sud-huquq sohasini isloh qilish balki Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish masalalari ko‘rib o‘tilib, qonunning 19-moddasida asoslab qo‘yildi. Unda quyidagi normalar belgilab o‘tilgan:

"Advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish. Advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish. Advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish. Bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta‘minlash". Mamlakatimizda Advokatura tizimini rivojlantirish bo‘yicha islohotlar faqat yuqorida sanab o‘tilgan farmon qabul qilish yokida taraqqiyot strategiyasini joriy qilish bilangina emas balki ularni amalda to‘g‘ri qo‘llay olish bilan ham amalga oshirilmoqda. [5]

Har bir davlatni rivojlantirish, uni isloh qilish hamda rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish uchun harakat qilinayotganda albatta kamchiliklar bo‘lishi tabiiy hol. Bu kamchiliklarni hamma sohalar kabi advokatura tizimida ham uchratish mumkin. [6]

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlashning samarali institutlaridan biri sifatida advokaturaning o’rni va ahamiyatini oshirish bo’yicha keng ko’lamli islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, advokatura institutining va advokatlarning mustaqilligini ta’minlashga, sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuv prinsipi asosida ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar ko’rildi, advokatlarning o’z professional faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratildi. [7]

Shu bilan birga advokaturaga ishga qabul qilish tartib-taomilini, shuningdek advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga doir litsenziyani olish tartibini soddalashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 1-iyundagi 226-sonli qaroriga muvofiq, Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to’g’risida Nizom tasdiqlandi. Ushbu qonunga muvofiq, advokatlarga guvohnoma berishning asosiy tartib-taomillari keltirib o’tilgan. [8]

Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, “inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bu boradagi islohotlarning bosh mezoni bo‘lib qoladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Ayni paytda biz inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta’minlashda amalga oshirgan ishlarimizdan ko‘ra, oldimizda turgan vazifalar ko‘p ekanini ham yaxshi tushunamiz. Ma’lumki, bu oliy qadriyatni tom ma’noda qaror toptirish – biron-bir manzilga yetib borib to‘xtash, degani emas. Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini barchamiz chuqur anglaymiz”.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Advokatura institutini yanada isloh qilish chora tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni. 01.05.2008 yil
2. Inagamova M.M., Ro‘zieva N.N. Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari, Journal of New Century Innovations. Volume–36_Issue-1_September_2023.B.-182-186.
3. M.M. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadri ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference.



4. “Xalq so‘zi” gazetasi 2019 yil 25 dekabr
5. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi. 28.01.2022 yil
6. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
7. Kasimova A.A Rol jeniщины v sovremennoy nauke Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
8. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI



YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA TASHQI SIYOSAT (XALQARO VA MILLIY TAJRIBA)

Mafura Muxtorxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsent (PhD), dotsent

Firdavs Toxir o'g'li Karimov

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Bosh qomusimiz mamlakatimiz huquq tizimlari orasida yetakchi o'rinda turadi. Komstitutsiyamizda «Tashqi siyosat»ga bag'ishlangan bo'lib unda mamlakatimiz tashqi siyosati xalqaro jahon andozalariga moslashtirilgan bo'lib, yurtimiz xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti ekanligi, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik, chegaralar buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi deb bayon etilgan. [1]

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik, aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari, 1 ta bosh konsullik, 8 ta faxriy konsullar, 12 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi. [2]

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin.

Mamlakatimiz Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotlari bilan ushbu tuzilmalarning mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashishda, ko'p



tomonlarni hamkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish maqsadida o‘zaro sherikchilikni yanada rivojlantiradi.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banklari bilan energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish uchun barcha sa‘y-harakatlarni olib boradi. [3]

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro institutsional hamkorlikka, xususan Birlashgan Millatlar tashkiloti va uning ixtisoslashgan tashkilotlari, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida ko‘p tomonlama aloqalarni mustahkamlasga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Mazkur xalqaro institutlar doirasida qabul qilinayotgan transport va logistika, intellektual mulk huquqi, mehnat huquqi, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy yordam ko‘rsatish kabi masalalarni ham rivojlantirib bormoqda.

Xalqaro tajriba jihatidan qaraydigan bo‘lsak, davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi dastlab, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavida, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida takomillashtirilgan. Shunga o‘xshash normalar Germaniya, Fransiya, Ozarbayjon, Bolgariya, Qozog‘iston kabi davlatlar konstitutsiyalarida mavjud. [4]

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni hal qilishga ko‘maklashishga qaratilgan.

Yurtimizda mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta‘minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa‘y-harakatlarni amalga oshiradi. O‘zbekiston mintaqa davlatlari bilan do‘stona va ahil qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

O‘zbekiston Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan tenglik, o‘zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e‘tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini qurishni davom etadi. Yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat “Taraqqiyot strategiyasi” va uni 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” loyihasida “ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish”ga oid bir qator strategik maqsadlar va vazifalar belgilangan.

Xususan, Taraqqiyot strategiyasida *birinchidan*, O‘zbekistonning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish; *ikkinchidan* Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish; *uchinchidan*, an’anaviy hamkorlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish; *to‘rtinchidan*, BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish; *beshinchidan*, jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish; *oltinchidan*, jahon hamjamiyati auditoriyasida mamlakatimiz imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish; *yettinchidan*, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.[5]

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan O‘zbekistonning chet ellardagi fuqarolariga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish kabi aniq va muhim strategik maqsadlar o‘z aksini topgan. “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga hamda xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. O‘zbekiston barcha davlatlar bilan do‘stona va tinchliksevarlik tashqi siyosat olib boradi” [6]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam konstitutsiyamiz yuqorida keltirib o‘tilgan moddalaridagi o‘zgarishlar davlatimizning xalqaro hamjamiyat oldida ishonchli sherik sifatida maqomini kuchaytirish, hamda tinchlik va xalqaro xavfsizlikni saqlash va musthkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ishlarining barchasi yurtimizning ertangi kuni



farovonligi biz fuqarolarni turmush darajamizni oshirish uchun amalga oshirilayapti.

REFERENCES

1. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. M.M. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1
3. <https://uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati.html>
4. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-ozining-tashqi-siyosat-tamoyillariga-sobit_336483
5. M.M. Inagamova. M.E.Fahriddinov. Konstitutsiya – inson qadri va adolat ustuni / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1 <https://tstu.uz/>. Tashkent State Transport University The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life. Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. 324-329-b.
6. Abrorjon Otajonov, Toshkent davlat yuridik universiteti Ixtisoslashtirilgan filiali direktori, professor O‘zA https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-tashqi-siyosatda-dostona-va-tinchliksevar-davlat_388104
7. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.



YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI BOLA HUQUQLARI HIMOYASINING HUQUQIY ASOSI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Kamola Abduxamid qizi Qodirova

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklar. Xalqaro huquqda 18 yoshga etmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

2023-yil 11 oyi mobaynida dunyo miqyosida 120 541 390 nafar bola dunyoga kelgan. Shuningdek aynan shu vaqtda 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'limlar soni 6 822 579 nafari tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda O'zbekistondagi kuzatuv natijalari 5 yoshga to'lmashdan vafot etish ko'rsatkichi har 1000 nafar yangi tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 25 nafarni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2006 yilda o'tkazilgan kuzatuvlarda 57 nafarni tashkil etgan. So'nggi 17 yilda go'daklar va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida o'lim ko'rsatkichining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. [1]

Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklar. Xalqaro huquqda 18 yoshga yetmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

Bola huquqlarining ta'rifi mantiqan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (1948 y) asosiy g'oyalariga asoslangan bo'lib, uning alohida moddasi bolalar huquqlari himoyasiga bag'ishlangan. Ya'ni, «Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam olish huquqini beradi». Shunday qilib, deklaratsiyada e'lon qilingan barcha erkinliklarga bolalarning teng huquqliligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat bolalarga qo'shimcha yordam va qo'llab-quvvatlash zarurligini tan oladi. Shuningdek, bolalar o'zlarining maxsus ehtiyojlari, shuningdek ekspluatatsiya va suiiste'molliklarga nisbatan zaifligi tufayli qo'shimcha huquqlarga ega.[2]

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha komissiyasida ishtirok etgan dunyoning ko'plab



mamlakatlari mutaxassislari o'n yil davomida (1979 yildan 1989 yilgacha) bola huquqlari to'g'risidagi yangi hujjatning matnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotining barcha jabhalari maksimal darajada hisobga olinadi. 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi» BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi.

Shu bilan barcha mamlakatlar butun dunyo bo'ylab bolalar oldida tarixiy majburiyat oldilar. Bu tarixdagi eng ko'p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo'yicha shartnomaga aylandi va butun dunyo bo'ylab bolalar hayotining o'zgartirishga yordam berdi.

Konvensiya barcha bolalarning asosiy insoniy qadr-qimmatini va ularning farovonligi hamda rivojlanishini ta'minlashning dolzarbligini tan oladi. Konvensiyaga ko'ra, bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy prinsipi – bolalar manfaatlarining ustuvorligini tan olishdir.

Har bir bola oziq-ovqat, birlamchi tibbiy yordam va rasmiy ta'lim, o'yin va dam olish kabi asosiy ehtiyojlarga ega bo'lgan g'amxo'r, mehribon hamda yetarli turmush darajasiga ega bo'lgan oilada o'sish huquqiga ega. Bundan tashqari, har bir bola e'tiborsizlik va zo'ravonlikdan himoyalaniş huquqiga ega.

Konvensiyaga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. Konvensiya bolani o'ziga xos huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida tavsiflaydi: yashash huquqi (6-modda), oila qurish (9-modda), ismi va fuqaroligi bo'yicha.

Ta'lim to'g'risida (7-modda), zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida (19-modda), tenglik, fikr va so'z erkinligi to'g'risida (13-modda), dam olish va hordiq chiqarish (31-modda), tibbiy. xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash (24-modda), davlat yordamida (18-27-modda) va boshqalar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992 yil 9 dekabrda qo'shilgan.[3]

Mamlakatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga asoslangan holda «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni [4] qabul qilinib, ijroga qaratildi. Qonunga muvofiq bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan, bolaning qonuniy vakillari, vasiylik va homiylik, yetim bola, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, nogironligi bo'lgan bolalar (bola), ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar va ularning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini kafolatladi.

Bundan tashqari, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta’sirchan tizimini yaratish maqsadida, 2019 yil 22 aprelda yana bir муҳим huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4296-son qarori qabul qilindi. Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo‘yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ldi.[5]

Yangilangan Konstitutsiyamizda: O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga ko‘ra, bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha normani aks ettirish;

– bola manfaatlari, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratishni ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilash;

– davlat iqtidorli yoshlarni, ularning moddiy ahvolidan qat’i nazar, doimo qo‘llab-quvvatlashini mustaqil qoida sifatida qayd etish;

– “Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlarni sog‘lom turmush tarzi tamoyillari asosida ma’naviy va axloqiy yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun zarur sharoitlarni yaratadi”, degan qoidani yozib qo‘yish;

– yosh avlod taqdiri uchun mas’uliyatni yanada oshirish uchun: “Ota-onalar o‘z farzandlari voyaga yetguniga qadar ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lig‘i, to‘laqonli va barkamol rivojlanishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish huquqiga ega va bunga majburdir”, degan qoidani kiritish lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev joriy yil 20 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ilgari surgan ushbu takliflar ta’lim muassasalari pedagogik jamoalari, bolalar huquqlari bilan shug‘ullanadigan davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar vakillari hamda ota-onalar tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanmoqda. [6]

Farzandlarimizga bo‘lgan davlat siyosati darajasidagi e’tibor va g‘amxo‘rlik yangilangan Konstitutsiyamizning qator moddalarida yanada mustahkamlandi. Jumladan, 77-moddada ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama



kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanligi, davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta‘lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta‘minlashi belgilab qo‘yilgan.

Ta‘kidlash joizki, davlat bola huquq va manfaatlarining himoyasini, har tomonlama rivojlanishiga sharoit yaratishni o‘z zimmasiga olar ekan, buning uchun barcha zarur choralarni ko‘radi. Yurt onalari esa o‘z farzandlari davlatning e‘tibori va himoyasida ekanligidan mamnun bo‘lishadi. Shu bilan birga, onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi ham Bosh qomusimizda o‘z ifodasini topgani oiladagi har bir vakilning huquqlari himoyalanganini anglatadi.

O‘zbekiston Prezidentining Konstitutsiyani o‘zgartirish uchun tavsiya etgan takliflarini ekspertlar ham yuqori baholayotgani bejiz emas. Bu tashabbuslar davlat rahbarining Asosiy qonunda “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan g‘oyani mustahkamlashga qaratilgan taklifi bilan hamohangdir. [7]

Chunki davlat Konstitutsiyasida bola huquqlari bo‘yicha normalar aks ettirilishi, birinchi navbatda, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning tub mohiyati va ahamiyatini anglashga yordam beradi. Qolaversa, bu muhim omil kattalar bilan bir qatorda bolalar ham inson huquqlari egalari ekanini konstitutsiyaviy asosda kafolatlashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda jahon Konstitutsiyalarida bola huquqlariga oid qoidalar qanday aks etgan, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Jumladan, Irlandiya hukumatining Bolalarni himoya qilish bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi Konor O‘Mahoni bola huquqlariga oid qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan 47 ta davlat Konstitutsiyalarini qiyosiy tahlil qilib berdi. Xorijiy ekspertning so‘zlariga qaraganda, har qanday konstitutsiyaviy o‘zgarishlar jarayonida bildirilgan takliflarning yoshlar tashkilotlari va bevosita navqiron avlod vakillari ishtirokida muhokama qilinishi juda zarur.

Shu ma‘noda, O‘zbekiston Prezidenti keng jamoatchilik takliflari asosida Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan tayyorlanadigan Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonun loyihasini umumxalq muhokamasida ko‘rib chiqish, so‘ngra umumxalq muhokamasi natijasida maromiga yetkazilgan loyihani referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilish tashabbusini ilgari surgani tahsinga loyiq.

“2023-2030 yillarda O‘zbekistonda bolalarga g‘amxo‘rlik qilish tizimini noinstitutsonallashtirish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqildi. Yil davomida Rossiya, Qozog‘iston Bola huquqlari bo‘yicha vakillaridan 15 murojaat qabul qilinib, barchasi ijobiy hal etilgan.



Chet elda ota-ona qaramog‘isiz qolib ketgan bolalarni yurtimizga qaytarishda Ichki ishlar vazirligi bilan keng hamkorlik qilinmoqda. 2022 yilda Rossiyadan jami 37 nafar, Qozog‘iston Respublikasidan 4, Turkiya davlatidan 2 nafar, jami 43 nafar bola O‘zbekistonga olib kelingan. [8]

Darhaqiqat, bugungi kunda davlatimiz ota-onasidan mahrum bo‘lgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning oila muhitida o‘tib-ulg‘ayishi uchun sharoitlar yaratishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Oilaviy bolalar uylariga tarbiyaga berilgan bolalarning ijtimoiy yordam, ta‘lim va sog‘lomlashtirishga bo‘lgan huquqlari himoyasi doimiy e‘tiborda. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda belgilangan yuqoridagi norma bilan bu boradagi sa‘y-harakatlar yanada kengaytiriladi. Shu o‘rinda Bola huquqlari bo‘yicha vakil Aliya Yunusovning quyidagi gaplarini eslashni lozim topdik. Bundan tashqari, yangi Konstitutsiyamizning 78-moddasida farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat‘i nazar, qonun oldida tengligi, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, O‘zbekistonning 65 foizga yangilangan va ancha “to‘lishgan” bosh qomusi 1 maydan e‘tiboran kuchga kirdi. O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e‘lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘tib-ulg‘ayib, yaxshi ta‘lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak. Boshqacha aytganda, bu norma – O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

REFERENCES

1. Muminov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. –T., JIDU, 2011.
2. Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2009.



3. Bolalarni himoya qilish. Parlament a’zolari uchun qo‘llanma. -T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.
4. Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas’ul muharrir A.X.Saidov. –Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.
5. Инагамова М.М., Каримова М. Болалар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция: асосий қоидалар ва амалга ошириш принциплари. . /Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnali 5-son_1-to'plam_Sentabr-2023. Б–125-128.
6. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) (17), 87-90
7. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
8. Маликов, Б. К. (2021). ЁШЛАРНИ САЛБИЙ МАФКУРАВИЙ ТАХДИДЛАРДАН ХИМОЯ КИЛИШ-ҲАЁТИЙ ЗАРУРИЯТ. YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIM ILMIY-METODIK JURNALI. *ISSUE*, 1(1), 202-206.



MILLATLARARO MUNOSABATLAR MUVOZANATINI TA’MINLASH – BARQARORLIK GAROVI

N.Yu. Jo‘raboev

TDTrU dotsenti

E-mail: juraboyevnosir4@gmail.com

K. U. Ismoilova, S. K. Kalbaev

TDTrU talabalari

Millatlararo totuvlik g‘oyasi cayyoramizda yashayotgan 1600 dan ziyod etnik guruhlarining teng huquqlilik, o‘zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash g‘oyasidir. U barcha millat va elatlarni tili, urf-odati, an‘analari, bayramlari rivojlanishini talab etadi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy siyosatning o‘ziga xos yo‘li ishlab chiqildiki, ayni shu siyosat milliy bag‘rikenglikning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy madaniy markazlari faoliyat yurita boshladi. Dastlabki milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989 yilda tashkil etilgan edi. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O‘zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 13 yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika Baynalmilal markazlar markazi esa ushbu milliy madaniyat markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga yordam ko‘rsatadi

Bugungi kunda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 150 ta milliy madaniy markaz, 38 ta do‘stlik jamiyati va xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilib kelayotganligini ta’kidlash kerak. Bugungi kunda Respublika baynalmilal madaniyat markazi mamlakatda yashayotgan turli millat vakillarining ma’naviy-ma’rifiy muloqot maskaniga, ziga xos do‘stlik uyiga aylangan.

O‘zbekistonda mamlakat Prezidenti rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini mustahkamlash, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni yanada kuchaytirish, yurtimizda istiqomat qilayotgan xalqlarning etnik-madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish, jinsi, irqi, millati, tili yoki diniy mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i

nazar kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri - jamiyatda yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan kelishmovchiliklar va nizoli vaziyatlardan erta ogoh qilish va ularning oldini olish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish uchun asos sifatida millatlararo munosabatlarning holatini muntazam monitoring qilish hisoblanadi. Xususan, "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi mamlakatda bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo munosabatlar madaniyati, millatlararo munosabatlarning holati va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millatlar vakillari teng huquq va erkinliklarining ta‘minlanishi darajasi to‘g‘risida o‘zbekistonliklarning fikrini o‘rganish maqsadida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoniga muvofiq, "O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar jamoatchilik fikri ko‘zgasida" mavzusidagi kompleks sotsiologik tadqiqotlarni har yili monitoring tartibida o‘tkazib keladi. Tadqiqotlar natijalari davlatning milliy siyosati, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, mamlakat fuqarolarining xayrixohligi, etnik va diniy bag‘rikenglik fuqarolarning millatlararo va fuqarolik totuvligining asosiy omillari ekanligidan dalolat bermoqda.

2019 yilning 15-noyabrida qabul qilingan "Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining farmonida (PF-5876-son) sohaga doir quyidagi muhim jihatlar alohida ta‘kiblab o‘tilgan: "So‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, do‘stlik muhitini va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma‘rifiy aloqalarni kengaytirishga yo‘naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tatbiq etilmoqda, bu qoidalar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat’i nazar O‘zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an‘analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini e‘lon qiladi va kafolatlaydi". Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida shunday



deyilgan: "O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi". Yoki, Konstitutsiyamizning 19-moddasida: "O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar". – deb qayd etilgan [2].

Fuqarolarning ushbu huquqlarini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lib, u o‘z faoliyatini yuritmoqda hamda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash bo‘yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo‘nalishlar sur‘atini, keng ko‘lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O‘zbekiston xalqi yagona g‘oya — O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha oliyjanob maqsadlar va g‘oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta‘kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya, dunyoda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib, axborot va kibermakonlarida qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida o‘z yechimini taqozo etayotgan bir qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda, quyidagilar shular jumlasidan: millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish; jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt



oldini olish va ularni profilaktika qilish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish; millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O‘zbekiston xalqining tarixi va an‘analarini o‘rganish bo‘yicha ta‘lim, axborot va madaniy-ma‘rifiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish; millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi ishlarni takomillashtirish.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish va yanada takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq quyidagilar millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan: millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish; millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an‘analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish; jamiyatda ko‘p millatli katta oila his-tuyg‘usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta‘minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik; millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va xorijdagi o‘zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro‘-e‘tibori va imijini oshirish; O‘zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilg‘or xorijiy tajribani



e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [3].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy siyosat umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga hamohang holda O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat vakillarining o'zaro totuvligini ta'minlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir» [4].

REFERENCES

1. "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasida davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (15.11.2019 y., PF-5876-son).
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Yangi tahriri). –T., 2023 y.
3. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (07.02.2017 y., PF-4947-son).
4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T., 2021 y.
5. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
6. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
7. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115
8. Nosirov Rashod Adilovich¹, Yunusova Nasiba Sharifovna², Akbarova Laylo Upashevna³, Temirova Svetlana Vladimirovna⁴, Nazarova Nilufar Juraevna⁵. THE PHENOMENON OF FRIENDSHIP IN THE SOCIAL VIEWS OF EASTERN THINKERS. *JOURNAL of CRITICAL REVIEWS*. - 4695-4698, 2020-yil.
9. Yunusova Nasiba Sharifovna. (2021). Mass Culture and Informational-Psychological Security in The Modern Process. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 9, 68–72.



MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA’MINLASH TIZIMIDA MILLIY- MADANIY MARKAZLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

N.Yu. Jo‘raboev

TDTrU dotsenti

E-mail: juraboyevnosir4@gmail.com

Z. E. Boltaeva, D. B. Januzakova

TDTrU talabasi

Millataro totuvlikni ta’minlash tizimida milliy-madaniy markazlarning o‘rni beqiyos ekanligi va uning ahamiyati haqida fikr yuritishdan avval, bu atamaning mazmun-mohiyati va huquqiy asoslarini qayd etib o‘tish o‘rinli deb hisoblaymiz. Ana shu ma’nodagi, milliy-madaniy markazlar, eng avvalo, O‘zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlaridir. Milliy-madaniy markazlar “O‘zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1991 yil, 15 fevral, № 223-XII.) qonuni [1] hamda o‘z Nizomiga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatadi. Inson huquqlari to‘g‘risidagi Umumiy deklaratsiyaga [2] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanib [3], ushbu Qonunda fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuningdek, milliy-madaniy markazlar muayyan millatga xos bo‘lgan milliy madaniyat, til, urf-odat, an’ana va taomillarni o‘rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ular O‘zbekiston Respublikasining «Nodavlat va notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonuni (1999 yil, 14 aprel)ga asoslangan holda tuziladi [4]. Nizomi tegishli adliya tashkilotlari (Adliya vazirligi yoki viloyat va shahar adliya idoralari) tomonidan ro‘yxatga olinadi. O‘z faoliyatini bevosita yoki jamoalardagi bo‘limlari orqali O‘zbekiston Respublikasi qududida amalga oshiradi.

Ma’lumki, ko‘pmillatli O‘zbekiston hududida dastlabki Milliy-madaniy markazlarlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzila boshlangan edi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. O‘zbekiston mustaqilligi munosabati bilan ularning samarali faoliyat kursatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada Milliy-madaniy markazlar soni yil sayin ortib bordi.



Agar 1992 yilda ularning soni 10 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1995 yilda 72 tani, 2003 yilda 135 tani tashkil etdi.

Dastlabki milliy-madaniy markazlarlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989 y. da tuzildi. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. O‘zbekiston mustaqilligi munosabati bilan ularning samarali faoliyat kursatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada Milliy-madaniy markazlar soni yil sayin ortib bordi. Agar 1992 y. 10 ta Milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo‘lsa, 1995 y. da ularning soni 72 taga, 2003 y. ga kelib esa 135 taga yetdi.

Milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri – bu O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarining respublika ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta‘minlashdan iboratdir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do‘stlik, hamkorlik, madaniy-ma‘rifiy aloqalar o‘rnatish va hamdo‘stlik aloqalarini rivojlantirish, Respublika baynalmilal madaniyat markazi, manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko‘maklashish markazning asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi. Belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun markazlar quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: musiqa va teatr studiyalarini, ona tili, tarix, yozuv, adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, teatr va rassomchilik san‘ati, milliy urf-odatlar va hunarmandchilik, milliy sport va o‘yinlar turlarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv guruhlari va yakshanba maktablarini amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzadi; milliy madaniyat, milliy til; milliy san‘at turlari va milliy urf-odatlarni o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadlarida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlarni; xor va badiiy jamoalarni tashkil etadi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 13 yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtirib boradi.

O‘zbekiston rahbariyati mavjud milliy-madaniy markazlarning mamlakatimizda millatlararo do‘stlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatimizda turli millat va elat vakillari o‘rtasida hukm surayotgan o‘zaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini asrash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yurtimizda bag‘rikenglik, tinchliksevarlik va insonparvarlik muhitini qaror toptirish, milliy madaniyatlar, urf-odat va an‘analarning o‘ziga xosligini saqlash



va rivojlantirish, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga qo‘shib kelayotgan hissasini munosib qadrlab kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 24-yanvardagi Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan imzolagan farmoniga muvofiq Milliy madaniy markazlarning bir guruh faollari tegishli orden va medallar bilan mukofotlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, madaniyat markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi (30.03.2019 yil, 264-son) qarorida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish choralarini ko‘rsish nazarda tutilgan [5].

O‘zbekistonda yaratilgan qulay millatlararo muhit tufayli tojik, turk va qozoq millatiga mansub aholi vakillari tomonidan 2020 yilda 7 ta yangi milliy madaniy markaz va 2 ta do‘stlik jamiyati tashkil etildi. Qo‘mitaning davlat ijtimoiy buyurtmasiga asosan 2020 yilda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun 600 mln so‘m mablag‘, shuningdek 1,45 mlrd. so‘mlik grant ajratildi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining bergan ma‘lumotiga ko‘ra, bugungi kunda (2021 y.) mazkur Qo‘mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 147 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati hamda xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilmoqda [6].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan ko‘psonli milliy-madaniy markazlari millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik sohasida O‘zbekistonning o‘z maqsadlariga sodiqligining yorqin ifodasi sifatida xizmat qilishi bilan birga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalarini yanada rivojlantirish hamda “xalq diplomatiyasi” vositasida chet eldagi vatandoshlar bilan munosabatlarni kengaytirishga beminnat xizmat qilmoqda.



REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1991 yil, 15 fevral, № 223-XII.) qonuni.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e‘lon qilingan.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2023 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Nodavlat va notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi (1999 yil, 14-aprel) qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi (30.03.2019 yil, 264-son) qaror.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi (2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son) qarori.
7. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
8. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
9. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115
10. Nosirov Rashod Adilovich¹, Yunusova Nasiba Sharifovna², Akbarova Laylo Upashevna³, Temirova Svetlana Vladimirovna⁴, Nazarova Nilufar Juraevna⁵. THE PHENOMENON OF FRIENDSHIP IN THE SOCIAL VIEWS OF EASTERN THINKERS. *JOURNAL of CRITICAL REVIEWS*. - 4695-4698, 2020-yil.
11. Yunusova Nasiba Sharifovna. (2021). Mass Culture and Informational-Psychological Security in The Modern Process. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 9, 68–72.



O‘ZBEKISTONDA YAGONA OILA TUYG‘USINI MUSTAHKAMLASHDA DO‘STLIK JAMIYATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

N. Yu. Jo‘raboev

TDTTrU dotsenti

E-mail: juraboyevnosir4@gmail.com

N. O. Toshimova, G. B. Ro‘zimurodova

TDTTrU talabalari

Yaqin tariximizdan ma‘lumki, O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan o‘rnatgan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalari XX-asrning 20-yillari oxirida boshlangan edi. O‘shanda Toshkent shahrida Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar jamiyatining O‘rta Osiyo bo‘limi tashkil topgan. U 1947 yildan «O‘zbekiston bo‘limi», 1953 yildan esa «O‘zbekiston jamiyati» deb atala boshladi. 1997 yil 15-mayda O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-mrifiy aloqalar jamiyatlari kengashi ta‘sis etildi. Chet mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalarni zamon talablari asosida rivojlantirish, O‘zbekiston hayotining turli jabhalarida erishilayotgan yutuqlarni chet ellarda keng targib qilish, xorijiy mamlakatlar jamoatchiligini xalqimizning boy tarixi, madaniyati, adabiyoti va san‘ati bilan muntazam tanishtirib borish, xalq diplomatiyasi imkoniyatlaridan kengroq foydalanish Kengashning asosiy vazifasidir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e‘tiqodidan qat‘i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Bugungi kunda respublikamizda faol «xalq diplomatiyasi» asosida chet eldagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o‘zaro foydali munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlarni va madaniy-ma‘rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o‘z faoliyatini O‘zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma‘naviy qadriyatlari, milliy an‘analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika



baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do‘stlik jamiyatlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

Fuqarolar totuvligi barqarorligini, turli millatlar vakillari o‘rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashga, vatandoshlarimiz ongida ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishga, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga, mamlakatimizning jamiyat turli sohalaridagi yutuqlari mazmun va mohiyati targ‘ibotiga, shuningdek, ushbu yo‘nalishda bajarilayotgan ishlarni va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan davlat siyosati bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqarib kelinmoqda.

Jamiyatda bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta’minlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona, teng huquqli va o‘zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash O‘zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bular [Konstitutsiyamizda](#) mustahkamlangan fuqarolarning irqi, millati, tili, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi tamoyillari hamda turli millat va elatlar vakillarining tili, urf-odatlarini va an’analarini hurmat qilish, ularni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga asoslanadi [1]. Zero, jamiyatda do‘stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma’naviy sohalarida islohotlarni izchil amalga oshirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi.

Bugun O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo‘lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo‘shmoqdalar. Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga «O‘zbekiston Qahramoni» yuksak unvoni berildi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 milliy madaniy markaz, O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 do‘stlik jamiyati faoliyati O‘zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari, an’ana hamda urf-odatlarini asrash va har



tomonlarni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ular «xalq diplomatiyasi» mexanizmidan faol foydalangan holda tinch va farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va madaniy-ma’rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldagi hamyurtlar bilan yaqin va o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim muassasalarida o‘qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleradioko‘rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilmoqda.

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasining](#) qabul qilinishi va amalga oshirilishi, biz yashayotgan bugungi davrning o‘zi davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakat atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaqin qo‘shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan puxta o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy siyosatni yuritish, shuningdek, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta‘minlash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga mansublik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlarni qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan [2].

Millatlararo totuvlik, o‘zaro do‘stlik rishtalarini yanada rivojlantirish haqida 2020 yil 29 dekabr kuni Prezidentimizning Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatida ham ta’kidlandi. Parlamentga Murojaatnomada Prezidentimiz tomonidan ko‘tarilgan masalalar orasida hududimizda yashab kelayotgan ko‘pmillatli xalqimizning azaliy do‘stona munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari shu sohada davlatimiz rahbari olib borayotgan oqilona siyosatining namunasi ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

O‘tgan yilgi Murojaatnomada 30 iyul – Xalqaro do‘stlik kuni munosabati bilan “Do‘stlik” haftaligini tashkil etish hamda ushbu haftalik doirasida “Do‘stlik” xalqaro forum-festivalini o‘tkazish taklifi ilgari surilgan edi. Shuningdek “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishonini



ta’sis etish haqidagi tashabbus ham qo‘llab-quvvatlandi. Bu yil esa, ushbu sanani O‘zbekistonda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilash taklifi, ilgari surilgan tashabbuslarning mantiqiy davomi bo‘ldi

Shuningdek, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining tashkil etilganligi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur Qo‘mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ‘ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do‘stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklanadi.

Qo‘mita millatlararo totuvlik, do‘stlik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish va rag‘batlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, milliy madaniy markazlarga amaliy va metodik yordam ko‘rsatmoqda, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab, millati, irqi va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, fuqarolar ongida ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, «O‘zbekiston — umumiy uyimiz» tamoyilini amalga oshirish choralari ko‘rmoqda [3].

Xulosa qilib aytganda, bu borada olib borilayotgan ishlar yoshlarni bag‘rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tarix, madaniyat, milliy an’ana va urf-odatlarini asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga, millatchilik va ekstremizm aqidalariga qarshi mafkuraviy immunitetga ega, mustaqillik g‘oyalariga sodiq, O‘zbekiston milliy manfaatlarini himoya qiladigan va ilgari suradigan ma’naviy barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Yangi tahriri). –T., 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni (19.05.2017 y., PF-5046-son). - <https://lex.uz/docs/3210345>
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T., 2021 y.



4. Маликов, Б. Қ. (2021). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИГА ДОИР СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *Scientific progress*, 1(4), 207-212.
5. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
6. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(9), 111-115
7. Nosirov Rashod Adilovich¹, Yunusova Nasiba Sharifovna², Akbarova Laylo Upashevna³, Temirova Svetlana Vladimirovna⁴, Nazarova Nilufar Juraevna⁵. THE PHENOMENON OF FRIENDSHIP IN THE SOCIAL VIEWS OF EASTERN THINKERS. *JOURNAL of CRITICAL REVIEWS*. - 4695-4698, 2020-yil.
8. Yunusova Nasiba Sharifovna. (2021). Mass Culture and Informational-Psychological Security in The Modern Process. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 9, 68–72.



HUQUQIY BARKAMOLLIK VA MA’NAVIYAT

Malikov Bekzod

Katta o‘qituvchi

Muxammadinova Kamolaxon Nurali qizi

Umirzaqov Axror Abdurashit o‘g‘li

TDTTrU SBXT-7 gurux talabalari

Mustaqillik yillarida barcha fuqarolarning qonun oldida huquqiy tengligini hamda qonunning hamma narsadan ustunligini kafolatlovchi huquqiy davlatni shakllantirishning mustahkam asoslari yaratildi. Boshqacha aytganda, - deydi Islom Karimov, - mustaqillik yillarida mamlakati-mizda inson huquqlari va erkinligining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng huquqiy muhit vujudga keltirildi. Biz totalitar tuzumning tazyiq va zo‘ravonligidan huquqiy me‘yorlar sari ulkan qadam tashladik. Bu esa insonning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, barcha mulk shakllariga asoslangan ma‘muriy-xo‘jalik tuzilmalari bilan turli-tuman munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda yaqqol namoën bo‘lmoqda. O‘zbekistondagi huquqiy islohotlarning asosiy maqsadi sudning alohida va mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatidagi mavqeini qayta tiklash g‘oyasi bo‘ldi. Sud hokimiyatining yangi tarmoqlari yaratildi. Sudning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni kafolatlashning huquqiy me‘yorlari shakllantirilmogda. [1]

Jamiyat va davlat, xalq va millat oldidagi o‘z huquqi, o‘z burchi va mas‘uliyatini puxta biladigan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglab yetgan, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma‘rifatli kishilarni tarbiyalab, voyaga yetkazish oldimizda turgan eng asosiy, dolzarb vazifadir. [2]

O‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan yuksak huquqiy bilimli va madaniyatli kishilarni shakllanti-rishda xalq ma‘naviyatining, boy tarixiy merosimizning, milliy an‘anala-rimizning o‘rganilishining ahamiyati beqiyosdir.

Darhaqiqat, ma‘naviy ma‘rifat, ma‘naviy madaniyat sof axloqiy hodisa sifatida jamiyat insoniy qiyofasini belgilaydigan,



uning demokratik huquqiy maqomini tayin etadigan qadriyatdir. O‘zbek jamiyati bugun o‘z milliy qadriyatlarini yaratishga qodir komil tizim sifatida dunyoga bo‘y ko‘rsatmoqda. Ma‘naviyat ustuvor mohiyat kasb etmagan inson hayotining biror jabhasi yo‘qligi anglab yetilgani jamiyatimiz erishgan ulkan yutuq bo‘ldi.

Jamiyat va inson hayotining ma‘naviyat va ma‘rifatga ehtiyoj va zaruriyat sezmaydigan, undan bahramand bo‘lmaydigan, uning bilan mazmunan-mohiyatan tutashib ketmagan biron-bir sohasini topish amrimaholdir.[3]

Ma‘naviyat jamiyat taraqqiyoti, xalq va millat kamolati va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi shunday asosiy omil, insonga insonlik mazmun-mohiyatini bag‘ishlaydigan, insonni yerdan osmonga ko‘taradigan, uni ezgulikka da‘vat etadigan qadriyatki, shuning uchun ham u hamma kasb va ixtisosdagi mutaxassislar, jinsi, millati, yoshi, tili, diniy mazhabi, boy-kambag‘alligidan qat’i nazar, hamma odamlar, barcha fuqarolar, jamiki el-ulus, millatlar va elatlar, bani bashariyat uchun ham o‘ta muhim va zarurdir. [4]

Umuman olganda, ma‘naviy boyliklardan naf ko‘rmaydigan, ma‘naviyat bilan o‘z hayotini go‘zal, fe‘l-atvorini yoqimli, xatti-harakati yarashliqli, tushunarli, odo-axloqli bo‘lishga erishmagan inson zoti yo‘q va bo‘lmaydi. Inson ma‘naviyat bilan tirik. Insonning insonligi ham ma‘naviyat sohibi bo‘lganligidadir. Insonning jamiyki mavjudotlar ichra ulug‘i, a‘losi, nodiri, eng donosi, aql-idrokli, farosatlisi ekanligining, kuch-qudratliligining asosiy boisi ham ma‘naviyatliligidadir.

Aytib o‘tilgan fikrlarimizga Islom Karimovning «Ma‘naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qardosh qiladi», «Uni o‘lchab ham, poyoniga yetib ham bo‘lmaydi. U — inson uchun butun bir Olam», «Ma‘naviyat insonga havodek, suvdek zarur», «Ma‘naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi», degan dono so‘zlari ilmiy-nazariy asos, metodologik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.[5]

Ma‘naviyat haqidagi Islom Karimov ta‘limotini chuqur va mukammal bilishlik barcha soha kishilari, shuningdek, huquq–tartibot idoralari xodimlari uchun ham havodek, suvdek zarur. Buni biz murakkab, mas’uliyatli kasb egalari tergovchilar misolida ko‘rib chiqamiz.

Tergov ishlari jarayoni juda murakkab, jinoyatni ochish, jinoyatchini topish, aybdorni – gumon qilinayotgan kishini aybi yoki qilmishini bo‘yniga qo‘yib isbotlash, haqiqatni qaror toptirish mutaxassisdan nainki kasbiy, bilim va mahoratni, ayni paytda katta tajriba hamda nozik ruhshunoslikni, muomala madaniyatini, katta-kichik dalillar, hatto bir qarashda sodir bo‘lgan hodisaga bevosita dahli bo‘lmagan voqealar, xatti-



harakatlar, faktlar-dalillar, mantiqiy tahlil va muqoyasani yaxlit bir tizimga solish hamda sirli, shubhali nuqtalarni ichki bir tuyg'u bilan nozik his qilish san'atini ishonarli tarzda bilishni ham talab qiladi. Shu ma'noda tergovchi amaldagi qonunlar va qator yuridik hujjatlar asosida jinoyat deb atalmish «sahna»ning «jarrohi»ga, obrazli qilib aytganda, «tashxischi»siga, tadqiqotchisiga aylanadi. Ko'rinib turganidek, tergov jarayoni juda og'ir bo'lishi bilan bir qatorda, o'ta mas'uliyatli hamdir. Mana shuning o'zi ham jarayonning o'zi sof ma'naviy-axloqiy hodisa ekanligini anglatib turibdi. Tergov jarayonining ma'naviy asoslarga ega emas, deb aytish katta xatodir.

Agar tergovchi o'z faoliyatida, qonunlarga tayangan, ulardan mutlaqo og'ishmagan holda ish tutsa-yu, ammo ma'naviy mohiyatlarga e'tibor bermasa, bu qilmishi bilan birinchidan, qonunni buzgan, ikkinchidan, mansabini suiste'mol qilgan, bo'ladi demak, u adolatsiz hukm chiqarilishiga, gunohsizni nohaq jazolanishiga sababchi bo'ladi. Buning oqibati juda xunuk bo'lishi turgan gap. Odamlarda qonunlarga, demak, jamiyatga, odil siyosatga, adolatga ishonch yo'qoladi. Jamiyatda qonun ustuvorligi buziladi. Eng yomoni – bu buzilishning huquqni himoya qilish maqomiga ega kishilar aybi bilan bo'lishidir. Tergovchining xatosi yoxud o'z ishiga mas'uliyatsiz qarashi oxir-oqibat juda xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin. Insonlar taqdiri hal qilinayotganda tergov hujjatlari isbotlangan, tasdiqlangan fakt va dalillarga asoslangan bo'lishini unutmash kerak. Ana o'shandagina jinoyatni keltirib chiqargan omillar ildizi bilan yo'q qilib tashlanadi, kishilarga adolat tantanasidan ibratli saboqlar beriladi, jinoyatlarning oldi olinadi, odamlarda qonunlarga, adolatga ishonch va hurmat uyg'onadi. Demak, qonun ustuvorligi to'la ta'minlanadi. Ana shularning o'zi asl mohiyati bilan sof ma'naviy saboq, tarbiya, madaniyat, ma'rifatlilik belgisidir. Demak, tergov nafaqat qonunlar adolati, ayni paytda, tarbiya maktabi, yuksak ma'naviyatlilikning namoyon bo'lishi hamdir.

Ma'naviyat bilan huquqiy ta'lim-tarbiya hamkorligini kengaytirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Zero, ma'naviyat bilan qonun, huquq bir-birini taqozo etuvchi qadriyatlardir. Chunki, xalqning ma'naviyati ham o'ziga xos qonun-qoida, odob-axloq, huquqdir.[6]

Huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak fuqarogina, birinchidan, qonun doirasidan chiqmaydi, ikkinchidan, o'z haq-huquqi, erki ozodligi uchun kurashish san'atini o'zlashtiradi, uchinchidan, har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib o'lchaydi, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radi.



Agar fuqaro qonunlarni yaxshi bilsa, uni hech kim zo‘rluk bilan g‘ayri qonuniy jazoga tortolmaydi.

Aytilganlardan ko‘rinib turganidek, huquqning ma‘naviy-axloqiy asoslari, huquqiy madaniyat va qadriyatlarning qadimiy tarixiy ildizlari va manbalari mohiyatini yoritish huquqiy bilim va madaniyatni o‘stirishning jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarbligini, hisobga olsak jamiyat ma‘naviy hayoti rivojida huquqiy ong va madaniyatning ahamiyatini ilmiy tadqiq etish olimlar oldida turgan eng muhim vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. Behzodjon Qurolovich Malikov O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (data obraçeniya: 20.12.2022).
2. Malikov, B. Q. (2021). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYO‘SIY QARASHLARI. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Malikov, B. Q., & Ikromov, D. R. O‘. (2022). SHARQ TA‘LIMOTIDA QONUN USTUVORLIGI G‘OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Malikov, B. K. (2021). YO‘SHLARNI SALBIY MAFKURAVIY TAXDIDLARDAN XDMOYA KILISH-DAYOTIY ZARURIYAT YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA‘LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Malikov, B. Q., & Abduraimov, O. K. O‘. (2022). XUQUQIY BARKAMOLLIK VA MA‘NAVIYAT. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Malikov, B. Q., & Dexqonboev, Sh. B. O‘. (2022). XUQUQIY MADANIYAT HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Malikov, B. Q., & Eshqurbonov, A. I. O‘. (2022). ADOLATLI JAMIYATDA ODIL SUD SIFATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, B. K. O‘. (2022). O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA INSON VA TABIAT



QADRI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.

9. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, S. K. O‘. (2022). ISLOM KARIMOV ASARLARIDA KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI G‘OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.

10. Malikov, B. Q., & Bolieva, N. Q. Q. (2022). XUQUQIY NIGILIZMNING IJTIMOIIY XAVFI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.

11. Malikov, B. Q., & Bo‘riev, Z. B. O‘. (2022). JAMIYA T TARAQQIYO TIDA XUQUQIY ONGNING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.

12. Qurolovich, M. B. (2023). ALISHER NAVOIYNING VATAN VA DAVLAT XIZMATCHISI SIFATIDAGI SIYOSIY QARASHLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 78-81.

13. Qurolovich, M. B. (2023). YOSHLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 73-77.



JAMIYAT TARAQQIYOTIDA XUQUQIY ONGNING AHAMIYATI

Bekzod Malikov
Katta o‘qituvchi

Avazxanov Jasurbek Abdurashid uli
Fayziraxmanov Dilshod Farxod o‘g‘li
TDTU SBXT-7 gurux talabalari

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan huquqiy bilim va huquqiy ongga ega bo‘lish har bir fuqaro, har inson uchun birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi uqtirib kelinmoqda. Uning barcha asarlarida, nutqlarida, Oliy Majlisning sessiyalarida, viloyatlar kengashlaridagi ma‘ruzalarida bu masalaning dolzarbligi qayta-qayta ta’kidlanayapti. «Har bir fuqaro, har bir inson, - deydi bu haqda u, - o‘z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi shart. Toki jamiyatning har qaysi a‘zosi o‘z huquqi, o‘z burchi va mas’uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so‘zlarimiz, sa’y-harakatlarimiz besamar ketaveradi»[1]

Inson jamiyat belgilagan, davlat qabul qilgan qonunlarni, mavjud huquqiy mezonlarni bilmasdan turib, ma’naviy-axloqiy yetuklikka erisha olmaydi. Huquqiy bilim, huquqiy ong va madaniyat millat yetukligi va inson barkamolligining eng muhim, asosiy omillaridan biridir.

Huquqshunos olimlarning ilmiy asarlari, risolalari, nazariy maqolalarida o‘rinli ta’kidlanib kelinayotganidek, huquqiy ong ijtimoiy ongning alohida shaklidir.[2]

Huquqiy ong o‘zining ayricha tomonlari, xususiyatlariga ega. Ana shu jihatlari bilan u ijtimoiy ongning diniy, axloqiy, falsafiy, badiiy va boshqa shakllaridan jiddiy ravishda farq qiladi.

Respublikamizning atoqli huquqshunoslaridan A.Saidov va U.Tojixonov huquqiy ong ijtimoiy turmushda mavjud bo‘lgan, jamiyatimizga xos turli-tuman holatlar yig‘indisini o‘zida mujassamlashtirishi haqida fikr yuritib shunday deydilar: «Huquqiy ong-huquqiy hissiyotlar, tuyg‘ular, g‘oyalar, qarashlar, baholar, yo‘l-yo‘riqlar, tasavvurlar va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasiga munosabatini ko‘rsatuvchi, bu munosabat esa amaldagi huquqqa, huquqiy amaliyotga, fuqarolar huquqlari va



burchlariga nisbatan, shuningdek, boshqa orzu qilingan huquqlarga nisbatan bo'lishi lozim holatlar tizimidir».[3]

Ijtimoiy turmushni huquqiy boshqarishning zarur tartibi to'g'risidagi tushunchalar, tasavvurlar, g'oyalar, qarashlar tizimi bo'lgan huquqiy ong huquq bilan dialektik birlikdadir. «Huquqiy ong - huquqni anglash demakdir, odamlarning ham amaldagi huquq, ham ularning o'zlari istagan huquqqa munosabatini ifoda etadigan tasavvurlar va his-tuyg'ularining mujassamidir. U tabiatan huquq bilan mushtarakdir va shu sababli mavjud iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ikkilamchidir. Huquqiy ong jamiyatning, turli ijtimoiy guruhlarning ob'ektiv ravishda kelib chiqqan ehtiyojlari va manfaatlarining bevosita ta'sirida shakllanadi, o'zgarib turadigan ob'ektiv sharoitlar va jarayonlar ta'siri ostida doimiy rivojlanib boradi. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir qismidir va shu sababli unga falsafiy va siyosiy qarashlar ta'sir etib turadi»[4]

Huquqiy ong, huquqiy bilim va tasavvurlar kishilarda o'z-o'zidan yoki tasodifiy ravishda paydo bo'lmaydi. Uni insonning tug'ma xususiyati deyish ham to'g'ri emas. Inson onadan dono donishmand bo'lib tug'ilmaydi. Kishilardagi huquqiy ong, huquqiy tushuncha va tasavvurlar, eng avvalo, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar va jarayonlar ta'siri ostida, tashqi muhit ta'sirida ostida shakllanib va rivojlanib boradi. Inson atrofida sodir bo'lgan voqea va hodisalardan o'zi uchun tegishli xulosalar chiqarmasdan, ularga o'zining munosabatini bildirmasdan, baho bermasdan yashay olmaydi. Huquqiy masalalarga oid hodisa va jarayonlar uni ko'rgan, bilgan kishilar ongida o'z izini, ta'sirini qoldirishi turgan gap.[5]

Huquqiy ong, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan va doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib turadigan ob'ektiv talab va ehtiyojlar, mavjud imkoniyatlar, shart-sharoitlar asosida ham shakllanadi. Huquqiy bilimlar va huquqiy ongning yuzaga kelishi, doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib borishi cheksiz jarayondir.

Huquqiy ong va huquqiy bilimlar hosil bo'lishi va rivojlanishda o'qish-o'rganishning, amaliy faoliyatning, ajdodlar ilmiy merosi va qadriyat-larining, oilada, bolalar bog'chasida, jamoat joylarida, maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda, institutlar va universitetlarda beriladigan huquqiy ta'lim-tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir.

Huquqiy tarbiya fuqarolarga, har bir alohida insonga, har bir maktab o'quvchisi va institut, universitet talabasiga huquqiy bilimlarni sekin-astalik bilan singdirish va miyasiga quyishning eng muhim, tarix sinovidan o'tib isbotini topgan usulidir.

Huquqiy tarbiya murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni bir ma‘noli qilib ta‘riflab bo‘lmaydi. Huquqshunos olimlarning fikrlaricha, «huquqiy tarbiya-shaxslar va ijtimoiy guruhlarining huquqiy ongiga ko‘rsatiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tashkillashtirilgan, boshqariladigan, oldindan rejalashtirilgan va maxsus ishlab chiqarilgan huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta‘sir jarayonidir».[6]

A.Saidov va Tajixanov huquqiy tarbiya jarayonida odamlar ongiga huquqiy bilimlar va e‘tiqodlar singdirilishini alohida ta‘kidlab yana shunday deydilar: «Demak, huquqiy tarbiya–fuqarolarning ongi va ruhiyatiga ta‘sir qilishga qaratilgan, rejalashtirilgan, boshqariladigan, uyushtirilgan, tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan, hozirgi zamon huquqshunosligi tasarrufida mavjud bo‘lgan turli xil huquqiy tarbiya shakllari, vositalari va uslublari-dan foydalanib, fuqarolar ongida chuqur va barqaror huquqiy bilimlar, e‘tiqodlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, qonunga mos fe‘l-avtor, odatlarni shakllantirish jarayonidir»

Huquqiy tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarga ma‘lum darajadagi huquqiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar berilsa, ikkinchidan, ularga huquqiy g‘oyalar, hissiyotlar, e‘tiqodlar shakllantiriladi.

Huquqiy tarbiyaning vazifasi odamlarning ongida huquqning ahamiyatini, maqsadini tushunishni ta‘minlash, ularga ongli ravishda rioya qilish zarurligini shakllantirishdan iborat.

Huquqiy ta‘lim-tarbiyada oila, oila tarbiyasining roli va ahamiyati beqiyosdir deyilsa, bizning fikrimizcha, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Oila shunday bir oliy darajadagi ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidirki, unda endigina dunyoga kelgan farzandlar qalbi, vujud-vujudiga odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar asoslari haqidagi ilk tasavvur va tushunchalar asta-sekinlik bilan singdirila boradi.

REFERENCES

1. Behzodjon Qurolovich Malikov O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (data obrazeniya: 20.12.2022).
2. Malikov, B. Q. (2021). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYO‘SIY QARASHLARI. Scientific progress, 1(4), 207-212.



3. Malikov, B. Q., & Ikromov, D. R. O‘. (2022). SHARQ TA’LIMOTIDA QONUN USTUVORLIGI G‘OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Malikov, B. K. (2021). YOShLARNI SALBIY MAFKURAVIY TAXDIDLARDAN XDMOYa KILISH-DAYoTIY ZARURIYAT YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Malikov, B. Q., & Abduraimov, O. K. O‘. (2022). XUQUQIY BARKAMOLLIK VA MA’NAVIYAT. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Malikov, B. Q., & Dexqonboev, Sh. B. O‘. (2022). XUQUQIY MADANIYAT HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Malikov, B. Q., & Eshqurbonov, A. I. O‘. (2022). ADOLATLI JAMIYATDA ODIL SUD SIFATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, B. K. O‘. (2022). O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA INSON VA TABIAT QADRI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, S. K. O‘. (2022). ISLOM KARIMOV ASARLARIDA KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI G‘OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Malikov, B. Q., & Bolieva, N. Q. Q. (2022). XUQUQIY NIGILIZMNING IJTIMOIIY XAVFI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Malikov, B. Q., & Bo‘riev, Z. B. O‘. (2022). JAMIYAT TARAQQIYO TIDA XUQUQIY ONGNING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. Qurolovich, M. B. (2023). ALISHER NAVOIYNING VATAN VA DAVLAT XIZMATCHISI SIFATIDAGI SIYOSIY QARASHLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 78-81.
13. Qurolovich, M. B. (2023). YOSHLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 73-77.



HUQUQIY NIGILIZMNING IJTIMOIIY XAVFI

Bekzod Malikov

TDTrU katta o‘qituvchi

Ziyodilla Botirjon o‘g‘li Qosimov

Behzod Nasrulla o‘g‘li Xayrullayev

TDTrU SBXT-7 gurux talabalari

Huquqning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turishdagi roli va ahamiyati o‘z-o‘zidan tushunarlidir. «Demokratik ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish sohasi kengayib, ijtimoiy boshqaruvda huquqiy asoslar chuqurlashib, huquqning nufuzi ortib borayotgan hozirgi vaqtda bu alohida ahamiyat kasb etmoqda. Huquq inson turmushining hamma jihatlariga tegishli bo‘lib, uning butun hayoti davomida, u bilan hamisha yonma-yon yuradi, huquq nikoh oila munosabatlarni, ta‘lim, mehnat, dam olish, sog‘liqni saqlash, uy-joylardan foydalanish, yerlardan, suv, boshqa tabiat boyliklaridan foydalanish, turli tovarlarni sotib olish, buyumlarni ijaraga olish, fuqarolarning o‘zlarining huquqlari va qonuniy manfaat-larini himoya qilish va yana ko‘plab boshqa narsalarni tartibga solib turadi».[1]

Huquqiy davlat va huquqiy ong o‘zaro bog‘liq ijtimoiy hodisalardir. Huquqiy bilim va huquqiy ong rivoj topmagan jamiyatda huquqiy davlat, demak, davlat, fuqarolik jamiyati shakllanmaydi. Chunki, huquqiy ong, birinchidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning zarurligini, undan oqilona foydalanish zarurligini anglash, ikkinchidan, amaldagi qonun hujjatlarining mavjud ijtimoiy munosabatlarga mos kelish-kelmasligini aniqlash va baho bera olish, uchinchidan, huquqiy qoidalarni o‘rnatish va amalda tatbiq etishning davlatga aloqador vazifa ekanligini anglashdan iborat.[2]

Huquqiy ong - huquqiy madaniyat, huquqiy faollik mahsuli. Huquqiy faollikning ichki manbai–ijtimoiy huquqiy ko‘rsatmadir, ya‘ni uning jamiyat madaniyati qadriyatlariga yo‘naltirilgani hisoblanadi. Huquqqa hurmat-bu ijobiy ijtimoiy-huquqiy ko‘rsatmadir.[3]

Afsuski, buni hamma ham tushunavermaydi. Shu sabab ayrim hollarda inson turmushining barcha jihatlariga nisbatan ayanchli, hatto, xavfli harakat ham kasb etishi hech gap emas. Ilmda huquqiy infantilizm, huquqiy nigilizm, buzilgan huquqiy ong degan



huquqiy tushunchalar ana shu xavfli hodisalardir. Xo‘sh, bular nima o‘zi?

Huquqiy infantilizm, bu–huquqiy ong palag‘daligining shakli. Bu–huquqiy bilim va ko‘rsatmalarning shakllanmaganligi, to‘liq yaxlit emasligi bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, «huquqiy infantilizm – huquqiy ong buzilishining yengil shakli, unda huquqiy bilimlar, yo‘l-yo‘riqlar shakllanmagan, oz bo‘ladi. Fuqarolar huquqiy bilimi yetishmovchiligidan tashqari, asosan, huquqiy bilimlar yaxlit tizimi orasidan uning muhim elementlari, avvalo, qonunga, boshqa huquqiy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatlar tushib qolmoqda».[4]

Huquqiy nigilizm, bu–manqurtlik degani. Uning mohiyati–huquqqa, qonunlarga, me‘yoriy tartiblarga salbiy, behurmat munosabatda bo‘lishdir. Sabablari yuridik jihatdan g‘ofillikda, qoloqlikda, aholining huquqiy tartibsizligida namoyon bo‘ladi. «Huquqiy nigilizm - qonun talablarini ongli ravishda rad etish, ammo jinoiy maqsadning yo‘qligi... Qonun talablarini inkor etish yashirin, ochiq ko‘rinishlarda kechishi va har biri alohida holda turlicha sabablar bilan izohlanishi mumkin».[5]

Buzilgan huquqiy ong ong palag‘daligining eng yomon ko‘rinishidir. «Huquqiy ong buzilishining eng og‘ir ko‘rinishi favqulodda inson ongining buzilishidir»³. Bu–o‘ta ijtimoiy xavflidir. Yashirishning hojati yo‘q. Hayotimizda ularning hammasi bilan ham u yoki bu tarzda ro‘baro‘ kelib turibmiz. Bunday illatlarga qarshi kurashda bizga faqat huquqiy madaniyat va huquqiy mafkura yordamga kela oladi, xolos.

Huquqiy ong huquqni takomillashtirish va rivojlantirishning muhim omilidir. «Huquqiy ong huquqni nafaqat yaratadi, balki rivojlantiradi ham... huquqiy ong darajasida shaxsning o‘zining huquqiy bilimlari ko‘lami ham, huquqni qabul qilish holati ham, ma‘naviy o‘sganligi ham shaksiz ko‘zga tashlanadi. Huquqiy ongga faqatgina yuqorida sanab o‘tganlarimiz ta‘sir etib qolmay, yana boshqa ko‘p omil (jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, maishiy) lar ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Odamlarning bir-birlari bilan o‘zaro ta‘siri va munosabati, muhiti, tarbiyasi, axloqiy darajasi ham kam ta‘sir qilmaydi. Ijtimoiy-huquqiy yo‘l-yo‘riq huquqni baholash, uning talablariga munosabat, o‘ta xilma-xil omillar majmuining ta‘siriga bog‘liq holda ongda shakllanadi».[6]

Huquqiy ong ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy hayot rivojida katta ta‘sir ko‘rsatish xususiyatiga ham egadir. Huquqiy hissiyotlar, tuyg‘ular, qarashlar, huquqiy ta‘limotlar, huquqiy mafkuralar jamiyat hayotida, ijtimoiy turmushda ro‘y bergan o‘zgarishlarni aks ettirish bilan cheklanib-chegaralanib qolmay, balki jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti o‘zgarishi va rivojlanishiga, odamlarning xulq-atvoriga,

xatti-harakat-lariga mafkuraviy va ruhiy-psixologik ta’sir ham etadi. Buni falsafada, huquqshunoslik ilmida huquqiy ongning nisbiy mustaqilligi deyiladi.

Huquqiy ong insonga vaziyatni har taraflama mushohada qilishga, o‘zining xatti-harakatlari va qilmishlarini jamiyatdagi qonun-qoidalarga mos kelish-kelmasligini, yurish-turishi, fe’l-atvorini huquqiy jihatdan baholashida yordamlashadi. Shaxsning huquqiy onglilik talablari asosida qadam qo‘yishi, faoliyat ko‘rsatishi, qonunni hurmat qilishi jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun koni foydadir.

Yuksak huquqiy ong, qonunlarning ruhi va talablarini bilish, muayyan huquqiy bilim va tasavvurlarga ega bo‘lishning o‘ziy oq odamlarning ma’lum tarzda o‘zlarini idora qilishga undaydi. «Huquqiy ongning ijtimoiy turmushda nisbiy mustaqilligi yana shunda namoyon bo‘ladiki, ko‘pincha huquqning o‘zi odamlarning xulq-atvoriga aynan ularning xatti-harakat-larini bevosita belgilaydigan huquqiy ong orqali tartibga soluvchi ta’sir ko‘rsatadi. U yoki bu huquq normalari odamlarga ma’lum bo‘lganida, ularning to‘g‘ri xulq-atvori hamma vaqt ham huquqiy normalarning sanksiyalarini qo‘llashga va hatto qo‘llash bilan tahdid qilishga asoslanavermaydi. Ya’ni huquqiy ongning boshqa muhim tomoni-bu shaxsning huquqqa va uni qo‘llash amaliyotiga munosabati, uning huquqiy nuqtai nazari va maqsadlaridir. Individ huquqiy madaniyatiga xos ushbu elementning muhimligi qonunbuzar-lar bilan huquq normalariga rioya etuvchi fuqarolarning huquqiy ongini taqqoslab o‘rganish jarayonida taqqoslanadi»

Jamiyat va davlat taraqqiyotini, xalq va millat kamolotini, shaxsni har tomonlama rivojlanishini yuksak huquqiy madaniyatsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

REFERENCES

1. Behzodjon Qurolovich Malikov O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (data o‘rnatilgan: 20.12.2022).
2. Malikov, B. Q. (2021). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYO‘SIY QARASHLARI. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Malikov, B. Q., & Ikromov, D. R. O‘. (2022). SHARQ TA’LIMOTIDA QONUN USTUVORLIGI G‘OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.



4. Malikov, B. K. (2021). YoShLARNI SALBIY MAFKURAVIY TAXDIDLARDAN XDMOYa KILISH-DAYoTIY ZARURIYat YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Malikov, B. Q., & Abduraimov, O. K. O'. (2022). XUQUQIY BARKAMOLLIK VA MA'NAVIYat. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Malikov, B. Q., & Dexqonboev, Sh. B. O'. (2022). XUQUQIY MADANIYat HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Malikov, B. Q., & Eshqurbonov, A. I. O'. (2022). ADOLATLI JAMIYatDA ODIL SUD SIFATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, B. K. O'. (2022). O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYasIDA INSON VA TABIAT QADRI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, S. K. O'. (2022). ISLOM KARIMOV ASARLARIDA KONSTITUTSIYa VA QONUN USTUVORLIGI G'OYaLARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Malikov, B. Q., & Bolieva, N. Q. Q. (2022). XUQUQIY NIGILIZMNING IJTIMOIIY XAVFI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Malikov, B. Q., & Bo'riev, Z. B. O'. (2022). JAMIYat TARAQQIYoTIDA XUQUQIY ONGNING AHAMIYatI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. Qurolovich, M. B. (2023). ALISHER NAVOIYNING VATAN VA DAVLAT XIZMATCHISI SIFATIDAGI SIYOSIY QARASHLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 78-81.
13. Qurolovich, M. B. (2023). YOSHLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 73-77.



HUQUQIY MADANIYAT - HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI

Malikov Bekzod

Katta o'qituvchi

Qosimov Ziyodilla Botirjon o'g'li

Xayrullayev Behzod Nasrulla o'g'li

TDTrU SBXT-7 gurux talabalari

Jamiyat va davlat taraqqiyotini, xalq va millat kamolotini, shaxsni har tomonlama rivojlanishini yuksak huquqiy madaniyatsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Huquqiy bilim va madaniyat xalq va millat yetukligining muhim ko'rsatkichidir. Mamlakatning kuch-qudrati faqat uning tabiiy boyliklari, hududining katta-kichikligi, iqtisodiy va harbiy kuch-qudratiga qarab emas, balki xalqning intellektual salohiyati, ma'naviyati va ma'rifati, ayniqsa, huquqiy bilimdonlik darajasi va huquqiy madaniyatining naqadar yuksakligi, ularga qanchalik amal qilinayotganligiga qarab ham belgilanadi va baholanadi.

Huquqiy bilimi va madaniyati o'sgan xalq va millat o'zini anglab yetadi, kuchi va imkoniyatlariga xolisona baho beradi, qiyinchiliklar oldida dovdirab qolmaydi, kelajakka, porloq istiqbol tomon dadil, astoydil intiladi, umidsizlikka tushmaydi, safini bo'shashtirmaydi, milliy hamkorlik, milliy hamjihatlik, milliy totuvlik-inoqlikni kuchaytiradi va tobora mustahkamlaydi, dunyodagi ilg'or xalqlar, millatlar va mamlakatlar qatoridan o'rin olishga azmu qaror qiladi. Jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, burchi va mas'uliyatini qanchalik puxta, aniq va ravshan bilsa, ularni muhim hayotiy ehtiyoj sifatida anglasa, o'shanda demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayoni behad jadallashdi.

Huquqiy madaniyat huquqiy demokratik davlat barpo etishning muhim omilidir. Fuqarolar, mansabdor shaxslar, ijtimoiy guruhlarining va butun jamiyatning huquqiy madaniyati yuqori darajada bo'lishiga erishmay turib, demokratik huquqiy davlat to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. «Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi». [1]



Demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasi bo‘lgan huquqiy madaniyat bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Respublika Oliy Majlisining 1997 yil 27 avgustda tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi»da aytilishicha, «yuksak huquqiy madaniyat–demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta’minlovchi hamda mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.[2]

Huquqiy madaniyat - umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilimlarga ega bo‘lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin». Huquqiy madaniyat fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko‘rsatuvchi me’yordir. Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning shunchaki bir qismigina emas, balki uning o‘zagi, negizi, boshqacha aytganda, asosidir.

Huquqiy madaniyat nihoyatda keng ma’noli, serqirradir. Huquqiy madaniyat, bu, eng avvalo, amaldagi qonunlarni bilish, qonunga hurmat, qonunlarga itoatkorlik, shuningdek, huquqiy me’yorlar talablariga muvofiq harakat qilish, huquqqa ehtirom-la munosabatda bo‘lish, o‘zgalarning haq-huquqlari va erkinliklari, qadr-qimmatlarini hurmatlash demaقدir.

O‘z xalqining tarixi, tili, ko‘p asrlik madaniyati, ma’naviyati, ajdodlar-ning boy qadimiy merosi, qadriyatlarini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, ulardan oqilona ijodiy foydalanish ham huquqiy madaniyatdir.

Huquqiy madaniyatga O‘zbekiston Respublikasida, jonajon diyorumizda uzoq vaqtlardan beri birga yashab, taqdiri taqdirimiz bilan, tarixi tariximiz bilan yaqinlashib, og‘a-ini, qon-qardosh, do‘st-birodar bo‘lib ketgan tojiklar va turkmanlar, qozoqlar va qirg‘izlar, qoraqalpoq va uyg‘urlar, ruslar, ukrain va beloruslar, boshqa qardosh xalqlar, elatlar va millatlarning tillari, urf-odatlar, an’analari, moddiy-ma’naviy, tarixiy qadriyatlarini hurmat qilish ham kiradi. O‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari, nutqlari va ma’ruzalarida huquqiy madaniyatning o‘ziga xos jihatlari, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Uning «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida huquqiy madaniyatning chuqur ma’noli mazmun-mohiyati o‘z ifodasini topgan. Bu haqda asarda



shunday deyilgan; «Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U–qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir» [3] Darhaqiqat, huquqiy madaniyat inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan qonunlarni til uchida emas, dildan, qalbdan, butun vujudi bilan hurmat qilish, uni e'zozlash, muqaddas deb bilishdir.

Qonunlar va huquqiy me'yorlarga yuzaki munosabatda bo'lish bu shaxsning huquqiy madaniyat bildirmaydi. Huquqiy madaniyat qonunga hurmat, uning odilligiga ishonch qanoat hosil qilishdir. Huquqiy madaniyat qonunlarni ko'r-ko'rona hurmat qilish emas, balki uning xalqparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik mazmun-mohiyatiga to'la tushunib yetish, bunga shak-shubhasiz ishonch hosil qilishdir. So'zda emas, amalda qonunlarning insonparvarligiga ishonch hosil qilgan odamlar, fuqarolar ularga itoat etishni o'zlari uchun burch va mas'uliyat, majburiyat deb biladilar. «Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligi, avvalambor, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Bu huquqiy normalarga yuzaki munosabatda o'zi bo'lmaslik kerakligini ifodalaydi. Qonunga hurmat har bir insonning qalbidagi chuqur e'tiqodi bo'lmog'i lozim. U insonning yoshligidan boshlab ongiga singib, mustahkam-lanib borilishi kerak. Bu ota-onalar, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda, barcha jamoat uyushmalari va davlat tashkilotlari, butun jamiyatning ulkan, sermashaqqat ishidir. Nima mumkinu, nima mumkin emasligi haqidagi huquqiy normalar barchaga ma'lum. Qonunni buzish mumkin emasligini tushunish yuridik dunyoqarashning «qalb ko'zi» bo'lmog'i darkor»[5].

Yetarlicha huquqiy bilim va huquqiy madaniyatga ega bo'lgan inson qonun o'zining himoyachisi ekanligini biladi va shuning uchun ham u qonun tomonidan belgilangan chegaralardan chiqmaydi, unga zid harakat qilmaydi. Odamlarning qonun talablariga qat'iy amal qilishlari ular uchun olijanob fazilat hisoblanadi[6].

Qonunga itoat etish alohida kishilar, oddiy fuqarolargagina daxldor bo'lmay, hamma uchun majburiydir. «Qonunlarni davlatning mansabdor shaxslari ham, fuqarolar ham bilishi shart, - deb ta'kidlaydi, - U. Tojixonov va A. Saidov. - Huquqiy bilimdonlikning sovetcha tushunchasi amalda qonunlarning omma tomonidan chuqur bilishlarini ko'zda tutmas edi. Chunki bu ma'murlar va avtoritar boshqaruv uchun xavfli edi. Hamma joyda qonunga rioya etmaslik tufayligina ular hukmronlik qilardilar. Davlatda



huquqning ahamiyatini inkor etish ijtimoiy ongga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Bugungi kunda ko’p sa’y-harakatlar tufayligina huquqning ustuvorligi, qonunlarga halol rioya etish zarurati tushunib yetilmoqda»[7].

Qonunlarning adolat posboni ekanini ko’rish, bilish, amalda his etish, unga ishonch qosil qilish kishilarning qonunlarga bo’lgan hurmati va e’tiqodi shakllanishi va mustahkamlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oddiy kishilardan boshlab mansabdor shaxslargacha barcha kishilar qonunga bir xil itoat etishlari majburiydir. «Amir Temur ta’kidlab o’tganidek, oddiy kishilarga nisbatan qilingan adolatsizlik qonunga va davlat nufuziga» katta ziyon yetkazadi. Qonuniylik inson qanday huquqlarga egaligini, davlatning shu huquqlarni hayotga tatbiq etishi uchun nima qilishi kerakligini ko’rsatib beradi. Qonunda fuqarolarning aniq majburiyatlarini belgilab qo’yishdan xavfsirash demokratiyaga emas, balki qaramlikka ko’maklashadi. Davlat fuqarolardan burchlarini ado etishga haqli bo’lib, fuqarolar ham davlatdan muayyan shart-sharoitlarni talab etishlari mumkin. Ana shu o’zaro mas’uliyat hissi qonuniylik kafolatidir. Konstitutsiyamizda davlat va shaxs huquqlarining adolatli mutanosibligi o’rnatilgan»[8].

Huquqiy madaniyatning eng muhim jihati qonunlarni bilish, huquqiy me’yorlardan xabardor bo’lishdangina iborat emas, balki qonunlarga itoat etish, bo’ysunish, ularga qat’iyan amal qilish, o’z faoliyatini qonunlar asosida yurgizishdir.

REFERENCES

1. Behzodjon Qurolovich Malikov O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (data obraçeniya: 20.12.2022).
2. Malikov, B. Q. (2021). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYO SIY QARASHLARI. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Malikov, B. Q., & Ikromov, D. R. O‘. (2022). SHARQ TA’LIMOTIDA QONUN USTUVORLIGI G‘OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Malikov, B. K. (2021). YOShLARNI SALBIY MAFKURAVIY TAXDIDLARDAN XDMOYA KILISH-DAYOTIY ZARURIYAT YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.



5. Malikov, B. Q., & Abduraimov, O. K. O‘. (2022). XUQUQIY BARKAMOLLIK VA MA’NAVIYAT. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Malikov, B. Q., & Dexqonboev, Sh. B. O‘. (2022). XUQUQIY MADANIYAT HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Malikov, B. Q., & Eshqurbonov, A. I. O‘. (2022). ADOLATLI JAMIYATDA ODIL SUD SIFATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.
8. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, B. K. O‘. (2022). O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA INSON VA TABIAT QADRI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 473-478.
9. Malikov, B. Q., & Xamroqulov, S. K. O‘. (2022). ISLOM KARIMOV ASARLARIDA KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI G‘OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 479-482.
10. Malikov, B. Q., & Bolieva, N. Q. Q. (2022). XUQUQIY NIGILIZMNING IJTIMOIIY XAVFI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 458-461.
11. Malikov, B. Q., & Bo‘riev, Z. B. O‘. (2022). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA XUQUQIY ONGNING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 454-457.
12. Qurolovich, M. B. (2023). ALISHER NAVOIYNING VATAN VA DAVLAT XIZMATCHISI SIFATIDAGI SIYOSIY QARASHLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 78-81.
13. Qurolovich, M. B. (2023). YOSHLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 27(1), 73-77.



ADOLATLI JAMIYATDA ODIL SUD SIFATI

Malikov Bekzod

Katta o'qituvchi

Ziyayev Otabek Ulug'bek o'g'li

Azamatova Parizoda Abror qizi

TDTU SBXT-7 gurux talabalari

Odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilishda sudga murojaat qilish, uni o'zi uchun himoyachi deb bilish va unga e'tiqod qilishni ham huquqiy madaniyat deb hisoblasa bo'ladi. Kishilarning eskicha qarashlari va tasavvurlari tamomila o'zgarib, yangilanib bormoqda.

Mustaqillik yillarida kishilarning, xalq ommasining, aholi barcha qatlamlarining sudlar haqida totalitar tuzum davrida shakllanib, rivojlanib ongi, tafakkuri, miyasida uzoq yillar davomida singib, chuqur ildiz otib ketgan eskicha qarashlar va tasavvurlar tubdan o'zgarib, ular o'rnida sudlarga nisbatan yangicha qarashlar, ishonch va e'tiqodlar paydo bo'lib, mustahkamlanib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisining qator sessiyalaridagi ma'ruzalarida, ko'pchilik asarlarida sud faqatgina jazolovchi organ sifatida tanilmasdan, fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil organga, adolat posboniga aylanishi, sudga hamma hurmat bilan qarashi lozimligini ta'kidlab kelmoqda.

Sud bo'ldi deyilsa, kimdir jazo oldi debgina emas, sud bo'ldi deganda, odamlar himoya qilindi, haq joyida qaror topdi, degan tushunchaning kishilar ongida shakllanishi, sud hokimiyatiga nisbatan bo'lgan munosabatlarni jiddiy ravishda o'zgarishi juda muhimdir. Ana shularni zaruran e'tiborga olib Islom Karimov odamlar ongida chuqur o'rnashib qolgan sudga bo'lgan eskicha munosabatlar, ko'nikmalar, psixologiyani asos-asosi bilan o'zgartirish eng dolzarb vazifa ekanligini doimiy ravishda ta'kidlab kelmoqda. «Ochiq tan olish kerak, sud organlari va sudning o'zi oddiy fuqaro ko'z o'ngida jazolovchi, qoralovchi, ozodlikdan mahrum etuvchi idora sifatida gavdalanadi. Ehtimol, bu qo'pol tuyulishi mumkin, lekin bor gap shu. Sudga bunday munosabat ildizlari totalitar tizim o'z siyosatini sud qarorlari orqali yuritgan, yagona mafkura hukmronligi o'rnatgan zamonlarga borib taqaladi.



Bular barchasi odamlar ongida chuqur o'rnashib qolgan. Bizning vazifamiz ushbu ko'nikmalarni, psixologiyani sindirish, odamlarning sudlarga munosabatini tubdan o'zgartirishdan iborat. Xalq sudni faqat odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ deb emas, aksincha, ularning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan organ deb bilishi kerak. Bu o'ta muhim. Yana qaytaraman, odamlar sud organlarini o'zlarining himoyachisi, adolat posboni deb bilishi kerak»[1].

Odamlar ongida o'tmish jamiyat davrida chuqur o'rnashib qolgan sudlar haqidagi qarashlar, ko'nikmalar, psixologiyani sindirish va sudlar fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyachisi ekanligini har bir fuqaroga yetkazish aytishga osonu, aslida anchagina murakkab jarayondir.

Buning uchun davlat nomidan ish ko'ruvchi mansabdorlarning o'zlari qonunlarning buzilishiga aslo yo'l qo'ymasliklari talab etiladi. Davlat xizmatchilarida, qonun ijrochilarida gap bilan ish bir-biriga zid bo'lsa, buning oqibatida qonunlarning o'zi obro'sizlanadi, qonunlarni nazarga ilmaslik illati paydo bo'ladi, davlatning ma'naviy asoslariga putur yetadi. Davlat nomidan ish ko'ruvchi mansabdorlarning o'zlari qonunlarni qanday qilib buzayotganliklarini aniq-ravshan ko'rib turgan oddiy fuqaroning bundan hafsalasi pir bo'ladi, davlatga ishonch qolmaydi. «Sir emaski, -deydi Prezident,-oddiy fuqaro, avvalo, davlat nomidan ish ko'ruvchi mansabdorlarning o'zlari qonunlarni qanday bajarayotganiga e'tibor beradi.

Agar shunday bo'lmasa, agar o'sha organlar yoki mansabdor shaxslarning o'zlari qonunlarni oyoqosti qilsa, qonunlarning o'zi obro'sizlanadi, yana ham to'g'rirog'i, jamiyatning asoslariga putur yetadi.[2]

Bunday vaziyatda qonunlarni mensimaslik illati butun jamiyatni zahar-laydi, davlat tomirlari yemiriladi, chiriq boshlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, jamiyatimizda shunga o'xshash holatlarga barham beradigan davlat xizmati va davlat xizmatchilari to'g'risida qonun qabul qilish fursati yetdi, deb aytish mumkin».[3]

Xalqimiz, millatimizning ishonchini to'la oqlash, haqiqatni qaror toptirish uchun sud'yalarimiz fuqaroga jabr o'tkazmaydigan, chuqur bilimli va madaniyatli, halol bo'lishi, har bir sudya davlat va fuqaro oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur his etgan holda faoliyat ko'rsatishi lozim. Bularning hammasi xalqimizning sudga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda katta o'rin tutadi. [4]

O'zbek xalqi necha-necha asrlardan beri adolatsizlikni, birovlarining haqiga xiyonat qilishni, molimardumxo'rlikni qoralab, halollikni esa madaniyatlilik, diyonatlilik, iymonlilik mezoni sifatida ulug'lab keldi. Bunga ko'hna tariximizdan ko'plab misollar keltirishimiz



mumkin. Masalan, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshahiyning 943-944 yillarda bitilgan «Buxoro tarixi» asarida, «Men Abdulloh Muborakdan eshitdimki, Sebavayh Buxoroda qozilik qilganida xalqning ikki dirhamiga ham xiyonat qilmadi, ikki dirham ko‘plik qiladi, u tariqcha ham jabr o‘tkazmadi,»- deb yozadi. Mazkur asarda yana shunday satrlar bor: «G‘anjar deb mashhur bo‘lgan rahmatli Iso ibn Muso at-Taymiyga qozilikni bergan edilar, u qabul qilmadi. Sulton unga, agar qozilik qilmasang biror kishini tanlagin, biz o‘shanga beraylik, degan edi, buni ham qabul qilmadi. Sulton qozilikka loyiq kishilar nomini uning oldida bir-bir aytinglar, deb buyurdi; shunday qildilar, ammo uning oldida kimningdir nomini atamasinlar, u «loyiq emas» deya berdi va nihoyat, Hasan ibn Usmon Hamadoniyning nomini tilga olganlarida sukut qildi. Uning sukuti roziligidir dedilar-da, qozilikni Hasan ibn Usmon Hamadoniyga berdilar. Buning zamonida Xuroson shaharlarida ilmda va taqvodorlikka unga tenglashadigan hech bir kishini ko‘rsata olmagalar».[5]

Respublikamiz huquqshunoslaridan biri Ubaydulla Mingboev «Sud shunday hokimiyatki...» asarida barcha sudlar sudyalari va sud xodimlarida birqancha ajoyib insoniy fazilatlar bo‘lishi zarurligi ta’kidlangan. Asar muallifining so‘zlari chuqur ma’noli, huquqiy, falsafiy, axloqiy hikmatlarga boyligi, eng muhimi, mavzumizga bevosita daxldor ekanligini e’tiborga olib, ularning juz’iy qisqartirishlar asosida aynan keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik.[6]

«-O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini muqaddas biling va ularga doimo, har bir ishda qat’iy rioya eting;

-o‘zingizda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalang;

-Vatanga va xalqqa bo‘lgan sadoqatingiz har bir harakatingizda namoyon bo‘lsin;

-Islom Karimovning: «Xalq ochlikka, qiyinchilikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi»,-degan so‘zlarini aslo unutmang;

-fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyat manfaatlarini muhofaza qilishni to‘liq ta’minlashni eng asosiy burchingiz deb biling hamda bu ishda fidoiylik ko‘rsating;

-xizmatda ham, shaxsiy hayotda ham qonunni to‘g‘ri, to‘la va adolatli qo‘llashga erishing, faqat qonunni qurol qilib, o‘zgalarning qonuniy haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiling, shuningdek, zarurat tug‘ilganda o‘zingiz ham qonun himoyasida bo‘lish layoqatiga ega bo‘ling;

-fuqarolar, davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyatingizni yurak-yurakdan his qiling;



-sudyalik qasamyodi va etikasi qoidalariga sodiq qoling, ularni buzishdan qo'rqing, buzganlardan esa hazar qiling;

-hamma vaqt va har ishda, eng avvalo, xizmat faoliyatingiz bilan bog'liq munosabatlarda sabr-toqatli, metin irodali bo'ling;

-har qanday qonun buzilishiga nisbatan murosasiz bo'ling, ularga qonun nomidan yashinday shiddatli, shamshirday keskir munosabat bildiring;

-halol va adolatli bo'ling, o'z vakolatlaringiz-vazifalaringizni qonun doirasida vijdonan, xolisona, beg'araz bajaring, adolat faqat beg'araz qaror toptirilgandagina adolat sanalishini o'z shioringiz deb biling;

-sud ishlarida biror-bir tarzda oshna-og'aynigarchilik, jo'rabozlik, mahalliychilik, guruhbozlik, millatchilik kabi illatlarning bo'lishi mutlaqo mumkin emasligini unutmang...

-kimki nafs dardiga giriftor bo'lgan bo'lsa, unga boshqa dushmanning keragi ham yo'q, bu balo uni o'z domiga tortib, halok etishi muqarrar;

-muborak hadisi sharifda «Amirning sovg'a olishi harom va qozining pora olishi dindan chiqishidir», - deyilgan. Bunga shak keltirishdan jahannam azobidan qo'rqqandek qo'rqinglar....

-barcha bilan muloqotda samimiy bo'linglar. Samimiyat so'zni kam talab qiladi, soxta samimiyat esa bitmas-tuganmas ezmaliklardan iboratdir....

-har qanday qiyin va mashaqqatli holatda ham haq yo'lni tutish va mashaqqatli holatlarda ham haq yo'lni tutish va haqiqatni qaror toptirish shartligi tamoyilidan og'ishmang. Undan chetga chiqishni sud'yalik qasamyodiga hamda kasbiga nisbatan xiyonat va vakolatini bajarmaslikka ifodalanuvchi jinoyat deb biling...

-kibru havoga, manmanlikka, shaxsiyatparastlikka berilish, o'zini o'zgarlar-dan ustun qo'yish sudya va sud xodimiga mutlaqo yot xislatlar bo'lishi shart;

-xushomad vaqtincha tiz cho'kib turgan tajovuzdir. Xushomadgo'ydan qoching, uning xushomadida g'araz maqsad niqoblanganligini unutmang...

-sud ishida kimningdir ishonchini oqlash uchun emas, balki vakolatni to'la amalga oshirish, qonuniylik va adolatni ta'minlash uchun ishlamoq kerak-ligini burchingiz deb biling;

-ilmli, ma'rifatli bo'ling, ma'naviy qashshoqlikdan ortiqroq jaholat yo'qdir, chunki insonning ziynati uning ilmidadir, Kaykovus ta'kidlagani-dek, «Qoziga yaxshi hunar–ilm va muloyimlilikdir...»;

-kasb madaniyatiga nafaqat xizmatda, balki hamma munosabatlarda qat'iy rioya eting, ishda ham, ko'cha-ko'yda ham, oilada ham sudyalik salohiyatini bir xilda saqlang...



-maishiy jihatdan pok, kamtar bo'ling, kiyinish, turar joy, yurish-turish madaniyatini saqlang, o'zgalar e'tiborini tortadigan yasan-tusandan yiroq yuring....

«-o'zingga ravo ko'rganni o'zgaga ham ravo bil va aksincha, ravo ko'rmaganingni ravo bilma....» hikmatidan kelib chiqib, biror-bir sud ishi yuzasidan ajrim qilishdan, ya'ni hukm, hal qiluvchi qaror, ajrim, qaror chiqarish, xulosa va javob tayyorlashdan avval sudlanuvchi, jabrlanuvchi, da'vogar, javobgar va umuman haq-huquqlari hal qilinayotganlarning har birining o'rnida o'zingizni birma-bir faraz qilib ko'ring, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlang, inson hayoti va taqdiriga o'ta mas'uliyatli bo'ling...

-oilaning qonuniy va halol daromadlari evaziga yashashni o'rganing, farzandlarni harom luqma hisobiga boqish ularga zahar berish bilan barobar ekanligiga va bu shaksiz kulfat keltirishiga hecham shubhalanmang...

El-yurtning hurmatu nazaridan qolmaslikka harakat qiling, zero xalq nazari qudratli va unda izzatda bo'lish oliy sadoqatdir» [7].

REFERENCES

1. Behzodjon Qurolovich Malikov O'ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (data obraçeniya: 20.12.2022).
2. Malikov, B. Q. (2021). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYO SIY QARASHLARI. Scientific progress, 1(4), 207-212.
3. Malikov, B. Q., & Ikromov, D. R. O'. (2022). SHARQ TA'LIMOTIDA QONUN USTUVORLIGI G'OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
4. Malikov, B. K. (2021). YOShLARNI SALBIY MAFKURAVIY TAXDIDLARDAN XDMOY KILISH-DAYOTIY ZARURIYAT YANGI O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM ILMIY-METODIK JURNALI. ISSUE, 1(1), 202-206.
5. Malikov, B. Q., & Abduraimov, O. K. O'. (2022). XUQUQIY BARKAMOLLIK VA MA'NAVIYAT. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 449-453.
6. Malikov, B. Q., & Dexqonboev, Sh. B. O'. (2022). XUQUQIY MADANIYAT HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 462-466.
7. Malikov, B. Q., & Eshqurbonov, A. I. O'. (2022). ADOLATLI JAMIYATDA ODIL SUD SIFATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 467-472.



XOTIN-QIZLARNING HUQUQ VA MANFAATLARI QONUN HIMOYASIDA

A. A. Kasimova

Yu. f.n., dosent

Toshkent Davlat Transport universiteti

Nasiba To'rayeva

Iqtisodiyot fakulteti, Xalqaro Transport huquqi yo'nalishi

YU-8 guruhi talabasi

“Ayollar huquqlari – inson huquqlari bo‘lganligi sababli ayollar barcha inson huquqlariga ega va ulardan foydalanadi. Shu ma’nodagi, gender tengligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lib, jinsiy kamsitish deyarli barcha inson huquqlari to‘g‘ri Tenglik va kamsitilmaslik 1945 yilda qabul qilingan Birlashgan Millatlar tashkiloti Nizomining asosiy tamoyillaridandir. Ayollar huquqlari – inson huquqlari bo‘lganligi sababli, ayollar barcha risidagi shartnomalarida taqiqlangan. [1]

Zo‘ravonliklarsiz yashash huquqi, jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga erishish huquqi, ta‘lim olish huquqi, mulk huquqi, teng ish haqi olish huquqi va boshqa barcha inson huquqlari jinsidan qat‘i nazar ayollar uchun ta‘minlanishi kerak

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi shunchaki asosiy tamoyillarni belgilaydi, Ammo faqat shuning o‘zi bilan ayollar va qizlarning huquqlarini haqiqiy ta‘minlashga erishib bo‘lmasdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun qilingan qadamlardan biri 1979 yil 18 dekabrda qabul qilingan Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) edi. Ayollar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya sifatida tanilgan ushbu hujjat, uni ratifikatsiya qilgan davlatlarga madaniyat, jamiyat, ta‘lim, siyosat va qonunchilik sohalarida ayollarning kamsitilishini bartaraf etish majburiyatini yuklaydi. [2]

O‘zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta‘minlashga alohida e‘tibor beradi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, 1995 yil 6 mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va kasb sohasidagi

kamsitish to‘g‘risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan”[3]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasi : “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlashi belgilangan”

“Gender tengligi- bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra , gender tengligi— bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat”[4]. Buning tasdig‘i yuqorida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 58-moddasida ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari xotin-qizlarning jamiyat hayotida faolligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" ning maqsadlarida ham keltirilgan

69-maqсад: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash.

Gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.

Xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish.

Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish. [5]

Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.

Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash.

“Ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish[6]

Shuningdek, xotin-qizlarga OTM — Oliy Ta’lim Muassalariga kirish, hamda ularda o‘qish uchun bir qancha imtiyozlar yaratildi. Bunga sabab ham xotin-qizlarni jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topishidir. Bu imtiyozlardan bir nechtasini misol qilib keltirsak bo‘ladi:

“To‘lov kontraktda o‘qiyotgan xotin-qizlar foizsiz ta’lim krediti oladi

Prezidentning PQ-323-sonli qaroriga ko‘ra, o‘tgan yildan buyon to‘lov-kontraktda o‘qiyotgan xotin-qizlarga imtiyozli foizsiz ta’lim krediti berilmoqda. Kreditlar kunduzgi, sirtqi va kechki ta’lim shakliga beriladi.

Ta’lim kreditining asosiy qismi talabaning ta’lim muddati tugagandan so‘ng yettinchi oydan boshlab 7-yil davomida qaytariladi. Talaba qizlardan kredit olish uchun ko‘p hujjatlar ta’lab etilmaydi. Ulardan bankka ariza, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, ta’lim muassasasi bilan to‘lov-kontrakt shartnomasi va kafil ta’lab etiladi.

Ayrim toifadagi xotin-qizlarga OTMga kirish uchun tavsiyanoma beriladi

Vazirlar Mahkamasining 402-sonli qarori bilan, ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta’lim muassasalari kirishda davlat granti asosidagi qabul doirasidagi tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladi.

Tavsiyanoma quyidagi mezonlar asosida taqdim etiladi:

kam ta’minlangan oilalardagi xotin-qizlar;

to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya’ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar;

turmush o‘rtog‘i vafot etgan, voyaga yetmagan farzandini yolg‘iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;

nogiron farzandi bor ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar;

2 va undan ortiq farzandini tarbiyalayotgan, qarindoshlaridan alohida yashayotgan yolg‘iz ayollarning qiz farzandlari;

ota-onalaridan biri yoki har ikkisi ham I yoki II guruh nogironi bo‘lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar.

Tavsiyanoma olish uchun tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlariga elektron shaklda murojaat qilinadi.

**Magistraturada o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning
kontrakt to‘lovlari qaytarish shartisiz qoplanadi**



Hukumatning 447-sonli qarori bilan qabul qilingan tegishli nizomda OTM magistraturasida o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qoplab berish tartibi belgilangan. [7]

OTM, shu jumladan, Davlat boshqaruv akademiyasi, Bosh prokuratura akademiyasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda Bank-moliya akademiyasining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt-to‘lovlari qaytarish shartisiz qoplanadi.

Bundan tashqari, xotin-qizlar tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va imtiyozli uy-joylar olish imkoniyatiga ega:

Xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun 33 million so‘mgacha kreditlar ajratiladi

Prezidentning PQ-5020-sonli qarori bilan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan 3-yilgacha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so‘mgacha kreditlar beriladi.

Buning uchun ular quyidagi dasturlardan birini muvaffaqiyatli tugatgan bo‘lishi kerak:

Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ma‘qullangan dasturlar asosidagi o‘quv kurslari;

"Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o‘qitish maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta‘lim muassasalarining kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlari.

Ayollarni pensiya yoshiga to‘lgani sababli ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo‘shatish taqiqlanadi

Prezidentning PQ-4235-son qarori bilan, ayollarning pensiya yoshiga to‘lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish taqiqlanadi.

Erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog‘liq ishlarning sudlarda ko‘rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko‘ra davlat hisobidan qoplanadi.

Og‘ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar beriladi

Vazirlar Mahkamasining 285-sonli qarori bilan, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga beriladigan arzon uy-joylar to‘lovining 10 foizi Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi, talabgor ishlayotgan tashkilot va boshqa manbalar hisobiga (boshlang‘ich badal sifatida), 90 foizi banklarning imtiyozli kreditlari hisobiga qoplanadi.

Arizalar tuman hokimi boshchiligidagi hududiy komissiyaga beriladi.

“Ayollar daftari” ga kiritilganlarga 5 mln so‘mgacha kreditlar naqd berilishi mumkin

Vazirlar Mahkamasining 145-sonli qarori bilan, "Ayollar daftari"ga kiritilgan va o‘zini o‘zi band qiladigan xotin-qizlarga ayrim turdagi faoliyatni amalga oshirish (kasanachilik, hunarmandchilik, issiqxona qurish va shu kabilar uchun zaruriy xom ashyo, ehtiyot qism hamda qurilish mollari sotib olish) maqsadida 5 mln so‘mgacha miqdorida kredit mablag‘lari naqd pulda berilishi mumkin.

“Ayollar daftari” ga 30 yoshdan oshgan quyidagi xotin-qizlar kiritiladi:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar;
- tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar;
- boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar;
- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar;
- uy-joyga muhtoj xotin-qizlar;
- qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandlari bor ehtiyojmand xotin-qizlar.

Faol va tashabbuskor xotin-qizlar "Mo‘tabar ayol" ko‘krak nishoni bilan taqdirlanadi

Vazirlar Mahkamasining 257-sonli qarori bilan, jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatgan ayollar "Mo‘tabar ayol" ko‘krak nishoni bilan taqdirlanadi. Shuningdek, mazkur ko‘krak nishoni o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish va milliy qadriyatlarimizni keng targ‘ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarga ham beriladi.

Nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarni ishga olganlarga subsidiya beriladi

Prezidentning PQ–329-son qarori bilan, mehnatga layoqatli, nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlagan ish beruvchilar uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari (600 ming so‘m) dan kam bo‘lmagan miqdorda subsidiya ajratiladi.



“Ayollar daftari”ga kiritilgan yolg‘iz ayollarning farzandlari ham bog‘chaga imtiyozli ro‘yxat asosida qabul qilinadi

Vazirlar Mahkamasining 319-sonli qarori bilan, “Ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg‘iz ayollarning bolalari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ustunlik bilan qabul qilinish huquqiga ega.

Bolalarni imtiyozli ro‘yxat bo‘yicha qabul qilish davlat-xususiy sheriklikka asoslangan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tatbiq etilmaydi”

Agarda tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, biz bilamizki tarixda ayollar va qizlarning jamiyatda umuman o‘rni bo‘lmagan. Davlat hokimiyatini amalga oshirishni qo‘ya qolaylik, hattaki ular yuzlarin ochiq holda ya‘ni- paranjisiz omma oldiga chiqishi ham taqiqlangan. Ba‘zi davlatlarda hattoki, qiz farzand tug‘ilsa uni o‘ldirishgan ham.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak , mamlakatimizda xotin- qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish uchun ko‘plab islohotlarni amalga oshirilgan va oshirib kelmoqda ham.To‘g‘ri, bizda "Gender tengligi" boshqa davlatlardagi kabi hali to‘liq rivojlangani yo‘q , lekin bu tushuncha bizning mamlakatimizda mavjud va hali yana rivojlanadi. Bunga biz yosh huquqshunoslarimizning ham hissasi katta bo‘lishi kerak va bo‘ladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – 2023.01.05.
2. PF-198-son 24.08.2022 «Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Avazbek Xolbekov, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi eksperti
3. Jasur Islamov Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) Kotibiyatining Murojaatlar bilan ishlash sektori mudiri/ Xususiy mulkka bo‘lgan huquqning kafolati mavzusidagi maqolasidan.
4. Dadasheva A. A. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
5. Egamberdieva N. X. Delikt majburiyatlarning huquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
6. Inagamova M. M. Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection).



OILANI MUSTAHKAMLASH VA HIMOYA QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

B. E. Yuldashev

dotsent, tarix fanlari nomzodi

S. T. Xidirova, M. R. Otaqulova

Iqtisodiyot” fakulteti MN-3 guruh talabalari:

hidirovasevinc6@gmail.com

otaqulovamarifat@gmail.com

Oilani muqaddas bilish va uning mustahkamligi uchun kurashish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Bugungi kunda avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bo‘lmish oilani mustahkamlash barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz ham hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va ʻesh avlodning ʻerug‘ kelajagini ta’minlash maqsadida amalga oshirilmogda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odatlarimiz hamda an‘analarimiz ʻesh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma‘nan yetuk, mehr – oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o‘rin egallab kelgan. Oilani mustahkamlash bugungi kunning muammolardan biri desak xato qilmaymiz. Shu boisdan ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1993 yil 20 sentyabrdagi yig‘ilishida 15 mayni har yili Xalqaro oila kuni sifatida nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shundan buen butun duneda, shu jumladan yurtimizda ham Xalqaro oila kuni keng nishonlab kelinmogda. O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda oila tushunchasi, uning mazmun va mohiyati, jamiyatda tutgan o‘rni masalalariga alohida e‘tibor qaratilib, barcha huquqiy asoslar yaratilganini alohida ta‘kidlash lozimdir. Ayniqsa, aellar va bolalar manfaatlarini himoya qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. [1]

Oila jamiyat va davlat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va ular bilan bir zamonda rivojlanadi. Shuning uchun Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasi 1-bandida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidadir” deb qayd etilgan. Shunga ko‘ra hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, barqaror va tinch tuzulmasi, kishilarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy



birligi hamdir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunëga keladi, balki u ma’nan va ahloqan tarbiya topadi, unda avlodlar kamol topadi. Oila qanchalik mustahkam bo’lsa jamiyat ham shunchalik mustahkam bo’ladi va tez rivojlanadi. [2]

Oila – jamiyat va davlat himoyasida. Zero, oilaga muntazam g’amxo’rlik qilish, unga har taraflama moddiy va ma’naviy ko’mak berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-moddasining 3-bandi hamda Oila kodeksi 4- moddasining 1-qismiga binoan, oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. Bu qoida mustaqil mamlakatimiz Konstitutsiyasida ilk bor belgilangan yangi qoidadir. Biz quraëtgan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida oila o‘ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil yetadi. Oilaning bu xususiyati uning jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida o‘z ifodasini topadi. Mamlakatimizda har bir oilaning turmush farovonligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda. Xususan, 1998 yil Respublikamizda “Oila yili” deb e’lon qilinishi, shu yilning 30 aprelida O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi tasdiqlanib, 1 sentyabrdan amalga kiritilishi fikrimizning yaqqol tasdig‘idir.

Bugungi kunning muhim vazifasi adolatparvar jamiyatni vujudga keltirishdir. Bu jamiyat poydevorini, ma’naviy sog‘lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil yetadi. O‘zbekistonda davlat bilan bir qatorda jamoat tashkilotlari turli jang‘armalar hisobidan oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish uchun moddiy va ma’naviy ërdam ko‘rsatib kelmoqda. [3] Xususan, ehtiëjmand oilalarning farzandlari, chin yetim, nogironligi bo‘lgan va davolanishga muhtoj bolalarga alohida mehmruruvvat ko‘rsatish bo‘yicha yangi tizim joriy etildi. Hozirgi kunda respublikamizda alohida e’tiborga muhtoj 18 ëshgacha bo‘lgan 150 ming nafar ëshlar bor. Ularning ta’lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko‘maklashish, og‘ir kasallikka chalinganlarni davolash, chin yetimlarga haëtda o‘z o‘rnini topishga ërdam berish, uy-joy bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb yetadi. 2021 yilda birinchi marta byudjetdan 900 nafar chin yetim ëshlarni uy-joy bilan ta’minlashga 50 milliard so‘m ajratildi. Zerro, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi 2-bandiga ko‘ra “Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi”. [4]

Konstitutsiyaning 78-moddasi 1-bandida “Farzandlar ota-onalarning nasl – nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar



qonun oldida tengdirlar”, shu moddaning 2 – bandida “Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi” deb qayd etilgan. O‘tgan vaqt davomida respublikamizda aëllar va èsh avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga yo‘naltirilgan muntazam chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida sog‘lom oilani shakllantirish, tug‘ish èshidagi aëllarni sog‘lamlashtirish ishlari o‘zining ijobiy samarasini berdi. 1998 yilning “Oila yili” deb e‘lon qilinishi natijasida oila manfaatlari uchun barcha manbaalar bo‘yicha 144,8 milliard so‘m mablag‘ ajratilib, bu mablag‘larning deyarli yarimi davlat byudjetidan qoplandi deb qayd etishimiz fikrimizning yaqqol dalilidir. Mamlakatimizda èsh oilalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasida èshlarga doir davlat siësatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra èsh oilalarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil qilish, uy-joy qurish va sotib olish, mebel va boshqa uzoq muddat foydalanadigan haëtiy zarur tovarlar sotib olish maqsadlari uchun imtiëzli kreditlar ajratish o‘z ahamiyatiga ko‘ra èsh oilalarni moddiy-ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash sohasida jiddiy voqea bo‘ldi va bular davlatimizning oila masalasiga ma‘suliyat bilan qarab, katta ishlarni amalga oshirayotganligining yorqin ifodasidir.

Nikoh – oila vujudga kelishining birdan – bir asosidir. “Nikoh, - Konstitutsiyaning 76-moddasi 2-bandiga ko‘ra, -xalqning an‘naviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi”. Demak, nikoh erkak va aël o‘rtasidagi ixtiëriy rozilik va tenglikka asoslanib tuzilgan erkin ittifoq bo‘lib, uning maqsadi oila qurish, bolalarni umuminsoniy qadriyatlar va an‘nalar asosida tarbiyalashdan iborat. Nikoh tuzilgandan so‘ng er va xotin o‘rtasida har ikkala tomonning huquqlari va majburiyatlari vujudga keladi. Ular o‘rtasidagi munosabatlar ahloq-odob qoidalari bilangina emas, balki qonunlar, huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Bu holat Konstitutsiyaning 77-moddasining 1-bandida quydagicha izohlanadi: “Ota – onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta‘lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”. [5]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila muqaddas dargoh ekanligi, bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanishi Bosh Qomusimizning o‘zgartirish kiritilaëtgan moddalarida o‘z aksini aksini topaëtganligini, unda mohiyatan yangi konstitutsiyamizda oila huquqlari yanada mustahkamlanganidan dalolatdir.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
5. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2020 yil 19 may.
6. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) (17), 87-90
7. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
8. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection)
9. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
10. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
- 11.M.M. Inagamova, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
12. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022
13. Dadasheva A.A [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI](#) Uzbek Scholar Journal 15, 10-12
14. Dadasheva A.A [Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan \(theory and practice\) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...](#) T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan, 13
15. Dadasheva A.A, [MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM.](#) Academic research in educational sciences, 117-122.



KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI

B. E. Yuldashev

dotsent, tarix fanlari nomzodi

L. F. Shokirova, M. T. Sulaymonova

Iqtisodiyot fakulteti BHA-3 guruh talabalari:

shokirova13108@gmail.com, sulaymonmaftuna04@gmail.com

Qonunning ustuvorligi har qanday davlat va jamiyat haëtining muqaddas tamoyillaridan biridir. Jamiyatda qonuniylik tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qat’iy intizom, ichki uyushqoqlik va ma’suliyat jihatdan ustuvor bo‘lmasa, qonunlar, milliy an’analar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa, demokratik huquqiy davlatni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Qonunga og‘ishmay itoat etilgan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va mustahkam bo‘ladi. Qonunga itoatkorlik - bu yuksak madaniyatlilik, ma’naviyatlilik, ma’rifatlilik belgisidir. Qonunga itoatkorlikni insonning unga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunishi ma’nosida tushunmaslik kerak. Qonunning maqsad va vazifalarini, ma’nosi-yu insonparvarlik mohiyatini ongli ravishda tushunib olish unga ixtiëriy rioya qilishga va uning asosida faoliyat yuritishga ërdam beradi. Boshqacha qilib aytganda, qonunga itoatkorlik, eng avvalo, qonunlarni puxta bilishni va ularga rioya qilib yashashni taqozo etadi. Qonunlarni bunday bilish davlatga ham, fuqarolarga ham birday xos va foydali fazilat bo‘lishi lozim. Qaysi bir jamiyaida qonun bajarilmay qog‘ozda qolib ketsa, unday jamiyat aslo ravnaq topmaydi, adolatga erisha olmaydi. Qonun amalda bo‘lishi lozim. Qonun qabul qilindimi, uning ijrosi ham qat’iy bo‘lmog‘i zarur. [1]

Demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlashdir. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, birinchidan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning qat’iyan hukmronligini, hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa biror fuqaro qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xoli bo‘lishi mumkin emasligini anglatadi. Ikkinchidan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi shuni ifodalaydiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun yo‘li bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun huquqiy javobgarlikka tortiladilar. [2] Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi 1-



bandida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi” va shu moddaning 5-bandida esa “Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar” deb belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning ana shu qoidalarida ma‘no-mazmun bor. Belgilab qo‘yilganidek, Konstitutsiya va qonun oldida barcha birday mas‘uldir. Mamlakat qonunlariga jami fuqarolar barobar bo‘ysunmog‘i ham farz, ham qarz. Hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor èki boshqa biror fuqaro qonunga bo‘ysunish va unga so‘zsiz rioya etish majburiyatidan xoli bo‘lishi mumkin emas. Chinakam demokratik jamiyatda hamisha shunday bo‘ladi. [3]

Konstitutsiya – o‘zbek milliy-huquqiy tizimning o‘zagini tashkil etadi. Barcha joriy qonunlar va normativ huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaga to‘la muvofiq holda ishlab chiqilmog‘i zarur. Asosiy Qomusimizning 16- moddasida “Mazkur Konstitutsiyasining birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo‘limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas”.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ - huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid kelishi mumkin emas” deb ta’kidlangan. Qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash lozimki, ijroiya organlari qonunlarga qo‘shimchalar emas, balki mazkur qonunlarning ijrosiga oid hujjatlarni qabul qilmoqlari zarur bo‘ladi. [4]

Konstitutsiyamizni maxsus tarzda muhofaza qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tashkil etilgan bo‘lib, mazkur sud “...qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, xukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi”. [5]

Xuloca qilib aytganda qonunning kuchi, obro‘si, ta’siri, amaliy ahamiyati haètda uni halol, haqqoniy, odilona tatbiq etilishidadir. Agar qonun ijrochilari burchlari va mas’uliyatlariga



xolisona, odilona èndashib, to‘g‘ri yo‘ldan toymay, g‘irromlik qilmay, el-yurt, Vatan, davlat manfaati va taqdirini o‘zlari uchun oliy maqsad deb hisoblab qonunlarni turmushga adolatli qo‘llasalar, bundan davlat va jamiyat ham, xalq ham eng ko‘p naf ko‘radi.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalishg sari. 4-jild, T., “O‘zbekiston”, 2020.
2. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2023.
6. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) (17), 87-90.
7. Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari AXBORATNOMASI
8. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish (Scienceweb academic papers collection).
9. Egamberdieva N.X, Egamberdieva X.E, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YeRLARNI XUSUSIYLASH TIRISH ASOSLARI VA TARTIBI. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.
10. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022.
11. M.M. Inagamova, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume 11, | April, 2023. P. 71-75.
12. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022.
13. Dadasheva A.A [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR DAVR TALABI](#) Uzbek Scholar Journal 15, 10-12.



14. Dadasheva A.A [Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan \(theory and practice\) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal ...](#). T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan, 13.
15. Dadasheva A.A [MAIN DIRECTIONS OF IMPLEMENTATION OF PUBLIC CONTROL OVER THE ACTIVITY OF GOVERNORS IN THE CONDITIONS OF CIVIL SERVICE REFORM](#). Academic research in educational sciences, 117-122.



INSON SHA'NI VA QADR – QIMMATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

B. E. Yuldashev

dotsent, tarix fanlari nomzodi

Iqtisodiyot fakulteti BHA-3 guruh talabalari:

L. F. Shokirova, M. T. Sulaymonova

shokiroval3108@gmail.com

sulaymonmaftuna04@gmail.com

Endilikda, fuqarolarimiz biron bir surishtiruv, tergov organlariga olib kelinganda, uning huquqi, shuningdek, ushlab turilishi asoslari, nega davlat organiga keltirilgani haqidagi huquqlari tushuntirilishi asosiy qonuda o‘z ifodasini topgan. Ya’ni, aybsizlik prezumtsiyasi normasi yanada isloh etilib, Konstitusiyamizning amaldagi 26-moddasida, shaxsning ishi sudda ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblangan bo‘lsa, endilikda sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha u aybsiz hisoblanishi mustahkamlanmoqda.[1]

Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad inson, uning huquq va manfaatlarini ta‘minlashdir. Konstitusiyamizda belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Insonni ulug‘lash, uning huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda har tomonlama kamol toptirish Konstitusiyaning asosiy g‘oyasiga aylantirilgan. Zero, shaxsning sha’ni va qadr-qimmati, uning hayoti va sog‘lig‘i yoki shaxsiy erkinligi takrorlanmaydigan boylikdir. Konstitusiyamizning 26-moddasida, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

Inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlar oshkor bo‘lishiga olib keladigan, sog‘ligini xavf ostiga qo‘yadigan, asossiz ravishda unga jismoniy yoki ma’naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish ta’qiqlanishi shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish prinsipining mohiyatini tashkil



qiladi. [2] Konstitutsiyamizning 27-moddasi: “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart”.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik har bir shaxsning fundamental huquqlaridan hisoblanadi. Shunga ko‘ra, shaxs erkinligini cheklaydigan har bir harakat faqat qonun doirasida bo‘lishi lozim. [3]

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish bo‘yicha muhim institutlardan biri “Xabeas korpus akt” xalqaro darajada umume’tirof etilgan hujjat sifatida shaxs erkinligini ta’minlash yo‘lida o‘ziga xos yangi davrga asos solgan. Shaxs erkinligini ta’minlashni kuchaytirish maqsadida hibsga olish bilan bog‘liq jarayonlar sud qarori asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Shaxsni ushlab turish chog‘ida unga huquqlari va ushlab turish asoslarining tushuntirilishi – “Miranda qoidasi” – xalqaro huquqda umume’tirof etilgan norma bo‘lib, surishtiruv, tergov va sud jarayonlarida qonun buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

“Miranda qoidasi” o‘z tarixiga ega. 1966 yilda jinoyat sodir etgan E. Mirandani hibsga olgan AQSh Arizona shtati politsiyasi uni so‘roq qilishdan avval gumon qilinuvchi sifatida huquqlari tushuntirilmaganligi tufayli, keyinchalik uning aybga iqrorligi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi asosida chiqarilgan hukm AQSh Oliy sudida bekor bo‘lgan. “Miranda qoidasi”ga (inglizcha: Miranda warning) binoan shaxsni ushlab turish chog‘ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi, ayblanuvchi ayblovning mohiyati va asoslaridan xabardor qilinishi, shuningdek, sukut saqlash huquqidan foydalanishi, jinoyat ishlarida o‘ziga qarshi guvohlik berishga majbur qilinmasligi, malakali yuridik yordam ta’minlanishi talab etiladi.

Ko‘pchilik fuqarolarimiz tergov organlari tomonidan kimdir qo‘lga olinganida, u nima uchun ushlanganligi aytilmasligidan, aytilganida ham ushlab turish sabablari va aybnomaning asl ma’nosini tushunmasligidan shikoyat qiladilar. Ayrim hollarda, ushlangan shaxs o‘z huquqlarini bilmagan sharoitda tergov organlari tomonidan aybga iqrorlik ko‘rsatmalari berishga majburlanishi xavfi mavjud. Aynan protsessual ushlab turish vaqtida inson og‘ir ruhiy holatga tushadi va huquqiy yordamga ayniqsa muhtojdir, chunki u



bunday murakkab vaziyatda jinoyatda aybdor yoki aybsizligini isbotlash majburiyati unga emas, aksincha, tergov organlariga to'liq yuklatilganligini anglay olmaydi.

Muhimi, mazkur qoidaga ko'ra, shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi va bu til aynan uning ona tili bo'lishi shart bo'lmay, shaxs odatda muloqot qiladigan va yaxshi tushunadigan til bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu qoida ushlangan shaxsga uning huquqlari real ta'minlanishini kafolatlaydi va unga nisbatan tergov organlari tomonidan aldov, noto'g'ri ma'lumot berish va boshqa har qanday qonunga xilof usullar qo'llanilishining oldini oladi.

“Miranda qoidasi”ning mazkur talabi Ispaniya, Gresiya, Niderlandiya, Xorvatiya, Sloveniya va boshqa bir qator davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

Ushbu qoidaning Konstitutsiyaga kiritilishi shaxsning asossiz ushlanishi, advokat ishtirokisiz yoki o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majbur qilinishining oldini oladi. Ayniqsa, o'z huquqlarini yaxshi bilgan va talab qiladigan insonlarga nisbatan tergov vaqtida zo'ravonlik yoki qonunga xilof harakatlar qilish ehtimoli yanada pasayadi.

Konstitutsiyaning 28-moddasiga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini ta'minlashda aybsizlik prezumpsiyasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois Konstitutsiyamiz ushbu moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan quyidagi kafolat belgilanmoqda: “aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak”. [4]

Ta'kidlash lozimki, muayyan jinoyat ishi bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi tergov harakatlari, sud esa sud tergov orqali dalillar to'playdi.

Ayrim holatlarda to'plangan dalillarni baholashda ularga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin. Bunda, shubhalar ayblovi tomonga ishlatilishi kerakmi yoki himoya foydasigami, degan savol yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra ushbu insonparvar yangi norma bunday vaziyatda aybdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning foydasiga hal qilinishini qat'iy mustahkamlamoqda.

Shaxsni aybli ekanligiga oid har qanday shubhalar, shuningdek blash uchun yetarli



bo‘lmagan ma’lumotlar asosida shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas. Tergovda shubha ostidagi dalillar asosida ayb e’lon qilingan bo‘lsa ham, bunday vaziyatda shaxsni aybini tasdiqlovchi dalillarning yetarli emasligi tufayli sudda unga nisbatan oqlov hukmi chiqariladi. Ya’ni “isbotlanmagan ayb – isbotlangan aybsizlikka teng”, degan qoida amal qiladi. Aytish mumkinki, mamlakatimiz sudlari tomonidan so‘nggi 6 yilda 4 ming 700 nafardan ortiq fuqaro oqlangan.

Bunday normalar Ozarbayjon, Chexiya, Gruziya, Xorvatiya, Yaponiya, Slovakiya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida o‘rin olgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasiga kiritilayotgan mazkur normalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoidalar bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda natijada fuqarolarimizni asossiz va qonunga xilof jinoiy ta’qibdan himoya qiladi, tergov organlari tomonidan jinoyatda ayblanayotgan shaxslarning huquqlari buzilishining oldini oladi.

Konstitutsiyamizda aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan yana bir muhim kafolat, ya’ni “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin”, degan qoida mustahkamlanmoqda.

Aytish muhimki, jinoyatni fosh etish va uni sodir etgan shaxslarni aniqlash vazifasi kabi jinoyat bo‘yicha isbotlash majburiyati ham to‘laligicha tergov organlariga yuklatilgan.

Jumladan, dastlabki tergovda shaxsga nisbatan ayblov surishtiruvchi va tergovchi tomonidan e’lon qilinib, tergov harakatlari olib boriladi. Aynan shuning uchun ham shaxsni aybli yoki aybsizligini isbotlash majburiyati mazkur shaxslar zimmasidadir.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o‘zining jinoyatda aybliligi yoki aybsizligini isbotlash jarayonida ishtirok etishga majbur emas. Agar istasa, shaxs ushlangan vaqtdan to hukm chiqarilgunga qadar umuman sukut saqlashi mumkin – bu uning huquqi.

Odatda, shaxsga nisbatan jinoyat ishi ochilganda u og‘ir ruhiy holatga tushadi, o‘zini yo‘qotib qo‘yadi va shunday vaziyatda aybi bor yoki yo‘qligini isbotlash o‘zining emas, aslida tergov organlarining vazifasi ekanligini anglamay o‘ziga qarshi ko‘rsatmalar berishi amaliyotda uchrab turadi.

Shuningdek, sukut saqlash huquqiga bo‘lgan ehtiyoj jinoyat protsessining eng boshlang‘ich nuqtasida – shaxs jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlangan zahotiy oq yuzaga keladi. Ya’ni shaxsning erkinligi



cheklanishi bilan darhol unga sukut saqlash huquqi tushuntirilishi shart.

Mazkur huquq shaxsga o‘z advokati bilan ko‘rishmay turib, ish yuzasidan hech bir ma’lumotni oshkor qilmasligi orqali ayblovdan samarali himoyalanih pozitsiyasini shakllantirishi uchun muhimdir.

Sukut saqlash huquqiga oid bunday normalar Meksika, Misr, Gruzziya, Serbiya, Ozarbayjon, Armaniston va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida o‘rin olgan.

Mazkur kafolatning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi surishtiruv va dastlabki tergovda jinoiy ta’qib ostidagi shaxsni majburan iqrorlik ko‘rsatmalarini berishga undash va boshqa bu kabi qonunga xilof harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlab turish chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart”.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik har bir shaxsning fundamental huquqlaridan hisoblanadi. Shunga ko‘ra, shaxs erkinligini cheklaydigan har bir harakat faqat qonun doirasida bo‘lishi lozim.

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish bo‘yicha muhim institutlardan biri “Xabeas korpus akt” xalqaro darajada umume’tirof etilgan hujjat sifatida shaxs erkinligini ta’minlash yo‘lida o‘ziga xos yangi davrga asos solgan. Shaxs erkinligini ta’minlashni kuchaytirish maqsadida hibsga olish bilan bog‘liq jarayonlar sud qarori asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Shaxsni ushlab turish chog‘ida unga huquqlari va ushlab turish asoslarining tushuntirilishi – “Miranda qoidasi” – xalqaro huquqda umume’tirof etilgan norma bo‘lib, surishtiruv, tergov va sud jarayonlarida qonun buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

“Miranda qoidasi” o‘z tarixiga ega. 1966 yilda jinoyat sodir etgan E. Mirandani hibsga olgan AQSh Arizona shtati politsiyasi uni so‘roq qilishdan avval gumon qilinuvchi sifatida huquqlari tushuntirilmaganligi tufayli, keyinchalik uning aybga iqrorligi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi asosida chiqarilgan hukm AQSh Oliy sudida bekor bo‘lgan. “Miranda qoidasi”ga (inglizcha: Miranda warning) binoan shaxsni ushlab turish chog‘ida uning



huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi, ayblanuvchi ayblovning mohiyati va asoslaridan xabardor qilinishi, shuningdek, sukut saqlash huquqidan foydalanishi, jinoyat ishlarida o‘ziga qarshi guvohlik berishga majbur qilinmasligi, malakali yuridik yordam ta‘minlanishi talab etiladi.[5]

Ko‘pchilik fuqarolarimiz tergov organlari tomonidan kimdir qo‘lga olinganida, u nima uchun ushlanganligi aytilmasligidan, aytilganida ham ushlab sabablari va aybnomaning asl ma‘nosini tushunmasligidan shikoyat qiladilar. Ayrim hollarda, ushlangan shaxs o‘z huquqlarini bilmagan sharoitda tergov organlari tomonidan aybiga iqrorlik ko‘rsatmalari berishga majburlanishi xavfi mavjud.[6] Aynan protsessual ushlab vaqtida inson og‘ir ruhiy holatga tushadi va huquqiy yordamga ayniqsa muhtojdir, chunki u bunday murakkab vaziyatda jinoyatda aybdor yoki aybsizligini isbotlash majburiyati unga emas, aksincha, tergov organlariga to‘liq yuklatilganligini anglay olmaydi. [7]

Muhimi, mazkur qoidaga ko‘ra, shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi va bu til aynan uning ona tili bo‘lishi shart bo‘lmay, shaxs odatda muloqot qiladigan va yaxshi tushunadigan til bo‘lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu qoida ushlangan shaxsga uning huquqlari real ta‘minlanishini kafolatlaydi va unga nisbatan tergov organlari tomonidan aldov, noto‘g‘ri ma‘lumot berish va boshqa har qanday qonunga xilof usullar qo‘llanilishining oldini oladi.

“Miranda qoidasi”ning mazkur talabi Ispaniya, Gresiya, Niderlandiya, Xorvatiya, Sloveniya va boshqa bir qator davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

Ushbu qoidaning Konstitutsiyaga kiritilishi shaxsning asossiz ushlanishi, advokat ishtirokisiz yoki o‘ziga qarshi ko‘rsatma berishga majbur qilinishining oldini oladi. Ayniqsa, o‘z huquqlarini yaxshi bilgan va talab qiladigan insonlarga nisbatan tergov vaqtida zo‘ravonlik yoki qonunga xilof harakatlar qilish ehtimoli yanada pasayadi. [8]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 130-I-sonli

1984 yil 10 dekabrda Qiynoqlarga solishga va muomalada bo‘lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiyaga qo‘shilish haqidagi qaroriga muvofiq qo‘shilgan. O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 70 ta asosiy hujjatga qo‘shilgan, BMT tomonidan qabul qilingan 10 ta xalqaro shartnomaning bevosita ishtirokchisidir. Milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga xalqaro standartlarni tizimli va bosqichma-bosqich



implementasiya qilishning o‘z modeli, insonning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringi milliy tizimi shakllantirildi. [9]

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida potensial ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilsada, tizimlar faoliyatida kuch ishlatish, zo‘ravonlik holatlari ham uchrab turmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi 41-modda "Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish" ma'muriy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi deya eslatib o‘tilgan. Fuqaro o‘zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro‘sigacha putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo‘li bilan raddiya talab qilishga haqli." deb belgilab qoyilgan.

Manfaatdor shaxslarning talabiga ko‘ra fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Darhaqiqat, Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan vijdon erkinligi har bir fuqaroga biror dinga e’tiqod qilish yoki birorta dinga e’tiqod qilmaslik huquqini kafolatlaydi. Ammo dunyoning hozirgi globallashuv jarayoni, ayniqsa, yoshlarni «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yurtimizga kirib kelayotgan g‘ayriaxloqiy, buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan asrashni har qachongidan dolzarb vazifa qilib oldimizga qo‘ymoqda. Shu bois yoshlarning diniy bilimni boyitish, dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishning ahamiyati tobora ortayotib bormoqda. Yangi O‘zbekiston uchun yangilanayotgan Konstitutsiya hayotiy zarurat va adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadam bo‘lib, yurtimizda olib borilgan barcha sohadagi islohotlarning konstitusiyaviy himoyasini ta’minlash demakdir. Konstitutsiya asosi bitta ezgu g‘oya atrofida tubdan qayta yaratilganini ko‘rish mumkin. U ham bo‘lsa “Davlat – jamiyat – inson” degan prinsipning “Inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga aylanib, “Inson qadri uchun!” degan g‘oya ustuvorlikka ega ekanligi o‘z ifodasini topishi uchun biz yoshlar qo‘ldan kelgan barcha chora tadbirlarni o‘tkazishimiz zarur.

Bunda, fuqaroni birinchi marta davlat organlari tomonidan biron bir ishga gumon qilinuvchi sifatida jalb qilayotganda, unga birlamchi huquqlari tushuntirib berish sharti sanalgan “Miranda qoidasi” hamda “Xabeas korpus” (lot. habeas corpus) – “tanani sudga keltirish”, ya’ni jinoiy ta’qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqining tarixan eng qadimiy e’tiroflaridan biri hisoblangan normalar yanada keng joriy etilmoqda. Bularning barchasi hozirgi kunda o‘z id’fodasini topib kelmoqda.

REFERENCES

1. *Inagamova M.M.* Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
2. <https://parliament.gov.uz/news/insonning-shani-va-qadr-qimmati-daxlsizdir>
3. Qonunchilikning rasmiy <https://lex.uz/acts/-97664> sayti.
4. Qonunchilik rasmiy sayti <https://parliament.gov.uz/news/>
5. Qonuchilk rasmiy <https://lex.uz/docs/-644514>
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomas.
7. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/inson-qadr-qimmati-eng-oliy-qadriyat>.
8. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/yangilanayotgan-konstitusiya-inson-shani-va-qadr-qimmati-daxlsizligi-kafolatidir>.
9. <https://m.aniq.uz/uz/inson-qadr-qimmati-oliy-qadriyat>



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY TA’LIM MUASSASALARINING HUQUQIY ASOSLARI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova
(PhD), dotsent

Alisher Utkirjon o‘g‘li Muhtorjonov
Toshkent davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

O‘zbekistonda 2023-yil huquqiy tizimi uchun ko‘plab o‘zgarishlarga boy bo‘ldi. Bunga yaqqol misol sifatida Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlarni keltirsak bo‘ladi. O‘zbekiston dunyoviy davlat hisoblansa ham, unda ko‘plab diniy ta‘lim muassasalar mavjud hisoblanadi. Ularning huquqiy asosi sifatida esa eng avvalo Konstitutsiyaning 75-moddasini ko‘rsatsak bo‘ladi. Unga ko‘ra: ”Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi. Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi”. Diniy ta‘lim muassasalari ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham diniy qadriyatlar va ta‘limotlarni asrab-avaylash va targ‘ib etishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bunday muassasalarning huquqiy maqomiga e‘tibor kuchaymoqda, chunki mamlakatda jiddiy siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar davom etmoqda.

O‘zbekistonda ham boshqa davlatlar qatori diniy ta‘lim muassasalarini tartibga soluvchi o‘ziga xos qonun va me‘yoriy hujjatlar mavjud. O‘zbekiston hukumati mamlakatdagi diniy faoliyatni, jumladan, diniy ta‘lim muassasalari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Ushbu chora-tadbirlar bunday muassasalarning qonun doirasida faoliyat yuritishini, ekstremistik g‘oyalar va faoliyatni targ‘ib qilmasligini ta‘minlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda diniy ta‘lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunlardan biri “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonundir. 1998-yilda qabul qilingan va 2021-yilda qayta ko‘rib chiqilgan mazkur qonun diniy tashkilotlar, jumladan, ta‘lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslarini yaratadi. Mazkur qonunga ko‘ra, diniy ta‘lim muassasalari davlat ro‘yxatidan o‘tishi hamda diniy bag‘rikenglik va davlat ishlariga aralashmaslik tamoyillariga amal qilgan holda faoliyat yuritishi shart.



O‘zbekiston hukumati “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi [1] qonunda nazarda tutilgan huquqiy bazadan tashqari, diniy ta‘lim muassasalarini akkreditatsiya qilish va nazorat qilish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham chora-tadbirlar ko‘rdi. Mamlakatimizda diniy faoliyatni tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi Din ishlari bo‘yicha davlat qo‘mitasi diniy ta‘lim muassasalarini ro‘yxatga olish va akkreditatsiyadan o‘tkazish, ularning muayyan standartlarga javob berishi va qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qiladi.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda hukumat diniy jamoalar va yetakchilar, jumladan, diniy ta‘lim bilan shug‘ullanuvchilar bilan muloqotga tayyorligini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv hukumat va diniy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi munosabatlarning yanada ochiq va oshkora o‘rnatilishiga, shuningdek, ushbu institutlarning jamiyatdagi rolini yanada chuqurroq tushunishga olib keldi.

Milliy qonunchiligimiz tomonidan diniy ta‘lim muassasalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Bunga misol sifatida so‘nggi yillar davomida ishlab chiqilgan “Diniy ta‘lim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida nizom”, [2] “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3] Prezident farmoni, “Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, [4] “Toshkent islom universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” [5] Vazirlar Mahkamasi qarorlarini keltirsak bo‘ladi.

Yurtimizda dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Islom asoslari, Qur‘oni karim, hadisi sharif, tafsir, fiqh, aqid kabi ilmlarni o‘rgatishga mo‘ljallangan diniy bilim yurtlari ham talaygina. O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimida bitta oliy (Toshkent Islom instituti), 9 ta o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari (Toshkentda «Ko‘kaldosh», Buxoroda «Mirarab», Andijonda «Sayyid Muhyiddin Maxdum», Namanganda «Mulla Qirg‘iz», Kitobda «Xoja Buxoriy», Urganchda «Faxriddin ar-Roziy», Nukusda «Muhammad al-Beruniy», shuningdek Toshkentda «Xadichai Kubro», Buxoroda «Jo‘ybori kalon» ayol-qizlar bilim yurti) hamda imomlarni qayta tayyorlaydigan Imom al-Buxoriy xalqaro markazi mavjud.

1999 yildan faoliyatini boshlagan «Ko‘kaldosh» Toshkent islom o‘rta maxsus bilim yurti tizimdagi eng faol o‘quv muassasalaridan biri bo‘lib, unda ayni paytda 97 nafar talaba ta‘lim olmoqda. 4 yillik muddatda, shartnoma asosida (2012-2013 o‘quv yili uchun 2 200 000 so‘m) ta‘limni muvaffaqiyatli bitirgan toliblarga imom-xatib, dinshunoslik, boshlang‘ich arab tili va odobnoma murabbiysi mutaxassisliklari diplomi beriladi.

O‘zbekiston Musulmonlari idorasi tasarrufidagi Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti O‘zbekistondagi



yagona oliy diniy o‘quv yurti bo‘lib, unda dinlar tarixi va nazariyasini chuqur egallagan, Islom dini asoslarini dunyoviy fanlar bilan uyg‘un holda puxta o‘zlashtirgan, arab tilida so‘zlasha oladigan, Qur‘oni karimni to‘liq hifz etgan mutaxassislar tayyorlanadi. Ayni paytda institutda 176 nafar talaba ta‘lim olmoqda. Ularning 34 nafari ayol-qizlardir. Talabalarning 40 foizi murattab qori va qoriyalardir. [6]

Bu moddalarga o‘zgartirish kiritishda biz bir necha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalandik.”Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha Yevropa konventsiyasi” siga muvofiq fikr, vijdon va din erkinligi huquqi hech qanday shartlarsiz kafolatlangan. [7]

MDH davlatlaridan misol keltiradigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasining "Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar to'g'risida" Federal qonuniga ko‘ra:”Har kim o'zi tanlagan diniy ta'limni yakka tartibda yoki boshqalar bilan birgalikda olish huquqiga ega. Bolalarni tarbiyalash va o‘qitish ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolaning vijdon erkinligi va diniy e‘tiqod erkinligi huquqini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Diniy tashkilotlar o'z ustavlariga va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq ta'lim tashkilotlarini yaratish huquqiga ega”. [8]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda diniy ta‘lim muassasalarining huquqiy maqomi murakkab va rivojlanib borayotgan masaladir. Hukumat ushbu muassasalarni tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘ygan bo‘lsa-da, ularning to‘liq e‘tirof etilishi va qonun doirasida himoya qilinishini ta‘minlash bo‘yicha hali ham ishlar qilinishi kerak. O‘zbekiston o‘zining islohot va modernizatsiya yo‘lida davom etar ekan, diniy ta‘lim muassasalarining huquqiy maqomi va roli kelgusi yillarda ham muhim muhokama va rivojlanish mavzusi bo‘lib qolishi mumkin.

REFERENCES

1. (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son)
2. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.04.2018-y., 06/18/5416/1079-son, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son; 22.04.2021-y., 06/21/6212/0358-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son.
3. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.11.2018-y., 09/18/896/2148-son; 29.09.2020-y., 09/20/593/1340-son;



Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son;
08.05.2023-y., 09/23/193/0260-son)

4. "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konventsiyasi"

5. M.M. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1

6. М.М.Инагамова. Конституциявий ислохотларда инсон–жамият– давлат масалаларининг ривожланиш босқичлари / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. Т.: 2023. Б. 59-64

7. <https://cyberleninka.ru>

8. <https://lex.uz> milliy qonunchilik portal

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLARNI SIYOSIY HUQUQLARINING AYRIM JIHLTLARI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

(PhD), dotsent

Islom Sharofiddin o'g'li Sag'dullayev

Toshkent davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Ma'lumki, mustaqil mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi. Aynan shu huquqlari sabab, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini so'zsiz milliy qonunchilikka ratifikatsiya qilib kelmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro Paktga (1966 y.) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 127-I-sonli «1966 yil 16 dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida»gi qaroriga asosan qo'shilgan.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, fuqarolik va siyosiy huquqlar – bu shaxsning huquq va erkinliklarini hukumatlar, ijtimoiy tashkilotlar va xususiy shaxslar tomonidan buzilishidan himoya qilaligan, jamiyat va davlatning fuqarolik va siyosiy hayotida kamsitish va repressiyalarsiz ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydigan huquqlar sinfidir. [1]

Fuqarolik huquqlari shaxslarning jismoniy va aqliy yaxlitligini, hayoti va xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oladi hamda ularga irqi, dini, millati va boshqa shaxsiy xususiyatlaridan qat'i nazar, teng ijtimoiy imkoniyatlarni va qonun tomonidan baravar himoya qilishni ta'minlaydi. Ammo unutmash kerakki, ba'zi fuqarolik huquqlariga yashash, shaxsiy daxlsizlik huquqlari, so'z, harakatlanish, vijdon, shaxsiy hayot erkinligi va boshqalar kiradi.

Siyosiy huquqlar shaxslarning davlat va jamiyat hayotida erkin ishtirok etishiga imkon beradi. Bunga ovoz berish va davlat lavozimlarini egallash kiradi. Siyosiy huquqlarga ovoz berish huquqi, davlat lavozimlariga nomzod bo'lish huquqi, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazish huquqi, uyushmalar tuzish huquqi va boshqalar kiradi.

Fuqarolik huquqlari inson huquqlari sifatida universal bo'lsa-da, siyosiy huquqlar ko'pincha fuqarolar (faqatgina ma'lum bir davlat fuqarolari uchun) bilan cheklanadi.



Fuqarolik va siyosiy huquqlar turli xalqaro va mintaqaviy shartnomalar, davlatlarning milliy konstitutsiyalari bilan himoya qilinadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt ushbu huquqlarni xalqaro darajada himoya qilishni ta‘minlaydigan eng keng qamrovli shartnoma hisoblanadi. [2]

K. Yaspersning qayd etishicha, miloddan avvalgi IX – III asrlar oralig‘ida qariyb bir vaqtda bir-biridan mustaqil tarzda Sharqda – Xitoy, Hindiston, Eron, Falastinda va G‘arbda – Yunonistonda siyosiy huquqiy qarashlarni o‘zida mujassam etgan madaniy markazlar vujudga kelgan.

Insoniyat siyosiy tafakkurining g‘oyat kata shitob bilan o‘shida XVI-XIX asrlar oralig‘ida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ro‘y bergan iqtisodiy, ilmiy, siyosiy o‘zgarishlar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, italiyalik mutafakkir N. Makiavelli XVI asrda siyosiy fan, falsafa va axloqni bir-biridan aniq ajratib berdi. U siyosiy tadqiqotlarni mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida ajratib, davlat va hokimiyat masalalarini tahlil markaziga qo‘ydi, hokimiyat uchun kurash uslublarini ishlab chiqdi. Keyinroq esa Gobbs, Lokk, Monteskyo, Russo, Medison, Berk, Tokvil kabi mutafakkirlar tomonidan siyosiy tadqiqotlar yanada rivojlantirildi. [3]

Mamlakatimizning Bosh Qomusida ham yuqorida belgilangan normalar mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra fuqarolarning siyosiy huquqlar ya‘ni jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakilari orqali, o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi degan qat‘iy qoida mavjud.

Bu moddani kengroq sharhlaydigan bo‘lsak, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish – mamlakatimizda huquqiy, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omilidir.

Har bir fuqaro siyosiy huquqini saylov orqali ro‘yobga chiqaradi. Buning ma‘nosi shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘zlari saylab qo‘ygan vakilari, vakillik organlari bo‘lmish qonun chiqaruvchi organ- Oliy Majlis, xalq deputatlari tegishli Kengashlari hamda fuqarolarning o‘zini – o‘zi boshqarish organlari orqali davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etadi.

Shuningdek fuqarolar vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega bo‘lib, fuqaro tomonidan o‘z xohish – irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36- moddasiga ko‘ra fuqarolar muhim siyosiy huquq – faol saylov huquqiga, ovoz berish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yana bir muhim siyosiy huquqi – sust (ya’ni passiv) saylov huquqiga egaliklaridir.

Sust (passiv) saylov huquqi – saylanish huquqidir. Faol va sust saylov huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida belgilab qoyilgandir. Saylov kunigacha 25 yoshga to‘lgan respublikaning har qanday fuqarosi Oliy davlat vakillik organiga Oliy Majlisga, saylovgacha respublika hududida 10 yil yashagan, davlat tilini yaxshi biladigan, 35 yoshdan kichik bo‘lmagan fuqaro O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishi mumkin.

Demokratik, huquqiy davlat tamoyillaridan biri- fuqarolarning o‘z ijtimoiy faolliklarini erkin amalga oshirish huquqiga ega bo‘lishlaridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38- moddasi fuqarolarning ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqini e’tirof etadi va qonuniy jihatdan kafolatlaydi.

Davlat fuqarolarning ijtimoiy faolliklarini miting, yig‘ilish va namoyishlar shaklida amalga oshirishlari, o‘z fikrlarini erkin ifodalashlari uchun ularga siyosiy huquqlar beradi, binolar, ko‘chalar, maydonlardan, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishlari uchun imkoniyat yaratadi, ularni tinch va osoyishta amalga oshishini ta’minlash uchun huquq- tartibot, o‘t o‘chirish va tibbiy yordam xizmatlarini shay qilib qo‘yadi.[4]

Hokimiyat organlari miting, namoyish va yig‘inlar joyini belgilaydi, boshlanishi va tugashini nazorat qiladi.

Bu tadbirlar hokimiyatni o‘zboshimchaligi natijasi emas, balki ular huquqiy aktlar bilan qat’iy mustahkamlangandir. Bu g‘arb mamlakatlarining huquqiy dasturlarida ham belgilab qoyilgan. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining Oliy Sudi jamoat tartibini saqlash maqsadida namoyish va mitinglar o‘tkazish joyi, vaqti va shaklini bekgilash tartibi haqida qaror qabul qiladi.

Avstraliya va Belgiyada yig‘ilishlarni faqat ochiq havoda (ko‘cha, maydon va dam olish xiyobonlarida) o‘tkazish qoidasi mavjud. Fransiyada esa ko‘cha va maydonlarda namoyish va mitinglarni o‘tkazish mutlaqo taqiqlangan. Ispaniya, Daniya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda palitsiya har qanday miting va namoyishni tarqatib yuboradi, kerak bo‘lsa namoyishchilarga qarshi jismoniy kuch ham ishlatadi. [5]

Amaldagi qonunchilikda sanksiyalanmagan namoyishlar, mitinglar va ko‘cha yig‘inlarini tashkil etganlik va o‘tkazganlik

uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. O‘zbekistonda hukm surayotgan asoyishtalik, diniy va milliy hamjihatlik, tolerantlik O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38- moddasining hayotiy ekanligini isbotlab kelmoqda.

REFERENCES

1. M.M.Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. “.O‘zbekiston”, 2019, 9 - 17 betlar.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. T.,“.O‘zbekiston”, 2008, 94-196 betlar.
4. M.M. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1
5. Siyosatshunoslik T. “Toshkent” 2-10 betlar.



YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI KONSTITUTSIYASI: EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING HUQUQIY POYDEVORI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova
(PhD), dotsent

Abbos Rustam o'g'li Egamberganov
Toshkent davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Bugungi kunda insoniyat to'qnash kelayotgan eng katta muammolardan biri – hech shubhasiz, ekologik muammolardir. Bu muammo so'nggi vaqtlarda nafaqat olimlar, soha mutaxassislari balki xalqaro tashkilotlar hamda siyosatchilar tomonidan ham insoniyat kelajagiga halokatli xavf soladigan muammolardan biri deb baholanmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan “yashil iqtisodiyot”ga o'tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiyadir. Zotan, “yashil o'sish” ko'plab davlatlarning maqsadi global ekologik muammolarni hal qilishning muhim vositasi sifatida Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Ma'lumki, hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan davlatlar, tabiatdagi global o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'z Konstitutsiyalariga ekologiyani va atrof-muhitni asrab avaylashga oid maxsus normalarni kiritganliklarini ijobiy deb baholash mumkin. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda «...Konstitutsiyada ekologik huquqlari to'g'risidagi moddalarning kiritilishi “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilini to'la ro'yobga chiqarish imkonini yaratadi». [1]

Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha sohalar qatori atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta'siri oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar barqaror rivojlanish kafolati bo'lmoqda. Bu islohotlarning huquqiy asoslari esa Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan. Xususan, Konstitutsiyamizning Muqaddimasidayoq «...mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib», mazkur masalaga davlat siyosati darajasida urg'u berilayotganligi tahsinga sazovordir.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik



maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi. [2]

Shuningdek, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha zarur choralar ko'rishi belgilab o'tilgan.

birinchidan, fuqarolarning ekologik burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanadi; ikkinchidan, Konstitutsiyaning ushbu normalari nafaqat fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish, balki ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga hamda ekologik xavfsizlik muammolarining oldini olishga xizmat qiladi. [3]

Bugungi kunda dunyodagi ekologik muammolar zudlik bilan yechimlarni talab qilmoqda. Avvalo, yuqorida aytib o'tilganidek, inson omiliga e'tibor qaratish lozim. Tabiat bilan uyg'unlashib, odamlar endi unga faqat iste'molchi sifatida qarashmaydi. Keyinchalik, umumiy ko'klamzorlashtirish bo'yicha bir qator choralarni ko'rish zarur. Bu ishlab chiqarishda va kundalik hayotda yangi ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarishni talab qiladi, barcha yangi loyihalarni ekologik ekspertizadan o'tkazish talab etiladi va chiqindisiz yopiq tsikli ishlab chiqarishni yaratish talab etiladi.

Atrof-muhit muhofazasiga jamiyatning barcha kuchlarini jalb etish hamda butun dunyo hamjamiyati tan olgan milliy tashabbuslarni tatbiq etish jarayonlarini yanada kuchaytirish bo'yicha konstitutsiyaviy asoslarni belgilab qo'yish lozim. Chunki konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Umuman olganda, Konstitutsiya mamlakatimizda insonning qulay atrof-tabiiy muhitga ega bo'lish va mamlakatning ekologik xavfsizligini kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylangan. Zotan, unda ekologiya sohasidagi konstitutsiyaviy va xalqaro talablarni

mustahkamlash nafaqat mamlakatda, balki mintaqa mamlakatlari ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. [4]

Bir qator yo'nalishlarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

- atrof tabiiy muhit obyektlaridan oqilona foydalanish va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta'minlash;

- iqtisodiy faoliyatning atrof muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirini pasaytiruvchi innovasion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish;

- iqtisodiyotning barcha sohalarini "yashil" iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat yuritishdir.

Albatta, bu vazifalarning hal etilishi O'zbekiston taraqqiyoti, xalq farovonligi va kelgusi avlod uchun ekologik barqaror vaziyatni asrab qolish, musaffo ekologik muhit yaratishda o'ta muhim o'rin tutadi.

Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. [5]

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Biroq, ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta'limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

barcha turdagi ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o'quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti;

amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan;

ekologik ta'lim yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish, ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan;

ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta

tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan;

ta’lim dasturlari to’liq qayta ko’rib chiqishga muhtoj, jumladan, ular respublikada so’nggi vaqtlarda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan islohotlardan kelib chiqib tubdan takomillashtirilishi lozim.

Shu munosabat bilan aniq maqsad va vazifalarni hamda yo’nalishlarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ekologik ta’lim tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. [6]

Konstitutsiyada O‘zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo‘lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Ma’lumki, konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o‘rni va ahamiyati beqiyos. Aynan asosiy qonunda davlat organlari va jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini shakllantirish bo‘yicha asosiy prinsiplari mustahkamlanadi, fuqarolarning ekologik burchlari belgilanadi, jamiyatning ekologik barqaror rivojlanishining ustuvor yo’nalishlari o‘rnatiladi.

Konstitutsiyaviy normalar tizimi jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqalari chog‘ida yuzaga keladigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tavsifidan kelib chiqib, shartli ravishda ikki qismga – umumiy va maxsus ekologik normalarga bo‘linishi mumkin.

Konstitutsiyaviy normalar demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda, ekologik huquq-tartibotni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan tashqari Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining vakolatlari ham belgilangan bo‘lib, ushbu normalar mazkur organlarning ekologiya sohasidagi vakolatlarining huquqiy maqomini belgilovchi milliy qonun hujjatlarining rivojlanishi uchun asos bo‘ladi.

Umumiy konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati yana shu bilan belgilandiki, birinchidan, ularda ekologik munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinadi; ikkinchidan, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga bo‘lgan asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Shu o‘rinda amerikalik huquqshunoslar mamlakat Konstitutsiyasini ekologiya huquqi normalari shakllanadigan huquqiy tizim uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi “bilvosita manbaa” sifatida ta’riflaydilar. AQShning ekologik qonunchilikni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim



bo'lgan barcha umumiy konstitutsiyaviy normalarini uch yirik guruhga ajratishimiz mumkin: 1) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshirish bo'yicha Kongress vakolatlarini belgilovchi normalar; 2) ushbu vakolatni chegaralovchi normalar; 3) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan fuqarolarning huquqlariga oid normalar. AQSh ekologik qonunchiligida asosiy o'rinni konstitutsiyaviy qoidalarni sud sharhi egallaydi hamda u ekologik munosabatlarni har qanday sohada qo'llashni nazarda tutadi.

O'z davlatimizga to'xtalsak. Ushbu konstitutsiyaviy norma davlat ekologik faoliyatining quyidagi asosiy prinsiplarini ifodalaydi:

Birinchidan, respublika tabiiy resurslari umummilliy boylik hisoblanadi, ya'ni yuridik ma'noda ular xalq mulkini tashkil etadi hamda ular nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonunda belgilangan vakolatlari doirasida ish yuritadi.

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur. Ekologiya huquqida oqilona deganda, tabiiy resurslardan ekologik normativ va standartlarga qat'iy rioya etgan holda foydalanish tushuniladi.

Uchinchidan, tabiat ob'ektlari va resurslari davlat tomonidan qo'riqlanadi. Bu davlat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni ta'minlashini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ekologik huquq va manfaatlariga, shuningdek ekologik huquq-tartibotga rioya etilishini kafolatlashini anglatadi.

Bir qator xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining tahlili ularda ekologik-huquqiy normalar turlicha tartibga solinganligidan guvohlik beradi. Xususan:

1. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida davlatning tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash singari mustaqil funksiyalari mavjudligi mustahkamlangan (GFR Konstitutsiyasining 15-moddasi, Bolgariya Konstitutsiyasining 31-moddasi va b.q.).

2. Tabiiy obyektlar va resurslarga nisbatan davlatning mutlaq mulk huquqi belgilab qo'yilgan (Vengriya Konstitutsiyasining 8-moddasi, Ruminiya Konstitutsiyasining 12-moddasi va b.q.).

3. Xalq xo'jaligini va tabiatdan foydalanishni rivojlantirishda xalq xo'jaligini rejalashtirish, xom-ashyo va resurslarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olish, ularning rejali taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish kabi normalar mustahkamlab qo'yilgan. (Vengriya Konstitutsiyasining 7-moddasi va sh.k.).

4. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini shakllantirish. Ayni damda ta'kidlash o'rinliki, ko'p hollarda fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitda yashash huquqi ayni damda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish



majburiyati bilan bog‘lanadi (GFR Konstitutsiyasining 34-moddasi va sh.k.).

5. Tabiatni muhofaza qilishda jamoat birlashmalari va harakatlarning o‘rni mustahkamlangan (GFR Konstitutsiyasi 29-moddasi, Ruminiya Konstitutsiyasi 24-moddasi va b.q.).

6. Davlatning mamlakat va jamiyatning tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha ichki va tashqi siyosatiga oid prinsiplarining yaxlitligi (Vengriya Konstitutsiyasining 20-moddasi va h.k.).

Shuningdek, Avstriya, Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Litva, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya va Estoniya kabi davlatlarda fuqarolar va davlatning ekologiya sohasidagi huquq va majburiyatlari aniq-ravshan belgilab berilgan. Xususan, Gretsiya Konstitutsiyasi (1975 y.) 24-moddasida “Tabiiy va madaniy atrof muhitni muhofaza qilish davlatning majburiyati hisoblanadi”, deb belgilangan. Avstriyada esa, “Atrof muhitni har tomonlama muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Federal Konstitutsiyaviy qonun (1920 y.) amal qilishi ushbu mamlakatning atrof muhitni kompleks muhofaza qilishga intilayotganligidan dalolat beradi. GFR Konstitutsiyasi 20a-moddasida ham davlat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishi, bugungi avlod kelajak avlod oldida ma’sul ekanligi uqtirilgan. Italiya ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha vazifa davlat zimmasiga yuklangan. Italiya Konstitutsiyasi 9-moddasida (1947 y.) ta’kidlanishicha, “Respublika mamlakat tabiatini muhofaza qiladi”. Hindistonda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilashga harakat qilishga majbur ekanligini hamda bu har bir Hindiston fuqarosidan talab qilinishini belgilaydi.

Turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy-ekologik normalarining qisqacha tahlili Konstitutsiyada davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish hamda qonunni qo‘llash madaniyati ekologik barqaror rivojlanishga imkon berishini yana bir karra tasdiqlaydi. Xuddi shuningdek, qiyosiy tahlil ko‘rsatganidek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy ekologik-huquqiy normalar eng ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasiga mos bo‘lib, mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta’minlashga, atrof muhit musaffoligini saqlashga, tabiatni hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilmoqda. [7]

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar — tabiatdan foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishga qarshi jinoyatlar. Ekologiya insonni tabiat bilan bog‘lab turadigan ijtimoiy holatdir. Bunday bog‘liklik, o‘z navbatida, g‘ayriqonuniy xattiharakatlar orqali huquqbuzarliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu xildagi huquqbuzarliklar Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning ham kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonda tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid qonunqoidalar, yuridik normalar ishlab chiqilgan.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 6-iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2023-yil 24-avgustda ma’qullangan. Bu qonunning asosiy maqsadi-Ushbu Qonunning maqsadi o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. [8]

25.08.2021 yildagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-711-son Qonun qabul qilindi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda suv ob’yektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yish shartlari to‘g‘risidagi talablarni buzganlik uchun fuqarolarga 3 BHMdan 5 BHMgacha, mansabdor shaxslarga esa 5 BHMdan 10 BHMgacha jarima solinishi belgilandi. Suvlarning hamda suv ob’yektlarining holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi gidrotexnika ishlarini va boshqa ishlarni o‘zboshimchalik bilan bajarganlik uchun ham xuddi shunday jazo choralari qo‘llaniladi.

MJTK quyidagi moddalar bilan to‘ldirildi: 79-«O‘simlik dunyosi ob’yektlarini yig‘ish, tayyorlash va ulardan foydalanish tartibi va shartlarini buzish» hamda 86-«Ozon qatlamiga zararli ta’sir ko‘rsatishning oldini olishga doir talablarni buzish».

Dala va aholi punktlarida ang‘iz, xazon va shox-shabbalarni yoki o‘simliklarning boshqa qoldiqlarini yoqib yuborish, atmosfera havosini zararli moddalar bilan ifloslantirishga olib kelsa, xuddi shunday huquqbuzarliklar ma’muriy jazo chorasini qo‘llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, fuqarolarga 5 BHMdan 7 BHMgacha, mansabdor shaxslarga esa – 10 BHMdan 15 BHMgacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

96-«Loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizasining ijobiy xulosasiz ro‘yobga chiqarish» moddasida nazarda tutilgan sanksiyalar endi fuqarolarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

111-«Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish» moddasiga o‘zgartirishlar kiritildi:

hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish, ya’ni ularni g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda qiynoqqa solish yoki ularga azob berish,

- 3 BHMdan 5 BHMgacha jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasini qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa yoxud ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxs hozirligida sodir etilgan bo‘lsa yoki hayvonlarning o‘limiga yoxud mayib bo‘lishiga olib kelsa,

- bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Endi hayvonlarga nisbatan ularning o'limiga yoxud mayib bo'lishiga olib keladigan holatda shafqatsiz munosabatda bo'lganlik uchun javobgarlik Jinoyat kodeksida ham belgilanadi. [9]

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi qabul qilingan kodekslarda ham belgilangan javobgarliklar o'z aksini topgan. Bunga misol qilib Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning mazkur moddasini ko'rsatishim mumkin:

Suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini buzish

Tabiiy suv oqimlari (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar), suv havzalari (ko'llar, dengizlar) va boshqa tabiiy suv obyektlaridan olinadigan suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini, suv olish limitlarini buzish, suvlarning hamda suv obyektlarining holatiga ta'sir ko'rsatuvchi gidrotexnika ishlarini va boshqa ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarish, shuningdek loyihada nazarda tutilgan baliqlarni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalari bo'lmagan holda ulardan suv olishni amalga oshirish,

Sun'iy suv oqimlari (ochiq va yopiq kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari), suv havzalari (suv omborlari, sel suvlari to'planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) hamda boshqa sun'iy suv obyektlaridan olinadigan suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini buzish, ya'ni suvdan xo'jasizlarcha foydalanish, suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi gidrotexnika ishlarini va boshqa ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarish, suv obyektlaridan belgilangan suv olish limitlari, suvdan foydalanish va suv iste'moli rejalarini buzish. [10]

Jinoyat kodeksidan ham misol keltirishim mumkin:

Sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm-fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanish normalari va qoidalarining mansabdor shaxs tomonidan buzilishi, yoxud davlat komissiyasining a'zolari tomonidan bu obyektlarni normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarni buzib qabul qilinishi insonning o'limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta'sir qiladigan darajada atrof muhitning o'zgarib ketishiga yoki boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. [11]

Chet davlatlarning mazkur sohadagi qabul qilayotgan qonunlari ham bu sohadagi jinoyatlarning asosli ravishda ko‘p ekanligidan va tabiatni asrab avaylashga qaratilganidan dalolat beradi.

Yevropa Ittifoqi ekologik jinoyatlar uchun jazoni kuchaytiradi

Yevroparlament va Yevropa Ittifoqi davlatlari atrof-muhitga qarshi jinoyatlar ro‘yxatini kengaytirdi va ularga nisbatan jazo choralarini kuchaytirdi. Odamlar o‘limiga olib keladigan ekologik jinoyat uchun aybdorlar 10 yillik qamoq jazosiga hukm qilinadi. 2023-yil 16-noyabr kuni Yevroparlament va Yevropa Ittifoqining ekologik kengashi ekologik jinoyatlarga qarshi kurash bo‘yicha yangi direktiva bo‘yicha kelishib oldi, deb xabar berdi Yevropa komissiyasi.

Hujjatda atrof-muhitga qarshi jinoyatlar ro‘yxatini kengaytirish va ularga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish, shuningdek, ekologik jinoyatlarga aniqroq ta‘rif berish nazarda tutilgan.

“Yangi qonunchilik bazasi jiddiy ekologik huquqbuzarliklar jazosiz qolmasligini ta‘minlaydi. Bu atrof-muhitning ifloslanishi va degradatsiyasining oldini oladi hamda kelajak avlodlar uchun tabiatimizni asrab-avaylashga xizmat qiladi”, — deyiladi YeK bayonotida.

Umuman olganda, ekologik jinoyatlar ro‘yxati 9 tadan 18 ta bandga kengaytirildi. Noqonuniy daraxt kesish yo‘li bilan olingan yog‘ochning noqonuniy muomalasi, kema qismlarini noqonuniy utilizatsiya qilish, kimyoviy moddalardan foydalanish va utilizatsiya qilish qoidalarini buzish shular jumlasidandir.

O‘limga olib keladigan qasddan ekologik jinoyatlar uchun Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida shaxslar kamida 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilishi mumkin. Boshqa qasddan ekologik jinoyatlar uchun jazo 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilanadi.

Atrof-muhitga qarshi jiddiy jinoyatlar sodir etgan kompaniyalar global tovar aylanmasining kamida 5 foizi miqdorida jarimaga tortiladi yoki 40 million yevro to‘laydi. Kamroq jiddiy ekologik qoidabuzarliklar uchun jarima kompaniya umumiy aylanmasining 3 foizini yoki 24 million yevroni tashkil qiladi – deyilgan Yevropa Ittifoqi bayonotida. “Ekologik jinoyatlar atrof-muhitga, salomatligimizga, shuningdek, iqtisodiyotimizga katta zarar yetkazadi. Jinoyatchilar juda uzoq vaqt davomida kuchsiz sanksiyalar va jazo muqarrar emasligidan foyda ko‘rdi”, — dedi Yevropa Ittifoqining atrof-muhit bo‘yicha komissari Virjiniyus Sinkevichius erishilgan kelishuvlarni sharhlar ekan. [12]

Joriy yilning 9 oyida ekologiya sohasida qancha qonun buzilish aniqlandi? Bu borada ham izlanib ko‘rdim:



AOKAda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi mutasaddilari ishtirokida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Tadbirda ekologik nazorat reydlarida hamda brakonyerlikka qarshi kurashishda aniqlangan holatlar haqida ma'lumot berildi.

Qayd etilishicha, o'tgan 9 oy mobaynida sohaga oid qonunchilik hujjatlari talablarini buzgan 34 275 nafar shaxs aniqlandi. 32 mlrd. so'm ma'muriy jarima va tabiatga yetkazilgan zararlar hisoblanib, 16,3 mlrd. so'm undirib olindi. 1365 ta holat bo'yicha 15 mlrd. so'm jarima va tabiatga yetkazilgan zararlarni undirish yuzasidan tayyorlangan materiallar huquqni muhofaza qilish organlariga kiritildi. 12 ta holat bo'yicha 1,6 mlrd. so'mlik da'volar yuzasidan qonunbuzarlik sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha ish qo'zg'atildi.

Huquqbuzarlardan 376 dona hayvon va parranda, 1 900 kg baliq, 49 637 kg dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklar, 1520 m³ o'tin, 45 ta ov qurol va 570 ta aslaxa va boshqa inventarlar olib qo'yilgan. Inspeksiya tomonidan 23 ta idoraviy xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, natijasi bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va xodimlarga chora ko'rish yuzasidan tegishli takliflar kiritildi va ijroga qaratildi. [13]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,

Orol dengizining qurishi tufayli kelib chiqqan ekologik vaziyat;

ko'p yillik paxta yakkahokimligi, ma'danli o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini me'yoridan ortiq ishlatish, flora va faunaning degradatsiyasi tufayli vujudga kelgan tuproq va suv resurslari sifatining qoniqarsizligi;

tuproq, suv, biologik resurslar va atmosfera havosi sifatiga antropogen, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishi ta'sirining kuchayishi;

sanoat va maishiy chiqindilarni to'plash, tashish va qayta ishlash tizimining qoniqarsizligi;

atrof-muhit holati va uni ifloslantirish manbalari axborot monitoringining texnik va metodik ta'minoti rivojlanmaganligi va shu kabi muammolarning yechimlarini topish uchun ana shunday konstitutsiyaviy normalar asosida ishlash kerak va atrof-tabiiy muhit, ekologiyani asrashga qaratilgan bunday qonunlarni ko'paytirish kerak va ijrosini ta'minlashimiz kerak.

REFERENCES

1. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligiga bag'ishlangan bayram tabrigida
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-modda.
3. A.Xolbekov. Ekologik barkarorlikni ta'minlash davr talabi

4. Xushvaqto'v Islam Nortashovich- Konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.05.2019 yildagi 434-son
6. M.M.Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
7. M.M. Inagamova. M.E.Fahriddinov. Konstitutsiya – inson qadri va adolat ustuni / «O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1
8. M.M.Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
9. www.gazeta.uz
10. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 193-modda
11. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 74-modda.



YANGI O'ZBEKISTONDA YANGI KONSTITUTSIYA ORQALI HUQUQIY YANGILANISH

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

(PhD), dotsent

Farruxbek Niyozmurod o'g'li Erkinjonov

Toshkent davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizda ijobiy yangilanishlar, fuqarolarga ko'pdan ko'p yangiliklar va ularning huquqlarini izchil himoya qiladigan shu jumladan bir necha yillardan buyon dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelayotgan shaxsning intellektual huquqiy daxlsizligini taminlaydi (Yangi Konstitutsiyaning 31-moddasi). Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda bu moddaning konstitutsiyaga kiritilishi insonlarning yashash erkinligining kafolatlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Taniqli fizik olim Albert Eynshteyn "Konstitutsiyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qat'iyat bilan intilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo'shishni o'z burchi deb bilsagina himoya qilinadi", [1] deb Konstitutsiya kuchi haqida o'z fikrlarini bildirgan. Amerikalik huquqshunos, AQSh Oliy sudining uzoq yillar a'zosi bo'lgan Oliver Vendell Xolms "Konstitutsiyalar nazariyalarni qo'llab-quvvatlash uchun emas, balki amaliy va moddiy huquqlarni saqlash uchun mo'ljallangan, deb ta'kidlaydi. Amerikalik huquqshunos va siyosatchi Edvard Mur Kennedi esa "Konstitutsiya nafaqat biz bilan hamohang bo'lgan qarashlarni himoya qiladi, u shuningdek, biz norozi bo'lgan qarashlarni ham himoya qiladi", deya qiziqarli fikrlarini aytib o'tgan. Akademik, yuridik fanlar doktori, professor A. Saidov "Konstitutsiya huquqiy bilimlarning alifbosidir", degan chuqur huquqiy-falsafiy fikrlarni bayon etgan holda, mamlakatimiz Konstitutsiyasini o'rganish va bilish, unga rioya qilish va asosiy qonunimiz bilan faxrlanishni albatta zarur deb hisoblaydi. Yangilangan Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak



avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo’shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko’paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo’shni davlatlar bilan do’stona munosabatlarini hamkorlik, o’zaro qo’llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko’p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda har bir moddaning qabul qilinishida aholi vakillari mas’uliyat bilan ishtirok etishlari kerak ekanligini tushuntirish ishlarni yanada jadallashtirish kerak ekanligini aytib o’tmoqchimiz. [2] Xalqimizda “Kengashli to’y tarqamas” degan g’oyat ibratli bir maqol bor. Ijtimoiy hayotimizning qaysi bir jihatiga e’tibor qaratmaylik, mana shu hikmatga amal qilinishini kuzatishimiz mumkin. Qaysi bir joyda ibratli bir ish bo’lsa, u kengashilgan tadbirning natijasi ekaniga guvoh bo’lamiz. Bu bejiz emas, zotan biz ulug’vor o’tmishimizdan shunday saboq olganmiz. Sohibqiron Temur o’z tuzuklarida shunday ta’lim beradi: “Davlat ishlarining to’qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur... Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to’g’ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin... Har kimdan so’z olib kengash so’rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o’ylab ko’rgach, to’g’ri va savoblirog’ini tanlab olardim”. Bu haqda mashhur nemis tarixchisi F.Shlosser ham shunday ma’lumot beradi: “... sarkarda, hokim va qonunchi sifatida buyuk talant egasi edi. Yolg’onni yomon ko’rar, bilimga muhabbat qo’yishdan mahrum emas edi. Uning manzilida shoirlar, olimlar, mashshoqlar va mistiklar (so’filar) ko’p bo’lardi... u odil sudya, ilm-fan do’ssti, birga suhbatlashishni xush ko’radigan, rassomlar va olimlarning homiysi edi”. Bu fikr to’g’ridan-to’g’ri xalqning xohish-irodasini qonunlarda ifoda etish, bayoni uning tomonidan saylangan vakillar orqali bajarilishi lozimligini bildiradi. Shuning uchun ham “Davlatning yagona manbai xalq” degan qoida barcha zamonlarda o’z dolzarbligini saqlab kelgan. Jan Jak Russo: “Qonunga itoat etguvchi xalq uning ijodkori ham bo’lmog’i lozim” deydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi”, [3] deb ta’kidlagan



edi. Darhaqiqat, suveren Respublikamiz Konstitutsiyasi - inson va fuqaro huquqlarining demokratik xartiyasi bo'lib, u huquqiy va insonparvar davlatni shakllantirishning strategik dasturi vazifasini o'tab kelmoqda. Konstitutsiya - davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalq xohish-irodasining oliy ifodasi sifatida maydonga chiqdi. U eng taraqqiy topgan, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga tayanish bilan birga, tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan huquqiy hujjat. Bugun yurtimiz haqida fikr yuritilganda "Yangi O'zbekiston", "Taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib borayotgan mamlakat" kabi sharafbaxsh iboralar ishlatilyapti. Bu qo'lga kiritayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimizning amaliy samarasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil harakatdamiz. Yuksalish esa raqamli iqtisodiyotga o'tish, ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar bilan boyitish, shu bilan birga o'zligimizni, ma'naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, har bir yurtdoshimiz bugun mamlakatimizda barq urib turgan bebaho ne'mat - tinchlik, totuvlik, barqarorlikning qadriga yetib, Uchinchi Renessans davri poydevoriga g'isht qo'yish, ya'ni yurtimiz taraqqiyotiga munosib xissa qo'shish uchun astoydil harakat qilmog'i lozim. [5]

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, bugungi, har tamonlama rivojlanib bora-yotgan dunyoda, yetakchi va ilg'or mamlakatlar qatoridan o'z o'rniga ega bo'lish uchun zamon ruhi bilan hamnafas bo'lgan, har jabhada mukammal, ijtimoiy davlat qurishga asoslangan, oddiy xalq vakillarining muammolarini yechishga qodir bo'la oladigan qonun tizimi bo'lmog'i zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, maqsadi, ruhi - har bir qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan o'zbekona va sharqona davlatni idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analarini o'zida to'la mujassamlashtirgan. [6] Prezidentimizning "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak - avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi" [7], degan fikrlari xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analari davom



etayotganligining amaliy isbotidir. Yangi O'zbekiston Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy qadriyatlarimizni adolatli ijtimoiy jamiyat, inson qadir qimmat va intellektual huquqlarini himoya qiladigan va qo'llab quvvatlaydigan jamiyat qurish yo'llarini belgilab beradi. [8]

Xuddi mana shunday yuqorida ta'kidlaganlarimizni umumlashtirgan holda, bugungi zamon ruhiga mos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yangilangan tahriri o'zbek xalqi tomonidan referendumda tasdiqlandi. Yangilangan konstitutsiyamizda xalqimiz uchun bir qancha yangiliklar yaratildi. Inson qadr-qimmat yuqori o'ringa ko'tarildi. [9] Shuningdek asrlar mobaynida sharaflı kasb hisoblanib kelgan - o'qituvchilarning huquqlari yangilangan qomusimizda belgilab qo'yildi. Yillar mobaynida majburiy mexnatga jalb qilingan, o'z kasbi bo'lmish barkamol avlodni yetishtirish qolib dalada paxta tergan o'qituvchilarning qadr-qimmat adolatli tarzda o'z o'rniga qo'yildi. Shu jumladan yangilangan qomusimizda inson ilmiy salohiyatli, o'z aqliy mehnat mahsulini himoyalay olish huquqiga ham ega bo'ldi. [10] Qisqa qilib shuni ayta olamiz-ki, yangilangan konstitutsiyamiz muhtaram prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy davlat qurishning asosiy kaliti bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

REFERENCES

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi;
2. "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi". *Lex.uz*. 01.05. 2023-yil.
3. М.М.Инагамова. Конституциявий ислохотларда инсон-жамият- давлат масалаларининг ривожланиш босқичлари / «O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. Б. 59-64.
4. М.М. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=gLFISCAAAAAAJ&citation_for_view=gLFISCAAAAAAJ:qjMakFHDy7sC



5. „Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o‘zgarish“. Kun.uz. 02.05. 2023-yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80. b.
7. Konstitutsiya – xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli ilmiy maqola.
8. “Yangilanayotgan Konstitutsiya – yurtimiz va xalqimizning farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos bo‘ladi” <https://parliament.gov.uz/> 10.03.2023-yil
9. <https://parliament.gov.uz/>
10. <https://constitution.uz/>



YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA DAVLAT ORGANLARI VA JAMOATCHILIK NAZORATI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

(PhD), dotsent

Abdumurod Shavkat o'g'li Ashurov

Toshkent davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Jamoatchilik nazorati demokratiya va xalq hokimiyatchiligi prinsiplarining eng muhim institutlaridan bo'lib, u orqali davlat muassasalari va ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatiladi va shu asosda fuqarolarning huquq va manfaatlari ta'minlanadi.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, jamoatchilik nazorati davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga muvofiq faoliyatini nazorat qiladi.

Yaqin tarixga nazar solsak, jamoatchilik nazorati instituti Konstitutsiyamizga 2014-yilda alohida huquqiy maqom sifatida kiritildi.

Shubhasiz, bu huquqiy institut dunyoning boshqa davlatlarida ham milliy qonunchilikning ajralmas qismi sifatida shakllangan. Bunga yorqin misol qilib Buyuk Britaniyani ko'rsatish mumkin.[1]

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.(36-modda).

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi. Shubhasiz ayni shu sanadan boshlab bu institutda yangi va yuksakroq davr boshlandi. [2]

Bir necha yildan so'ng, 2018-yilning 13-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi" qonuni kuchga kirdi va ayni shu qonun orqali jamoatchilik nazorati sohasidagi amaliy ishlar bilan bog'liq "huquqiy bo'shliqlar" to'ldirildi. Joriy qonun 21 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasiga ko'ra, ushbu qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish

hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Shubhasiz, davlat organlari, undagi mansabdor shaxslar, davlat xizmatchilari ustidan jamoatchilik nazorati olib borilishi doimo qonuniylik va demokratizm prinsiplariga ko‘ra o‘zining jamiyat va davlat uchun xarakterli faktor sifatidagi rolini yo‘qotmagan. Xo‘sh, qonunchilik va davlat boshqaruvi sohalaridagi bu kabi muhim, katta va murakkab huquqiy institutning subyektlari kim?

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi” qonunining 3-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin. [3]

Demak, joriy qonunning asosiy subyekti bu fuqarolar yoki ular tomonidan tashkil etilgan turli ko‘rinishdagi nodavlat tashkilotlar bo‘lib, ayni shu va boshqa subyektlar ijtimoiy faollik ko‘rsatish orqali o‘z huquqlaridan foydalangan holda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin. Shunday ekan, dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlaridagi singari rivojlangan jamoatchilik nazoratini tashkil etish uchun avvalo, fuqarolar va ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy, huquqiy va siyosiy sohadagi rolini oshirish lozim. Ayni shu o‘rinda aniqlik kiritilishi kerak bo‘lgan bir savol paydo bo‘ladi. Ya‘ni, jamoatchilik nazorati shakllari. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi” qonunining 6-moddasiga ko‘ra, [4] jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar;

davlat organlarining ochiq hay‘at majlislarida ishtirok etish;

jamoatchilik muhokamasi;

jamoatchilik eshituvi;

jamoatchilik monitoringi;

jamoatchilik ekspertizasi;

jamoatchilik fikrini o‘rganish;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. [5]

Jamoatchilik nazorati qonunchilikka muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Shu o‘rinda, jamoatchilik nazorati obyektlari ham aniq qonunchilik hujjatlarida keltirib o‘tilishi muhimdir. [6] Bularga quyidagilar kiradi:

Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta‘minlashga;

o‘z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo‘lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga;

davlat xizmatlarini ko‘rsatishga;

ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyektidir. [7]

Albatta, yuqorida sanab o‘tilgan huquqiy normalar ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Ayni shu kabi qonunlar sabab so‘nggi yillarda O‘zbekistonda inson huquqlari sohada bir qator yutuqlarga erishildi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
 2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018 yildagi O‘RQ-474-son
 3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018 yildagi O‘RQ-474-son
 4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018 yildagi O‘RQ-474-son
 5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018 yildagi O‘RQ-474-son
 6. *M.M.Inagamova.* Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
- M.M.Inagamova.* Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta‘minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (*tahliliy-statistik ma’lumotlar asosida*). Multidisciplinary Scientific Journal.



O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA SAYLOV TIZIMI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti (PhD), dotsent

Asilbek Yoqub o'g'li Bektoshev

Toshkent davlat transport universiteti 2- bosqich talabasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning XXII bobi «Saylov tizimi» deb nomlangan. Saylov tizimi demokratik prinsplar va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga asoslangan. Mazkur tizim to'liq huquqiy jihatni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu bob mohiyatini to'la-to'kis tushunish uchun Konstitutsiyamizning ikkinchi bobidagi 7-moddaga e'tiborimizni qaratamiz. Unda quyidagilar bayon etilgan: «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir»

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi ...» (128-modda)

Shu bilan bir qatorda « ...O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalari tizimiga boshchilik qiladi, o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga amal qiladi.»(129-modda)

Demokratik saylov tizimi mustaqil O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligini, fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqlarini amalga oshirishning eng muhim mehanizmlaridan biridir. Xalqning hokimiyat bilan uzviy aloqasi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini keng ifoda etish, mazkur organlarning saylovchilar, turli siyosiy kuchlar va vakillik organlari oldidagihisobdorligi ayni saylov tizimi orqali ta'minlanadi.

Konstitutsiyaga binoan mamlakatimizda prezident saylovi, oliy majlis va mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari saylovi umumiy, teng va tog'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida o'tkaziladi.

Saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda fuqarolar deb



yuritiladi) saylash huquqiga egadir. [1]Asosiy qonunda ijtimoiy kelib chiqishi, irqi va milliy mansubligi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, muayyan joyda qanchadan beri yashayotganligi yoki mashg'ulotining turiga qarab, fuqarolarning saylov huquqlarini cheklash taqiqlangan. Faqatgina sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylovda qatnashmaydilar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lmish harbiy xizmatchilar va ularning harbiy qismda yashaydigan oila a'zolari, mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari va vakolatxonalarida ishlayotganlar, ovoz berish kuni muayyan xorijiy mamlakatda shuningdek, sanatoriyalar va dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa satsionar davolash muassasalarida, olis va borish qiyin bo'lgan joylardagi fuqarolarning yashash joylarida bo'lib turgan respublikamiz fuqarolari ham teng saylov huquqiga egadirlar.

Saylov huquqi tengligi: har bir saylovchi faqatgina bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi, faqat bitta ovozga ega bo'lib, saylovda teng asoslarda qatnashishi mumkinligida o'z ifodasini topgan. Bu borada tenglik saylov okruklarini saylovchilar sonining barobar bo'lishi qoidasi asosida tuzish bilan ham ta'minlanadi. Bir saylov okrugidagi boshqa okrugdagi saylovchilarning ovoziga amalda teng bo'lishiga shu zaylda erishiladi.

Har bir fuqaroning saylovchilar ro'yxatiga kiritilmaganligi, noto'g'ri kiritilganligi yoki undan chiqarib yuborilganligi ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. [2]

Saylovoldi tashviqoti — saylov partiyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni, nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir. Saylovoldi tashviqoti ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e'tiboran boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqot o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish taqiqlanadi. Noto'g'ri axborotni, shuningdek nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.[3]

Janubiy Afrika saylov tizimi hukumat tarkibiga vakillarni saylashning turli usullari, jumladan, mutanosib vakillik tizimi va okrugga asoslangan tizim mavjud. Janubiy Afrika Konstitutsiyasi saylovlar proporsional vakillik tizimiga asoslanishi kerakligini aytadi.

Proportsional vakillik (PR). Bu shuni anglatadiki, partiyalar saylovda olgan ovozlari foiziga ko'ra parlamentda ma'lum miqdordagi o'rinlarni oladi. Masalan, agar sizning partiyangiz mamlakatdagi barcha ovozlarning 15 foizini olgan bo'lsa, u parlamentdagi o'rinlarning 15 foizini oladi. Milliy parlamentda 400 ta o'rin bor. Demak, har 0,25% ovoz uchun partiya 1 ta o'rin oladi.

Okrug asosidagi saylovlar. Ushbu tizim Buyuk Britaniya va Zimbabve kabi ba'zi mamlakatlarda qo'llaniladi. Ushbu tizimga ko'ra, mamlakat saylov okruglari deb ataladigan saylov uchastkalariga bo'lingan. Har bir siyosiy partiya har bir saylov okrugida partiyadan vakillik qilish uchun bir kishini saylaydi. Bu shaxs partiyaning nomzodi deb ataladi. Faqat shu okrugdagilar o'zlari tanlagan nomzodga ovoz beradi. Eng ko'p ovoz olgan nomzod parlamentga o'sha okrug bo'yicha vakil sifatida kiradi. Yo'qotilgan nomzodlar uchun berilgan ovozlar behuda hisoblanmaydi.

Ko'pchilik saylov okrugi tizimini yaxshi ko'radi, chunki odamlar o'zlari javobgar bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs tomonidan saylanadi. Tizimning kamchiliklari shundaki, kichikroq partiyalar hech qanday o'ringa ega bo'lmaydi va ular uchun berilgan ovozlar tushib ketadi. Janubiy Afrikada konstitutsiyaviy muzokaralar chog'ida barcha partiyalar hatto eng kichik partiya ham parlamentda vakillik olishi uchun PR tizimini qabul qilishimiz kerak degan fikrga kelishdi.

Saylovchilarning huquqlari. Ho'sh kimlar ovoz berishi mumkin? Saylovda ro'yxatga olingan saylovchilar bo'lgan, 18 yoshdan oshgan barcha Janubiy Afrika fuqarolari ovoz berish huquqiga ega. Ovoz berish uchun sizga ID kitobi kerak.

Ro'yxatdan o'tish quyidagicha ishlaydi: Saylovchi fuqaroga shtrix kodli yashil ID kitobi (1986-yildan keyin chiqarilgan) yoki vaqtinchalik guvohnoma kerak.

Ro'yxatga olish kunida (yoki oddiy ish kunida shahar idorasiga) ovoz berish uchastkasiga borish va ushbu hududda yashayotganligini ko'rsatish uchun anketani to'ldirish kerak.

Har bir ovoz berish okrugida maxsus elektronik mashina (nomi:Zip –Zip) mavjud bo'ladi – u saylovchining shaxsiy guvohnomasidagi shtrix kodni o'qiy oladi va u saylovchining ismini va saylovchilar ro'yxati uchun ID raqami haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni avtomatik ravishda yozib oladi.

Mashina, shuningdek, saylovchining o'sha saylov uchastkasida ro'yxatdan o'tganligini ko'rsatish uchun shaxsiy guvohnomasiga yopishtiriladigan stiker ham chop etadi.

Mustaqil saylov komissiyasi butun saylovchilarni bitta milliy kompyuterda yig'adi va saylovchi ro'yxatdan o'tganida kompyuter uning ID raqamini boshqa joyda ro'yxatdan o'tganmi



yo`mi tekshiradi. Agar ro`yxatdan o`tgan bo'lsa, kompyuter sizning eski ovoz berish okrugida ro'yxatdan o'tishingizni avtomatik ravishda bekor qiladi va faqat oxirgi ro'yxatga olishni qabul qiladi. [4]

Muxtasar qilib aytganda, saylov tizimi yangi O`zbekistonning asosiy belgilaridan biri bo`lib, u orqali davlatning rivoji, istiqboli hamda taraqqiyoti namoyon bo`ladi. Demokratik davlatda xalq amaldorga emas balki, amaldor xalqqa xizmat qilishi joizdir. Bu xalqning o`z xohish-irodasini bildirishi, fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etishning asosiy shaklidir. O`zbekistonda siyosiy davlat va huquqiy sohalarning rivoji, qadam-baqadam islohotlar qilinishi natijasida eng yuksak demokratik talablarga javob beradigan saylov tizimi yaratildi. Bunga qo`shimcha tarzda saylov uchastkalarida ovoz yig`ish jarayonini elektronik tizimda ya`ni har bir saylov okruglarida maxsus elektronik mashina ID yoki biometrik passportni ro`yxatdan o`tkazish orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad saylovning shaffof tarzda o`tishi, saylovchi boshqa saylov uchastkasiga borib qayta saylash qilmasligi uchundir.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasining saylov kodeksi 1-bob. Umumiy qoidalar. 4 modda. Umumiy saylov huquqi ikkinchi bandi.
2. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga sharh. Toshkent “O`zbekiston” 2001. 548-549-betlar
3. O`zbekiston Respublikasining saylov kodeksi 9-bob. Saylovoldi tashviqoti 44-modda. Saylovoldi tashviqotini olib boorish
4. M.M.Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: IJTIMOYIY JIHATDAN HIMOYAGA MUHTOJ SHAXSLARNING HUQUQLARI HIMOYASI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Behzod Boymurodov

Toshkent davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Hozirgi kunda qabul qilingan va amalda bo'lgan qununchilik hujjatlari, nortmativ huquqiy hujjatlar ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad etib qo'ygan. Eng avvalo ijtimoiy himoya nima? Bu qatlamga qanday shaxslar kiradi va qanday qatlamni o'z ichiga olishi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Ijtimoiy himoya-davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli taminlanmaganligi tufayli, yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar tog'risidagi g'amxo'rliigidir. Quyidagilar qunun hujjatlarida keltirilgan tartibda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar deb topiladi:

- nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalar;
- o'z galar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakil;
- qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;
- qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan vafot etgan shaxsning qaramog'idagi oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolari;
- qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi shaxslar hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor (bo'lgan) onalar. [1]

Yuqorida aytib o'tganimizdek ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning huquqlari ve erkinliklari davlat tomonidan himoya qilinadi. Bunga, yaqinda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaqqol misol qilib keltirsak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi



Konstitutsiyasining 57-moddasida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar haqida batafsil urg‘u berib o‘tilgan. Bundan tashqari nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi balki Mehnat kodeksida ularning mehnat faoliyati huquqiy muhofazasi belgilanganligi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda voyaga yetmagan farzandning onasi ekanligi yengillashtiruvchi holat sifatida berilganligi, Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda tartibga solinishi, Jinoyat kodeksida qo‘riqlanishi va yolg‘iz onalarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar og‘irlashtiruvchi holat sanalishi kabi alohida jihatlariga etibor qaratish orqali huquq va burchlar belgilab o‘tilganligi guvohi bo‘lazzmiz. Shu o‘rinda yuqorida keltirib o‘tilgan qonun hujjatlaridan biriga qisqacha e‘tibor qaratib o‘tsak. Mehnat kodeksidagi ushbu bobida ya‘ni 25-bob. “Ijtimoiy va huquqiy jihatdan kuchli himoya qilinishga muhtoj shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari”. Ya‘ni aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning mehnat faoliyati to‘laqonli qonunan tartibga solingan. Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish maqsadida konstitutsiyaviy qonun hujjatlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi PQ4797 sonli “AHOLIGA DAVLAT IJTIMOY XIZMATLARI VA YORDAM TAQDIM ETISH TARTIB-TAOMILLARINI AVTOMATLASHTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORATADBIRLAR TO‘G‘RISIDA”gi qarorga muvohiq ijtimoiy himoya reystri tashkil etildi. Bunga qo‘shimcha ravishda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-sonli ”YOSHLAR MUAMMOLARINI O‘RGANISH VA HAL ETISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”gi qaroriga muvohiq “Yoshlar daftari jang‘armasi” loyihasi ishlab chiqildi. [2] Bundan ko‘zlangan maqsad aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini to‘liq o‘rganib [3] chiqib, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlashdan hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berishdan iboratdir. Ushbu masala keng muhokamalarda ko‘rib chiqilgan va hal etilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni aniqlash, ularni ro‘yxatini shakillantirish va qo‘llab quvvatlash maqsadida elektron platforma shakillantirilgan.

Elektron tizim loyihasi “Development Pathways” ixtisoslashtirilgan xalqaro kompaniyasi tomonidan yaratildi va u orqali 9 ta tegishli vazirlik, idoraning ma‘lumotlar bazalari bilan real vaqt rejimida elektron almashuvi asosida axborotlarning olinishi yo‘lga qo‘yildi. [4]

Shu asosda kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam berish jarayonlari tubdan soddalashdi. Ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash yoki rad etish to‘g‘risidagi



qaror inson omilisiz axborot tizimi tomonidan qabul qilinadi va natijasi bo‘yicha ariza beruvchining telefoniga tegishli SMS-xabarnoma yuboriladi.

Tizimni hayotga tatbiq etishda jaxon tajribasi o‘rganildi va o‘rganishlar davom etmoqda. O‘rganish natijalari bo‘yicha axborot tizimi takomillashtirib boriladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar faqatgina bizning mamlakatimizda mavjud emas. Butun yer sharida mavjud barcha davlatlarda ijtimoiy himoya tushunchasi keng qo‘llaniladi. Ko‘plab mamlakatlar uzoq vaqtlardan beri ijtimoiy imtiyozlar va xizmatlarni oluvchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni birlashtirish hamda mahalliy ma‘lumotlar bazalari bilan masofadan turib ishlashga imkon beradigan yaxlit axborot tizimlarini yaratish yo‘lini bosib o‘tgan, - deydi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetsoliq tadqiqotlari instituti mutaxassisi Jalil Boykalonov. [5] Albatta, har qanday qonun hujjati, iqtisodiy rejalar yillar davomida bir necha bosqichlardan iborat rivojlanish davrini bosib o‘tadi. Hech nima o‘zo‘zidan paydo bo‘lip qolmaydi. Ijtimoiy himoya masalasi yuzasidan olib borilayotgan tizimli loyihalar turli davlatlarda turlicha natija ko‘rsatmoqda. Ularning bir qanchasida ijtimoiy himoya yagona reyestri ta‘minot zanjiri vazifasini o‘tayotgan bo‘lsa, boshqalarida bu tizim murojaatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va fuqarolarning bir yoki bir nechta ijtimoiy nafaqaga muvofiqligini aniqlash ishlarini bajarib kelmoqda.

Ular inklyuziv tizim sifatida ham ijtimoiy siyosat hamda axborot manbai ko‘rinishidagi amaliyot roliga ega. Hozirgi kunda 20 dan ziyod mamlakatda (Ozarbayjon, Braziliya, Chili, Xitoy, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Gruziya,

Indoneziya, Makedoniya, Mali, Meksika, Chernogoriya, Pokiston, Filippin, Senegal, Turkiya, Yaman va boshqa davlatlarda) har xil ko‘rinishda ijtimoiy himoya reyestrlari axborot tizimi mavjud. [6]

Biroq ular faoliyatida reyestrlarni boshqarish va ishlatish, shuningdek, qamrov darajasi hamda axborot tizimlari bazasini yuritish ishlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Belgiya aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimining boshqaruv modeli dastlab markazlashmagan, endilikda esa, yuqori darajada birlashtirilgan ma‘lumotlar bazasiga ega. U ijtimoiy himoya dasturlaridan olingan axborotlarni emas, balki ijtimoiy sektor subyektlari tomonidan to‘plangan ma‘lumotlarni qamrab olgan.

Belgiya rejalashtirish idorasining tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu tizimning joriy etilishi ijtimoiy idoralar uchun ma‘muriy xarajatlarni yiliga 1,7 milliard yevrogacha tejash imkonini berdi va 220 turdagi qog‘oz hujjatlar bekor qilindi. Bu tizim mamlakatda 30 yildan ortiq vaqt mobaynida samarali ishlab kelmoqda. Ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj



shaxslarni qo‘llab quvvatlash orqali mamlakatda qaysidir tomonlama iqtisodiy o‘shishga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy jihatdan qo‘llab quvvatlash tizimi Respublikamiz qonunchiligida atroflicha organilini huquq va majburiyatlar asosida tizimlashtirilgan. Ammo tan olish kerakki ushbu tizim qaysidir hududlarda yoki qisman ishlamaydi yoki yuzaki ko‘z bo‘yamachilik uchun amalga oshiriladi. Vaholanki bundan hech qanaqa naf yo‘q. Bu tizimning kutilgan natija bermasligiga olib keladi. Ushbu o‘rinda xulosa qatorida o‘z taklifimni kiritib o‘tadigan bo‘lsam: ijtimoiy himoya tizimi yetarli darajada raqamlashtirilgan inson omili kamaytirilgan. Ana shu inson omili aralashuvi mavjud qismida faoliyat olib boruvchi shaxslarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish yoki rag‘batlantirish (moddiy yoki ma’naviy) orqali yanada samarali natijaga erishish. Ijtimoiy himoya reystiri, yoshlar daftari, ayollar daftari va hakozi kabi tizimlar orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam tarkibidan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lmagan qatlamga o‘tkazgan har bir fuqaro uchun bir martalik qo‘shimcha maosh to‘lash orqali amalga oshirilsa sezilarli darajada o‘zgarish bo‘ladi deb hisoblayman. Yoki teskarisi, jazo choralarini kuchaytirish orqali amalga oshirish. Ijtimoiy himoya tizimi anchayin mukammal tizim hisoblanadi, uning passivligiga mas’uliyatsiz yondashuv sababchi.

REFERENCES

1. M.M. Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
2. Mehnat kodeksi 2023 yil, yangi nashir
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.08.2020-y., 07/20/4797/1138-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.06.2021-y.) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 09/22/312/0493-son)
4. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab quvvatlashga doir tartib tamoyillar.
5. advice.uz, huquqiy axborot portal
6. Davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning statistik ma’lumotlari keltirilgan ilmiy maqolalar.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT TILI TO'G'RISIDAGI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSI

Inagamova Mafura Muxtarxanovna
(PhD), dotsent

Malika Bekmurod qizi Dilmurodova
Toshkent davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi

Har bir mamlakatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til – davlat tili hisoblanadi. Aytish joizki, ko'p millatli davlatlar konstitutsiyalarida qaysi davlat tili rasmiy til ekanligi belgilab qo'yiladi. Dunyo bo'ylab ko'plab davlatlarning rasmiy tili va davlat tili birxildir. Ammo ba'zi bir mamlakatlarning rasmiy tili davlat tilidan farqlanadi. Masalan, Shveysariya konstitutsiyasiga binoan nemis, fransuz, italyan tillari – rasmiy til, nemis, fransuz, italyan va retoroman tillari – davlat tili sanaladi. Xuddi shuningdek, malakatimizning Bosh Qomusida ham O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir deb belgilab qo'yilgan. [1]

Davlat tiliga bo'lgan e'tibor va uning ahamiyatlik darajasi xorijiy davlatlar misolida o'rganib chiqadigan bo'lsak, Germaniya davlati qonunchiligiga ko'ra rasmiy til sifatida nemis tili belgilangan. Agar davlat idoralariga fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan davlat tilidan boshqa tilda murojaat kelib tushadigan bo'lsa, mas'ul davlat organi ushbu murojaatni nemis tiliga tarjima qilinishini talab qiladi. Chunki, har qanday murojaatlar nemis tilidan boshqa tilda ko'rib chiqilmaydi.

Xuddi shuningdek, Fransiyada ham rasmiy til sifatida fransuz tili davlatning asosiy qonunchiligida belgilab qo'yilgan. Davlat tashkilotlari tomonidan ish yuritish fransuz tilida olib boriladi. Atamalarning fransuz tilidagi ma'nosi turganda, ingliz tili yoki boshqa tillardan foydalanish taqiqlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fransuz xalqining yarmidan ko'p qismi boshqa tillarda so'zlashadi. Qonun talablariga rioya qilmagan boshqa til peshlavhasi yoki yorlig'i yozilgan mulk musodara qilinishi mumkin.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Sobiq Sho'rolar davridagi Konstitutsiyada barcha millat va elatlarning teng huquqliligi aytilgan bo'lsa ham, ammo davlatning rasmiy tili - rus tili hisoblangan. Barcha turdagi ish qog'ozlari, gazetalar, telegramma va pochta rus tilida olib borilgan. Bunday holatlar rus tilini bilmaydigan xalqimiz uchun bir qancha



muammolarni keltirib chiqargan. Xuddi shunday davrlarda ma'rifatparvarlarimizning jonkuyarliklari bilan, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish g'oyasi ilgari surila boshlanadi va keng jamoatchilikka e'lon qilinadi. Nihoyat, 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining rasmiy tili deb e'lon qilindi. Shundan so'ng, barcha ish qog'ozlari, davlatning rasmiy hujjatlari o'zbek tilida yuritiladigan bo'ldi. Mazkur qonun o'zbek xalqi milliy ongining rivojlanishida, mustaqillikni yanada mustahkamlashda, milliy qadriyat va an'analarimizni tiklanishida muhim rol o'ynadi. [2]

“Davlat tili to'g'risida” gi qonun qabul qilgandan ikki yil o'tib, davlatimiz tarixida muhim voqea sodir bo'ldi. Dunyoning bir yuz yigirmadan ortiq davlati tomonidan tan olingan kun – O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Qisqa vaqt ichida respublikamizning jahon hamjamiyati oldidagi obro'si oshdi. Jumladan, 1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda yuz berayotgan jarayonlar Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan va har qanday ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga qarshi bo'lingan bir davrda qabul qilingan Davlat tili to'g'risidagi qonunning bir qancha moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taqozo qildi.[3] Buning natijasida 1995-yil 21-dekabrda 167-I-sonli “O'zbekiston Respublikasining Davlat tiliga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra o'zbek tilining davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilandi. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi barcha millat va elatlarga o'zbek tilini o'rganishi uchun shart-sharoit yaratish hamda boshqa millatlarning ona tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlandi.[4] Davlat tilini o'qitish esa bepul bo'lib, boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mustahkamlandi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 42-moddasiga muvofiq, Fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik ma'muriy huquqbuzarlikni keltirib chiqarishi belgilab qo'yilgan.

Ta'lim tarbiya ishlari o'zbek tilidan tashqari tojik, qozoq, rus, ingliz, koreys, turkman va qirg'iz tillarida ham amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi fuqarolar, qaysi til ularning ona tilisi bo'lishidan qat'iy nazar ular qonun

oldida tengdirlar. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi davlatimizda yashovchi fuqarolarning, millat va elatlarning o‘z ona tillarida so‘zlashishlariga monelik qilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta‘minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to‘laqonli qo‘llash bilan bog‘liq” [5] deb ta‘kidlab o‘tgan edi.

Bundan uch yil oldin Adliya vazirligi tomonidan davlat tilida ish yuritishni to‘la ta‘minlash maqsadida mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 42-moddasi “Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi” deb belgilab qo‘yilgan. [6]

Xulosa o‘rnida aytish joizki, davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlaydi. Shu asosda yurtimizda o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishiga doir ko‘plab ilmiy izlanishlar, loyihalar olib borilmoqda. Ayni paytda mamlakatimizdagi barcha nashriyot matbaa-ijodiy uyalarini tomonidan ona tilimizning jozibasini namoyon etishga doir nashrlar chop etilib, kitobxonlar e‘tiboriga havola etilayotganini alohida qayd etish lozim.

REFERENCES

1. til.gov.uz Isroilova Hurriyat Axrorovna Sharof Rashidov tumani hokimining maslahatchisi.
2. Konstitutsiyaviy islohotlar – ayol huquqlari himoyasining garovi // Konstitutsiya – tinchlik va taraqqiyot kafolati: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 27 yilligi bayramini nishonlash maqsadida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2019 yil 5 dekabr). –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. –B.121-125.
3. M.M.Inagamova. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta‘minlash va mahalla instituti



faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (*tahliliy-statistik ma’lumotlar asosida*). Multidisciplinary Scientific Journal.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 257-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2010-y., 37-son, 313-modda; 2011-y., 41-son, 449-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

5. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 31 yilligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning nutqi. 21.10.2022

6. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks. 22.09.1994.



BOSH QOMUSIMIZDA PROKURATURA ORGANLARINING HUQUQIY MAQOMI

Mafura Muxtarxanovna Inagamova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Doston Qahramonovich Abdunazarov

Toshkent Davlat transport universiteti, 2-kurs talabasi.

Prokuratura «lotincha *procurare* — „g‘amxo‘rlik qilish» degan manoni anglatsada, ayrim mamlakatlarda misol uchun: Fransiya, Shvetsiya, Germaniya, kabi davlatlarda, jinoiy ishlarni qo‘zg‘atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organi deb tariflanadi. [1]

Prokuraturaning kelib chiqishi qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Qadimgi Rimda "pretor" deb atalgan davlat xodimi bo‘lib uning roli jinoiy ta‘qiblarni nazorat qilish va jamoat tartibini saqlashdan iborat edi. Xuddi shunday, Qadimgi Yunoniston va Babil jamiyatlarida davlat nomidan jinoyatlarni ta‘qib qilish uchun mas‘ul amaldorlar bo‘lgan. Qadimgi Yunonistonda ham prokuror vazifasini bajaruvchi “eutinoy” nomi bilan mashhur davlat amaldorlari bo‘lgan. Qadimgi Rimda Rim respublikasi jinoiy ishlarni ko‘rib chiqish uchun dastlab “queestiones” deb nomlanuvchi xususiy fuqarolarga tayangan. [2] Qadimgi Misr yoki Mesopotamiya kabi boshqa qadimgi sivilizatsiyalarda huquqiy tizimlar diniy va odat qonunlariga asoslangan. Ushbu dastlabki huquqiy tizimlar jinoyat protsessida davlat manfaatlarini ifoda etish tamoyilini o‘rnatib, zamonaviy prokuratura organlariga asos soldi. O‘rta asrlar va erta yangi davrda prokurorlar toj yoki monarxning vakillari sifatida paydo bo‘ldi. Ularning asosiy vazifasi qonunni himoya qilish va davlat manfaatlarini himoya qilish edi. Feodal Yevropada prokurorlarning roli qirollik adolati tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tojga qarshi sodir etilgan jinoyatlar tegishli tarzda javobgarlikka tortilishini ta‘minlagan. Bu davrda prokuraturaning kelajagini belgilovchi huquqiy asoslar va tartiblar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari Napoleon kodeksi kontinental Yevropada prokuratura rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Kontinental Yevropadan farqli o‘laroq, umumiy huquq, huquq tizimlari (common law), shu jumladan AQSh va Buyuk Britaniyadagi prokuratura organlarida o‘ziga xos xususiyatlarni ishlab chiqdi. [3]



Dastlab XIII-XIV asrlarda Fransiyada yuzaga kelgan. Bir qancha mamlakatlarda Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsariya davlatlarida Prokuraturaga barcha fuqarolar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning qonunlarni aniq va bir xilda bajarishi ustidan nazorat qilish vazifasini yuklangan mansab egalari shakllantrildi. Yuqoridagi mamlakatlarda Prokuratura sudning tarkibiy qismi hisoblanadi, boshqalarida esa tashkiliy jihatdan undan ajratilgan. [4]

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining tarixiy huquqiy asosiga to‘xtalishdan oldin, prokuratura organlarining kelib chiqish tarixiga to‘xtalib o‘tsak.

Prokuratura - bu davlat tomonidan o‘rnatilgan konstitutsiyaviy qonunlarga rioya qilinishi ustidan narozat qiluvchi organ xisoblanadi. Jinoiy ishlarni qo‘zg‘atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organi xam xisoblanadi. «Qonun qabul qilish — bu ishning yarmi, xolos. Ularning hayotga to‘la tatbiq qilinishiga erishish darkor. Buning uchun qabul qilingan qonunlarning kundalik turmushimizda amalga oshishini ta‘minlovchi ta‘sirchan mexanizm yaratish lozim» [5] Bu fikrlari bilan muhtaram birinchi prezidentimiz prokuratura organlarining, jamiyatdagi roli haqida tushuntirib o‘tganlar. Prokuratura xodimlari ishlab chiqilgan qonunlarning amalga tadbiiq etilishida roli kata desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dastlab 1992-yil 8-yanvar kuni «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasini tashkil etish to‘g‘risida» PF-313-sonli farmon qabul qilinib ijroga kiritildi. [6]

Ushbu qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar [7] deb belgilandi.

Demak prokuratura organlari mamlakatda qonunlarning amal qilishi ustidan nazorat olib boradigan organ hisoblanadi.

Shu o‘rinda alohida takidlab o‘tish joizki, prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi; viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; tuman va shahar prokuraturalari; viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi; O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturalariga bo‘linadi. [8]

Qonunchilikka ko‘ra mamlakatimizda Bosh prokuror va uning birinchi o‘rinbosarini respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori lavozimini egallashi mumkin emas. [9] Ushbu moddada prokurorlarning tayinlanish muddati keltirib o‘tilgan unga ko‘ra prokurorlar besh yil muddatga tayinlanadi, ushbu moddani dunyo mamlakatlari qonunlari bilan taqqoslasak masalan; Turkiya Respublikasida Bosh prokurorning vakolat muddati Konstitutsiya va tegishli qonunlar bilan belgilanadi. Odatda 4 yil muddatga tayinlanadi. Uning vakolat muddati tugagach, u qayta tayinlanishi yoki boshqa lavozimga tayinlanishi mumkin. Bosh prokurorning mustaqilligi va xolisligi uning butun vakolat muddati davomida himoya qilinadi. [10] Ko‘rinib turibiki Turkiya respublikasi Bosh prokurori Mamlakatimiz prokurorlariga nisbatan bir yil muddatga kamroq vaqtga tayinlanadi. Malumot uchun Haydar Aliyev 1998-yil 17-iyulda Ozarbayjon Xalq Respublikasi Vazirlar Kengashining 1918-yil 1-oktabrdagi qaroriga asosan har yili 1-oktabrni Ozarbayjon Respublikasi prokuraturasi xodimlarining kasb bayrami sifatida nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Yana bir xorij davlati rivojlangan dunyo mamlakati Fransiyada: Milliy Bosh prokuror Vazirlar Kengashining qarori bilan, sudyalari Oliy Kengashining taklifiga binoan, davlat prokurorlari va sudyalari orasidan yetti yil muddatga yangilanib bo‘lmaydigan muddatga tayinlanadi. Uning tayinlanishi har bir parlament assambleyasida berilgan ovozlarning beshdan uch qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan oldindan tasdiqlanishi kerak. [11]

Bosh qomusimizning 145-moddasida O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari o‘z vakolatlarini boshqa davlat organlaridan, o‘zga tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga bo‘ysungan holda amalga oshiradi degan qoida mustahkamlanganligi so‘zimizning isbotidir. [12]

Shu o‘rinda takidlash lozimki, prokuratura organlarining vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a‘zolikni to‘xtatib turadilar xamda mazkur organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. [13]

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil etish jarayonida quyidagi xolatlarni takidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari prokuraturasining faoliyat strukturasi xaqida professor Anjela.J.Devies quyidagilarni takidlaydiki. Prokurorlar Amerika jinoiy adliya tizimidagi eng kuchli amaldorlardir. Ular qabul qiladigan qarorlar, ayblov va sud qarorlari tizimning ishlashini nazorat qiladi va ko‘pincha jinoiy ishlarning natijalarini oldindan belgilab beradi. Uning fikricha,



prokuratura hokimiyati keng va cheksizdir. Bundan tashqari, eng muhim prokuror qarorlari yopiq eshiklar ortida - jamoatchilik nazoratidan uzoqda qabul qilinadi.[14]

Yangi O'zbekiston konstitutsiyasida prokuratura organi xodimlarining vazifalari, xizmat jarayoni va javobgarlik masalalari aniq qilib belgilab berilganligi xaqida alohida takidlash o'rinlidir.

Yana bir muhim masala Konstitutsiyamizning 146-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanishi davlat tomonidan nazoratga olingan.

Yangi, tergov va surishtiruv, tezkor-qidiruv organlarinin, xususiylashtirilishiga ruxsat etilmaydi. Biroq AQSH davlatida xususiy tergov firmalari tashkil etish uchun ruxsat etiladi. [15] Shuningdek xususiy tergovchi - bu jismoniy shaxs, agentlik yoki korporatsiya tomonidan boshqa shaxs, tadbirkorlik sub'ekti, odamlar guruhi yoki hatto joylashgan joy haqida ma'lumot to'plash uchun yollangan shaxs xisoblanadi. Tergovchining faoliyati mahalliy qonunchilik va shtat qonunlariga zid bo'lishi mumkin bo'lgan tergov sub'ektlariga asossiz ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash uchun tergov mutaxassislari tomonidan ma'lum qoidalar va qoidalarga rioya qilish kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki prokuratura organlari mamlakatimizda qonunlarning ijro etilishi va ularga qat'iy amal qilishi ustidan nazorat olib boriladi. Bu haqida Bosh qomusimizda batafsil ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari «Prokuratura to'g'risidagi qonun»da ham prokuratura xodimlarining xizmat vazifalari, majburiyatlari sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat, ekanligi belgilangan.

REFERENCES

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
<https://uz.wikipedia.org/wiki/Prokuratura>
2. Bahodirov Muhammad Umedjon o'g'li. Prokuratura organlarining kelib chiqishi tarixi va huquqiy asoslarning o'ziga xos xususiyatlari
<http://www.newjournal.org/>



3. Bahodirov Muhammad Umedjon o‘g‘li. <http://www.newjournal.org/>
4. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Prokuratura>
5. I.A . Karimov. Xalqimiz jipsligi — tinchlik , taraqqiyot garovi. (Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliv Majlisining o‘n ikkinchi sessiyasidagi ma’ruza , 1998-yil 28-avgust.) T ., « O‘zbekiston», 1998, 7-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasining 09.12.1992 y. 746-XII-son "Prokuratura to‘g‘risida"gi Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001 yildagi 257-II-son
8. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
9. Turkiya prokurorining vazifalari. <https://jawoo.com/cumhuriyet-bassavcisi-nerede>
10. <https://www.senat.fr/leg/pp120-388.html>
11. M.M. Inagamova. M.E.Fahriddinov. Konstitutsiya – inson qadri va adolat ustuni / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1 <https://tstu.uz/>. Tashkent State Transport University The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life. Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. 324-329-b.
12. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
13. **Anjela, J. Davis**, “Amerika prokurorining vakolati va ixtiyori” <https://journals.openedition.org/droitcultures/1580?lang=en>
14. Xususiy tergov xizmatidan foydalanish. Regina Strait tomonidan tahrirlangan, Esq. <https://www.peoples-law.org/using-private-investigation-service>
15. Xususiy tergovchi qila oladigan va qila olmaydigan narsalar. <https://privin.net/what-can-a-private-investigator-do-and-not-do/>



CONTENS | MUNDARIJA

1. Masharipov, M.N (2023). YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANING YOSHLARGA VA KELAJAK AVLODGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA SODIQLIK RUHIDA TARBIYALASHGA KO'MAKDOSHI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 9-11.*
2. Dadasheva, A. A., & Nosirov, R. O (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA MAHALLIY IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 12-21.*
3. Egamberdieva, N., Soliyev D. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VORISLIK HUQUQI SUB'EKTLARI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 22-26.*
4. Yuldashev, B. E. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZ KAFOLATI. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolat, 4(1), 27-30.*
5. Inagamova, M. M. Mirzayev, I.B. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI «INSON QADRI UCHUN» TAMOYILINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 31-38.*
6. Jo'raboev, N. Y. Mirzayev, I.B.(2023). DINIY BAG'RIKENGLIKNING HUQUQIY ASOSLARI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 39-43.*
7. Yunusova, N. S., & Azimov, S. A. (2023). O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARNING O'RNI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 44-47.*
8. Sharipova, G. S. (2023). MAMLAKATIMIZDA BOLALAR VA YOSHLARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 48-56.*
9. Касымова, А. А. (2023). ПРАВА И ЗАКОННЫЕ ИНТЕРЕСЫ ЖЕНЩИНЫ. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolat, 4(1), 57-61.*
10. Темирова, С. В. (2023). ИСТОРИЧЕСКАЯ АНАЛИЗ ПЕРИОДИЗАЦИИ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 62-67.*
11. Yuldashev, B. E., Muzaffarov, T. I., & Matsapaev, D. S. (2023). KONSTITUTSIYADA TA'LIM QONUNCHILIGI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 68-71.*
12. Dadasheva, A. A., & Salimova, O. V. (2023). ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И РЕЗУЛЬТАТ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМ В ЗАКОНОДАТЕЛСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 72-79.*



CONTENS | MUNDARIJA

13. Сатибалдиева, М. Д., & Гайбуллаева, С. А. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYADA IJTIMOY MASALALARNING HUQUQIY JIHATDAN KAFOLATLANISHI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 80-83.*

14. Dadasheva, A. A., & Eshpo'latov, S. J. (2023). O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARI HIMOYASINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 84-89.*

15. Dadasheva, A. A., & Allanazarov, S. K. (2023). KONSTITUTSIYADA BELGILANGAN XAVFSIZLIK VA MUDOFAA TIZIMLARI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 90-95.*

16. Inagamova, M. M., & Xodjayev, F. S. (2023). YANGI O'ZBEKISTONNING MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SALOHİYATI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 96-99.*

17. Egamberdiyeva, N. X., & Beknazarov, I. (2023). FUQAROLIK PROTSESSIDA SUD BUYRUG'INI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 100-103.*

18. Inagamova, M. M., & Qudratov, M. A. (2023). YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA SUD HOKIMIOYATI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya 104-107.*

19. Inagamova, M. M., & Fayziyev, A. R. (2023). YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 108-111.*

20. Egamberdiyeva, N. X., & Rahmatullayev, R. I. (2023). YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA MUDOFAA VA XAVFSIZLIK: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 112-118.*

21. Egamberdiyeva, N. X., & O'ktamov, A. U. (2023). OTALIKNI BELGILASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 119-124.*

22. Egamberdiyeva, N. X., & Fahriddinov, M. E. (2023). MULK HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 125-129.*

23. Egamberdiyeva, N. X., & Kamoljonov, J. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA TURDOSH HUQUQLAR HIMOYASINING AYRIM MUAMMOLAR. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya, 130-135.*



CONTENS | MUNDARIJA

24. Egamberdiyeva, N. X., & Yo'ldosheva, F. S. (2023). XUSUSIY MULK HUQUQINING KAFOLATLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 136-141.
25. Dadasheva, A. A., & Abdinazarova, F. O. (2023). YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYADA YORITILGAN OILA MASALALARI VA UNING HUQUQIY MAQOMI. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolat*, 4(1), 142-145.
26. Kasimova, A. A., & Xamdaliyev, J. B. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – FUQAROLIK JAMIYATI VA XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISHNING HUQUQIY KAFOLATI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 146-151.
27. Yuldashev, B. E., Yusupov, B. B., & Abduqodirov, A. A. (2023). KONSTITUTSIYA ISLOHOTLARI INSON QADRI UCHUN. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 152-155.
28. Inagamova, M. M., & Zayniddinov, F. A. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUVERENITETINING HUQUQIY ASOSI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 156-160.
29. Inagamova, M. M., & Botirov, N. N. (2023). YANGI O'ZBEKISTONNING ZAMONAVIY TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 161-164.
30. Inagamova, M. M., & G'aybullayev, J. L. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: AYBSIZLIK PREZUMPSIAYSINING AYRIM JIHATLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 165-168.
31. Yuldashev, B. E., Qahhorov, B. Q., & Boynazarov, J. A. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATNING ASOSIY TAMOIYILLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 169-172.
32. Inagamova, M. M., & Yo'ldosheva, F. S. (2023). YANGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ERKINLIGI. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolat*, 4(1), 173-176.
33. Inagamova, M. M., & Ma'murova, Y. Q. (2023). BOSH QOMUSIMIZDA SOLIQLAR VA YIG'IMLARNING HUQUQIY ASOSLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 177-181.
34. Inagamova, M. M., & Normurodov, S. S. (2023). O'ZBEKISTONDA ADVOKATURANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 182-185.



CONTENS | MUNDARIJA

35. Inagamova, M. M., & Karimov, F. T. (2023). YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA TASHQI SIYOSAT (XALQARO VA MILLIY TAJRIBA). *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 186-189.*
36. Inagamova, M. M., & Qodirova, K. A.. (2023). YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI BOLA HUQUQLARI HIMOYASINING HUQUQIY ASOSI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 190-195*
37. Jo'raboev, N. Y., Kalbaev, S. K., & Ismoilova, K. U (2023). MILLATLARARO MUNOSABATLAR MUVOZANATINI TA'MINLASH – BARQARORLIK GAROVI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 196-200.*
38. Jo'raboev, N. Y., Januzakova, D. B., & Boltaeva, Z. E. (2023). MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH TIZIMIDA MILLIYMADANIY MARKAZLARNING O'RNI VA AHAMIYATI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 201-204.*
39. Jo'raboev, N. Y., Toshimova, N. O., & Ro'zimurodova, G. B. (2023). O'ZBEKISTONDA YAGONA OILA TUYG'USINI MUSTAHKAMLASHDA DO'STLIK JAMIYATLARINING O'RNI VA AHAMIYATI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 205-209.*
40. Malikov, B., & Muxammadinova, K. N. Umirzoqov A.A (2023). HUQUQIY BARKAMOLLIK VA MA'NAVIYAT. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 210-214.*
41. Malikov, B., Avazxanov, J. A., & Fayziraxmanov, D. F. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA XUQUQIY ONGNING AHAMIYATI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 215-218.*
42. Malikov, B., Xayrullayev, B. N., & Qosimov, Z. B. (2023). HUQUQIY NIGILIZMNING IJTIMOIIY XAVFI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 219-222.*
43. Malikov, B., Ziyayev, O. U., & Azamatova, P. A. (2023). HUQUQIY MADANIYAT - HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING MUHIM OMILI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 223-227.*
44. Malikov B, Ziyayev O., Azamatova P. (2023). ADOLATLI JAMIYATDA ODIL SUD SIFATI. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati“ mavzusidagi konferensiya, 228-232.*
45. Kasimova A., To'rayeva N. (2023). XOTIN-QIZLARNING HUQUQ VA MANFAATLARI QONUN HIMOYASIDA. *»O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati« mavzusidagi konferensiya 233-238.*

CONTENS | MUNDARIJA

46. Yuldashev, B. E., Xidirova, S. T., & Otaqulova, M. R. (2023). OILANI MUSTAHKAMLASH VA HIMOYA QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 239-242.

47. Yuldashev, B. E., Shokirova, L. F., & Sulaymonova, M. T. (2023). KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 243-246.

48. Yuldashev, B. E., Shokirova, L. F., & Sulaymonova, M. T. (2023). INSON SHA'NI VA QADR – QIMMATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 247-254.

49. Inagamova, M. M., & Muhtorjonov, A. U. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY TA'LIM MUASSASALARININIG HUQUQIY ASOSLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati» mavzusidagi konferensiya 255-258.

50. Inagamova, M. M., & Sag'dullayev, I. S. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLARNI SIYOSIY HUQUQLARINING AYRIM JIHATLARI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 259-262.

51. Inagamova, M. M., & Egamberganov, A. R. (2023). YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI KONSTITUTSIYASI: EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING HUQUQIY POYDEVORI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 263-273

52. Inagamova, M. M., & Erkinjonov, F. N. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA YANGI KONSTITUTSIYA ORQALI HUQUQIY YANGILANISH. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 274-278

53. Inagamova, M. M., & Ashurov, A. S. (2023). YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA DAVLAT ORGANLARI VA JAMOATCHILIK NAZORATI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 279-281.

54. Inagamova, M. M., & Bektoshev, A. Y. (2023). O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA SAYLOV TIZIMI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 282-285.

55. Inagamova, M. M., & Boymurodov, B. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: IJTIMOY JIHATDAN HIMOYAGA MUHTOJ SHAXSLARNING HUQUQLARI HIMOYASI. »O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati" mavzusidagi konferensiya, 286-289.

CONTENS | MUNDARIJA

56. Inagamova, M. M., & Dilmurodova, M. B. (2023). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT TILI TO‘G‘RISIDAGI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSI. »O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 290-293.
57. Inagamova, M. M., & Abdunazarov, D. Q. (2023). BOSH QOMUSIMIZDA PROKURATURA ORGANLARINING HUQUQIY MAQOMI. »O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” mavzusidagi konferensiya, 294-298.

